



УДК:81-2

Орифжон БАРНОЕВ,
Преподаватель Навоийского государственного университета
E-mail: arifbarnoev@mail.ru

На основании рецензии доцент С.Хасанова

SUBSTANTIVE SENTENCES IN ENGLISH

Annotation

Substantive sentences are one of the numerous groups of nominal one-member sentences in the English language. This article examines the semantic and constructive-syntactic features of substantive sentences in modern English.

Keywords: substantive, noun, declarative sentences, structure, nominal, function.

INGLIZ TILIDA SUBSTANTIV GAPLAR

Annotatsiya

Substantiv gaplar ingliz tilidagi nominal bir bosh bo‘lakli gaplarning ko‘p sonli guruhlaridan biridir. Ushbu maqola zamonaviy ingliz tilidagi substantiv gaplarning semantik va konstruktiv-sintaktik xususiyatlarini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: substantiv, ot, darak gaplar, nominal gaplar, funktsiya.

СУБСТАНТИВНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Субстантивные предложения являются одной из многочисленных групп именных односоставных предложений в английском языке. В данной статье рассматриваются семантические и конструктивно-синтаксические признаки субстантивных предложений современного английского языка.

Ключевые слова: субстантив, имя существительное, повествовательные предложения, структура, назывные, функция

Введение. Односоставные предложения, главный член которых выражен именем существительным (субстантивом), представляют одну из самых типичных и многочисленных групп именных односоставных предложений в современном английском языке, характеризующихся разнообразием значений этих предложений и их конструктивно-синтаксических особенностей. Именно поэтому на значениях и их конструктивно-синтаксических признаках мы и строим анализ каждого из модально-семантических подтипов односоставных предложений.

Методы. Внутри каждого из морфологических типов все односоставные предложения целесообразно разделить по модально-семантическому признаку, т.е. по содержанию и цели высказыванию, по характеру выражаемого в предложении отношения к действительности. В связи с этим в субстантивном типе можно выделить четыре подтипа: повествовательные, побудительные, вопросительные и восклицательные предложения.

Повествовательные субстантивные предложения являются самой распространенной группой односоставных предложений в английском языке, в которых утверждается или отрицается существование, наличие определенных фактов, предметов, явлений, даются описание, характеристики и оценка известных лиц, событий, явлений, предметов.

Повествовательные предложения поэтому наиболее употребительны в драматических произведениях для описания декорации, обозначения места и хода событий, а также в художественных произведениях при описании природы и событий и в несобственно-прямой речи. Нельзя, однако, отметить и тот факт, что повествовательные предложения встречаются также в разговорной речи, главным образом, монологической

речи, когда говорящий констатирует наличие или отсутствие какого-то факта или делает об этом факте определенное заключение или вывод.

Основными значениями, которые получают свое выражение в повествовательных предложениях, являются утверждение или отрицание какого-то факта. Такие предложения обычно именуется назывными. Beautiful day - Прекрасный день; The wind, probably (J. Galsworthy, Plays) - Ветер, наверное; Apple, cherry, strawberry - Яблоки, вишня, клубника.

Интересна и своеобразна структура таких односоставных предложений типа: "Devil of a mess on the staircase, waiter, - said the stranger, - lamps, glasses, harps." - «На лестнице чертовски беспорядок, официант, — сказал незнакомец, ... — лампы, стаканы, арфы». В этом примере односоставное предложение состоит из трех однородных главных членов и входит в структуру сложносочиненного предложения. Наличие нескольких главных членов внутри одного односоставного предложения придает значению этого предложения не просто оттенок перечисления, но динамичность, быстроту, что способствует более яркому изображению суеты и суматохи.

Гораздо чаще главный член односоставного предложения бывает распространен и осложнен разного рода осложняющими компонентами. Наиболее частыми и употребительными случаями использования распространенных повествовательных предложений являются такие предложения, в которых при главном члене имеется второстепенный член — определение. Примеры: Splendid morning (Прекрасное утро); A second pause (Вторая пауза); The new formula (Новая формула); An old school-fellow (Старый школьный товарищ).

Как всякое определение вообще, определение к главному члену именного односоставного предложения ограничивает лицо, предмет, явление и т.д., выраженное

главным членом, выделяет его из ряда подобных ему предметов, давая ему какую-то определенную или дополнительную характеристику или оценку.

В ряде случаев односоставное назывное предложение образуется только благодаря наличию второстепенного члена – определения, который создает основную семантическую характеристику предложения: *Severe weather* (Суровая погода); *Charitable contribution* (Благотворительный взнос).

Так, слово *weather* не может образовать односоставное предложение ни в контексте, ни в соединении с определенной интонацией в силу его лексической недостаточности.

Сюда же, по-видимому, примыкает другая структурная разновидность односоставного предложения типа: *Six o'clock* (Шесть часов); *Three hours* (Три часа). Главный член таких односоставных предложений выражен неразложимым сочетанием имени существительного и числительного.

Мы рассмотрели самые простые случаи структурного образования односоставных распространенных предложений с одним определением, стоящим в препозиции. Вместе с тем односоставное распространенное предложение может содержать несколько однородных второстепенных членов – определений, еще шире и многостороннее поясняющих главный член. *Funny little chap* (J. Galsworthy, *The White Monkey*) - Забавный маленький парень; *A crimson silk purse* (J. Galsworthy, *Plays*) - Пунцовый шелковый кошелек. *That dirty game* - Эта грязная игра; *These two people* - Эти два человека.

Интересны два последних примера, где второстепенные члены не только определяют или уточняют главный член, но подчеркивают и выделяют его. Это способствует, по-видимому, характер компонентов, выступающих в функции определений. В данных примерах это указательное местоимение, семантика которого требует сосредоточения внимания на том члене, к которому оно относится.

Такие предложения типа *Such a lovely day* - Такой прекрасный день; *Poor old house* - Бедный старый дом по своим модально-семантическим признакам очень близко подходят к восклицательным, хоть отсутствует соответствующий знак препинания. Даже при наличии формальных показателей семантическая направленность некоторых предложений затрудняет отнесение их к тому или иному модально семантическому подтипу: эти предложения не только обозначают констатацию факта, но выражают различные эмоции (восторг, сочувствие), т.е. то, что характерно главным образом для восклицательных предложений.

Иногда определение стоит после главного члена односоставного предложения: *Silence, slight but ominous* (J. Galsworthy, *Plays*) - Тишина, легкая, но зловещая; *A silence, broken by the cracking of nuts* (J. Galsworthy, *Plays*) - Тишина, нарушаемая треском орехов; *A woman of great taste* (J. Galsworthy, *In Chancery*) - Женщина с прекрасным вкусом.

Постпозиционное положение определения часто вызвано стилистическими целями, когда выделение предмета или явления, выраженного в главном члене, является более существенным, чем выделение окраски, выраженной постпозиционным определением.

Результаты. Уже на основании приведенных примеров можно составить представление о существовании в английском языке разнообразных вариантов односоставных распространенных предложений с определением, об отсутствии их структурного единообразия.

Остановившись на наиболее интересных случаях структурно-семантического построения, необходимо выделить предложения типа: *One man, one vote* (Один человек, один голос). Это бессоюзное сложное предложение состоит из двух односоставных именных предложений, предполагающих друг друга и противопоставленных друг другу. А.А. Шахматов верно подмечает, что подобные случаи «выражают одну общую мысль путем их отождествления или противопоставления» [1].

Кроме определений односоставные субстантивные предложения могут включать и другие второстепенные члены – обстоятельства и дополнения. Обстоятельства, используемые в односоставных предложениях, имеют такие же значения, какие им присущи в двусоставных предложениях – временные, пространственные, образа действия, степени, частотности, уступки и т.д. и в этом плане не представляют большого интереса. *Snow again* (Снова снег); *A sudden silence, than murmurs again* (Внезапная тишина, затем снова шепот); *Roses in December* (Розы в декабре); *Injustice everywhere* (Несправедливость повсюду).

Иногда это может быть целое обстоятельственное придаточное предложение в сложноподчиненном предложении, где односоставное предложение является главным. *A boy and girl affair over months before you married* (J. Galsworthy, *The White Monkey*) - Роман между парнем и девушкой за несколько месяцев до того, как вы поженились.

Присутствие обстоятельства в односоставном предложении не нарушает ни структуры односоставного предложения, ни его семантической направленности. Это значит, что наличие обстоятельства в предложении с одним главным членом не делает это предложение двусоставным, так как обстоятельство не образует второго главного члена. Наличие обстоятельства при главном члене, выраженном именем существительным, становится возможным, видимо, потому что существительное в функции главного члена имеет предикативное значение.

Главный член субстантивного предложения может быть распространен и дополнением. *Government of the people* (правительство народа); *Gift for mom* (подарок для мамы); *Assault on the police* (Нападение на полицию).

Необходимо отметить, что некоторые предложные сочетания в рассмотренных выше примерах могут в одинаковой степени относиться как к дополнениям, так и к определениям, т.е. представляют переходные случаи.

Необходимо особо выделить примеры такого типа, как *At this time in the morning* (В это время утра); *In the British Empire* (В Британской империи); *Without consulting me?* (Не посоветовавшись со мной?).

Эти сочетания, несмотря на их внешнюю оформленность по образу и подобию отдельных предложений, не являются предложениями, так как не выражают законченной мысли, не утверждают и не констатируют какого-то факта действительности, не заключают суждения. По своей функции эти сочетания ближе всего подходят к обособленным членам предложения. Возможно, это и есть особый вид обособленных второстепенных членов, стоящих после точки, вне структуры предложения, однако, еще не изученных. Мы не берем на себя ответственности объяснить синтаксические особенности таких сочетаний, так как это не входит в задачу диссертации, но считаем необходимым отметить наличие их в английском языке. И.А. Попова называет такие предложения «добавочными членами предложения» или «добавочными неполносоставными предложениями» [2].

С точки зрения структуры восклицательные односоставные предложения в большинстве своем не представляют отличия от повествовательных предложений. Так, восклицательные односоставные предложения могут быть распространены теми же второстепенными членами, какие характерны и для повествовательных предложений. Определение - Another frantic crash! (Еще один безумный крах!); обстоятельство - The woman in the next room! (Женщина в соседней комнате!); дополнение – Second anniversary of our wedding day! (Вторая годовщина нашей свадьбы!)

Субстантивные вопросительные предложения встречаются значительно реже, чем восклицательные и повествовательные предложения. Вопросительные предложения заключают вопрос, выражаемый главным образом вопросительной интонацией. Основное содержание вопроса заключено в главном члене односоставного предложения. Social blackmail? ((J. Galsworthy, The White Monkey)- Социальный шантаж?)

Вопросительное односоставное предложение может начинаться с вопросительного слова – наречия или местоимения: Why this special treatment? (Почему такое особое отношение?) What is your horoscope? (Какой ваш гороскоп?)

Критерием выделения побудительных субстантивных предложений является их семантическая характеристика. Как известно, побудительные

предложения служат для побуждения какого-то лица к выполнению определенного действия.

Основные значения побудительных предложений – выражение: а) просьбы: Tea and pancake, waiter, please (Официант, пожалуйста, чай и блины); A word with you (Пару слов с тобой); б) приказания: Silence! To your seats! (Тишина! По местам!) Patience! (Терпение!). Необходимо отметить, что приказания чаще всего выражены в побудительно-восклицательных предложениях, просьбы - в побудительно-повествовательных.

Весьма спорным является отнесение именных побудительных предложений типа: «Чаю, чаю, сестрица!» «Шампанского!» и др. к неполным, как это делается в «Грамматике русского языка». [3] В подобных предложениях по условиям контекста ничего не мыслится опущенным и поэтому не может быть добавлено без изменения стилистической направленности этих предложений [4].

Заключение. Таким образом, можно констатировать, что английский язык характеризуется наличием в ней именных односоставных предложений. Односоставные именные предложения употребляются в основном для констатации факта, события и т.д.

Специфика частей речи, употребленных для образования главных членов односоставных предложений, сохраняется, т.е. остается одинаковой и для двусоставных, и для односоставных предложений.

ЛИТЕРАТУРА

1. Шахматов А. А. Синтаксис русского языка. - 3-е изд. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 205
2. И.А. Попова. Неполные предложения в современном русском языке, Труды института языкознания. Изд. АН СССР, М.: 1953. С. 122-124
3. Грамматика русского языка. Том 2. Синтаксис. / Ред. коллегия: акад. В.В. Виноградов, Е.С. Истрина. изд. АН СССР, М.: 1953. – С. 107-108
4. Грамматика русского языка. Том 2. Синтаксис. / Ред. коллегия: акад. В.В. Виноградов, Е.С. Истрина. изд. АН СССР, М.: 1953. – С. 115



Gulmira KOMILOVA,

Toshkent Xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

E-mail: g.komilova@tift.uz

Filologiya fanlari doktori, professor M.Jo‘rayeva taqrizi asosida

THE EXPRESSION OF CULTURAL IDENTITY THROUGH AESTHETIC DISRUPTION IN BILINGUAL SPEECH AND MEDIA TEXTS

Annotation

This article analyzes the phenomenon of bilingualism emerging in English-speaking regions and the resulting challenges related to the linguistic and ethnic identity of bilingual individuals. Special attention is given to those who are active users of English but belong to other ethnic groups or live in transcultural environments, focusing on their inner identity conflicts. The study explores the mechanisms of identity formation through the lenses of intercultural communication, linguocultural codes, and the dominant status of global English.

Key words: English bilingualism, intercultural identity, linguistic identity, ethnic selfhood, translingual individual, global status of English.

BILINGUAL NUTQDA VA MEDIYA MATNLARDA ESTETIK BUZILISH ORQALI MADANIY IDENTITET IFODASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilida so‘zlashuvchi hududlarda shakllanayotgan bilingvalizm fenomeni va uning natijasida yuzaga keluvchi bilingval shaxsning til va etnik identifikatsiyasi muammolari tahlil qilinadi. E’tibor, asosan, ingliz tilida faol ishlovchi, ammo boshqa millatga mansub yoki transmadaniy muhitda yashovchi shaxslarning ichki identitet ziddiyatlariga qaratiladi. Tadqiqotda madaniyatlararo kommunikatsiya, lingvomadaniy kodlar, va global ingliz tilining dominant holati asosida identitetning shakllanish mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: inglizcha bilingvalizm, madaniyatlararo identitet, til identiteti, etnik o‘zlik, translingval shaxs, ingliz tilining global maqomi.

ВЫРАЖЕНИЕ КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ ЧЕРЕЗ ЭСТЕТИЧЕСКОЕ НАРУШЕНИЕ В БИЛИНГВАЛЬНОЙ РЕЧИ И МЕДИЙНЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация

В статье анализируется феномен билингвизма, возникающего в англоязычных регионах, и связанные с ним проблемы лингвистической и этнической идентичности билингвальных индивидов. Особое внимание уделяется тем, кто активно использует английский язык, но принадлежит к другим этническим группам или живёт в транскультурной среде. Акцент сделан на внутренних конфликтах идентичности. В исследовании рассматриваются механизмы формирования идентичности сквозь призму межкультурной коммуникации, лингвокультурных кодов и доминирующего статуса английского языка как глобального средства общения.

Ключевые слова: англоязычный билингвизм, межкультурная идентичность, лингвистическая идентичность, этническое самосознание, транслингвальный индивид, глобальный статус английского языка.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayoni, migratsiya, transmilliy axborot oqimi va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida ko‘ptillilik (multilingualism) inson ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan, bilingval shaxslar (ya‘ni ikki va undan ortiq tilni faol qo‘llovchi insonlar) zamonaviy kommunikatsion, madaniy va adabiy maydonning muhim subyektlariga aylangan. Bu jarayonda til faqat aloqa vositasi bo‘lib qolmay, balki shaxsiy identitetni shakllantiruvchi asosiy madaniy va kognitiv mezon sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Ayniqsa, rus tilida ijod qiluvchi, biroq rus millatiga mansub bo‘lmagan mualliflar faoliyatida kuzatiladigan rus-boshqa millat bilingvalizmi o‘ziga xos madaniyatlararo hodisa sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Bu holat madaniyatshunoslik, psixolingvistika va sotsiologiya sohalari nuqtai nazaridan ko‘p qirrali tahlilni talab etadi. Til tanlovi, nutqdagi estetik buzilishlar, kod almashinuvi, va nutqiy strategiyalar orqali mualliflar madaniy o‘zlik, etnik identitet va psixologik izlanishlarni ifoda etadilar. Zamonaviy

tilshunoslikda shakllangan antropotsentrik paradigma (M.M. Baxin, Yu.N. Karaulov, V.V. Vorobyevlar tomonidan asoslangan) bu jarayonni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Bu paradigmanning asosiy g‘oyasi - til inson ongi, tafakkuri, ijtimoiy-madaniy tajribasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tizim ekanidir. Til bu yerda shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki insonning borliqdagi "uyidir", uning dunyoni qabul qilish, tafsir qilish va o‘zini namoyon qilish shaklidir. Shuning uchun, bilingval mualliflarning til tanlovi va ularning matnlaridagi lingvopoetik strukturaviy o‘zgarishlar aslida ichki madaniy holat va identitetning murakkab ifodasi sifatida qaraladi.

Bunday yondashuv, ayniqsa, bilingval adabiyot va mediya matnlari tahlilida muhim ilmiy natijalarga olib keladi. Bilingval mualliflar tomonidan til chegaralarining buzilishi, kodlar almashinishi, va grammatik normaning buzilishi ko‘pincha estetik buzilish (aesthetic disruption) shaklida namoyon bo‘ladi. Bu hodisa esa shaxsning transmadaniy yoki ko‘p qatlamli identitetini ochib berishga xizmat qiladi. Til va

identitet o'rtasidagi bu o'zaro ta'sir – hozirgi zamonaviy lingvistik va madaniy tadqiqotlar markazida turibdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bilingvalizm, ayniqsa ingliz tilida faol ijod qiluvchi, biroq boshqa etnik guruhlariga mansub shaxslar faoliyatida, nafaqat lingvistik balki madaniy identitet masalalarini ham ilgari suradi. F. Grosjean (2010) o'zining "Bilingual: Life and Reality" asarida bilingval shaxsning ikki madaniyat o'rtasidagi pozitsiyasini o'rganadi va ularning til tanlovi identitetni belgilovchi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi. J. Cummins (2000) esa til siyosati va maktabdagi bilingval bolalar misolida til va kuch munosabatlarini ko'rsatib beradi.

S. Canagarajah (2013) tomonidan ilgari surilgan translingval amaliyot nazariyasi esa hozirgi global muhitda tillar chegaralarining suyuqlashuvi, shaxslarning esa ko'p kodli identitet bilan yashashini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, L. Hutcheon (1988) va N. Huston (2002) asarlarida bilingval matnlar orqali madaniy izchillikning buzilishi estetik vosita sifatida ishlatilishi hamda bu vositaning ichki ziddiyatlarni ifodalashdagi o'rni yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda komparativ va diskursiv-tahliliy metodlar asos sifatida tanlandi. Avvalo, bilingval ijodkorlarning matnlari (Samuel Beckett, Nancy Huston, Vladimir Nabokov) tanlab olinib, ularning ingliz va boshqa tillarda yozilgan parchalari o'zaro solishtirildi. Til o'zgarishi, kod almashinuvi, sintaktik buzilishlar, va semantik nomuvofiqliklar kuzatildi. Shuningdek, madaniy kodlar, milliy stereotiplar va til tanlovining etnik identitetga ta'siri diskursiv yondashuv orqali tahlil qilindi.

Matnlar lingvopoetik jihatdan ham tahlil qilinib, estetik buzilish (disruption) vositalari orqali qanday madaniy identitet ifoda topgani aniqlashga harakat qilindi. Shu bilan birga, ingliz tilining dominant maqomi va uning o'zga tillardagi ongga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida sotsiolingvistik fikrlar ham keltirildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi globallashuv va migratsiya jarayonlari ta'sirida ko'ptillilik inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa ingliz tili global kommunikatsiya vositasi sifatida ko'plab madaniy muhitlarda ustun mavqega ega bo'lmoqda. Shu sababli, ingliz tilida faol ishlovchi, biroq boshqa etnik yoki milliy guruhlariga mansub shaxslar faoliyati doirasida paydo bo'ladigan bilingvalizm fenomeni til va madaniy identitet masalalarini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Bunday shaxslar ko'pincha o'z nutqida, jumladan adabiy va mediya matnlarida estetik buzilishlar orqali ichki ziddiyatlarini, madaniy o'zligini yoki transmadaniy pozitsiyasini ifodalaydi. Ushbu estetik buzilishlar – ya'ni grammatik qoidalarning ataylab buzilishi, kod almashinuvi, yoki semantik nomuvofiqlik – madaniy ifodaning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Tilshunoslikda til shunchaki aloqa vositasi emas, balki insonning dunyoqarashi va madaniy o'zligini belgilovchi asosiy omil sifatida qaralmoqda. M.M. Baxin va Yu.N. Karaulovning antropotsentrik yondashuvlari bu fikrni yanada mustahkamlab, tilni insonning "borliqdagi uyi" sifatida talqin etadi. Bilingval shaxs esa bu "uy"ni ikki yoki undan ortiq madaniyatlar kontekstida qayta qurishga majbur bo'ladi. Bu holat, ayniqsa, adabiy matnlarda ko'rinadi. Masalan, Samuel Beckett fransuz va ingliz tillarida bir vaqtning o'zida ijod qilgan holda, til tanlovining o'zi orqali identitetning mavhumligini, ayrim hollarda esa uning inqirozini namoyon qilgan. Nancy Huston romanlarida esa kodlarning almashishi va bir-birini to'ldirishi orqali madaniy ziddiyat emas, balki madaniyatlararo dialektika yuzaga chiqadi. Zamonaviy sotsiolingvistikada translingval shaxs tushunchasi paydo bo'lib, bu modelga ko'ra shaxs bir til bilan cheklanmaydi, balki turli tillar va madaniyatlar oralig'ida erkin harakat qiladi. Suresh Canagarajah tomonidan ilgari surilgan translingval amaliyotlar nazariyasi bilingval yozuvchilarning til tanlovi

ongli strategiya bo'lib, u orqali shaxs o'zining ko'p qatlamli identitetini aks ettirishga intiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, estetik buzilishlar faqatgina stilistik innovatsiya emas, balki madaniy va psixologik ichki jarayonlarning ifodasidir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bilingval nutq va matnlarda estetik buzilishlar yordamida madaniy identitet ijobiy va salbiy jihatlar bilan ifodalanadi. Bunday buzilishlar lingvopoetik vosita sifatida ishlaydi va shaxsning transmadaniy mavjudligini yoritadi. Ingliz tili global maqomga ega bo'lgan bir sharoitda, boshqa tillar bilan birgalikda qo'llanilishi til orqali madaniy tenglik, qarshilik yoki o'zlik izlanishining shakliga aylanadi. Bilingval matnlarda tilning buzilishi ko'pincha adabiy texnika sifatida ishlatiladi. Ammo bu buzilish oddiy grammatik xatolik emas, balki ongli ravishda kiritilgan estetik strategiya bo'lib, o'quvchini til va madaniyat chegaralari haqida o'ylashga undaydi. Masalan, Vladimir Nabokov ingliz va rus tillarida yozar ekan, u grammatik strukturalar bilan "o'ynaydi", tarjima imkonsiz bo'lgan o'ziga xos iboralarni ataylab kiritadi, bu orqali ikki madaniyat o'rtasidagi aloqa emas, balki uzilish ni ko'rsatadi.

Ko'p hollarda bilingval yozuvchilarning matnlarida tillarning silliq almashuvi emas, balki qisqa uzilishlar, grammatika yoki sintaksisdagi noaniqliklar, yoki bir tilning ichiga ikkinchisining kiritilishi orqali hosil bo'lgan disruptiv estetik shakllar uchraydi. Bu holat Pennycook (2010) tomonidan "tilni mahalliyashtirish" (local practice) deb yuritiladi. Bunda global til – ingliz tili – lokal kontekstlarga moslashtiriladi, lekin bu moslashuv silliq emas, balki notekis va ziddiyatli bo'ladi. Aynan shu jarayon estetik buzilishlar sifatida namoyon bo'ladi.

Bilingval matnlardagi kod almashinuvi holatlari sodda aloqa vositasi sifatida emas, balki shaxsiy va madaniy pozitsiyani ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, Nancy Huston o'z romanlarida muayyan g'oyalarni ingliz tilida ifodalaydi, ammo hissiy nuqtalar yoki madaniy og'irlikka ega so'zlarni fransuz tilida qoldiradi. Bu orqali u ingliz tilining sovuqligi va fransuz tilining shaxsiy yaqinligini qarama-qarshi qo'yadi.

Beckett esa aksincha, tilning imkonsizligiga urg'u berib, matnlarida minimal til vositalaridan foydalanadi. Bu nafaqat stilistik qaror, balki til orqali anglash jarayonining murakkabligi va identitetning ongli yo'qolish holatini aks ettiradi. Ayniqsa "L'Innommable" asarida keltirilgan murakkab va tushunarsiz jumalar o'quvchini zo'raki o'qishga, tilning buzilgan kontekstini tushunishga majbur qiladi. Bu jarayonda o'quvchi ham identitetni "qayta topish" vazifasini bajarayotgandek bo'ladi.

Mediyadagi bilingval matnlar, ayniqsa vizual va video formatlarda, bunday estetik buzilishlarni yana bir darajaga olib chiqadi. Reklama, musiqiy videolar, seriallar, va ijtimoiy tarmoq postlarida kod almashinuvi ko'pincha moda sifatida namoyon bo'ladi. Biroq ba'zi hollarda bu kod almashinuvi madaniy qarshilik yoki ironik o'zlik ifodasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, koreys-amerikaliklar tomonidan yaratilgan mediya kontentlarida koreyscha iboralar inglizcha matnga kiritilib, o'z milliyligini tasdiqlash va shu bilan birga dominant madaniyatga kulgili javob qaytarish vositasi sifatida ishlatiladi. Bu holat "code-switching as resistance" (kod almashinuvi – qarshilik vositasi) sifatida ilmiy adabiyotda tilga olinadi.

Shuningdek, madaniyatlararo kommunikatsiyada estetik buzilishlar ba'zan noaniqliklar va tafsir imkoniyatlari yaratadi. O'quvchi yoki tomoshabin bilingval matnda qanday kontekstda qanday til ishlatilganini aniqlay olmaydi, bu esa ularni madaniy tafakkurga majbur qiladi. Ana shunda til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy tafsir sub'ektiga aylanadi.

Bu jarayonda "metakognitiv kod" tushunchasi paydo bo'ladi – ya'ni o'quvchi o'zining madaniy va lingvistik ongini anglaydi. Bunda estetik buzilmaydi, balki "yangidan quriladi". Aynan shunday yondashuvda estetik buzilishlar – normadan og'ishlar – o'quvchini fikrlashga, madaniyatlarni ko'ra olishga va ichki identitet mexanizmlarini anglashga undaydi.

Shunday qilib, estetik buzilishlar faqat lingvistik fenomen emas, balki ijtimoiy-madaniy va psixologik holatlarni ifodalashning zamonaviy usulidir. Bilingval ijodkorlar bu vositani ongli ravishda tanlab, uni shaxsiy tajriba, madaniy tarix, va til siyosatining o'ziga xos ifodasi sifatida ishlatadilar.

Tahlil qilingan matnlarda quyidagi asosiy xulosalar aniqlandi: Estetik buzilish vositasi bilingval matnlarda o'z-o'zini anglatuvchi (self-reflexive) strategiya sifatida ishlaydi. Misol uchun, Nancy Huston o'z romanlarida kodlarni ongli tarzda aralashtirib, madaniy uyg'unlik emas, balki ziddiyatni ta'kidlaydi. Kod almashinuvi lingvistik qulaylik uchun emas, balki madaniy pozitsiyani anglatish vositasi sifatida ishlatilmoqda. Bu jihat ayniqsa Samuel Beckettning "L'Innommable" asarida yaqqol ko'rinadi.

Bilingval ijodkorlar o'zlarining etnik va lingvistik identitetlarini faqat til orqali emas, balki estetik shakl orqali

ham ifoda etadilar. Shunday qilib, til tanlovi – bu faqat kommunikativ vosita emas, balki shaxsning madaniy pozitsiyasidir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bilingval shaxslarning til tanlovi va estetik buzilish vositalari orqali amalga oshirilgan madaniy ifoda ularning identiteti uchun asosiy mezon hisoblanadi. Estetik buzilishlar, kod almashinuvi, va translingval uslublar madaniy identitetdagi ichki ziddiyatlarni ifodalashda samarali vositadir.

Takliflar: O'zbekiston adabiyotida ham ikki tili ijod namunalarini ko'paytirish orqali global lingvistik estetikaga qo'shilishga zamin yaratiladi; Translingval amaliyotlar bo'yicha milliy lingvistik tadqiqotlar kengaytirilishi lozim; Adabiy tanqidda bilingval va transmadaniy o'qish yondashuvlarini kiritish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bilingval nutqdagi estetik buzilishlar shunchaki lingvistik hodisa emas, balki madaniy identitetni ifodalash, muhokama qilish va qayta shakllantirishga xizmat qiluvchi kuchli vositadir. Ushbu fenomenni o'rganish orqali biz nafaqat adabiy jarayonlarni, balki insonning madaniy va lingvistik o'zligini anglash mexanizmlarini ham chuqurroq tushunamiz.

ADABIYOTLAR

1. Grosjean, F. (2010). *Bilingual: Life and Reality*. Harvard University Press.
2. Cummins, J. (2000). *Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire*. Multilingual Matters.
3. Canagarajah, S. (2013). *Translingual Practice: Global Englishes and Cosmopolitan Relations*. Routledge.
4. Hutcheon, L. (1988). *A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction*. Routledge.
5. Huston, N. (2002). *Losing North: Musings on Land, Tongue and Self*. McArthur & Company.
6. Beckett, S. (1953). *L'Innommable*. Paris: Editions de Minuit.
7. Nabokov, V. (1967). *Speak, Memory: An Autobiography Revisited*. Penguin.
8. Pennycook, A. (2010). *Language as a Local Practice*. Routledge.



UDK:811.512

Shohsanam MAMATKULOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

SamDChTI dotsenti v.b., PhD Z.Ergasheva taqrizi asosida

OG'ZAKI NUTQDA KIRITMALI QURILMALARNING MONOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada og'zaki nutqda uchraydigan kiritmali qurilmalar, xususan, ularning monologik nutqdagi uslubiy va funksional xususiyatlari keng yoritiladi. Kiritma gaplar yordamida so'zlovchi o'z fikrini izohlash, baholash yoki unga shaxsiy munosabatini bildirish imkoniga ega bo'ladi. Bu birliklar og'zaki monologlarda subyektivlikni ifodalash, nutqqa jonlilik va tabiiylik bahsh etishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, tinglovchisiz nutqda dinamika va ekspressivlik yaratishning lingvopragmatik imkoniyatlari ham tahlil qilinadi. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida ishlatiladigan kiritmali gaplar o'rtasidagi grammatik, semantik va stilistik farqlar qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari bu birliklarning ikki tilda qanday uslubiy yuklama kasb etishini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, monolog, kiritmali qurilma, stilistik vosita, subyektivlik.

STYLISTIC FEATURES OF PARENTHETICAL CONSTRUCTIONS IN MONOLOGIC SPEECH

Annotation

This article explores parenthetical constructions commonly found in spoken language, with a particular focus on their stylistic and functional features in monologic speech. Parenthetical sentences allow the speaker to clarify thoughts, express evaluations, or convey personal attitudes. These units play a significant role in enhancing subjectivity and contributing to the liveliness and naturalness of spoken monologues. The paper also analyzes the linguo-pragmatic potential of creating dynamics, expressiveness, and semantic diversity in speech that lacks a direct audience. A comparative analysis is conducted on the grammatical, semantic, and stylistic differences of parenthetical structures in English and Uzbek. The research findings reveal the stylistic roles these constructions fulfill in both languages and emphasize their communicative relevance.

Keywords: spoken language, monologue, parenthetical construction, stylistic device, subjectivity, expressiveness.

ОСОБЕННОСТИ ВСТАВОЧНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Аннотация

В данной статье подробно рассматриваются вставочные конструкции, встречающиеся в устной речи, в частности, их стилистические и функциональные особенности в монологической речи. С помощью вставных предложений говорящий получает возможность уточнять свою мысль, выражать оценку или демонстрировать личное отношение к высказываемому. Эти единицы играют важную роль в усилении субъективности, а также в придании живости и естественности устному монологу. Также анализируются лингвопрагматические возможности создания динамики, экспрессивности и семантического разнообразия в устной речи без слушателя. В статье проводится сопоставительный анализ грамматических, семантических и стилистических различий вставных предложений в английском и узбекском языках. Результаты исследования показывают стилистическую нагрузку этих единиц в обоих языках и раскрывают их коммуникативную значимость.

Ключевые слова: устная речь, монолог, вставочная конструкция, стилистическ

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda og'zaki nutqning strukturaviy, funksional va pragmatik xususiyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Ayniqsa, og'zaki nutqning monologik shakllari va unda til vositalarining ifoda kuchi muhim tadqiqot obyekti bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, og'zaki nutqda uchraydigan kiritmali gaplarning (parentetik konstruksiyalarning) o'rni alohida e'tiborga loyiq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Og'zaki nutqda kiritmali qurilmalar va ularning funksional xususiyatlari tilshunoslikda keng o'rganilgan. Quirk va hamualliflari (1985) ingliz tilidagi kiritmali gaplarning grammatik strukturasi va pragmatik vazifalarini chuqur tahlil qilgan. Ilyin (1990) og'zaki nutqda intonatsiya va ma'no o'zgarishlarini o'rganib, parentetik birliklarning talaffuzdagi roliga urg'u beradi. Bobojonov (2019) o'zbek tilida og'zaki nutqning tabiiyligi, struktura va uslubiy belgilari haqida yozar ekan, kiritmali gaplarning ifoda vositasi sifatidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Nazarova (2021) stilistik vositalar orqali nutqning ta'sirchanligini kuchaytiruvchi omillarni yoritib, kiritmali

tuzilmalarni shaxsiy munosabat bildirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Karimov (2022) esa kiritmali gaplarning nutqdagi vazifaviy roli va muloqotdagi qulaylik darajasini amaliy misollar orqali asoslab bergan. Ushbu manbalar kiritmali qurilmalarni og'zaki nutqdagi monologik xususiyatlar bilan bog'lab o'rganishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida og'zaki nutqda uchraydigan kiritmali qurilmalarni aniqlash va ularning monologik xususiyatlarini tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, tavsifiy-analitik metod asosida ingliz va o'zbek tillaridagi og'zaki matnlar tahlil qilindi. Tadqiqot korpusi sifatida ingliz tilida real suhbatlardan olingan transkriptlar (BBC, TED Talks), o'zbek tilida esa televizion suhbatlar, radio dasturlar va jonli nutq namunalaridan foydalanildi. Korpusdan kiritmali gaplar aniqlanib, ularning sintaktik tuzilishi, funksional vazifasi va uslubiy yuklamasi kontekstda baholandi.

Shuningdek, kontrastiv tahlil orqali ikki til og'zaki nutqidagi farqlar va o'xshashliklar ajratib ko'rsatildi.

Pragmatik yondashuv orqali kiritmali qurilmalar nutq ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy va kommunikativ munosabatlarni qanday ifodalayotgani o'rganildi. Statistik kuzatuv asosida kiritmali birliklarning chastotasi va ularning dialog yoki monolog kontekstidagi joylashuvi aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Kiritmali qurilmalar sintaktik jihatdan mustaqil bo'lib, asosiy gap bilan grammatik bog'lanmagan, lekin semantik va pragmatik jihatdan unga uzviy bog'langan birliklardir [2]. Bu birliklar nutq egasining subyektiv fikri, izohi, bahosi yoki eslatmasini ifodalaydi. Og'zaki monologda esa bu gaplar tinglovchining javobisiz, ammo u bilan muloqot ruhini saqlagan holda qo'llaniladi. Quyida og'zaki monologik nutqda kiritmali qurilmalarning kommunikativ va stilistik xususiyatlarini, ularning funksional yukini aniqlash va o'zbek hamda ingliz tillaridagi namunalar asosida qiyosiy tahlil qilinadi.

Kiritmali qurilmalar (ing. parenthetical constructions) tilshunoslikda ko'p hollarda funksional-stilistik birlik sifatida o'rganiladi [4]. Ular nafaqat sintaktik tuzilmani boyitadi, balki muloqot jarayonini yanada izchil hamda dinamik qiladi. Kiritmali qurilmalarning asosiy funksiyalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Baholovchanlik: Nutq egasi voqea yoki fikrga munosabatini bildiradi (masalan, "menimcha", "to'g'risini aytsam").

Izoh va aniqlik kiritish: Asosiy gapdagi fikrni tushuntiradi yoki kengaytiradi ("ya'ni", "boshqacha aytganda").

E'tiborni jalb qilish: Tinglovchini ogoh qiladi ("bilasizmi", "tasavvur qiling").

Kiritmali qurilmalar o'zbek va ingliz tillarida keng qo'llaniladi: "U, ehtimol, ertaga keladi.", "Menimcha, bu fikr unchalik to'g'ri emas.", "He is, I suppose, a good candidate.", "This, as far as I can tell, is not working."

Ma'lumki, og'zaki monolog – bu bir shaxs tomonidan uzluksiz bayon etiladigan nutq bo'lib, unda muloqot ko'proq ichki dialog shaklida kechadi. Monologik nutqda kiritmali qurilmalar quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) Subyektivlikni kuchaytirish. Kiritmali gaplar yordamida nutq egasi shaxsiy munosabatini ochiq bildiradi. Bu og'zaki nutqning asosiy belgilaridan biri bo'lgan subyektivlikni kuchaytiradi:

- "To'g'risini aytsam, men bu qarorni ma'qullamayman."

"Frankly speaking, I don't trust him."

- "Aytishim kerakki, bu holat meni chuqur o'ylantirdi."

"I must say, this situation made me think deeply."

- "To'g'risini aytganda, bu meni ranjitdi."

"Honestly, it hurt me."

- "Ochig'ini aytganda, ular menga yoqmaydi."

"To be honest, I don't like them."

b) Nutqning ifoda boyligini oshirish. Ushbu gaplar yordamida nutqqa emotsional, baholovchan, izohli va eslatmalilik xususiyatlari kiritiladi. Natijada nutq ko'proq og'zaki, jonli, tabiiy tus oladi:

- "Bu g'oya, nazarimda, hozirgi davr uchun juda muhim."

"This idea, I believe, is essential for our times."

- "Bu fikr, rostini aytsam, meni hayratga soldi."

"This thought, to tell the truth, surprised me."

- "Menimcha, bu natija kutilganidan ham yaxshi."

"It seems to me that the result is even better than expected."

- "Ehtimol, bu yerda muhim jihatni e'tibordan chetda qoldirdik."

"Perhaps, we overlooked an important aspect here."

c) Tinglovchi bilan bilvosita aloqa yaratish. Garchi monolog bevosita muloqot bo'lmas-da, kiritmali qurilmalar

vositasida tinglovchiga murojaat qilinganlik taassuroti uyg'otiladi. Bu esa nutqni auditoriya va so'zlovchini yanada yaqinlashtiradi:

- "Sizga ayon bo'lsa kerak, bu oson masala emas."

"As you might guess, it's not an easy task."

- "Bilaman, siz bu holatga duch kelgansiz."

"I know, you've been in a similar situation."

- "Sizni ishortirib aytaman, bu haqiqat."

"Believe me, this is the truth."

- "Tasavvur qiling, bunday voqea har kim bilan sodir bo'lishi mumkin."

"Just imagine, this could happen to anyone."

Kiritmali qurilmalarning qo'llanilishi o'zbek va ingliz tillarida keng tarqalgan bo'lib, ularning ifoda shakllari va stilistik xususiyatlarida ba'zi farqlar mavjud. Masalan, o'zbek tilidagi "menimcha" iborasi ingliz tilida "I think" shaklida ifodalanadi va bu gapiruvchining shaxsiy fikrini bildiradi. Xuddi shuningdek, "ehtimol" iborasi ingliz tilidagi "perhaps" yoki "maybe" so'zlariga mos keladi va taxmin yoki ehtimollik ma'nosini anglatadi. "To'g'risini aytsam" iborasi esa "frankly speaking" yoki "to be honest" kabi jumlar holatida tarjima qilinadi va ochiqchasiga, ro'y-rost fikr bildirish vazifasini bajaradi. Nutqda mavzuga bog'liq qo'shimcha ma'lumot berishda ishlatiladigan "aytgancha" iborasi ingliz tilida "by the way" qurilmasi orqali beriladi va eslatma kiritish vazifasini bajaradi. Shubat davomida e'tiborni jalb qilish yoki muloqotni davom ettirish uchun qo'llaniladigan "bilasizmi" iborasi esa "you know" degan qurilma bilan mos keladi. Ushbu iboralar har ikki tilda ham og'zaki nutqni tabiiy, jonli va muloqotga yo'naltirilgan holga keltirishga xizmat qiladi:

- "Bu voqea, bilasizmi, juda ham tasirli edi."

- "This event, you know, was quite emotional."

Ushbu qurilmalarning sosiy farqli jihatlardan biri — ingliz tilida ular ko'pincha vergullar orasida yoziladi va ularning joylashuvi erkinroqdir. O'zbek tilida esa kiritmali qurilmalarning joylashuvi ko'proq gap boshida yoki gap ichida bo'ladi va ohang orqali ajratiladi.

Kiritmali gaplar og'zaki nutqda nafaqat semantik, balki intonatsion vazifani ham bajaradi. Ular yordamida nutqda pauza (to'xtam) yaratiladi, natijada tinglovchi fikrni yaxshiroq anglashu uchun imkon yaratiladi. Intonatsion kuchayish yoki pasayish yuz beradi, bu orqali esa fikr kuchaytiriladi yoki yumshatiladi. Ritm o'zgarishi hodisasi natijasida nutq jonliroq, tabiatga yaqinroq ohang beradi. Masalan: "Men bu fikrga – to'g'risini aytsam – unchalik qo'shilmayman." Bu yerda kiritmali gap orqasidan pauza, keyin davom etuvchi fikr – nutqning drammatizmini oshirishga xizmat qilyapti.

Xulosa. Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, kiritmali gaplar og'zaki monologik nutqning ajralmas va muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki nutq egasining shaxsiy munosabati, emotsional holati va kommunikativ strategiyasini ifodalovchi kuchli stilistik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, tinglovchi bilan bevosita aloqani saqlab turish, e'tiborni jalb qilish va matnii tabiiy ohangda davom ettirishda kiritmali gaplarning roli beqiyosdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillaridagi kiritmali qurilmalar umumiy kommunikativ vazifalarda o'xshash bo'lsa-da, ularning ifodalanish uslublari, grammatik strukturalari va ishlatilish chastotasi jihatidan muayyan farqlarga ega. Ushbu farqlar ayniqsa tarjima jarayonida va chet tilini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari nutq stilistikasi, pragmatikasi, kontrastiv tilshunoslik va tarjimashunoslikda kiritmali qurilmalarni yanada chuqur o'rganish uchun puxta ilmiy asos yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. Longman.
2. Bobojonov, O. (2019). "O'zbek tilida og'zaki nutq va uning xususiyatlari", Filologiya masalalari jurnali, №4.
3. Nazarova, D. (2021). "Nutqning stilistik vositalari va ularning funksional ahamiyati", Til va adabiyot ta'limi jurnali, №2.
4. Плын, М. (1990). Интонация и смысл в устной речи. Москва: Наука.
5. Karimov, B. (2022). "Kiritmali gaplarning nutqdagi funksional roli", O'zbek tilshunosligi masalalari, №1.



UDK: 81'347.78.034

Bobir MAXAMMADOV,
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi, PhD
E-mail: maxammadovuz@gmail.com

NavDU dotsenti, f.f.d F.Yuldashev taqrizi asosida

INGLIZ TILIDAGI MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ingliz tilida tilning tuzilishini o'rganishning turli xil usullari mavjud. Masalan: so'zlarning qismlari orqali, so'zlarning ma'nosi orqali, kichkina ma'nolik birlikdan so'zlarning shakllanishi orqali, so'zlarning tovushlari orqali, so'zlarning tuzilishi orqali, so'zlarning etimologiyasi orqali, leksik-semantika orqali, so'zlarning qo'llanilishi orqali, so'zlarning leksik xususiyatlari orqali. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada Microsoft Vindovs operatsion tizimi terminlarining struktur xususiyatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: hybrid, Windows, operating system, storage, page, complex words.

СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОВ ОПЕРАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ MICROSOFT WINDOWS НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Существует множество методов изучения структуры языка на английском языке. Например: через части слов, через значение слов, через формирование слов из минимальных смысловых единиц, через звучание слов, через структуру слов, через этимологию слов, через лексико-семантический анализ, через использование слов, через лексические особенности слов. С этой точки зрения в данной статье исследуются структурные особенности терминов операционной системы Microsoft Windows.

Ключевые слова: гибриды, Windows, операционная система, хранилище, страница, сложные слова.

STRUCTURAL FEATURES OF MICROSOFT WINDOWS OPERATING SYSTEM TERMINOLOGY IN ENGLISH

Abstract

There are various methods for studying the structure of the English language. For example: through parts of words, through the meaning of words, through the formation of words from minimal semantic units, through the sounds of words, through the structure of words, through the etymology of words, through lexical-semantic analysis, through the usage of words, and through the lexical features of words. From this perspective, this article examines the structural features of the terminology of the Microsoft Windows operating system.

Key words: hybrid, Windows, operating system, storage, page, complex words.

Kirish. Hyustonda joylashgan Rays universitetining tilshunos olimlari yozishicha, odatda tildagi so'zlarning yasalishi va strukturasi o'rganadigan bo'lim ingliz tilida "morfologiya" hisoblanadi. Ma'lumki, barcha so'zlar morfemalardan tashkil topgan bo'ladi. Ta'kidlanayotgan bo'lim ma'no anglatuvchi eng kichik birlik so'zlari asos va qo'shimchalarga bo'lib o'rganadi. Bundan tashqari ingliz tilida so'zlar infleksion, derivatsion usullar hamda so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'lishi ham mumkin. Shunda, infleksion usulda odatda yangi so'z hosil qilinmaydi, balki grammatik jihatdan shakl o'zgaradi, xuddi o'zbek tilida shakl yasovchi qo'shimchalarga o'xshaydi. Derivatsion usulda esa albatta yangi ma'no hosil qiluvchi so'z yasaladi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'z ma'noni anglatuvchi til birligi bo'lib, bir yoki bir nechta morfemalardan iborat, ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan va fonetik ahamiyatga ega. Shuningdek, so'zlar gaplarni yaratish uchun asos bo'ladigan vositadir. Shuni ta'kidlash kerakki, ingliz tilida so'zlar struktur tarkibi jihatdan turlarga ajralganda ko'p hollarda o'zak miqdoriga ko'ra sodda, qo'shma, juft, takror, o'zakdan o'zgaradigan so'zlar, o'zakka aloqador bo'lmagan so'zlarni joylashtirish orqali paydo bo'ladigan terminlar qo'llangan holda guruhlanadi. Shuningdek, struktur xususiyatga ko'ra sodda va murakkab terminlardan iborat bo'lgan atamalar mavjud. Dr.K.T Khader o'zining maqolasida so'zlar ikki mazmunga bo'lib o'rganiladi

deb yuritgan: ma'no anglatuvchi (ot, fe'l, ravish hamda olmosh) va vazifa bajaruvchi so'zlar (predlog, artikl, olmoshlar va bog'lovchilar).

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ingliz tilida ham so'zlar sodda, qo'shma, juft, takror, murakkab birikmalarga ajratib o'rganiladi. Shuningdek, ingliz tilida o'zbek tilidan farq qilgan holda foydalaniladigan so'zlarning turi mavjud. Bular o'zakdan o'zgarib ketadigan so'zlardir. Bunday turdagi terminlar asosan grek va lotin tilidan o'zlashgan hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, tub terminlarning ma'nosini izohlash yasama terminlar ma'nosini ochishdan ko'ra murakkabroq, chunki yasama terminlarda yasalish asosidan kelib chiqqan holda ma'noni izohlash qiyin emas, lekin tub so'zlar esa termin sifatida aynan qaysi semasiga ko'ra terminlik yukini ko'tarib turganini izohlash ingliz tilshunoslaridan hushyorlikni talab qiladi, chunki yuqorida ta'kidlanganidek, ingliz tilida sanoqli terminlar mavjudki, aynan o'shalar asosida butun ingliz tilidagi so'zlar yasalgan hisoblanadi.

Sodda terminlar tuzilishi xuddi o'zbek tiliga o'xshab ketadi, lekin qo'shma terminlar haqida gap ketganda ingliz tilida boshqacha tushunchalar kelib chiqadi, xususan, Geert Booij "Morphology: the structure of words" maqolasida so'z tarkibini tuzishda qo'shma yasash(ikkita va undan ortiq so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan so'zlar qo'shma

so'zlar) juda muhim o'rin tutadi. Masalan, Vindovs operatsion tizimi foydalanuvchi menyusida foydalanilgan terminlardan "output", "input" ya'ni "predlog + fe'l" tarkibli qo'shma so'z hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda ingliz tilida agar qo'shma so'zlar haqida gap ketganda ular quyidagicha xarakterlanadi:

1. Qo'shma so'zlar yagona grammatik va semantik xususiyatga ega yakka so'z hisoblanadi.

2. Yaxlit birlik hisoblanganligi sababli, qo'shma so'z komponentlari o'rtasida hech qanday qo'shimchalar qo'shilmaydi.

infleksion (shakl yasovchi) qo'shimchalar faqatgina qo'shma so'zlardan keyin qo'shiladi, lekin qo'shma so'zlar chiziqcha bilan yoziladigan bo'lsa va qolgan qismlari ma'no anglatmasa, ma'no anglatadigan qismga qo'shiladi. Masalan, bathroom – bathrooms, school bus – school buses, brothers-in-law. Ushbu misollardan ko'rish mumkinki, "school bus" qo'shma otida ikkita komponent ishtirok etmoqda, lekin urg'u "bus" so'ziga berilgan bois ko'plik qo'shimchasi shu "school" so'ziga emas, balki "bus" so'ziga qo'shilmog'da.

3. Qo'shma so'zlar 3 xil yozilishi mumkin:

a) ajratib yoziladi, ya'ni bunda birinchi element ikkinchi elementga ixtisoslashtirilgan bo'ladi, "toy store" – "o'yinchoq do'koni", "diving board" – "cho'kayotgan kema";

b) chiziqcha bilan yoziladigan elementli qo'shma so'zlar: "air-brake", "she-pony";

d) qo'shib yoziladigan yoki ko'p komponentli qo'shma so'zlar: "washroom", "output", "input" va boshqalar.

4. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qo'shma so'zlarning bir elementi boshqasiga bog'liq bo'ladi va shu element so'zning asosiy mazmunini ifodalaydi, lekin ingliz tilida shunday qo'shma so'zlarimiz borki, ikkita element qo'shilganda butunlay boshqa ma'no berishi mumkin, jumladan, "a Redcoat" – britan askari ma'nosini beradi. Agar so'zma-so'z tarjima qilinsa, "qizil palto" degan ma'noni beradi, lekin bu holatda asl ma'noda ishlatilgani yo'q, yana bir misollardan biri "a flatfoot" – "politsiyachi".

5. Qo'shma so'zlar tarkibi tur xil so'z turkumlaridan iborat bo'lishi mumkin, lekin bu holatda hushyorlikni talab qiladiki, ikkita har xil so'z turkum qo'shilganda qaysi biri boshqasiga bo'ysunishini kuzatish zarur.

fe'l + ot = ot: rattlesnake, call-girl;

sifat + ot = ot: darkroom, highbrow;

ot+sifat = sifat: bottle-green.

Bu holatda bosh so'zning ma'no anglatadigan grammatik kategoriyasi mavjud bo'ladi.

Lekin shunday holatlar ham uchraydiki, bosh so'zning grammatik kategoriyasi bo'lmasligi ham mumkin:

ot + fe'l = sifat: man-eating, ocean – going;

ot + predlog = ot: passer-by, hanger – on.

7. Qo'shma so'zlar hosil bo'lishi rekursiv jarayon bo'lishi ham mumkin, ya'ni bitta so'zning o'zi kattaroq qo'shma so'zning tarkibiy qismi ham bo'lishi mumkin: "lighthouse keeper", "living-room furniture".

Ingliz tilidagi navbatdagi termin strukturasi bu reduplikatsiya (takror so'zlar) bularga misol qilib, "be-be", "walkie-talkie" kabi birikmalarni olishimiz mumkin.

Quick et.al ning ta'kidlashicha reduplikativ so'zlari quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

a) tovushlarga taqlid qilish: tick-tack, bow-wow;

b) harakatlarga taqlid: see-saw, flip-flop;

g) ma'nosi mavjud bo'lmagan: hocus-pocus, wishy-washy;

d) ma'noni kuchaytiradigan so'zlar: teeny-weeny, tip-top.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz tilida termining so'nggi strukturasi bu asos shaklini o'zgartirish yoki grammatik jihatdan har xil bo'lgan, ma'nosi jihatdan bir xil komponentli boshqa bir asosga o'zgartiriladigan so'zlardir

ya'ni ingliz tilida bu qo'shimcha (suppletion) deb ataladi. Ma'lumki, ingliz tilida sifatning darajalari mavjud, ba'zi terminlar darajalanish paytida shakl jihatdan butunlay boshqa so'zga o'zgaradi, lekin o'sha so'zning qiyosiy yoki orttirma darajasini beradi, masalan, "good – well" so'zlari "better – best" o'zgaradi yoki bo'lmasa "bad va badly", "worse – worst" ga o'zgaradi. Bundan tashqari be fe'li ma'lumki hozirgi zamonda am/is/are tarzida ifodalanadi, o'tgan zamoni esa was/were. Bundan ko'rinib turibdiki, bu jarayon ingliz tilidagi mustasno holat (exceptions) deb tushunsak bo'ladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarda ingliz tilidagi terminlarning strukturasi to'g'risida fikr-mulohazalar yuritildi, bundan tashqari shuni ta'kidlash lozimki, Yevropada diskursiv grammatika, morfologik konstruksiya, leksemalarning tuzilishi, so'zlarning yasalashi va strukturalarida doimiy o'zgarish bo'ladigan hodisalar to'g'risida tilshunos olimlarning fikrini jamlab beradigan "Word structure" jurnali ham mavjud. Ushbu jurnal maqolalari orasidan M.Werner va G.Iordachiolar[2] ham yuqoridagi ma'lumotlarga o'xshab so'zlarning tuzilishini aynan yuqoridagi turlarga bo'lib o'rgangan. Bundan tashqari reduplikativlik to'g'risida T.Berg aynan shu jurnalda o'z fikrlarini berib o'tgan, bunda reduplikativ so'zlarda ko'plikning qo'shilishi bo'yicha ma'lumot berilgan[3].

Shu bilan bir qatorda, Hans-Jorg Schmid tomonidan ingliz tili leksema strukturasi bo'yicha bir qator fikrlar keltirib o'tilgan. Germaniyalik filolog o'zining ilmiy maqolasida leksemalar yasalish strukturasi quyidagicha keltirib o'tgan[4]:

Leksema yasalish shakllarini 2 guruhga bo'lgan:

a) morfemik tuzilish (morphemic patterns);

b) morfemik xususiyatga ega bo'lmagan tuzilish (non-morphemic patterns).

Morfemik shakllarning o'zi ham 3 kichik guruhlarga bo'lingan:

a) kompozitsion; b) konversiya; d) derivatsiya.

Morfemik bo'lmagan shakllar ham bir necha guruhlarga kichik guruhlarga bo'linadi:

a) reduplikatsiya; b) blending; d) clipping;

e) qisqartma shakl; f) backformation[5].

Berilgan barcha fikrlarni jamlagan holda, shunday xulosaga kelish mumkinki, ingliz tili so'z yasalish strukturasi borasidagi yuqorida shakllangan fikrlardan Hans-Jorg Schmid tomonidan ilgari surilgani leksemalar tuzilishini yaqqol ko'rsatib berdi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishida android operatsion tizimi mobil ilovalarining terminlari tahlil etilayotgan ekan, ularning strukturasi jihatdan quyidagicha fikr berishimiz mumkin, xususan, Vindovs operatsion tizimi ichki sozlamalar menyusida ko'rsatilgan terminlarning tuzilishiga keladigan bo'lsak, mazkur menyuda berilgan sodda terminlar quyidagilardir, yuqorida ta'kidlab o'tildiki, sodda terminlar yakka asosli, ularda yaxlit shakl va semantik tuzilish aks etadi. Ingliz tilida sodda terminlarni o'rganishda so'zlarning sodda tub yoki sodda yasama ekanligi ajratib olish lozim: World, fast, message, app, free, start, confirm, code, enter, dictate, search, contacts, channels, bots, viewing, discover, section, location, access, store, files, devices, language, feature, loading, settings, folders, advanced, downloads, auto, groups, publications, edit, unread, personal, description, optional kabi bir asosli atamalar ishlatilgan. Ular orasidan world, fast, message, free, start, confirm, code, dictate, search, access, store, language, feature, edit, section kabi terminlar sodda tub deb olsak bo'ladi, buning asosiy sababi bu terminlarga birorta qo'shimcha qo'shilmagan, lekin shuni ta'kidlash lozimki, bu so'zlar orasidan ayrim so'zlarning asosi eski lotin tilidan tarqalgan bo'lib, zamonaviy tilda ular deyarli foydalanilmaydi. Hattoki "world" atamasining tub asosi "–al" so'zidan kelib

chiqqan[6], lekin hozirga kelib “world” soʻzi tub soʻzga aylangan. Xuddi shunday soʻzlardan yana “free”, “search”, “section” atamaları ham mavjud. Yuqorida taʼkidlanganidek, sodda terminlar ikkiga ajratilgan boʻlsa, sodda tub terminlarning oʻzi ingliz tilida maʼno anglatuvchi va maʼno anglatmaydigan grammatik soʻzlarga ajratilgan edi, sodda tub terminlar orasidan yuqoridagi atamalarning barchasi maʼno anglatadigan atamalar hisoblanadi, quyidagilar esa maʼno anglatmaydigan atamalar hisoblanadi: a, to, or, from, any, such as, for, on, in, this, the.


Sodda yasama terminlar advanced, notifications, unread, location, telegram, privacy, security, storage, payment, additional, verification, profile kabi terminlar ingliz tilida odatda derivatsion qoʻshimchalar qoʻshilishi orqali yasaladigan soʻzlar hisoblanadi. Masalan, store + age = strage, add + tion + al = additional. Ushbu mobil ilova terminlar orasidan infleksion (shakl yasovchi) qoʻshimchalar qoʻshilgan sodda terminlar ham mavjud, bular: bots, channels, publications, viewing, calls, settings, messages, sounds, folders, features. Bunday atamalarga faqatgina koʻplik qoʻshimchasi qoʻshilyapti, hech qanday maʼnolarini oʻzgartiradigan birorta oʻzgarish boʻlgani yoʻq.

Yuqoridagi tahlilda Vindovs operatsion tizimi ichki sozlamalar menyusida qoʻshma terminlar ham ishtirok etgan. Odatda qoʻshma terminlardan juda kam foydalaniladi. Bajarilishi kerak boʻlgan barcha jarayonlar buyruq maʼnosidagi feʼllar bilan ifodalangan. Mobil ilovadagi sanoqli terminlar ingliz tilidagi qoʻshma soʻz yasash qoidasiga boʻysunadi. Masalan, new group, new channel birikmalarini qoʻshma soʻz deb hisoblamadik, sababi, bu yerda maʼnoni oʻzgartiradigan birorta yaxlitlik yoʻq, lekin night mode, desktop, username, call setting, chat setting, saved messages, interface, badge counter, taskbar icon, forwarded messages, voice messages, local passcode, blocked users, two-step verification, shipping info, connection type, download path.

ot + ot = ot: desktop, username;

feʼl + ot = ot: saved messages, forwarded messages;

sifat + ot = ot: local passcode[7].



Xulosa va takliflar. Xulosa oʻrnida taʼkidlash joizki, Microsoft Vindovs operatsion tizimi menyusidagi terminlari qatorida bir xil turdagi terminlar uchraydi. Tadqiqotdagi mobil ilovalarning 836 ta terminlari tadqiq etildi, shundan, 1256 ta sodda terminlardir, Ular orasidan faqat shakl yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilgan 126 ta terminlarni tashkil qiladi, yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilishi natijasida turkumi va maʼnosini oʻzgartirgan terminlar 231 tani tashkil qiladi.

Mikrosoft Vindovs operatsion tizimi qoʻshimchaga menyusida terminlarning tuzilishiga toʻxtaladigan boʻlsak, bosh menyusiga taalluqli boʻlgan terminlar orasidan faqatgina sodda leksemalarni uchratishimiz mumkin, masalan, search, discover, google. Mazkur kaskad menyusiga taalluqli boʻlgan terminlar tahlil qilinganda, yuqorida morfemik shakllar bilan yasalgan leksemalarni uchratishimiz mumkin, Xususan, history, downloads, share, page, find, site, settings, help kabi leksemalar sodda, bookmarks, desktop, feedback kabi leksemalar kompozitsion tuzilishdagi leksemalarni uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari morfemik boʻlmagan birikmalarni ham uchratishimiz mumkin, masalan, find in page, new tab, desktop site, recent tabs kabi ikki komponentli murakkab birikmalar, add to home screen, new incognito tab kabi uch komponentli murakkab birikmalardan foydalanilgan[8]. “Sozlamalar menyusida”da ham turli xildagi birikmalar uchraydi. Ularni birma bir tahlil qiladigan boʻlsak, sodda leksemalar lekin yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilishi natijasida, affiksatsiya hamda prefiksatsiya shakllaridagi leksemalarni ham kuzatishimiz mumkin. Misol tariqasida, affiksatsiya va prefiksatsiya shakldagi quyidagi terminlarni keltirishimiz mumkin: safety, security, privacy, manager, notifications, accessibility, payment, information, preload, navigations, unsafe, default. Shu bilan bir qatorda, toolbar, shortcut, password, homepage, website, override, upgrade, sandbox[9] kabi kompozitsion shakldagi terminlardan foydalanilgan. Taʼkidlash joizki, yuqorida ikki va uch komponentli murakkab birikmalar kaskad va bosh menyusida qoʻllanilgan, lekin ichki sozlamalar menyusiga oʻtgan sari hamda mobil ilovada bajariladigan harakatlar koʻpaygan sari vazifalarni ochib beradigan toʻrt va besh komponentli birikmalarni ham ushbu mobil ilova terminlari orasida kuzatdik. Bunday terminlarga always, use secure connections, save and fill payment methods, fills in payment forms with your saved payment methods, upgrade navigations to HTTPS, based on your usage[10] kabi bir necha komponentli murakkab leksemalar birikmasi misol boʻla oladi.

Murakkab shakldagi kompozitsion(ikkita leksemalarning qoʻshilishi natijasida shakllangan) usulda yasalgan 165 ta terminlar tadqiq etildi. Mobil ilova terminlari orasida 82 ta qisqartma usulda shakllangan komponentlardan foydalanilgan. Shuningdek, 233 ta ikki, uch toʻrt va undan koʻp inglizcha leksemalardan tashkil topgan murakkab birikmalardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.ruf.rice.edu/~kemmer/Words04/structure/index.html#:~:text=Native%20speakers%20recognize%20the%20morphemes,a%20suffix%20%22%20Dness%22.>
2. Iordachio G, Werner M. - Introduction: Compounds between words and phrases, Word structure journal, 13(2), Edinburgh university press, p.127-141.
3. Berg T- The directionality of reduplicative plurality, 15(1), Word structure journal, Edinburgh university press, p.1-27.
4. Hans-Jörg Schmid – The scope of word formation research, in book Word formation, p.1-21
5. Matthews, P.H. Morphology / P.H. Matthews. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – 264 p.
6. https://www.etymonline.com/word/*al-?ref=etymonline_crossreference#etymonline_v_52550
7. https://www.researchgate.net/publication/298075364_The_scope_of_word-formation_research
8. Haspelmath, M., Sims, A. Understanding Morphology / M. Haspelmath, A. Sims. – 2nd ed. – London ; New York: Routledge, 2010. – 256 p.
9. Aronoff, M., Fudeman, K. What is Morphology? / M. Aronoff, K. Fudeman. – Malden: Wiley-Blackwell, 2011. – 192 p.
10. Katamba, F. Morphology / F. Katamba. – London: Palgrave Macmillan, 1993. – 218 p.



UDK: 821.09 (100) (091)

Tolib NAJMIDDINOV,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tadqiqotchisi
E-mail: tolibbek@gmail.com
Orcid ID: 0009-0004-8242-0849,

TDPU professori, filologiya fanlar doktori Q.Qahramonov taqrizi asosida

XORXE LUIS BORXES ADABIY MEROSINING JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

Аннотация

Lotin Amerikasi adabiyotining ilg'or yo'nalishlarini belgilab bergan, o'z ijodi bilan adabiyotda ulkan qomus yarata olgan argentinalik buyuk yozuvchi Xorxe Luis Borxes ijodida Lotin Amerikasi xalqlari madaniyati, falsafasi va san'ati butun bo'y basti bilan namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada argentinalik buyuk yozuvchi Borxes asarlarining jahon adabiyotshunosligida tutgan o'rni, asarlarining o'ziga xos xususiyatlari, yangi adabiy janrlar hamda yo'nalishlarning paydo bo'lishi, dunyo madaniy merosining katta qismining ijodiga singdirilishi, asotir va afsonalar haqida mulohaza yuritadi.

Kalit so'zlar: Jahon adabiyotshunosligi, oqim, avangard, mifologiya, afsona, janr, badiiy tafakkur, ramz, timsol, esse, rang-baranglik, o'ziga xoslik, uslub.

ИЗУЧЕНИЕ ЛИТЕРАТУРНОГО НАСЛЕДИЯ ХОРХЕ ЛУИСА БОРХЕСА В МИРОВОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация

Культура, философия и искусство народов Латинской Америки в полной мере отражены в творчестве великого аргентинского писателя Хорхе Луиса Борхеса, который определил прогрессивные тенденции в латиноамериканской литературе и создал своим творчеством огромную энциклопедию в литературе. В статье рассматривается место творчества великого аргентинского писателя Борхеса в мировом литературоведении, специфика его произведений, возникновение новых литературных жанров и направлений, включение в его творчество значительной части мирового культурного наследия, мифы и легенды.

Ключевые слова: Мировое литературоведение, движение, авангард, мифология, миф, жанр, художественная мысль, символ, образ, эссе, многообразие, самобытность, стиль.

THE STUDY OF THE LITERARY HERITAGE OF JORGE LUIS BORGES IN WORLD LITERATURE STUDIES

Annotation

The culture, philosophy and art of the peoples of Latin America are fully reflected in the work of the great Argentine writer Jorge Luis Borges, who determined the progressive trends in Latin American literature and created a huge encyclopedia in literature with his work. This article discusses the place of the works of the great Argentine writer Borges in world literary studies, the specific features of his works, the emergence of new literary genres and trends, the incorporation of a large part of the world's cultural heritage into his work, myths and legends.

Key words: World literary studies, movement, avant-garde, mythology, myth, genre, artistic thought, symbol, image, essay, diversity, originality, style.

Kirish. O'tgan asrning oxirgi choragida rus tili orqali bo'lsa ham o'zbek kitobxoniga yetib kelgan Lotin Amerikasi adabiyoti, ayniqsa, nasri hammamizni hayratga solgan edi. O'tgan asr intihosida Lotin Amerikasi yozuvchilarining katta to'lqin bilan ko'tarilishi, ijodiy parvozini jahonning yirik adabiyotshunoslari bejiz "Amerikaning ikkinchi bor kashf qilinishi" deb baholashmagandi. Lotin Amerikasi mamlakatlarining Argentinalik Borxes, Onetti, Markes, Benedetti, Xulio Kortasar, kubalik Alexo Karpenter, kolumbiyalik Gabriel Garsia Markes, gvatemalalik Migel Anxel Asturias, meksikalik Karlos Fuentes singari o'nlab favqulodda buyuk adiblari yaratgan maktablar jahoniy adabiyotni yangicha ruh, o'zgacha mazmun va shakl bilan boyitdi. Mana shunday ulkan e'tirof sababchilaridan biri umri davomida barakali ijod qilgan argentinalik buyuk adib Xorxe Luis Borxesdir. Uning ijodida Lotin Amerikasi xalqlari madaniyati, falsafasi va san'ati butun bo'y basti bilan namoyon bo'ladi. Shu bois Borxes asarlarining tag ildizini bilish, o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorxe Luis Borxes antik davr va hozirgi zamon Sharq-u G'arb sirlarini anglashga intilgan, ko'pgina xalqlarning

falsafiy hamda diniy-mistik ta'limotlarni o'rgangan va ularni o'z ijodi mohiyatiga mohirona singdirgan adibdir. Uning ijodi ham estetik zavq, ham teran ilm-ma'rifat berishi bilan qadrlidir.

Metodologiya. Maqolada adabiyotshunoslikda qo'llaniladigan bir qancha metodlardan foydalanilgan. Jumladan, ijodkor shaxsiyati bilan bog'liq tahlillar avtobiografik metoddan, asarlarining tahlili qiyosiy metoddan foydalangan holda tahlilga tortilgan. Shuningdek, Lotin Amerikasi adabiyoti va Borxes ijodi tarixiy-madaniy metod orqali solishtiriladi hamda tahlillar asnosida ijodkor shaxsiyati gavdalandiriladi.

Asosiy qism. Lotin Amerikasida diniy va mifologik ong – zamonaviy Lotin Amerikasi sivilizatsiyasida qorishiq xususiyatga ega va Yevropa, Sharq, Amerika hamda Afrika xalqlarining etnik madaniy an'analari va marosimlarining tarkibiy qismlari birlashuvini anglatadi.

Zamonaviy Yevropa falsafasi uchun mifologik tafakkur arxaik yoki ekzotik tushunchaga aylandi. Ular afsonalarga zamonaviy ong darajasiidan kelib chiqib, uning asosiy manbalariga e'tibor qaratishadi. Ayni shu jihat Lotin

Amerikasi ijodkorlarida kuzatilmadi hamda folklor elementlariga katta e'tibor qaratishdi. Aynan folklor elementlari orqali qit'a madaniyatining asosi bo'lgan "shaxsiyat g'oyasi" tasviri XX asr adabiyotida "yangi to'lqin" deb e'tirof etildi. Lotin Amerikasi adabiyoti va falsafasi rivojlanishining asosiy yo'nalishi – o'ziga xosligini tasdiqlash, madaniy mohiyatni izlash, boshqacha aytganda, o'z-o'zini taftish qilishga qaratilgan.

Xorxe Luis Borxes o'z asarlarida folklor elementlarini Lotin Amerikasining hayotiy haqiqati sifatida ko'p bor tasvirlagan. Ammo ular falsafiy yozuvchi nuqtai nazaridan talqin qilinganligini ta'kidlash joiz.

Mamlakatimizda esa Borxesning mashhurligi faqat qayta qurishdan keyin boshlandi. Rossiyadagi lotin Amerikasi yozuvchisining asosiy tadqiqotchilaridan biri Boris Dubin 1975 yilda Borxesni tarjima qilishga uringanini eslaydi. "Bu deyarli amalga oshdi, lekin oxir-oqibat u nashr etilmadi. Borxes chililik diktator bilan kechki ovqatga borgan ma'lum bo'ldi va hamma narsa taqa taq to'xtadi. Borxes deyarli o'n yil davomida Ittifoqda butunlay taqiqlandi" (Дубин Б.В., 2017, 17). Uning Pinochet bilan uchrashuvi argentinalik yozuvchiga nafaqat SSSRda mashhurlikka, balki Nobel mukofotini qo'lga kiritishi uchun ham qimmatga tushadi – bu o'sha davrda ancha siyosiyashiriladi. Dubin Borxesning maxsus maqomini eslatib o'tadi: "1984 yilgacha davom etgan Sovet Ittifoqida – antologik tarjimalarda biroz nashr etish mumkin edi, ammo mualliflik to'plamlariga ruxsat berilmagan" (Дубин Б.В., 2017, 18). Natijada, Borxes asarlarining rus tilidagi birinchi to'plami faqat 1984 yilda Rigadagi "Polaris" ("Polyaris" – 1980-yillarning oxirida Rigada tashkil qilingan, asosan fantastika adabiyotiga ixtisoslashgan rus tilidagi nashriyot uyi) nashriyoti tomonidan, so'ngra bir qancha asarlari va u bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladi (Quyidagi nashrlarni misol sifatida keltirish mumkin: Иностранная литература, 1984, № 3; Ямпольский М.Б. Метафоры Борхеса // Латинская Америка, 1989, № 6; Дубин Б. Четыре притчи о цивилизации // Знамя, 1993, № 10. // Борхес Х.Л. Проза разных лет: Сборник. - М.: Радуга, 1989. - 320 с. // Борхес Х.Л. Коллекция: Рассказы; Эссе; Стихотворения. – СПб.: СевероЗапад, 1992. - 639 с. // Борхес Х.Л. Сочинения в трех томах. - М.: Полярис, 1997. // Вайль П. Другая Америка. Мехико - Ривера, Буэнос-Айрес – Борхес / Иностранная литература. - 1996. - № 12. - С.230-241. // Гадамер Г.-Г. Философия и герменевтика. Гадамер Г.-Г. Актуальность прекрасного. М., 1991. // Генис А. Русский Борхес // Новый мир. - 1994. - № 12. - С.214-222. // Гессе Г. Игра в бисер. - М., 1969. - 448 с). Keyinchalik 2005 va 2011 yillarda Sankt-Peterburgdagi "Amfora" tomonidan yanada kengaytirilgan versiyalari nashr etildi (Борхес Х.Л. 1989, С -320). O'zimizda esa X.Borxes hayoti va ijodiga bag'ishlangan maqola va tarjimalar XX asrning so'ngida "Jahon adabiyoti", "Sharq yulduzi", "Yoshlik", "Yosh kuch" va "Tafakkur" jurnallarida berila boshlandi. 2019 yilga kelib uning "Al-Muhtasimga yaqinlashuv: hikoyalar" kitobi Sharifjon Ahmad tarjimasi bilan "Akademnashr" nashriyotida 2019 yil nashr qilindi (O'zbek kitobxonlari adibni quyidagi nashrlar orqali tanishdi: Борхес Х.Л. Проза разных лет. Москва, "Радуга" 1984 г./ Борхес Х.Л. Современная проза. - Москва, "Радуга" 1984 г./ Хорхе Луис Борхес "Собрание сочинений" Санк-Петербург, "Амфора" 2005 г./ Борхес Х. Л. Письмена Бога / Составление, вступ. статья и прим. И. М. Петровского. — М.: Республика, 1992. — 510 с. / А. Ф. Кофман. Латиноамериканский художественный образ мира.— М., Наследие, 1997.— 320 с. / "Иностранная литература" журналы, 1999 йил 9-сон. // "Знамя журналы" журналы, 2000 йил 12-сон // "Тафаккур" журналы, 2004 йил 1-сон. // "Шарк юлдузи" журналы, 1988 йил 6-сон. // "Ёшлик" журналы, 2000 йил 5-сон. // "Ёш куч" журналы, 2001 йил 2-сон. Интернет манбалари: www.latin.es,

www.google.uz, www.lib.ru, www.jad.uz, www.seren.ru, www.yahoo.com, www.rambler.ru, www.yandex.ru, www.ziyouz.com. // Борхес Х.Л. Ал-Муhtасimgа яқинлашув: ҳикоялар (Шарифжон Аҳмад таржимаси). – Т.: Академнашр, 2019. – 288 б.).

Borxes ilmiy va badiiy adabiyotda tez-tez tilga olinishiga qaramay, to'g'ridan-to'g'ri uning ijodiga bag'ishlangan asarlar juda kam. Masalan, uning rus tilida faqat bitta tarjimai holi bor – chililik ijodkor Volodya Teitelboim tomonidan ispan tilida yozilgan "Ikki Borxes" kitobi. Mazkur asar kam tiraj bilan nashr etilgan hamda yozuvchining mahorati va manbalarning kengligiga qaramay, muallifning yashirin qarashlari tufayli to'liq ob'ektiv deb hisoblanmaydi. MDH davlatlarida yozuvchi ijodiga bag'ishlangan dastlabki asar – Rostovning "Mart" nashriyoti tomonidan O.P.Chistyuxina muallifligidagi "Ezoterik falsafa" (Эзотерическая философия) seriyasida nashr etilgan 100 betlik "Borxes" kitobidir.

Shuni alohida qayd etish joizki, Borxesga ijodiga bag'ishlangan o'zbek madaniy olamida biror bir asar topilmadi. O'zbek adabiy tanqidchiligida ilmiy va adabiy jurnallarda kichik maqolalar yoki tarjimalar, kitoblarning alohida fasllari bor, lekin yozuvchi ijodiga qaratilgan katta hajmli tadqiqotlar, asarlar yo'q. Shunga qaramay o'zbek adabiy olamida Tal'at Solihov, Olim Otaxon, Viktor Alimasov, Mahkam Mahmudov, Muhammadjon Xolbekov, Sharifjon Ahmedov, Tursin Ali, Nazar Eshonqul, Jabbor Eshonqulov, Murod Chovush kabi ziyolilarning tahlil va talqinlarini kuzatish mumkin.

Umuman olganda, dunyo adabiy jarayonida Borxes olami va ijodi tadqiqiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda uning tanqidchi va tahlilchisi hisoblangan Beatriz Sarloning ispan tilida yozilgan – "Borxes – qirg'oqdagi yozuvchi" (Beatriz Sarlo – Borges, un escritor en las orillas) kitobi ancha bahs munozaralarga sabab bo'lmoqda. Tadqiqot Borxes ijodini keng kamrab olmasada, yozuvchining asarlarini o'tgan asr Argentina adabiy jarayoni doirasida tahlil qilish, faktlarni mukammal bilishi va muallifning asosiy maqsad va intilishlarini chuqur ochib berishi bilan qimmatli. London universitetning ispan va lotin Amerikasi tadqiqotlari fakulteti faxriy professori Jeysun Uilsonning Angliyada nashr etilgan "Xorxe Luis Borxes" (Jason Wilson – Jorge Luis Borges) kitobini ham eslatib o'tish o'rinli. Kitob ijodkorni chuqur o'rganishga va izchil yondashuvlar, yozuvchining mukammal tarjimai holi, u haqidagi batafsil xorijiy manbalar ro'yxati bilan ajralib turadi. Shuningdek, 2021 yilda Ispaniyada nashr qilingan Garabiyeta Leonardo, Forero Marocatica Tereza "Borxes va Sharq" (Garabieta Leonardo, Forero Maria Teresa – Borges y Oriente) asari uning Sharq bilan bog'liq qiziqishlarni va bu jarayonning ijodga ko'chishini batafsil tahlil va tadqiq qilgan yangi adabiy manba namunasi sifatida keltirish mumkin.

Borxes haqidagi izlanishlarni, ilmiy tadqiqotlar haqidagi ma'lumotlarni yana uzoq davom ettirish mumkin, u haqida Argentina, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH va boshqa ko'plab mamlakatlarida turli tillarda yozilgan ilmiy ishlar nashr qilinmoqda. Shu o'rinda yozuvchining ijodiy merosini o'rganadigan ikkita yirik tashkilotni eslatib o'tish joiz. Birinchisi "Borxes akademik tadqiqot markazi" (Borges Center, markaz veb-sayti: <https://www.borges.pitt.edu>) – hozirda Pisburg (AQSH, Pensilvaniya) universitetida Daniel Balderston boshchiligida faoliyat olib boradi hamda uch tilda "Borxes O'zgarishlari (Variaciones Borges)"li jurnal nashr etiladi. Ikkinchisi – yozuvchining bevasi Mariya Kodama tomonidan tashkil qilingan "Xorxe Luis Borxes xalqaro jamg'armasi" (Fundación internacional Jorge Luis Borges, fond veb-sayti: <http://www.fundacionborges.com.ar>), yozuvchi ijodini o'rganish va ommalashtirish, unga

bag'ishlangan kitoblar, jurnallar va ixtisoslashgan nashrlarni chop etish bilan shug'ullanadi.

Borxesning Yevropa madaniy va falsafiy an'analari bilan chambarchas bog'liqligiga qaramay, uning o'zi har doim u, birinchi navbatda, argentinalik yozuvchi ekanligini ta'kidlagan. Argentinaning mahalliy mifologiyasiga - harbiy o'tmish mavzulariga, shuningdek, tub aholi hikoya va asotirlariga murojaat qiladi. Bundan tashqari, Borxesning asarlari markazida "umuminsoniylik" hojalari turishiga qaramay, ular Lotin Amerikasiga xos bo'lgan ba'zi tasvirlar va mifologiyalarni o'z ichiga oladi.

O.P. Chistyuxina shunday yozadi: "Yozuvchi-faylasufning ijodi o'zining noyob individualligiga qaramay, har doim ma'lum bir yo'nalish yoki oqimga, ma'lum bir davrning badiiy va falsafiy tafakkuriga mansub maktabning ma'lum bir an'analarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan Xorxe Luis Borxes, birinchi navbatda, Lotin Amerikasi madaniyatining ulkan hodisasi, shu bilan birga, Borxes, shubhasiz, xalqaro miqyosdagi, mohiyatan butun insoniyatga tegishli shaxsdir. Shuning uchun uning hayoti va faoliyatiga XX asrning eng muhim jahon voqealari va intellektual yutuqlari prizmasidan qarash kerak." (Чистюхина О.П., 2005, 52). Adabiy tanqidchi A.F. Kofman ham jumladan, shunday fikr bildiradi: "Borxes o'ziga xos, chuqur individual mifologiyani yaratgan, aniq umuminsoniylik yo'nalishdagi yozuvchi", "Lotin Amerikasi badiiy tafakkurining barqaror obrazlari va mifologemalari (Mifologema (yunon tili "μῦθος" - fikr, aql) - mifologik syujetlar, sahnalar, globallik, universallik bilan ajralib turadigan va dunyo xalqlari madaniyatida keng tarqalgan tasvirlar) hayratlanarli aniqlik bilan namoyon bo'ladi" (Борхес Х.Л., 2011, 10). Uning ijodida milliy-madaniy ohang to'g'ridan-to'g'ri tasvirlashda emas, yashirin holatda to'liq namoyon bo'ladi.

Bu hikoyalar ma'lum intellektual tayyorgarlikni talab qiladi. Asarlarining tili, g'oyasi va syujeti murakabligi bois ham toki 1961 yilgacha o'z vatanida deyarli e'tibordan chetdagi yozuvchi edi; 1961 yil fransuz va boshqa tillarga asarlari o'girilgach, bir necha oyning o'zida avval Yevropada, so'ng o'z vatanida eng mashhur yozuvchiga aylandi, shu yil adabiyotni va adabiy uslubni yangilashdagi xizmatlari uchun Absurd teatri otasi Semyuel Bekket bilan birga "Formentar" (Shuningdek, "Formentor de las Letras" nomi bilan tanilgan xalqaro adabiyot mukofoti. Mukofot 1961 yildan 1967 yilgacha va uzoq tanaffusdan so'ng, 2011 yildan boshlab topshirilmoqda. Mukofot o'z nomini adabiy kecha va yig'inlari bilan mashhur bo'lgan Ispaniyaning Mallyorka orolidagi Formentor shahridan olgan) mukofotiga sazovor bo'ldi hamda kitoblari barcha mamlakatlarda minglab nusxada chop etila boshladi. O'z vatanlarida eng e'tiborli sanalغان intellektual adabiyot vakillarining aksariyati Fransiyada chop etilgach, shuharat topib ketishlarida o'ziga xos hikmat bor, albatta. Fransuz adabiyoti jahon adabiyotidagi eng qiziqarli, turli xil oqim, eksperimentlarga boy, adabiyotni yangilashdek buyuk maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan modernistik yo'nalishni boshlab bergan, g'oyat rang-barang adabiyotdir. Bodler, P.Volerm, Rembo asarlari modernizmning dunyoga kelishiga juda katta turtki berdi.

Sharq afsonalarini juda-juda eslatuvchi miflarga qurilgan roman va hikoyalar bilan maftun qilgan ulkan yozuvchi XX asrning ikkinchi yarmidan adabiy doiralarda bir ovozdan "Lotin Amerikasi nasrining otasi" deb baholandi. Baholashda adashilmagan ekan. Bu haqda hozirda dunyoning mashhur yozuvchisi bo'lgan Paulo Koelo ispan adibi Xuan Arias bilan bir subhatda shunday deydi:

"Yoshligimda Borxes men uchun avliyo edi, hozir ham shunday. U bilan tanishish uchun bir kuni Rio de-Jeneyrodan avtobusga o'tirib, Argentinaga yo'l oldim. Unga telbalarcha sig'inar edim. Yonimda bir qiz ham bor edi. Biz qog'ozda ko'rsatilgan manzilga keldik. Borxesni o'z uyining

ruparasidagi mehmonxonada, deb aytishdi. Men yoniga bordim. Borxes kursida o'tirar edi. U bilan gaplashish uchun qirk sakkiz soat mijja qoqmay keldim, ammo yuzma-yuz bo'lgach, so'zlash qobiliyati meni tark etdi. "Qarshimda men sig'inadigan sanam turibdi, sanamlar esa gapirmay-di", deb xayolimdan o'kazdim. Unga bir og'iz ham so'z aytoilmadim. Qiz esa bu holatni tushunmasdi. Unga: "Men afsonaga aylangan odamni ko'rmoqchi edim va bu baxtga erishdim", deb tushuntirdim. Aslida u yerda so'zga hojat qolmagan edi... Mening hamma kitoblarimda Borxesning ta'siri bor" (P.Koelo, 2018, 153).

U o'z fikrini davom ettirib XX asrning ikkinchi yaramidan keyin adabiyot maydonida paydo bo'lgan butun Lotin Amerikasi adabiyoti vakillari Borxes maktabidan chiqqan degan fikrni ilgari suradi va bir qancha muhim dalillar bilan o'z fikrini asoslaydi (X.Arias, P.Koelo, 2004, 7).

Borxes chet el adabiyotini o'qiyotganda madaniy o'tmishni qaytadan kashf etadi va Argentina adabiy an'analarni qayta tiklaydi. Milliy madaniy an'analarni qayta tashkil etish, o'z navbatida, yozuvchiga jahon adabiyotini milliy xurofotlarsiz tahlil qilish, saralash va tartibga solish imkonini berayotganini hisobga olsak, bunga qo'shilmaslik qiyin. Borxes ijodining yana bir muhim jihati - yozuvchi-tanqidchi, yozuvchi-faylasuf sifatida u o'z matnlarida to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita zamonaviy adabiyot va falsafaning asosiy mavzularini muhokama qiladi.

Lotin Amerikasi namoyandalari o'zlarini "butun dunyo" adabiyotining merosxo'rlarimiz deb atar ekan, bunda avvalo, Borxesning xizmatlarini nazarda tutadilar. Borxes ijodida xitoy, hind, islom, yevropa faylasuf va shoirlarining asarlar, shaxslar hamda ularning insoniyat tafakkuri hamda ijtimoiy tarixida tutgan o'rinlari haqidagi badiiy xulosalar joy olgan. Uning asarlari ichida barcha zamonlarning aksar ulug'lari, barcha xalqlarning aksar folklor qahramonlari, tarixiy voqealar va shaxslar, dunyo tamadduni beshigi bo'lgan manzillar, madaniyat nuqtalari, tafakkur manzillari, insoniyatning ardoqli mulkiga aylangan barcha moddiy-nomoddiy xazinalar o'z tasvirini topgan. Hatto uning ijodida aynan bizning madaniyatimizga tegishli ertaklar, Sumurg' va Pari kabi folklor namunalari, Muqanna, Sarbadorlar, Imom Al-Buxoriy, Amir Temur kabi tarixiy shaxslar, Avesto va tasuvvufga bag'ishlangan katta-kichik hikoyalar, esselar uchraydi. Borxes o'z ijodida butun dunyo tafakkur tarixini shuhratparastlik yoki shunchaki xabardor bo'lib qo'yish tasvirlamagan: u bu tafakkur mahsullaridan hamisha zavqlanib kelgan, ularga XX asrdagi fikrovchi inson nuqtai nazaridan baho bergan, ularni yagona, yaxlit holatda adabiyotga olib kirgan (<http://uza.uz/oz/society/>).

Yozuvchi o'zining fantastik asarlari, fundamental shakldagi chuqur falsafiy va sarguzashtlarga boy ijodi hamda detektiv hikoyalari bilan mashhurlikka erishadi. 1920 yilda u Lotin Amerikasi she'riyatidagi avangard asoschilaridan biriga aylanganligi bois muallif hikoyalarida metafizik (yun. metaphysika - fizikadan so'ng - borliqning sezgilardan yuqori turuvchi priisiplari va umumiy asoslari to'g'risidagi fan) fantastiqa va she'riy usullar o'zaro uyg'unlikda badiiy shaklga kiradi. Asarlarning badiiy tili o'zining yuqori salohiyati va ommaviy madaniyat usullarini mavhum metafizik g'oyalar shaklida qamrab olgani bilan ahamiyatlidir (Бычков В. В., 2003, 18-21).

Jahon adabiy tanqidchiligida Borxes haqidagi munozaralar o'tgan asrning 60-yillaridayoq boshlangan. Bu munozaralarda, asosan, Borxes o'zi kim, yozuvchimi, shoirmi, faylasufmi, mutafakkirmi yoki kitoblardan olgan taassurotlarini shunchaki o'ta shaxsiy tarzda konspekt qilgan kishimi; yoki adabiyotlarni bir-biriga sintez qilgan olimmi? degan masalalar qo'zg'alib turibdi. Bu munozaralar qizg'in tus olgan sayin Borxes ijodini tahlil qilgan, qilayotgan tanqidchilar uning yuqoridagi barcha mavzularga javob bera

olishi mumkin bo'lgan yirik iste'dod ekaniga ko'proq amin bo'lmoqdalar (<https://ziyouz.uz/matbuot>).

J.Apdayk (Jon Xo'yr Apdayk – amerikalik yozuvchi, shoir va adabiy tanqidchi, ko'plab adabiy mukofotlar sovrindori. Borxes ijodi bo'yicha bir nechta universitetlarda ma'ruzalar o'qigan) Borxesni “yozuvchi-kutubxonachi” deb ta'riflaydi. U o'zining zamonaviy hayoti aks-sadolarini emas, balki faylasuflar, yozuvchilar, tasavvuf va ilohiyotshunoslarning kitoblarida mujassamlangan jahon madaniyati antologiyasini o'ziga singdirgani ham buni tasdiqlaydi. Borxes tomonidan yaratilgan asarlar “uning asarlari butun dunyoni o'z ichiga olgan, alifbo tartibida joylashtirilgan – kitob miniatyurasi (XV asrgacha yaratilgan tom ma'nodagi rasmi ensiklopedialar. Kitob miniatyurasi mustaqil san'at turi, qo'lda yozilgan kitoblardagi obrazli

rasmlar majmui hisoblangan. 15-asr o'rtalarida matbaa ixtirosi uning yo'qolishiga olib keldi)” edi (Borxes X.L., 1992, 5).

Xulosa qilib aytganda, Argentinalik yozuvchi va shoir Xorxe Luis Borxes ijodida mavjud bo'lgan kulturologik va falsafiy-antropologik g'oyalarni ko'rib chiqib, birinchi navbatda, uning asosiy falsafiy muammolarni yaxlit idrok etishini ta'kidlash kerak. U XX asr buyuk yozuvchilaridan biri bo'lib, dunyoning turli mamlakatlarida izdoshlarini topadigan ma'lum falsafiy va mafkuraviy qarashlarga ega bo'lgan “kulturolog” tushunchasiga mos keladi. Uningning beqiyos bilimdonligi, uning badiiy adabiyotni sharh sifatida taqdim etish metodi adabiyotda uslublarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Borxes o'zining adabiy va falsafiy qarashlari, izlanishlari tufayli zamonaviy lotin Amerikasi Nasrini amalda ilmiy va falsafiy tafakkur darajasiga o'tdi.

ADABIYOTLAR

1. Дубин Б.В. Очерки по социологии культуры / Борис Дубин. –М.: «НЛО», 2017.
2. Чистюхина О.П. Борхес / О.П. Чистюхина. –М.: ИКЦ «Март»; Ростов н/Д: Издательский центр «Март», 2005.
3. Борхес Х.Л. Собрание сочинений: в 4 т.-2-е изд., стер. / Хорхе Луис Борхес. –СПб.: Амфора. ТИД Амфора, 2011.
4. Пауло Коэльо. Алхимёгар. 2-нашр. – Т.: “Ўқитувчи” НМИУ. — 2018.
5. Хуан Ариас, Пауло Коэльо. Исповедь паломника. – М.: Издательство София. 2004.
6. http://uza.uz/oz/society/mu-anna-talimoti-parda-ostida-21-01-2020?sphrase_id=5068460
7. В. В. Бычков. Борхес. Лексикон неклассики. Художественно-эстетическая культура XX века.. – Москва: Радуга, 2003 г.
8. <https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/nazar-eshon-ul-borhes/>
9. Борхес Х.Л. Коллекция: Рассказы; Эссе; Стихотворения. - СПб.: Северо-Запад, 1992.



UDK: 81443

Sayyora NAZAROVA,
Senior TEACHER of department "Foreign languages education", TSUE
E-mail: sayyoranazarxon83@gmail.com

PhD, dotsent, U. Tursunova taqrizi ostida

FORMATION OF MELIORATIVE AND IRRIGATION TERMINOLOGY USING THE SEMANTIC METHOD

Annotation

This article provides factual-analytical information on the formation, development, evolution and composition of the terms of irrigation in Uzbek and English. The article also contains information about the specific lexical-semantic, etymological-ethnographic features of the terms of the field, their gradual evolution, the influence of linguistic and extralinguistic factors in the formation of terms.

Key words: semantic methods, terminology, vocabulary, terminology, combination of terminology, word formation, compound terminology, grammar rules, the glossary, terminology of melioration, metonymy, metaphor, sinekdoxa, main plot.

MELIORATSIYA VA IRRIGATSIYA SOHASIGA OID TERMINLARNING SEMANTIK USULDA SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi irrigatsiya terminlarining shakllanishi, rivojlanishi, taraqqiy etishi va tarkib topishiga oid faktik-analitik ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqola soha terminlarining o'ziga xos leksik-semantik, etimologik-etnografik xususiyatlari, tadiridjiy evolyusiyasi, terminlarning shakllanishida lingvistik va ekstralingvistik omillarining ta'siri haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Kalit so'zlar: semantik usul, termin, terminologik leksika, birikma terminlar, so'z yasash, so'z yasalishi, qo'shma terminlar, tarkibli termin, tarkibli nom, grammatik qonuniyatlar, izohli lug'at, meliorativ terminlar, nom ko'chish, metafora, metonimiya, sinekdoxa, bosh ma'no.

ФОРМИРОВАНИЕ МЕЛИОРАТИВНО-ИРРИГАЦИОННОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ СЕМАНТИЧЕСКИМ МЕТОДОМ

Аннотация

В статье представлена факто логически-аналитическая информация о формировании, развитии, эволюции и составе терминов орошение в узбекском и английском языках. В статье также содержится информация об особенностях лексико-семантических, этимолого-этнографических особенностей терминов данной области, их постепенной эволюции, влиянии лингвистических и экстралингвистических факторов на формирование терминов.

Ключевые слова: семантический метод, термин, терминологическая лексика, сложные термины, словообразование, словообразование, сложные термины, сложный термин, сложное имя, грамматические закономерности, толковый словарь, мелиоративные термины, перенос имени, метафора, метонимия, синекдоха, основное значение.

Introduction. In recent years, in a rapidly developing era, as in every field, there have been developments and major changes in science. As a result, in the new 21st century, the English terms irrigation and melioration have become part of the lexicon from a linguistic point of view. Our ongoing scientific research is also devoted to the diachronic study of the terms under study as a result of a comparative-typological study of the terms irrigation and melioration. As a result, new words, concepts, and terms have appeared in almost all sectors, including irrigation and melioration. The formation and development of each terminological system is closely related to the formation and development of the given field, and acquires its own specific characteristics. In this sense, the formation, formation and development of irrigation and melioration terminology in Uzbek and English has its own path of development and genetic foundations.

Methods. Term formation by the semantic method has not yet been the subject of any separate research in Uzbek linguistics. The first notes on term formation by this method were published in the monograph of Prof. S. Ibrohimov entitled "Professional and Professional Lexicon of Fergana Dialects" [1]. Since R. Doniyarov devoted separate pages to the work of this scientist in this field in his monograph "Some Issues of Uzbek Scientific and Technical Terminology", we

did not find it necessary to dwell on this. [2]. In the above-mentioned work, R. Doniyarov specifically focused on the sources of enrichment of the technical terminology of the Uzbek language due to the term formation using the semantic method. The author divides terms formed from common words into four thematic groups: 1. Based on the names of human or animal organs. 2. House - based on the names of household items. 3. Based on the names of household items. 4. Terms made on the basis of non-machine technical terms [2].

We find consistent notes on the creation of terms using the semantic method in S. Usmanov's work "Some Issues of Uzbek Terminology." The author, referring to the semantic method of forming a term from a commonly used word, points out that "the term is not based only on the basic (primary) meaning of the word, which is additionally used, but also on the derived (or artificial) meanings" [3]. It is known that terms created through name transfer do not consist only of root terms, as S. Usmanov also notes: "If a term is complex, one or more of its elements may have a transferable meaning: for example, in the field of anatomy, the words cortex and area in the term cortical areas are used in a transferable meaning" [3].

The linguist N. Mamatov states that the lexical-semantic method of term formation in the terminology of cotton farming is carried out on the basis of formal similarity,

functional similarity, similarity in characteristics, similarity in place, on the basis of simulating concepts, processes and actions specific to all objects to inanimate objects. The author here further divides the lexical-semantic method of name change into methods [4]. In our opinion, it would be more appropriate to explain it as the ways of term formation using the lexical-semantic method.

Results and discussion. In addition, there are studies conducted on certain areas of Uzbek terminology that are more or less related to the formation of terms using this method. For example, in N.T. Hotamov's work on literary terms, it is emphasized that terms such as veil, event, band, knot, and appearance are formed using the semantic method [5].

In his work on the musical terminology of the Uzbek language, S.A. Azizov correctly notes that the names of musical instruments and their details were created semantically based on the similarity of human and animal organs: ear, rib, neck, tongue; and terms such as spoon, key, lid based on the names of household tools and objects. The author also includes terms created using the syntactic method, such as Dugohi Husayniy, Andijan Polka, Samarkand Usshagi, and Khorezm Lazgi, which are made up of anthroponyms and toponyms, as terms created using the semantic method. In addition, this group also includes the compound terms wooden flute, silk string, copper curtain, and copper trumpet. They have no connection with terms created by semantic methods [6].

In A.I. Kasimov's work on pharmacology, quince, pomegranate, fenugreek, lovage, scallion, turnip, mustard, basil, achchiktash, mumiyo, clay, lime, iron, salt, marigold, copper, spirit, silver, honey, fish seed, horse oil, kimiz, fish oil, pork fat, bear fat, etc. are incorrectly indicated as terms created using the lexical-semantic method [7]. It is true that they are used in common usage and terminology alike. However, this fact alone does not give the right to include them in the list of terms created by the lexical-semantic method. They have entered pharmaceutical terminology in the same way as they are used in general usage. In fact, these words have only adapted their meaning to pharmacology.

M.V. Kasimova divides terms created by the semantic method in legal terminology into three types: 1) terminologicalization of commonly used words; 2) specialization of commonly used words and word combinations; 3) semantic changes of words that existed in the Uzbek language in ancient times. The author, while discussing each of these types separately, cannot limit himself to each of them. As a result, he re-enumerates terms such as work and question, which are included in the first type, among the terms of the second type [8].

The division of labor created a group of people engaged in certain areas of production, and along with the development of this area, only a certain part of the objects and concepts specific to this area became relevant in the everyday life of members of society. The rest were used only in the interaction of people in the area.

Nowadays, in the vocabulary of each terminological system, one can find words of general use. Some of them are used in the same meaning as in general use, while others have acquired a different meaning in terminology. It should be noted that the terms that name the most basic concepts in each terminological system are borrowed from general use. For example, the main concepts of land reclamation, such as water, river, drainage, collector, ditch, sea, lake, well, ice, swamp, snow, etc., have been assimilated into their common meanings in Uzbek language. That is why Academician V.V. Vinogradov said, "Any science begins with the results achieved by folk thought and speech, and in the

process of further development it is inseparable from the folk language" [9].

The connection of terminology with the vernacular can also be seen in the semantic methods used in various terminological systems. Terminology is formed using this method, which is reflected in the use of a word that is the name of a well-known object or phenomenon in common usage as the name of an object or phenomenon in the field of terminology. Because, people who develop their material production and material relations change their thinking and the product of their thinking along with their reality. As a result, the word that arises as a result of a person's labor, knowledge, and activity also changes under the influence of his thinking and acquires a multifunctional nature. For example, threshold, peak, mouth, wing, pillow, hat, comb, armpit, nose, shoulder, tooth, hand, ear etc. in reclamation.

It can be seen from the above comments that the conceptual content of the word-name is somewhat general and abstract. The conceptual content of the term is concrete, it reflects the way of life of the subject-phenomenon, its laws, its place and relationship among other subjects-phenomena. It is worth noting that the scientific-practical study of the subject brings certain changes to its general conceptual content. Words and terms that have the same form, but differ in denotation, belong to the second group, that is, they mean different things.

V.P. Danilenko also includes in the first group names that are used simultaneously as words in common usage and terms in the field of science and technology, and notes that they convey the same denotation both in common usage and in terminology, differing only in types of meaning, content, and information capacity [10]. Yu.S. Stepanov, the semantic development of the word is related to the need for two functions of the language, which are to master reality using metaphors and to know and explain it through scientific concepts. Emphasizing that it is subjugated, he expresses that there are two directions in it, "On the one hand, there is an exchange of denotations, and this process is based on metaphor. On the other hand, due to the close connection between the system of word meanings and the system of scientific concepts, the content of meanings is constantly deepening" [11].

The fact that currently, in explanatory dictionaries of national languages, the terminological meanings of words are also marked with special signs fully confirms the ideas of Yu.S. Stepanov. Before we begin the analysis of terms created using the lexico-semantic method in land reclamation terminology and discuss term formation, we will briefly discuss the mechanism of term formation using the lexico-semantic method in general, and the extralinguistic, psycholinguistic, and linguistic factors that play a leading role in its emergence.

As a person observes his surroundings, the objects and events he encounters for the first time in his activity, with their characteristics, remind him of both the characteristics of objects familiar to him through his activity and experience, and the name of the object that naturally possesses these characteristics. Now a person does not look for a new name for a newly encountered object, but rather calls it by the name that comes to mind when it has similar characteristics. The unique characteristics of objects reflect their uniqueness and ensure the naming of different denotations under one name. The psycholinguistic factor, imagination, plays a great role in this process.

As is known, imagination, a necessary element of consciousness, "always connects the meaning and content of concepts with the image of things and at the same time allows consciousness to freely operate with sensory images of objects" [12]. The fact that imagination can simultaneously

relate to the present, the past, and the future leads to its manifestation in the form of memory and imagination. "Memory is the preservation of the results of the individual's interaction with the world, this preservation allows these results to be reproduced and used in subsequent activities (emphasis ours - M. O.)" [13].

Term formation using the lexical-semantic method can occur in the interaction of memory and imagination. In this case, newly created objects are named based on life experience, that is, newly created objects are expressed based on the characteristics and functions of objects that have their own names, and in a certain sense can be evaluated as a product of creativity. Today, we see that the details and working parts of various machines and mechanisms are named after household items. For example, the fact that the cultivator's working part, which cuts weeds and loosens the soil, was created based on the shearing and cutting function of a blade, is evidence of this, and it is called a blade. Compare: Knife - a household tool with a flat and long blade mounted on a handle; A knife is a working organ of agricultural machinery that cuts soil, plant stems, leaves and leaves. Grating blades are attached to its (knife drum - M.O) outer surface.

Term formation by the lexical-semantic method is observed mainly from non-linguistic phenomena, mainly metaphor and metonymy. The widespread use of metaphor and the relatively rare occurrence of metonymy are due to the requirement of precision imposed on the term.

Metaphor is the transfer of one name to another based on similar features of two objects and phenomena. There are objective and subjective factors for this. This process always occurs under the influence of two needs, namely when it is necessary to name a new object or when it is necessary to express our attitude to a given object by naming it. Both the objective factor and the subjective factor are phenomena that have been used in language since ancient times. Metaphor, which is a product of an objective factor, serves the goals and tasks of journalistic, artistic and conversational style.

In the terminology of land reclamation, there are also terms created by lexical-semantic methods through the transfer

of names based on metaphor. Such terms are widely used in processes related to drainage, collectors, land reclamation facilities, drainage ditches, water structures and waterways. According to the nature of their naming, they can be divided into the following thematic groups: 1. Based on the names of human parts: nose, throat, throat, lid, hand, ear, armpit, foot (leg), elbow, shoulder, rib, tooth, tongue, etc. 2. Based on the names of household items: comb, bedspread, bowl, pillow, bed, mirror, etc. 3. On the basis of food names: chalpak, fat, etc. 4. Based on the names of clothes: pocket, collar, hem, etc.

In addition, there is a metaphorical transfer of terms from one field of land reclamation to another. For example, it is possible to observe the use of terms related to land reclamation in glaciology: glacial tributary, glacial trough, glacial waterfall. Or the term reclamation area, in modern oceanology, refers to long, deep depressions under the ocean.

The main meaning of the word water in common usage is a liquid used to irrigate agricultural crops that is suitable for drinking. As is known, water has its own known sources (for example, a ditch, a lake, a sea, a spring, etc.). Later, based on metonymic transfer, the word water is also used to denote a place of constant movement of water. We often encounter this situation in popular speech; I walked along the banks of the river (or along the river). The use of water in this sense is also noted in dictionaries: through the compound "water brought", it is understood as digging a ditch for irrigation and bringing water. It is worth noting that water is used in this sense in other Turkic languages. Russian onomist, geographer E.K. Murzaev found out that the lexeme water is used in Turkic languages in the meaning of "stream, lake" [14].

Conclusion. In conclusion, in every field terminology, actually in melioration terminology, formation by the semantic method occurs with the participation of psycholinguistic (psycho-linguistic) factors - memory and imagination, which reflects the dialectical unity and opposition of general and individual aspects of objective existence, objects and phenomena, as well as the human experience of knowing, practically studying and mastering objective reality.

LITERATURE

1. Ibrohimov S. Fergana dialect of the professional vocabulary. –Tashkent, 1959. – 284 b.
2. Doniyorov R. Uzbek language for technical terminology, some of the issues. –Tashkent: Fan, 1977. – 157 b.
3. Usmonov S. of uzbekistan the terminology of some issues. – Tashkent: Arrowituvchi, 1968. – 69 b.
4. Preparation N. Uzbekskeya xlopkovodcheskaya terminology. Avtoref. dis...the problem. Filo. nauka . –Tashkent: Nauka, 1955. – 27 s.
5. The role of n. t. Razvitie uzbekskoy literaturovedcheskoy terminology. Avtoref. not a problem... dis. Filo. nauka . – Tashkent: Nauka, 1965. – 27 s.
6. Azizov s. a. Vocabulary-grammaticeskoe issledovanie muzikalnoy terminology uzbekskogo yazika. Avtoref. not a problem... dis. Filo. –Tashkent: Nauka, 1981, S. 18.
7. Qosimov i. a. Farmasevticheskaya termsm v sovremennom uzbekskom yazike. Avtoref. not a problem... dis. Filo. nauka. –Tashkent.
8. In guliyev h. m. Struktur-Sistem osobennosti yuridicheskoy terminology uzbekskogo yazika. Avtoref. not a problem... dis. Filo. nauka. –Tashkent: Nauka, 1985. – 27 s.
9. Vinogradov , A. A. Izbrannie Truman. Leksikologiya i leksikografiya. – M.: 1977. – 165 s.
10. Danilenko v. p. Russkaya terminology. – M.: Nauka, 1977. – 146 s.
11. This Yu.S. Osnovi obtshego yazikoznaniya. 2-e izda. – M.: 1977. – 123 s.
12. Totally the dictionary. –Tashkent: Teachers, 1976. -474 s.
13. The delegation included representatives of the n. a. Geograficheskaya range v toponimik that Gornogo in altan. – V SB.: In Toponimik Vostoka. –M.: Nauka, 1969, – S. 66 - 72.
14. Murzaev e. k geograficheskoy turkmen terminology. – "Izvest gosudarstvennogo geograficheskogo obtshestva", –Tashkent: 71 VIP. 6. 1939. – S. 884-889.



UDK: 004.896:070

Madinabonu NURUTDINOVA,
O‘zJOKU “Raqamli media va internet jurnalistika” kafedrasini mudiri
E-mail: injilkhon2022@gmail.com

O‘zDJTU professori, filologiya fanlari doktori D.Teshabayeva taqrizi ostida

DRON JURNALISTIKA FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS TENDENSIYALARI

Annotsiya

Ushbu maqolada media sohasiga integratsiya qilinayotgan dronlar faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Dron jurnalistikaning taraqqiyot tendensiyalar faoliyat ko‘lami ham amaliy misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: dron, global tarmoq, media, immersiya, virtual reallik, diversifikatsiya, rakurs.

TRENDS SPECIFIC TO DRONE JOURNALISM

Annotation

This article discusses the activities of drones being integrated into the media industry. The development trends and scope of drone journalism are also analyzed based on practical examples.

Keywords: drone, global network, media, immersion, virtual reality, diversification, perspective.

ТЕНДЕНЦИИ, СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ДЛЯ ДРОН-ЖУРНАЛИСТИКИ

Аннотация

В статье рассматривается деятельность дронов, интегрируемых в медиаиндустрию. Также на практических примерах анализируются тенденции развития и сфера применения дрон-журналистики.

Ключевые слова: дрон, глобальная сеть, медиа, погружение, виртуальная реальность, диверсификация, перспектива.


Kirish. Internet global tarmog‘i ta‘sirida turli polegamik yangiliklarga boyib borayotgan yangi medialar doimiy taraqqiyot va o‘zgarishlar silsilasida yangilanishi auditoriyaning talabi hamda ehtiyojidan kelib chiqqan holda kontekst mukammalligiga intilishi kuzatiladi. Bunga dron jurnalistika, virtual reallikka asoslangan immersiv jurnalistika, data jurnalistika kabilarni misol qilish mumkin. 2011-yilda bir qator xorijiy media konglomeratlar o‘z faoliyat ko‘lamini kengaytirish hamda auditoriyaning maqsadli qamrab olish uchun turli yangi media amaliyotlarini joriy qila boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dron jurnalistikasining amaliyotdagi faoliyati, nazariy aspektlari, media oamidagi o‘ziga xos tasvir obyektlarini yoritishdagi hususiyatlariga oid maqolalar va ilmiy izlanishlar mavjud. Jumladan xorijiy tadqiqotchilardan Tilak Maxashatra[1], Kiril Pavlov[2], Azmina Azmayevlar[3]ni misol qilish mumkin. Milliy tadqiqotchilarimizga N Qosimova[4], A. Dadaxonov[5], L. Bazarbayeva[6], N. Muratova[7] larning ishlarini misol qilish mumkin.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Ushbu tadqiqotning obyekti sifatida xorijiy media manbalar The Times, BBC, National Geographic, New York Times, Washington Post, CBS, Fox News, AlJazeera nashrlarining dronlar bilan hamkorlikda olib borayotgan faoliyati, ilmiy

loyihalari kuzatilgan. Mazkur nashrlarning media faoliyati va onlayn mediadagi video tasvirlari o‘rganilgan.

Tahlil va natijalar. Yangiliklarni yoritishda muvozanat va diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish, mavjud jarayonni turli rakursdarda kuzatish, jozibador tasvirlarni taqdim etish imkonini beradi. ‘Dron bu demokratiyani turli rakurslarda his qilish atmosferasini yaratib beradi’ –Michigan universiteti ilmiy tadqiqotchisi Marisa Brendt[8]. 2021-yil ma‘lumotlariga ko‘ra dronlar media amaliyotida ko‘proq fotografiya maqsadida keng ko‘lamli foydalanilmoqda. Albatta ularni boshqarishda fotojurnalistlarning ishtiroki bo‘lishi shart. Isroilda bo‘lib o‘tayotgan to‘qnashuvlar Appelbaum droni tomonidan tasvirga olingan fotojamlanma 2024 ‘Yilning eng yaxshi hujjatli filmi’– sifatida tarixda qoldi[9]. Dronlar ya‘ni uchuvchisiz kvadropterlar harbiy maqsadda kashf qilingan bo‘lib, maxsus kameralar bir quollantirilgan uchuvchi uskunalar turli rakursdan foto video materiallarni tasvirga olish, aerofoto kollajlar hosil qilishda konversiya texnologiyasidan foydalaniladi. Harbiy razvedka maqsadida turli samolyotlarning estetik kichik modellari masofadan boshqariluv realiyasi sifatida sinab ko‘rilgan. Dronlarni maishiy hamda ilmiy maqsadlarga yo‘naltirish ko‘proq 2010-yildan boshlanganini kuzatish mumkin. Kaliforniya universiteti professori tadqiqotiga ko‘ra[10] foydalanish sektori quyidagi tartibda ixtisoslashadi:



Yuqorida sanab o'tilgan sohalarga yana sanoat, tog' kon metallurgiya, kino sanoati hamda qurilish hududida kvadrokopterlardan foydalanish amaliyoti ham qo'shildi. Ik marotaba dronlar amaliyotini tartibga soluvchi kodeks 2020-yilda AQSH federal avitsion qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan bo'lib, u ko'proq tavsivaviy ahamiyat kasb etadi.

Dron apparatlarining o'ziga xosligi sifatida uning tasvirlar bilan bog'liq monogamik faoliyatini kiritish mumkin:

O'ziga xos tasvirlar effekti; dronlar yordamida yerdan tasvirga olish imkoniyati cheklangan hududlardan 360° gradusli tasvir effektini hosil qilish orqali media sohasida yangi vizual imkoniyatlarni ochish. Favqulodda holatlar hamda xavfli hududlar (yong'in, zilzila, harbiy vaziyatlar)da ham faoliyat resurslarining ta'minlanganligi dronlar afzalligini oshiradi.

Tezkorlik; kadrakopterlarga ulangan kameralar 24/7 vaqt uzluksizligi tufayli har daqiqani onlayn e'firda uzatish imkoniyatini ta'minlaydi.

Iqtisodiy sarf harajatlarning qisqarishi; dronlardan foydalanish maxsus tasvir video apparatlariga bo'lgan talabni maxsus yuk ko'tarish moslamalari yoki maxsus jihozlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish orqali vizual jozibador suratlarni taqdim qiladi oladi.

Dunyo bo'ylab ko'plab media konglomeratlar faoliyatida dronlarning sinergetik integratsiyasini kuzatish mumkin. Masalan, BBC, National Geographic, New York Times, Washington Post favqulodda vaziyatlardagi tasvirlarni olishda, harbiy konfliktlar holati, ommaviy tartibsizlik hamda

tabiiy ofatdagi boshqa syujetlarni boyitishda ham kvadrokopterlar amaliyotidan foydalanadi. Jumladan:

BBCning Rossiya-Ukraina urushini tasvirga olishda[11];

National Geographicning Vanuatudagi vulqon kraterini suratga olishda yuqoridan boshqariladigan dronlardan foydalanilgan;

CBS, Fox News, AlJazeera Curiya urush maydonidagi tasvirlarga videoga olishda;


Daily Mailyning harbiy xarkatlarni tasvirga olish amaliyoti[12];

SBS News telekanallari Chernobil halokati haqidagi storiytengilligini ham kvadrokopterlar yordamida suratga olishgan.tasvirlar umumiy 60 daqiqani tashkil qilib, hujjatli videofilm sifatida tarixda qolgan.

Teton Gravity Research dronlar imkoniyatidan foydalanib, Himolay tog'ida jami 32 video filmni tasvirga olingan. Film 18 yil davomida toqqa chiqqan sport ustalari haqida hikoya qiladi.

Shuningdek, 2015 qilda Digital Globe[13] kompaniyasining sun'iy yo'ldosh hamda dronlar yordamida olingan "Ko'chuvchi qullar" nomli fotojamlanmasi ham tarixiy asar sifatida juda katta auditoriyaning e'tirofiga sazovor bo'lgan.

Dronlar yordamida suratga olish yangi medialar amaliyotida o'zining afzalliklariga qaramasdan jurnalistika sohasida bir qator jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan:



Huquqiy tartibga solish; dronlardan foydalanish amaliyoti doimiy ravishda rivojlanib, taraqqiyo topib bormoqda, jumladan maxfiylik muammolari, parvozlarning xavfsizligi va ruhsatnomalar olish masalalari asosiy fenomen hisoblanadi.

Etnik dialema muammolari; dronlardan foydalanishda shaxsiy hayotga tajovuz qilish, roziliksiz suratga olish va ma'lumotlarni buzish kabi nozik ahloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Kvadrokopterlardan foydalanuvchilar ahloqiy me'yorlarga rioya qilishi talabi qo'yiladi.




Parvoz xavfsizligi; dronlardan nazoratsiz foydalanish avariya larga odamlarga yoki shaxsiy mulk hududida qulashi, shuning boshqa uchuvchi uskunalar va samolyotlar parvozigalahaqit berishi mumkin.

Texnik cheklovlar parvoz vaqti, aloqa masofasi, ob havo sharoiti, dronlardan foydalanish imkoniyatini pasaytiradi. Suratga olishning sifatida jihozlarning sinfiga va operatorning mahoratiga ham bog'liq.

Yoki Manchester Evening News tahririyati o'z media loyihalarida dronlarning sun'iy intellekt yordamida uzluksiz

Bugungi kunda ko'plab media tahririyatlar kollobrativ loyihalar ustida ish olib bormoqda. Buyuk Britaniyaning Sense maker tahririyati Google News bilan hamokrikdagi maxsus kollobrativ storielling ishlarini yo'lga qo'ydi. Jumladan, dunyoning ekologik xaritasi bilan bog'liq minglab ilimiy tasvirlar loyihasi e'lon qilindi[14].

ma'lumot uzatuvchi integral tasvir moslamasi sifatida foydalanmoqda[15].



Xulosa sifatida aytganda dron bu turli tomonlarni aks ettiruvchi rakurs, jurnalist bilimi, kreativ yondashuvi hamda ko'p tomonlama qamrovi bilan vizual kenglikni aks ettirishga xizmat qiladi. Medianing yangi yo'nalishi sifatida milliy

media sanoatida keng targ'ib qilishni taqazzo qiladi. Kvadrakopterlardan olingan tasvirlar medianing kollektiv faoliyatiga yo'naltirish hamda yangi zamonaviy motivlarni tasvirga olishda ko'mak beradi.

ADABIYOTLAR

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/drony-i-mediaindustriya/viewer>
2. <https://moluch.ru/archive/160/44949/>
3. <https://www.newrusmedia.ru/dron-zhurnalistska-kak-smi-osvaivayut/>
4. https://www.researchgate.net/publication/uni_Uzbekistonda_va_horizda_kullasning_uziga_hos_xusiatlari
5. <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2020/02/article-6099-6020.pdf>
6. <https://bestpublication.org/index.php/iq/article/download/2211/2095/2050>
7. <https://inlibrary.uz/index.php/autoabstract/article/view/42632>
8. <https://gijn.org/ru/istorii/ispolzovanie-dronov-v-zhurnalistske/>
9. <https://www.haaretz.com/israel-news/2020-09-24/ty-article-magazine/.premium/haaretz-photographer-wins-international-prize-for-this-incredible-picture/0000017f-e8b7-dea7-adff-f9ffb8c0000>
10. https://www.academia.edu/24403848/Drones_Vertical_Mediation_and_the_Targeted_Class
11. <https://www.bbc.com/russian/topics/cxlx9qn6qqnt>
12. <https://www.dailymail.co.uk/home/index.html>
13. <https://www.digitalglobe.com/company/about-us/>
14. <https://map.godrone.nl/#loc=52.5053380,5.1966125,8.772425829058138>
15. <https://www.lancashire.ac.uk/research/institutes/ineti>



UDK:808.5

Umida OTAYAROVA,

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti dots.v.v.b, PhD

E-mail:umida.bolibekovna@gmail.com

NamMQI dotsenti P.Batirova taqrizi asosida

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA KA‘BA TASVIRINING BADIY TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy g‘azallarida Ka‘ba obrazining badiiy talqini tahlil etiladi. Shoirning diniy-falsafiy qarashlari, tasavvufiy tushunchalari va ilohiy ishq timsoli sifatida Ka‘ba obrazining badiiy ko‘rinishlari bayon qilinadi. Navoiyda Ka‘ba nafaqat muqaddas maskan, balki qalbdagi Haq nuri, ishqning yakuniy manzili sifatida tasvirlanadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Ka‘ba, tasavvuf, ishq, g‘azal, ramziy ma‘no, qalb, ilohiylik.

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF KAABA IN THE GHAZALS OF ALISHER NAVOI

Annotation

This article analyzes the artistic interpretation of the Kaaba image in Alisher Navoi's ghazals. The poet's religious-philosophical views, Sufi concepts, and artistic representations of the Kaaba as a symbol of divine love are examined. In Navoi's works, the Kaaba is portrayed not only as a sacred place but also as the light of Truth in the heart and the ultimate destination of love.

Key words: Alisher Navoi, Kaaba, Sufism, love, ghazal, symbolic meaning, heart, divinity.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА КААБЫ В ГАЗЕЛЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация

В данной статье анализируется художественная интерпретация образа Каабы в газелях Алишера Навои. Раскрываются религиозно-философские воззрения поэта, суфийские концепции и художественное воплощение образа Каабы как символа божественной любви. У Навои Кааба представлена не только как священное место, но и как свет Истины в сердце, конечная цель любви.

Ключевые слова: Алишер Навои, Кааба, суфизм, любовь, газель, символическое значение, сердце, божественность.

Kirish. G‘azal mulkining sultoni mir Alisher Navoiyning “Xazoyin ul maoniy” devonida lirikada mavjud o‘n oltita janrdagi she‘r namularini uchratish mumkin. Shoir ularning har birida yuksan badiiy mahorat namoyish etadi. Bu she‘rlarning eng salmoqlisi, albatta, g‘azal janri bo‘lib, mutaxassislarning qayd etishicha, “Xazoyin ul maoniy” tarkibidagi har bir devonga 650 tadan, jami 2600 ta g‘azal jamlangan. G‘azallarda turli badiiy vositalar, lirik san‘atlar vositasida yanada badiiylik kasb etib, she‘rning musiqiylikini ta‘minlab bergan. Ana shunday badiiy san‘atlardan biri talmeh san‘ati bo‘lib, bu san‘atdan shoirlar lirik qahramon holatini aniqlashtirishda, o‘quvchiga tushunarli qilishda foydalanishgan. Navoiy ijodida ham talmeh san‘ati yetakchi hisoblanib, ko‘plab diniy-tasavvufiy tushunchalar bilan ifodalangan. Xususan, Ka‘ba bilan bog‘lik baytlar orqali shoir insonning ma‘naviy olamini, qalb go‘zalligini, ilohiy muhabbatni mahorat bilan ifodalaydi. Ushbu maqolada Alisher Navoiy g‘azallaridagi Ka‘ba badiiy timsolining ramziy, tasavvufiy va ruhiy talqinlari tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Tasavvufiy tafakkurga ko‘ra Ka‘ba Allohning uyi sifatida e‘tirof etiladi. Ammo shu bilan birga Ka‘ba mo‘min kishining qalbidagi yashaydigan Haq nurining jilvalanishidir. Shu bois so‘fiy shoirlar o‘z asarlarida ko‘p bora Ka‘ba timsolini qo‘llaydilar. N.Komilov, G‘.Karimov, B.Valixojaev, M.Muhiddinov, D.Salohiy kabi navoiyshunos olimlar tomonidan shoir g‘azallari tahlil etilib, sharhlar bitilgan va Ka‘ba bilan bog‘liq baytlarning zohiriy va botiniy ma‘nolari xususida fikr yuritilgan. “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” kitobining 28-jildida Olimjon Davlatovning “Alisher Navoiy she‘riyatida qur‘on oyatlari va hadislar” nomli monografik tadqiqoti keltirilgan bo‘lib, ushbu kitobda muallif Navoiy g‘azallarining tahlili asosida Ka‘ba

bilan bog‘liq ma‘lumotlarni keltiradi. Jumladan, “G‘aroyib ussig‘ar”ning 6-g‘azali tahlil etiladi:

Ne uchun kiymish qaro haryon solib jaybig‘a chok,

Furqatingdin Ka‘ba gar qolmaydurur motam aro?!

“Johiliyat zamonida butxonaga aylangan Ka‘ba haq din kelgandan keyin yana imon va islom ahlining qiblasiga aylandi. Uzoq asrlar davomida mushriklarning botil aqidasi dastidan xor bo‘lgan bu muqaddas makon yana yagona Allohga topinuvchilar uchun ziyoratgoh bo‘ldi. Bu izzatni unga qaytarib bergan Ka‘ba har yili haj mavsumida qora matodan kisva – ka‘bapo‘sh bilan yopinib, haj amallari tugagandan keyin kisvaning yechib olinishini, qaysidir ma‘noda Ka‘baning unga azizlik maqomini qaytarib bergan payg‘ambarimizning firoqida aza tutganiga ham yo‘yish mumkin” deya izohlaydi. [O.D] Xuddi shu bayt Karomat Mo‘llaxo‘jaeva tomonidan quyidagicha tahlil etiladi: “Bu baytda manzaralar ifodasi vositasida aytilayotgan fikrlar payg‘ambarimizning Makkadan Madinaga qilgan hijratlari bilan bog‘liq. Ma‘lumki, payg‘ambarlikning o‘n uchinchi yilida payg‘ambar s.a.v. Makkadan Madinaga hijrat qilganlar. Baytda ushbu hodisani tashxis san‘ati orqali ifodalalar ekan, shoir Ka‘batullohning rangi va shakliga e‘tiborni qaratadi, ya‘ni: “Agar Ka‘ba sendan (Rasulullohdan – K.M.) ayrilgani uchun motam tutmayotgan bo‘lsa, nega u qora – motam libosini kiyib, yoqasini chok-chok etgan”. Baytdagi Ka‘ba timsolini ramziy-so‘fiyona mazmundagi “ko‘ngil” ma‘nosi bilan bog‘lab tushunganda, Rasululloh bilan birga hijrat qilib ketolmay qolib ketayotgan kishilar, shu bilan birga, qaysi zamonu makonda yashamasin, uning hajrida o‘rtangan oshiqning, jumladan, shoirming ham qalb o‘rtanishlari o‘z aksini topganligini his etish mumkin”. [K.M. 30]

Shuningdek, “G’aroyib us sig’ar”ning 67-g’azalida tilga olingan “Ka’bani maqsud” jumlasini ham O.Davlatov tomonidan ilmiy jihatdan mukammal tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda ilmiy manbalarga tayangan holda analiz va sintez, induktiv va deduktiv ilmiy metodlar, shuningdek, mantiqiylik, izchillik, tarixiylik kabi ilmiy tamoyillardan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Alisher Navoiy ijodida tasavvufiy-irfoniy baytlarning mazmun-mohiyati islomiy tushunchalar yordamida ifodalanadi. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy” devoniga kiritilgan 2600 ta g’azaldan ayrimlarining tahlili orqali fikrimizni dalillaymiz.

“Suyub ko’rma Ka’bani, agar Haq joyi,
Agar dili toza bo’lsa, anda ham Haq.”

Yuqorida keltirilgan baytda shoir Ka’bani har bir mo’minning qalbida yashaydigan Haq nuri sifatida ifodalaydi. Ya’ni shoir zohiriy Ka’bani emas, balki qalbni poklashni ustun qo’yadi. Chunki tasavvufda haqiqiy Ka’ba bu – qalbdur. Dilni Haqqa loyiq joyga aylantirish, uni poklash, nafs istaklaridan tozalash eng yuksak ma’naviy bosqich sanaladi.

Yana bir baytda ham shoir xuddi shunday g’oyani ilgari surib, yor manzili yurakda, ammo uzoq masofa bosib Ka’baga borishga ajablanarli, deydi:

Yorning manzili jon ichrayu sen ani tilab,

Azimi Ka’ba, ajab qat’i masofatdur bu. [Badoe’ ul-vasat, 513]

Shuninndek, Navoiy ijodida Ka’ba ishqning yakuniy manzili, ya’ni ma’shuq huzuriga yetishish timsoli sifatida ham ifodalanadi. Unga ko’ra, ilohiy ishqqa duchor bo’lgan har bir oshiq Ka’baga intilishi, haj safariga yurak bilan yo’l olishi kerak:

Har kurayi dil qiblasidur Ka’bai do’st,
Har sufi u yo’lda xarobatda safar qilur.

Bu yerda “Ka’bai do’st” – ya’ni do’st (Alloh yoki ma’shuq) Ka’basi qalbning qiblasini sifatida talqin qilinadi. Bu timsolda shoir ilohiy ishqning yo’li, oshiqning qalb holati va manzili haqida so’z yuritadi.

Navoiy Ka’ba tasvirini zohiriy shakldan ko’ra botiniy ma’noda talqin qiladi. Shoirga ko’ra, zohiriy Ka’baga yetishish oson, ammo qalbni Haq maskani qilish nihoyatda mashaqqatli va sabr talab qiladi. Shu bois u, ba’zan, Ka’baga borishni emas, qalbni pok tutishni afzal ko’radi:

Ka’baga bordim, dilem Ka’baga yetmay turur,
Ko’nglim o’lmish, xud jo e’tibor yo’q ul yurtga.

Bu baytda Ka’baga zohiran borish tasvirlanadi, ammo ruhiy tayyorgarlik yetarli bo’lmagan sababli u yerda Haq nurini ko’ra olmaydi. Bu esa tasavvufdagi “botiniy yetuklik” g’oyasini ifodalaydi. Keyinchalik Bobomurod Mashrab ijodida ishqsiz Ka’baga borib bo’lmaligi “Yorsiz ham bodasiz Makkaga bomoq ne kerak, Ibrohimdan qolgan u eski do’konni na qilay?” tarzida bayon etiladi. Ya’ni ko’ngli ilohiy ishq bilan poklanmagan kishi uchun Ka’ba Ibrohim qurgan uy xolos. Unday inson Makkada Haq nurini ko’rolmaydi.

Tasavvufda Ka’ba va xarobat timsollari ko’pincha qarama-qarshi ramzlar sifatida uchrasa-da, Navoiy ularni bir

Quyida shoir g’azallaridagi Ka’ba tasvirining to’rt devon tarkibida qo’llanilishi keltiriladi:

G’aroyib us-sig’ar	Navodir ush-shabob	Badoe’ ul-vasat	Favoyid ul-kibar
6-g’azal	12-g’azal	12-g’azal	209-g’azal
67-g’azal	59-g’azal	173-g’azal	216-g’azal
117-g’azal	114-g’azal	295-g’azal	329-g’azal
196-g’azal	184-g’azal	311-g’azal	357-g’azal
259-g’azal	200-g’azal	332-g’azal	402-g’azal
294-g’azal	278-g’azal	345-g’azal	435-g’azal
370-g’azal	321-g’azal	364-g’azal	588-g’azal
440-g’azal	347-g’azal	420-g’azal	647-g’azal
534-g’azal	384-g’azal	448-g’azal	
	396-g’azal	501-g’azal	

butun yo’l sifatida ko’radi. Ya’ni xarobat – nafsdan voz kechish, Ka’ba esa – ma’naviy poklanish manzili:

Goh Ka’bani ayladur ko’ngil makon,
Goh xarobat ichra topgay ul nishon.

Bu fikr orqali shoir insonning botiniy sayohatini – nafsni yengish, qalbni poklash, va ilohiy haqiqatga yetishish jarayonini obrazli ifodalaydi.

Shoirning hayoti haqidagi ma’lumotlarga ko’ra Hazrat Navoiy bir necha marotaba Ka’baga borishga ahd qilganlar, ammo mamlakat tashvishlari-yu xalq dardi bilan yashagan shoir bu niyatiga yeta olmaydilar. Shoir quyidagi g’azalda ushbu maqsadini bayon etadi (mazmuni ochib berish maqsadida g’azalni to’liq keltiramiz):

Gar yana bir qatla o’z vaslingg’a yetkursang meni,
Istasam hajring, bihildurmen gar o’ltursang meni.

Ul eshikdin kirgum uy toshini itdek aylanib,
Bu eshikdin tosh ila yuz qatla gar sursang meni.

Qolg’usi bir dog’ ko’yungda kulumdin yodgor,
Yozg’urib hijron gunohi birla kuydursang meni.

Orzudur ostoning tufrog’ida o’lmakim,

Toza jon topqum, gar ul tufroqqa topshursang meni.

Garchi jurmum ko’p, xusho ul jurmkim, tahqiq uchun

So’rg’ali gah-gohi o’z qoshingg’a keltursang meni.

Tarki jon ettim, boshim bo’lg’usiyu ul oston,

Sen bilursen, lutf qilsang, xoh yozg’ursang meni.

Ka’bai ko’yiga yuz qo’ydu, bu yo’ldin yonmag’um,

Ey Navoiy, har nechakim yo’ldin ozg’ursang meni. [Badoe’ ul-vasat, 612]

Shoir Ka’baga borib, u tosh atrofini it kabi aylanishni istaydi va yo’lda maqsadiga yetadi. Bu yo’lda ahd shunchalar kuchliki, har qancha da’vat etsalar ham ahddan kechmaydi.

Hazrat Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonida Ka’ba bilan bog’liq baytlar 47 o’rinda uchraydi. Bu timsol Navoiy ijodida zohiriy va botiniy ma’nolarda qo’llanib, shoir badiiy maqsadini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, “Badoe’ ul-vasat”ning “...kerak” radifli (332) g’azalida Ka’ba o’z ma’nosida musulmonlarning ziyoratgohi sifatida tasvirlanadi:

Ka’bada nokom ila din ahlig’a yo’q juz nifoq,
Dayr ichinda kofiri bebok xud komim kerak.

Yoki quyidagi baytda ham ayni shu ma’noda qo’llaniladi:

Navoiy Ka’bai maqsud sari gar qadam qo’ysang,
Tajarrud basdurur hamrohingu beto’shalig’ zoding.

Navoiy shunday go’zal tashbexlar qo’llaydiki, shoirning badiiy topilmasiga hayratlanishdan o’zga chora qolmaydi:

To xayoling ko’zdadur, ko’z uyi go’yo Ka’badur

Kim, turub atrofidin kirpiklarim aylar namoz.

[Favoyid ul-kibar, 216]

Ka’ba toshining qoraligi-yu musulmonlarning atrofida ibodatda ekanligi ko’z va kipriklarga o’shatilib, talmeh va tashbehni bir baytda keltiradi.

	398-g'azal	513-g'azal	
	417-g'azal	612-g'azal	
	501-g'azal	621-g'azal	
	577-g'azal	650-g'azal	
	606-g'azal		

Xulosa. Alisher Navoiy g'azallarida Ka'ba obrazining badiiy talqini chuqur falsafiy va ruhiy mazmunga ega. Shoir bu timsol orqali nafaqat islomiy e'tiqodni, balki tasavvufiy haqiqatni ham ifodalaydi. Ka'ba – ishqning manzili, qalbning qiblasi, Haqqa yetishish timsoli sifatida talqin etiladi. Bu

obraz Navoiy ijodining murakkablik va yuksak badiiyatini yaqqol ko'rsatadi. Shu tariqa, Navoiy Ka'ba orqali insonning ichki tozalik sari qilgan sa'y-harakatini badiiy shaklda ifodalagan.

ADABIYOTLAR

1. Navoiy, Alisher. G'azaliyot (Devoni Fano). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.
2. Sirojiddinov, Sh. Alisher Navoiy va tasavvuf. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Qayumov, A. Alisher Navoiy: shoir va mutafakkir. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
4. Gulomov, N. Tasavvuf va badiiy tafakkur. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2007.
5. Chittick, William C. Tasavvuf: Ichki haqiqatni izlash. (O'zbek tiliga tarjima). – Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
6. Eshonqulov, M. Navoiy asarlarida diniy-falsafiy ramzlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.



Nodirjon O‘TAQULOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti do‘centi, PhD
E-mail: nodirorient@gmail.com

O‘zMU professori, f.f.d. D.Djafarova taqrizi asosida

FRANSUZ TILIDA TIL VA NUTQ NORMALARI

Annotatsiya

Mazkur maqola fransuz tilida til va nutq normalari masalalari bo‘yicha tadqiqotchilarining mavjud ishlari tahlilini o‘rganishga bag‘ishlangan. Leksik birliklar til va uning normalari uchun asosiy qurilish materiali sifatida xizmat qiladi. Til normalaning demokratizatsiyasi va normaning o‘zgarishi bilan sodda til birliklari tobora keng qo‘llanishga o‘ta boshladi. Bu jarayonni leksikograflar ham, til o‘rganuvchilar ham hisobga olishlari kerakligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: til, nutq, norma, leksik birlik, frazeologizm, semantik, sodda til, adabiy norma.

ЯЗЫКОВЫЕ И РЕЧЕВЫЕ НОРМЫ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу существующих исследований, посвящённых вопросам языковых и речевых норм во французском языке. Лексические единицы рассматриваются как основной строительный материал языка и его норм. В условиях демократизации языковых норм и трансформации представлений о нормативности наблюдается тенденция к всё более широкому использованию упрощённых языковых единиц. Отмечается, что этот процесс необходимо учитывать как лексикографам, так и изучающим язык, поскольку он оказывает влияние на формирование современного лексикона и нормы функционирования речи.

Ключевые слова: язык, речь, норма, лексическая единица, фразеологизм, семантика, разговорная речь, литературная норма.

LANGUAGE AND SPEECH NORMS IN THE FRENCH LANGUAGE

Abstract

This article is devoted to the analysis of existing studies devoted to issues of linguistic and speech norms in the French language. Lexical units are considered as the main building material of the language and its norms. In the context of the democratization of linguistic norms and the transformation of ideas about normativity, there is a tendency towards an increasingly widespread use of simplified linguistic units. It is noted that this process must be taken into account by both lexicographers and language students, since it influences the formation of the modern lexicon and the norms of speech functioning.

Key words: language, speech, norm, lexical unit, phraseological unit, semantics, colloquial speech, literary norm.

Kirish. Tadqiqotning dolzarbligi ijtimoiy-lingvistik omillar bilan belgilanadi, ya'ni so'zlashuvdagi leksik va frazeologik birliklarning deyarli barcha aholi qatlamlarining nutqiga kirib kelishi va lingvistik jihatdan ushbu til birliklari hali yetarlicha o'rganilmaganligidadir.

So'z qo'llashda leksik normalarga rioya etmaslikning har bir tipi alohida lingvistik va amaliy tahlilni talab etadi. Chunki bunday holatlarni ilmiy jihatdan asoslash, ularning chegaralarini aniqlash hamda misollar orqali tasdiqlash leksik normaning o'ziga xos muammolari qatoriga kiradi. Shu nuqtai nazardan, hozirgi zamon adabiy tilda leksik-semantik xatolarning paydo bo'lish sabablarini tahlil qilish mumkin.

So'zlar inson uchun uni o'rab turgan voqealardagi narsa, belgi, harakat yoki holat haqida ma'lumot yetkazuvchi vosita hisoblanadi. Bu ma'lumotlar so'zlarning semantik mazmunini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, so'zlar orqali qabul qilinadigan axborot ularning ma'nosi, semantikasi orqali shakllanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umumnazariy jihatdan mazkur tadqiqot xorij lingvistikasining tadqiqotlariga tayanadi. Xususan, tadqiqotda fransuz tilida til va nutq normalari masalalari bo'yicha lingvistlardan V.G. Gak [16,17], A. Rey [15], F. Elgorski [10], V.D. Devkin[18], P. Giro [9], A.Mamatov [12] kabi lingvistlar ishlari o'rganilgan.

Jahon tilshunosligida jonli og'zaki munosabatning tilini o'rganishga sezilgan intilishni hamda fransuz tilida leksik va frazeologik birliklar hosil qilishning sezilarli

darajadagi tarqalganligini hisobga olib, bu birliklarni ancha mufassal ko'rib chiqishning zaruriyati shak-shubhasiz bo'ladi [13].

Sodda til birliklarini tadqiq etishda norma tushunchasi katta ahamiyatga ega. "Norma" atamasi, boshqa ko'pgina lingvistik terminlar kabi, bir qancha ma'nolarga ega. V.G. Gakning ta'kidiga ko'ra, til normalariga bag'ishlangan lingvistik ishlarini umumlashtirib, quyidagini qayd etadi: "Hozirgi tilshunoslikda, ayniqsa, mashhur ishlardan keyin, til normasi tushunchasining ikki asosiy jihati farqlanadi: ob'ektiv til normasi – ma'lum bir jamoada qabul qilingan til vositalarining shakli; baho beruvchi, aksiologik norma – til vositalarining shakllarini "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deb baholaydigan mezonlar to'plami [17].

Tadqiqot metodologiyasi. A. Rey tomonidan tavsiflangan ta'riflovchi (ob'ektiv) va qoidalashtiruvchi (sub'ektiv) normalar konsepsiyasiga mos keladi. Norma va uning kodifikatsiyasi tushunchalari ana shu ikki jihatning uyg'unligini ifoda etadi [15].

Tilshunos olim V.G.Gakning fikriga ko'ra, norma mutlaq barqaror emas, u til vositalarining variativligini qabul qiladi. Shu munosabat bilan absolyut normalar va variativ normalar mavjud [16]. Rey va Gak tomonidan ilmiy asoslangan fransuz tilida til va nutq normalari masalalari bo'yicha tadqiqotchilarining ishlari tahlilini o'rganildi. Leksik birliklar til va uning normalari uchun asosiy qurilish materiali sifatida xizmat qiladi. Til normalaning demokratizatsiyasi va

normaning o'zgarishi bilan soddatil birliklar tobora keng qo'llanishga o'ta boshladi. Bu jarayonni leksikograflar ham, til o'rganuvchilar ham hisobga olishlari kerakligi o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Til kishining bir-birini tushunish, inson faoliyatining hamma doiralarida - ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalar, siyosat va madaniyat, ijtimoiy hayot va kundalik turmushda ham o'z aloqalarini yo'lga qo'yish imkoniyatlarini tug'diradigan vositadir. Shuning uchun ham, har bir so'zlovchi kishilar bilan nutqiy aloqa qilish jarayonida u ishlatayotgan til vositalari hamma uchun umumiy va o'zaro tushunarli bo'lishini taqozo qiladi, bu esa shaxsning til vositalarini qay darajada egallaganligiga, uning nutqiy malakasiga bog'liqdir. Tilning barcha vositalarini egallamagan, unda gaplasha olishga yetarli ko'nikma hosil qilmagan kishilar oldida nutqiy qiyinchilik va nuqsonlarning bo'lishi tabiiy holdir. Bunday qiyinchilik va nuqsonlarni yengish va bartaraf qilish adabiy til normasini egallash va adabiy nutqiy malaka hosil qilish bilan bog'liqdir [19].

So'nggi o'n yilliklarda fransuz tilshunosligida norma masalasiga katta e'tibor qaratilgan. F. Elgorski [10] norma tushunchasining uch jihati ajratadi:

ob'ektiv (deskriptiv) norma – til tizimi, strukturasi va uzus bilan bog'liq bo'lgan norma;

qoidalashtiruvchi (preskriptiv) norma – til vositalarini to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholash asosida ularni tanlab olish mezonini belgilaydi. Bu orqali adabiy standart vujudga keladi va uning qo'llanilishi til egalari "tavsiya" etiladi;

namunalik norma – til vositalaridan foydalanish bo'yicha metodik maqsadda ishlab chiqilgan bo'ladi [10].

Yuqorida qayd etilgan, V.G.Gakning ta'kidiga ko'ra, norma mutlaq barqaror emas, u til vositalarining variativligini qabul qiladi. Shu munosabat bilan absolyut normalar va variativ normalar mavjud [16]. Absolyut norma til egalari tomonidan umumiy ravishda qabul qilinadi va chet elliklar yoki dialekt hamda soddatil egalari tomonidan buziladi. Variativ normalar esa quyidagicha bo'lishi mumkin:

imperativ normalar – qoidalaridan og'ishish keng tarqalgan bo'lsa-da, bu og'ishish hali ham til qoidasining buzilishi sifatida baholanadi;

dispozitiv normalar – qoidadan og'ishish yo'l qo'yiladigan, ya'ni uslubiy yoki neytral variantlar bilan almashinishi mumkin bo'lgan normalar [17].

V.D. Devkin ham til bir necha normalar asosida tartibga solinishini ta'kidlaydi. U milliy umumiy norma va alohida funksional uslublar normalarini ajratadi. Shu o'rinda, soddatil qo'llanilish sohasi o'zining ko'plab variantlari bilan ajralib turadi va bu barcha gapiruvchilar uchun ma'lumdur. Boshqa soha normalari esa faqat ma'lum bir qatlam yoki guruh egalorigina faol qo'llaydi [18].

Dinamik jihat esa uzus (nutq normasi) bilan bog'liq bo'lib, bu "til vositalaridan foydalanish tendensiyalarining yig'indisi"dir. V.G. Gak uzus va til normasi o'rtasidagi farqni alohida ta'kidlaydi. Til normasi – bu tizimdagi muqobilliklarning realizatsiya shakli bo'lib, u tanlov imkoniyatini nazarda tutmaydi. Uzus esa bu imkoniyatlardan foydalanishdagi variativlikni aks ettiradi va til vositalarining sinonimik shakllarini qamrab oladi [17].

Adabiy norma barcha rivojlangan milliy tillarga xos bo'lib, grammatika va lug'atlarda kodifikatsiyalashgan hamda reglamentlashgan. Bu milliy tilning eng yuksak shakli hisoblanadi. Devkin ta'kidlaganidek, adabiy normani o'zlashtirish ijtimoiy ahamiyatga ega va uning qo'llanilishi prestij bilan bog'liq [18].

Fransuz adabiy normasi XVI asrdan shakllana boshlagan va XVII asrda markazlashuv va milliy birlashish jarayonlari natijasida yanada aniqlashtirilgan. Bu davrda grammatik va leksik normalar, uslubiy differentsiatsiyani hisobga olgan holda, puxta ishlab chiqilgan. Fransiyada adabiy norma Fransuz akademiyasi boshchiligida puristlar tomonidan

qattiq himoya qilib kelingan. Lingvistlarning fikriga ko'ra, barcha tillar orasida fransuz tili purizm ta'siriga eng ko'p uchragan.

Norma muammosiga bo'lgan turli munosabatlar fransuz tilshunosligida puristlar va laksistlar o'rtasidagi ko'plab bahslarni keltirib chiqargan. Puristlar, tilning sofliyini saqlash uchun, adabiy normani qat'iy rioya qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Laksistlar esa til rivojiga nisbatan liberal qarashlarga egadirlar va tildagi har qanday yangilikka qarshilik ko'rsatmaslik kerak, deb hisoblaydilar. Ularga ko'ra, bugun noto'g'ri deb hisoblangan narsa, ertaga normaning o'ziga aylanishi mumkin.

Ma'lumki, tilning amaliy qo'llanilishida normaning buzilishi doimiy ravishda kuzatiladi. Aslida, normadan og'ishish holatlari, hatto muayyan davrda xatolik sifatida baholangan elementlar, keyinchalik yangi normaning boshlang'ich belgisiga aylanishi mumkin. Shu munosabat bilan til normasi va uning o'zgarishlari haqida so'z yuritganda, A.Freyning "Grammatik xatolar" ("La Grammaire des fautes") asari alohida e'tiborga loyiq. Unda muallif "normativ konsepsiya" (bu muayyan jamiyat tomonidan belgilangan normaga mos keluvchi narsa) va "funktional konsepsiya" (bu aytish va tushunish uchun eng qulay bo'lgan shakl)ni muqobil qo'yadi [6]. A.Freyga ko'ra, normadan og'ishish yoki puristlar tomonidan "xatolik" (faute) deb atalgan holatlar agar muloqot ehtiyojini qondirsa, bu allaqachon xato emas, balki usul (procédé)dir. U normadan og'ishgan holatlarini, innovatsiya, soddatil, argo va noodatiy forma qo'llanishlarini "ilg'or fransuz tili" (français avancé) deb ataydi [6].

P. Giro ta'kidlashicha, A.Frey asarida keltirilgan ko'pgina "xatoliklar" shuncha yil o'tib mutlaqo normal deb qabul qilina boshlagan [9].

Hozirgi zamonda ham bu masala fransuz lingvistikasida muhokama qilinadi. D. Leman-Bui "Fransuz tilida xatoliklar mavjudmi?" ("Les fautes de français existent-elles?") (Leeman-Bouix D., 1994) asarida bu muammoni tadqiq etadi [11]. Muallif, ko'pchilikdagi xatoliklar misolida, puristlarning fikrlarini shubha ostiga oladi va shunchaki xato deb hisoblangan holatlar keyinchalik normaga aylanishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Fransuz lingvistlari hozirgi fransuz tili normasidagi o'zgarishlarni tilning demokratlashuvi va jamiyat hayotidagi o'zgarishlar bilan izohlaydilar. Bu, jumladan, soddatil birliklarning normallashtirishida ham o'z aksini topgan.

L. Gilber ta'kidlashicha, jamiyatdagi axloqiy me'yorlar o'zgarishi bilan, leksikadagi tabular yo'qolib, til registrlari o'zaro singish jarayoniga kirishgan. Bu o'zgarishlar leksik normalarda ham aks etmoqda, lug'atlar neologizmlar, avval vulgar deb hisoblangan so'zlar, argotik leksemalarni qayd etishga o'ta boshlagan[8].

J.-P. Kapyu ham ijtimoiy jarayonlar til registrlarining aralashishiga olib kelayotganini ta'kidlaydi. Bu o'zgarishlar shunchalik kuchliki, Fransiyada "lingvistik inqilob" haqida gapiriladi. 1968-yildagi siyosiy voqealardan keyin til demokratizatsiyasi tezlashgan. Lingvistika nuqtai nazaridan bu "1968-yildan keyingi avlod" deb nomlangan. Bunday lingvistik inqilob yoshlar qarshiligi ko'rinishida namoyon bo'lgan, ular adabiy normadan voz kechishga intilishgan[7]. Shu davrda ko'plab soddatil va argotik so'zlar ommalashgan va hatto modaga aylangan.

L.-J. Kalve ta'kidlashicha, norma tomonidan rad etiladigan argo, aksincha, normani va uning ortidagi jamiyatni qabul qilmaydiganlar uchun jozibador bo'lishi mumkin. Argo maxfiy til bo'lishdan to'xtab, emblema, simvolga aylangan [2]. Adabiy normaga bo'lgan aksiologik munosabat ham o'zgargan. Ilg'or lingvistlar ta'kidlashicha, adabiy-kitobiy nutq shakllari jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar natijasida o'z prestijini yo'qota boshlagan va ayrim kommunikativ sohalarda salbiy baholanmoqda.

Fransuz jamiyatining psixologiyasini tavsiflar ekan, fransuz tilidagi elitarlik yo'qolganini ta'kidlaydi. Til ilgari elita doirasidagi odamlar uchun maxsus kod bo'lgan bo'lsa, hozirda uning har xil "qatlamlari" teng huquqli deb e'tirof etiladi. Shu bilan birga, turli ijtimoiy guruhlar nutqida hali ham farqlar saqlanmoqda. Tokioda bo'lib o'tgan fransuz tili o'qituvchilari jahon kongressida, Fransiya shahar atroflaridagi maktablardagi talabalar adabiy matnlarni tushunmasligini ta'kidlaydi. Bu holat tilning ijtimoiy differentsiatsiyasi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi fransuz tili normasidagi eng katta o'zgarishlar soddatil birliklarning qo'llanilishi, ularning markirovkasining o'zgarishi va soddatil leksikaga munosabatning o'zgarishi bilan bog'liq. Bu birliklar lug'atlarda tobora ko'proq qayd etilayotgan, chunki hozirgi lingvistlar lug'at tilning zamonaviy holatini aniq aks ettirishi kerak, deb hisoblashadi.

J. Rey-Debov ta'kidlashicha, hatto Fransuz akademiyasi lug'ati tuzuvchilari ham endilikda familiar so'zlarni qabul qilishga majbur, ularni inkor etish imkoni qolmagan [15]. Shu bilan birga, avtoritet lug'atda qayd etilishi til birligining normativligini tasdiqlovchi omil sifatida qaralishi mumkin.

L.-J. Kalve ta'kidlaydiki, puristlar tomonidan xatolik deb baholangan til shakllari vaqt o'tishi bilan normaga aylanishi mumkin, shuningdek, argotik leksikon ham umumiy til leksikoniga kirib borib, muloqot vaziyatiga qarab qo'llaniladi [2]. Shunday qilib, til normasining demokratizatsiyasi va normaning o'zgarishi bilan soddatil birliklar tobora keng qo'llanishga o'ta boshladi. Bu jarayonni leksikograflar ham, til o'rganuvchilar ham hisobga olishlari kerak.

Normaga zid ravishda so'z qo'llashning turli tiplarini lingvistik tahlil etishning zarurligini o'rganish taqozo etadi. So'zlarning semantik mazmunini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, so'zlar orqali qabul qilinadigan axborot ularning ma'nosi (semantikasi) orqali shakllanadi. Olib borilgan kuzatishlar natijasida badiiy asarlarda yo'l qo'yilgan qator leksik-semantik xatolarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Bu xatolar quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

so'zlarning semantik jihatdan noto'g'ri birikishi;
sinonim va antonim so'zlarning noo'rin qo'llanilishi;
asosiy ma'noni beruvchi leksik birliklarning jumla tarkibidan tushib qolishi (ellipsis holati);
so'z ma'nolarining chegarasidan kengayib ketishi;
mantiqiy jihatdan bir-biriga mos kelmaydigan so'zlarning bir kontekstda yonma-yon qo'llanilishi.

Bunday xatolar natijasida muayyan kontekstda so'zning ma'nosi ikki xil (asl va ko'chma) tarzda talqin qilinishi mumkin. Bu holatda dastlab so'z tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan noto'g'ri qabul qilinadi, ya'ni leksik norma buziladi, shundan so'ng esa bunday buzilish stilistik usul sifatida - so'z o'yini shaklida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bu jarayonda kommunikatsiyaning asosiy tamoyillaridan biri - kommunikativ maqsadga muvofiqlik buziladi.

Baynalmilal so'zlar va ularning qo'llanilishi: normalar va madaniyat masalalari haqida aytadigan bo'lsak, chetdan qabul qilingan baynalmilal so'zlarni zaruratsiz, o'zbek tilida ularning muqobillari mavjud bo'lsa-da, ishlatish nutq madaniyatiga nisbatan e'tiborsizlik hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi kunda jonli so'zlashuv nutqida so'z qo'llash normalarining buzilishi, orfografik va orfoepik qoidalarga

amal qilinmaslik holatlari ko'p uchramoqda. Bunday holatlar umumiy nutq madaniyati rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Baynalmilal so'zlar yozma nutqda o'zining grafik prinsiplariga muvofiq qonunlashtirilgan (kodifikatsiya qilingan) bo'lsa-da, og'zaki nutqda ular tilning fonetik va morfologik xususiyatlariga moslashtirilib talaffuz qilinadi. Bu esa bunday so'zlarda talaffuz normalarining buzilishiga olib keladi. Nutq madaniyatini yuksaltirish uchun quyidagi choralar muhim ahamiyatga ega:

adabiy talaffuz normalarini takomillashtirish;
talaffuz va imlo qoidalarini ishlab chiqish va ularni umumxalq muhokamasidan o'tkazish;
eksperimental fonetik tadqiqotlarni kengaytirish;
tovushlarning akustik xususiyatlarini maxsus o'rganish.

Adabiy norma va nutq madaniyati talablariga muvofiq, so'zlovchi yoki yozuvchi makoronizmlarni ishlatmasligi lozim. Chunki tilda bunday qo'shimcha va noo'rin elementlar joriy etilishi uning nafisligi va go'zalligini buzadi. Bu holat, uslubiy nuqtai nazardan, adabiy leksik normalar talablariga zid hisoblanadi. Adabiy tilning eng muhim xususiyatlaridan biri — uning normativligi bo'lib, u milliy miqyosda umumiylikka ega va yozuv orqali mustahkamlangan tizimdir. Shu jihatdan adabiy til jonli so'zlashuv tilidan (sheva va dialektlardan) farq qiladi.

Dialektizmlar atamasi adabiy til va adabiy norma bilan qarama-qarshi qo'yiladi va ularni ajratish hamda chog'ishtirishda qo'llaniladi. Dialektizmlar sheva va mahalliy nutqlarga xos so'zlar, iboralar, grammatik shakllar hamda fonetik xususiyatlardan iborat bo'lib, asosan og'zaki nutqda uchraydi. Adabiy til dialekt so'zlarining barchasini o'z me'yoriga qabul qilmaydi, balki ular orasidan ko'pchilik uchun umumiy va tushunarli bo'lganlarini tanlab oladi. Bu tanlov quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

so'zlarning shakli va morfologik tuzilishi;
so'zlarning adabiy tildagi va shevalardagi ma'nosi;
so'zlar yasallishiga oid xususiyatlar.

Badiiy asarlarda dialektizmlar voqea va hodisalarni aniq tasvirlashda, personajlar nutqini real ifoda etishda keng qo'llaniladi. Ammo bunday birliklar o'quvchi yoki tinglovchiga tanish bo'lmasligi yoki matnda noo'rin qo'llanilishi adabiy norma nuqtai nazardan xato hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. So'zlarning semantik mazmunini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, so'zlar orqali qabul qilinadigan axborot ularning ma'nosi orqali shakllanadi. Olib borilgan kuzatishlar natijasida asarlarda yo'l qo'yilgan qator leksik-semantik xatolarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Bu xatolar quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi: so'zlarning semantik jihatdan noto'g'ri birikishi; sinonim va antonim so'zlarning noo'rin qo'llanilishi; asosiy ma'noni beruvchi leksik birliklarning jumla tarkibidan tushib qolishi (ellipsis holati); so'z ma'nolarining chegarasidan kengayib ketishi; mantiqiy jihatdan bir-biriga mos kelmaydigan so'zlarning bir kontekstda yonma-yon qo'llanilishi.

Leksik-semantik xatolarga yo'l qo'yimaslik uchun tilda mavjud bo'lgan so'zlar ichida muayyan voqea va hodisani ifoda etish uchun eng maqbul, to'g'ri, qulay va umumiy tan olingan birliklarni tanlash zarur. Bu jarayonda nutqning maqsadi, uning kimga va nimaga qaratilganligi e'tiborga olinishi lozim. So'zlarni to'g'ri tanlab, joyida ishlata bilish esa ijodkorning tilga oid salohiyati va qobiliyatiga bog'liq bo'lib, buning uchun u til qonun-qoidalarini, uslubiy me'yorlarni va til nozikliklarini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi shart.

ADABIYOTLAR

1. Bauche H. Le langage populaire. Nouv. P.: Payot, 1951.- 231 p.
2. Calvet L.-J. Les voix de la ville: Introduction a la sociolinguistique urbaine.- Paris : Payot, 1994. 308 p.
3. Colin J.-P. Dictionnaire de l'argot francais et de ses origines / J.-P. Colin, J.-P. Mevel, C. Leclere. P.: Larousse, 2001. - 908p.

4. François-Geiger D. Dictionnaire de l'argot français et des ses origines. P.: Larousse, 2001.-p. 875-883.
5. François-Geiger D. La fonction de familiarité de l'argot // L'argoterie. -Sorbonnargot, 1989.-P. 140-143
6. Frei H. La Grammaire des fautes. Genève: Slatkine Reprints, 1982.
7. Gadet F. Le français populaire. Presses Universitaires de France, 1997.-128 p.
8. Guilbert L. Peut-on définir un concept de norme lexicale? // Langue française. P.: Larousse. - 1972. - № 16. - P. 29-48.
9. Guiraud P. L'argot. Presses Universitaires de France, 1956.- 126 p.
10. Helgorski F. La notion de norme en linguistique // Le français moderne. -1982. -№ 1.-P. 1-14.
11. Leeman-Bouix D. "Les fautes de français existent-elles?". P. 1994.
12. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. T.: Noshir,2019.168 b.
13. Otaqulov N.B. Kollokvial frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari. O'zMU Xabarlari, 2024, 1/6, 334-336 b.
14. Rey I.G. La phraseologie du français / I.G. Rey. Toulouse: Presses Universitaires du Mirail, 2002. – 268 p.
15. Rey-Debove Josette. Étude linguistique et sémiotique des dictionnaires français contemporains. The Hague; Paris: Mouton,1993.
16. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. М., 1984.
17. Гак В.Г. Введение во французскую филологию / В.Г. Гак. М.: Просвещение, 1986. – С. 183.
18. Девкин В.Д. Очерки по лексикографии. — М.: Прометей, 2000. — 395 с.
19. Отакулов Н.Б. Француз ва ўзбек тилларида субколлоквиал фразеологизмларнинг лисоний хусусиятлари. Монография/Н.Б.Отакулов. – Тошкент: “Grandkondorprint”, 2024. – 128 б.



Gulhayo PO‘LATOVA,
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: gpulatova2409@gmail.com

Nam. vil. pedagogik mahorat markazi dotsenti v.b., f.f.d S.Ne‘matova taqrizi asosida

ZAMONAVIY TIL MANZARASIDA RANG NOMLARINING KONNOTATSIVAVIY TAKOMILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada rang leksemalarining an’anaviy ma’no qatlamlari va ularning zamonaviy konnotatsion kengayishlari tahlil qilingan. Global kommunikatsiya va texnologik rivojlanish natijasida rang bildiruvchi sifatning semantik maydonida yuzaga kelgan o‘zgarishlar lingvosemantik va sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Tadqiqotda “qora”, “ko‘k”, “qizil”, “oq”, “yashil” va “sariq” rang leksemalarining zamonaviy diskursdagi salbiy va ijobiy konnotatsiyalari, shuningdek, ularning tezaurus tizimidagi integratsiyasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari rang nomlarining madaniyatlararo aloqa va texnologik taraqqiyot ta’sirida ma’no qamrovini kengaytirayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: rang leksemalari, konnotatsiya, semantik kengayish, tezaurus, zamonaviy kontekst, ijobiy va salbiy kontekst.

THE CONNOTATIVE EVOLUTION OF COLOR TERMS IN THE MODERN LINGUISTIC LANDSCAPE

Annotation

This article analyzes the traditional semantic layers of color lexemes and their expansion into modern connotative meanings. The semantic field changes of color-denoting adjectives under the influence of global communication and technological development are studied from a linguistic and sociolinguistic perspective. The research examines the positive and negative connotations of the color lexemes “black,” “blue,” “red,” “white,” “green,” and “yellow” in contemporary discourse, as well as their integration into thesaurus systems. The findings demonstrate that color terms are expanding their semantic scope under the influence of intercultural communication and technological progress.

Key words: color lexemes, connotation, semantic expansion, thesaurus, modern context, positive and negative context.

КОННОТАТИВНАЯ ЭВОЛЮЦИЯ ЦВЕТООБОЗНАЧЕНИЙ В СОВРЕМЕННОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА

Аннотация

В данной статье проанализированы традиционные семантические пласты лексем цвета и их расширение в современных коннотативных значениях. Изменения семантического поля прилагательных, обозначающих цвет, под влиянием глобальной коммуникации и технологического прогресса исследуются с лингвосемантической и социолингвистической точек зрения. В работе рассмотрены положительные и отрицательные коннотации лексем «чёрный», «синий», «красный», «белый», «зелёный» и «жёлтый» в современном дискурсе, а также их интеграция в тезаурусные системы. Результаты исследования показывают, что номинации цвета расширяют своё семантическое пространство под воздействием межкультурной коммуникации и технологического прогресса.

Ключевые слова: лексемы цвета, коннотация, семантическое расширение, тезаурус, современный контекст, положительный и отрицательный контекст.

Kirish. Til birliklarining semantik o‘zgaruvchanligi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda markaziy mavzulardan biri bo‘lib, ayniqsa, sifat so‘z turkumiga mansub rang nomlari bu jarayonda muhim o‘rin egallaydi. Rang bildiruvchi leksemalar nafaqat obyektiv belgi ifodalovchi vosita sifatida, balki konnotativ, stilistik va madaniy yuklamalarga ega bo‘lgan semantik qatlam sifatida til tizimida faoliyat ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda global kommunikatsiya, digital muhit va madaniy kontaktlar ta’sirida rang nomlarining nutqiy ishlatilishida sezilarli semantik kengayishlar, ya’ni konnotatsiyaviy evolyutsiya kuzatilmoqda. Masalan, “qora” leksemasining “qora kuch”, “qora juma” kabi ifodalar orqali salbiy yoki iqtisodiy konnotatsiyada qo‘llanishi, yoki “ko‘k” leksemasining “ko‘k tugma” kabi maqom anglatuvchi belgiga aylanishi ushbu jarayonning yaqqol namunaligidir. Xususan, zamonaviy nutqiy kontekstda rang sifatlarining konnotatsiyaviy kengayishini o‘rganish, ularning leksik-semantik tizimdagi holati, stilistik xususiyatlari va tezaurusiy integratsiyasi imkoniyatlarini tahlil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Adabiyotlar sharhi. Dunyo tilshunosligida ranglar bilan bog‘liq mifologik dunyoqarash, rang semiotikasining universal va spetsifik belgilari, rang bildiruvchi leksemalarning

ma’no qirralari, lingvopoetik xususiyatlari o‘rganilgan. Xususan, V.Alpatov ranglar nazariyasiga oid dastlabki ilmiy xulosalar bergan. L.Samarina esa umumiy madaniyatdagi ranglarni o‘rgangan. A.Vejbiskaya rang narsaning xususiyatlaridan kelib chiqib predmetga berilishi haqidagi qarashlarini bayon qilgan, tafakkur, idrok bilan bog‘liq jihatlarni, milliy-madaniy belgilarni aks ettirish imkoniyatlarini tahlil qilgan bo‘lsa, O.Frolova yapon tilidagi rang bildiruvchi so‘zlarga e’tibor qaratgan. F.Kunio qizil, olovrang, sariq, yashil, havorang, ko‘k va binafsharang va ularning madaniy ma’nosini tadqiq qilgan [1].

Rang bildiruvchi sifatlar til tizimida semantik jihatdan eng faol va keng qamrovli qatlamlardan biri bo‘lib, ularning izlanishi o‘zbek tilshunosligida XX asrning 60-yillarida shakllana boshlagan. M.Sodiqovanning tadqiqotida rang-tus sifatleri o‘zbek tilidagi ma’no turlarining eng xarakterli ko‘rinishi sifatida e’tirof etilib, ularning leksik-semantik, stilistik va grammatik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. M.Sodiqovanning ta’kidicha [2], rang-tus sifatlarini eng xarakterli ma’no turi bo‘lib, otlashishga juda moyil. Bu esa, ayniqsa, semantik rang-baranglikni va ko‘chgan ma’nolarni yuzaga keltiradi

Z.Pardayev o'z izlanishlarida rang nomlarining poetik matnlardagi emotsional va stilistik yuklamalariga e'tibor qaratib, ularning konnotatsion xususiyatlari ijobiy va salbiy semalarda ifodalanuvchi vosita ekanini ta'kidlaydi [3]. Ayniqsa, qora rangga oid "qora kun", "qora kuchlar" kabi iboralarning salbiy; "qora soch", "qora qosh" kabi birikmalarning esa ijobiy konnotatsiyali ishlatilishini tilshunoslik nuqtayi nazaridan asoslaydi.

Ranglar bilan bog'liq konnotatsiyaviy kengayishlarni dialektal, tarixiy va adabiy kontekstda ko'rsatib bergan tadqiqotlardan biri F.Musayeva [4] ishidir. U qora leksemasining O'rta Osiyo shevalarida inson terisi, meva, hayvon va o'simliklar rangini ifodalashdagi nominativ salohiyatini tahlil qiladi. Olimaning ta'kidlashicha, inson ko'zi ilg'aydigan 3 milliondan ortiq rang jilolari mavjud bo'lib, ulardan atigi 15 tasi bazaviy rang hisoblanadi. O'zbek tilida rang nomlarini ifodalovchi ko'plab leksik birliklar mavjudligiga qaramay nominatsiya jarayonida ishtirok etadiganlari va asosiy oq, qora, qizil, ko'k, sariq, yashil ranglari hisoblanadi

G.M.Israilovning [1] "Ko'k" leksemasining semantikasi va tezaurusiga bag'ishlangan monografiyasi ko'k rangning tasavvufiy, poetik va zamonaviy konnotatsiyalarini qamrab olib, tezaurusiy yondashuvga asoslangan semantik modellashni ilgari suradi. Shuningdek, tadqiqotda "ko'k" leksemasi semantikasiga doir ilmiy-nazariy jihatdan muhim ma'lumotlar berilib, uning kognitiv xususiyatlari, pragmatik ma'nolariga oid maqol-matal, ibora va poetik matnlar lug'atini tuzishga xizmat qilishi ochib berilgan. O'zbek tilshunosligida muayyan leksemaga oid mukammal ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va semantik paradigmalarni yordamida tezaurus lug'atlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Mazkur tadqiqotlar an'anaviy lingvistik yondashuvlarni zamonaviy konnotatsiyaviy tahlil usullari bilan integratsiya qilib, rang nomlarining leksik-semantik tafakkurdagi o'rnini chuqur va kompleks tarzda anglash imkonini bermoqda.

Qora pul	yashirin daromad
Qora bozor	qonunga xilof tarzda faoliyat yuritadigan, rasmiy ruxsat va nazoratdan chetda bo'lgan norasmiy savdo bozori.
Qora iqtisodiyot	rasmiy ro'yxatga olinmagan, soliq to'lanmaydigan, qonunga zid yoki yashirin iqtisodiy faoliyatlar majmuasi
Qoralangan duo	an'anaviy diniy duoning satirik yoki buzilgan shakli
Qora dushanba	tarixiy: diniy bayramdan keyingi, maktabda va fond bozoridagi inqiroz kunlari uchun ishlatilgan
Qora daftar	noqonuniy ishlar yoki jinoyatchilar ro'yxati
Qora ro'yxat	taqiqlangan shaxslar ro'yxati
Qora kiyim	motam belgisi

1-jadval. "Qora" leksemasining zamonaviy konnotatsiyasi.

Yuqoridagi jadval orqali qora leksemasining zamonaviy salbiy konnotatsiyalari ko'rib chiqilgan bo'lsa, u "qora galstuk" – nafosat, rasmiylik, obro'; "qora oltin" (neft) – boylik, iqtisodiy qudrat manbai; "qora belbog'" – tajriba, mukammallik kabi ijobiy ma'nolarni ham bildiradi.

"Ko'k" leksemasi esa tarixiy-estetik nutqda ilohiylik, musaffollik, sokinlik timsoli bo'lib kelgan (ko'k osmon, ko'k moviy ko'z), biroq zamonaviy kontekstdagi ishlatilishida status va texnologik belgini anglatmoqda. Masalan, ko'k tugma (ijtimoiy tarmoqlarda tasdiqlangan shaxs belgisi), ko'k

Tadqiqot usullari. Ushbu maqolada rang bildiruvchi sifatlarining zamonaviy nutqdagi konnotatsiyaviy o'zgarishlari o'rganildi. Tadqiqotda lingvosemantik, konnotatsion va leksikografik tahlil usullari qo'llanildi. Material sifatida adabiy matnlar va zamonaviy o'zbek nutqidagi sinsetlar tanlab olindi. Asosiy e'tibor "qora", "ko'k", "oq", "qizil", "yashil", "sariq" kabi sifatlarining leksik-semantik va konnotativ xususiyatlariga qaratildi. Rang nomlarining tezaurus tizimidagi bog'liqligi, zamonaviy diskursdagi ma'no kengayishlari va stilistik funksiyalari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Rang bildiruvchi sifatlar o'zbek tilida nafaqat obyektiv belgilarni ifodalovchi vosita, balki emotsional, ijtimoiy va madaniy konnotatsiyalarni yuklovchi semantik birliklar sifatida faol ishlatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "qora" leksemasi zamonaviy nutqiy kontekstdagi eng faol konnotatsion o'zgarishlarga ega rang nomlaridandir.

"Qora" leksemasining 12 ta okkazonal semalari mavjud bo'lib [3], an'anaviy til tizimida salbiy konnotatsiyada (qora kun, qora kuch, qora taqdir) qo'llanilgan. Hozirgi zamonaviy diskursda esa u iqtisodiy pragmatika bilan ham bog'liq (masalan, Black Friday – katta chegirmalar kuni). Shuningdek, qora rang asosida hosil bo'lgan frazeologik birliklar (qora ter, qora xat, qora odat) inson psixologiyasi, madaniyati va holatini ifodalovchi semantik yuklamalarni ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qora rangning majoziy qo'llanishlari, asosan, salbiy semantik yuklama kasb etadi. Bunday metaforalarning ko'pchiligi qora rang va zulmat o'rtasidagi metonimik bog'liqlik asosida shakllangan bo'lib, bu holat qorani qorong'ulik, noaniqlik va salbiy hodisalar bilan bog'lashga olib keladi [5]. Xususan, qora leksemasi ingliz xalqlarida bo'xton, depressiya (yoki ruhiy tushkunlik), g'azab, norozilik (kontekstga qarab: yoqimsizlik, nazardan qolish), g'ayritabiiylik, g'azab, jahl, axloqiy yovuzlik, yo'qlik, mavjud emaslik, maxfiylik, sir saqlash kabi konnotatsiyalarda ham qo'llanadi (1-jadval):



1-rasm. “Ko’k” leksemasining salbiy konnotatsiyasi.

Ko’k rang leksikasi tarixiy-estetik nutqda ilohiylik, musaffolik, sokinlik kabi ijobiy ma’nolar timsoli sifatida shakllangan bo’lsa-da, zamonaviy til tizimida uning ma’no doirasi kengayib, ko’plab yangi metaforik va konnotatsiyaviy yuklamalar bilan boyidi. Xususan, Yaponiyada ishlab chiqilgan “Blue lock” loyihasi [6] o’zbek tiliga to’g’ridan to’g’ri tarjima qilinsa, “ko’k qamoq” ma’nosini anglatadi va yapon xalqining futbol jamoasi uchun yagona (ego) hujumchini tanlab oladi. “Ko’k kit” [7] iborasi ham ingliz tili orqali tilimizga kirib kelgan birikma hisoblanib, metaforik ko’chish asosida odamni ruhiy bosim ostida tanho va ma’yus holatga tushurish ma’nosini bildiradi.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ko’k rangning zamonaviy konnotatsiyalari an’anaviy lingvistikaga qaraganda salbiy semantik maydonlarga asoslangan. Bu holat rang leksikasining dinamik rivojlanishini, ya’ni tarixiy pozitiv konnotatsiyalardan zamonaviy salbiy semantik yuklamalargacha bo’lgan takomilini aks ettiradi.

“Qizil” rang qadim zamonlardan buyon o’zining kuchli emotsional va madaniy yuklamasi bilan ajralib turgan. Uning an’anaviy ma’nolari hayot, ehtiros va qudrat kabi tasavvurlar bilan bog’liq bo’lsa, zamonaviy kontekstdagi qo’llanishi yanada murakkab va ko’p qatlamli xarakter kasb etmoqda. Xususan, zamonaviy til va madaniyatda qizil rang turli qarama-qarshi ma’nolarni ifodalaydi: xavf va ogohlantirish, siyosiy faollik [5], erkaklik va kuch, moliyaviy muammolar (in the red), shuningdek, byurokratiya (red tape), axloqsizlik (red-light district), g’azab (to see red), va zavq ifodasi bilan bog’liq [8].

Qizil rang, shuningdek, dolzarblik, gunohkorlik, ko’rlik va huzur kabi turli emotsional va ijtimoiy mazmunlar qatlamini hosil qiladi. Uning o’zgaruvchan konnotatsiyalari madaniy va tarixiy rivojlanish natijasi bo’lib, zamonaviy nutqda qizil rangning dinamik semantik yuklamasini namoyish etadi. Qizil sifatining yuqoridagi ma’nolari ingliz tili konnotatsiyalarida zamonaviylikni kasb etsa, o’zbek tilida

ayrim farqli tomonlarini ham kuzatish mumkin. Xususan, assotsiativ jihatdan bu rang to’siq, xavfdan ogohlantirish kabi ma’no ko’chish hodisalarini yuzaga chiqarishi mumkin: “...Og’zi qaro alomat, ichi qizil qiyomat – uni toping dilbarim”, bu hamma biladigan oddiy topishmoq...(G’.G’ulom “Shum bola” 1965). Ushbu matn kontekstdan ko’rinib turibdiki, “qizil qiyomat” iborasi tandirda yonib turgan alangani anglatadi. Bu esa qizil leksemasi assotsiativ jihatdan olov, jazirama ma’nosini ko’rsatishini bildiradi. Bundan tashqari, Har qachonki hindining puli bir lakdan oshsa, tillani qizdirib manglayiga bosadi-yu, qizil nishon qiladi ...(G’.G’ulom “Shum bola” 1965). Yuqoridagi tahlillar qizil leksemasining predmet belgisini ifodalovchi funksiyasidan konnotativ funksiyaga o’tganini ko’rsatadi.

“Oq” leksemasi ham boshqa ranglar singari o’zining asl ma’nosini kengaytirib, zamonaviy konnotatsion ma’nolar hosil qilmoqda. Qadimdan oq rangi poklik, beg’uborlik va xavfsizlik ma’nolarini anglatgan. Xalqimizda uzoq safarga chiqayotgan yaqinlariga “oq yo’l” tilash an’anasi ham aynan oq leksemasining xavfsiz, tinchlik ma’nolari orqali vujudga kelgan. Oq va qora leksik antonimlar bo’lib, ular o’rtasida, asosan, yaxshilik va yomonlik tushunchalari zid qo’yiladi. Oq leksemasi ijobiy va salbiy konnotatsiyalarda ham uchrashi mumkin. Masalan, oq pul (white money), oq tun (white night) ijobiy konnotatsiyalarni hosil qilsa, tajribasizlik (IT va biznesda), uzoq masofa (telekommunikatsiyada), signal tahlili (signal va audio texnologiya sohasida) kabi oq rang leksemalarining salbiy va ijobiy konnotatsiyalarda o’z semantik maydonini kengaytirishi tilning ijtimoiy hodisa sifatida doimiy rivojlanish va yangilanish holatini namoyon qiladi.

Tadqiqotimiz natijalari rang nomlarining, xususan, sariq va yashil kabi asosiy ranglarning ham zamonaviy konnotatsion ma’nolarda kengayib, sotsiolingvistik faoliyat doirasida faol ishlatilayotganini ko’rsatadi. Masalan (2-jadval):

Yashil leksemasi	Leksemaning zamonaviy konnotatsiyadagi ma’nosi
Yashil iqtisodiyot	Atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, tabiiy resurslardan oqilona foydalangan holda iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydigan iqtisodiy model.
Yashil energiya	Quyosh, shamol, suv energiyalari kabi tabiatdan olinadigan energiyalar
Yashil texnologiya	Atrof muhitga zarar yetkazmaydigan, ekologik barqarorlikni ta’minlaydigan ilg’or texnologiyalar majmui.
Yashil banknota	hozirda AQSh dollarining norasmiy nomi sifatida ishlatiladi.
Yashil audit	Tashkilot yoki korxonalarining ekologik faoliyatini va atrof muhitga ta’sirini baholovchi tekshiruv jarayoni.
Yashil chiroq	Harakatga ruxsat berishni ifodalovchi signal; keng ma’noda esa loyiha yoki tashabbusni boshlashga berilgan tasdiq.
Yashil bozor	Ekologik toza mahsulotlar va xizmatlar savdosi bilan shug’ullanuvchi bozor.

2-jadval. Yashil leksemasining zamonaviy konnotatsiyadagi ma’nolari.

Sariq rang asosiy ranglardan biri bo’lib, an’anaviy ma’nolardagi kabi sotsiolingvistik tizimda ham yoshlik yoki qarilik; hasad, rashk; past lavozim, past ijtimoiy maqom; sanksiya, shov-shuvga o’chlik; qo’rqoqlik, jasoratsizlik salbiy konnotatsiyalarga ega bo’ladi. Qadimgi davrlarda sariq rang

muqaddas sanalgan va u yorug’lik, iliqlik, farovonlik timsoli bo’lgan. Bugungi kunda Yevropada sariq rang nisbatan sezilmaydigan, kundalik hayotda kam uchraydigan va ko’pincha katta ramziy ma’noga ega bo’lmagan rang sanaladi [9]. Shuningdek, marketing va vizual brend tahlillari sariq

rangni energiya va ijodiy ilhom beruvchi rang sifatida tavsiflaydi [10]. Demak, sariq rang leksemasi an'anaviy va zamonaviy kontekslarda ham, asosan, salbiy tushunchalarni ifodalaydi.

Shuningdek, chiqindi qutilarining ranglar asosida kodlanishi rang leksemalarining zamonaviy konnotatsion kengayishining amaliy ifodasidir. Bu holat ranglarning ekologik va ijtimoiy kommunikatsiyada axborot uzatuvchi vosita sifatida mustahkam o'rin egallayotganini ko'rsatadi.

Xulosa. Rang leksemalari o'zining an'anaviy semantik otteńkalaridan tashqari, zamonaviy kontekstlarda ham salbiy va ijobiy konnotatsion ma'nolar bilan boyimoqda. Bunday semantik kengayish madaniyatlararo integratsiya va texnologik taraqqiyot jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, til tizimida rang nomlarining ma'no qamrovini kengaytirish tendensiyasini yuzaga keltirmoqda. Bu esa tilning tezaurus tizimida ushbu sifatlarning semantik maydonini kengaytirish zaruratini yuzaga chiqaradi.

ADABIYOTLAR

1. Israilova S. "Ko'k" leksemasining semantikasi va tezaurusi. Monografiya. Toshkent – 2023. – B.112.
2. Содикова М. Хозирги ўзбек тилида сифат. Монография – Тошкент: ЎзФАН, 1974. – Б.63.
3. Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Фил.фил.ном.дисс. Самарканд – 2004. – Б.5.
4. Мусаева Ф. Номинацияда ранг мотивемасининг ўрни. Ўзбек тили ва адабиёти. 2022.6. – Б.27.
5. Hamilton R.L. Colour in English: from metonymy to metaphor: dissertation for the degree of Doctor of Philosophy. University of Glasgow, 2017. – P.301.
6. <https://ragnarokscanlation.org/series/bluelock/chapter-305/>
7. <https://www.bbc.com/news/blogs-trending-46505722>
8. Lakoff G., Johnson M. – Metaphors We Live By. 1980. – P.7.
9. Pastoureau M. Yellow: The History of a Color. – Princeton University Press, 2019. – P.216.
10. Singh S. Impact of color on marketing. Management Decision. – 2006. – Vol. 44, No.6. – P.783-789.



Nargiza PULATOVA,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti
E-mail: nnegmatovna 1985@mail.ru

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori U.Qarayev taqrizi asosida

**BADIIY ASARLARDA ZONIMLAR POETIKASI: INSONIY XISLATLAR TALQINI (RUS VA UZBEK TILI
MISOLIDA)**

Аннотация

Maqolada rus va uzbek badiiy asarlarda zoonimlar poetikasining xos xususiyatlari va uning qiyosiy tahlili qalamga olimngan. Ta'kidlanishicha, zoonimlar poetikasi – bu inson va tabiat, til va tafakkur, madaniyat va o'ziga xoslik o'rtasidagi munosabatlarni tushunishga imkon beradigan nozik va ko'p qatlamli adabiy tahlil sohasi. Adabiyot zoonimlar orqali hayvon nafaqat kuzatish ob'ekti, balki inson qalbining ko'zgusi ham bo'lgan dunyoni modellashtirishning murakkab ishlarini amalga oshiradi.

Kalit so'zlar: zoonim, poetika, qiyosiy tahlil, inson va tabiat, til va tafakkur, madaniyat, adabiy tahlil, badiiy va tasviriy funktsiya.

**ПОЭТИКА ЗООНИМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ
ЧЕРТ (НА ПРИМЕРЕ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

Аннотация

В статье рассматриваются особенности поэтики зоонимов в русских и узбекских литературных произведениях и их сопоставительный анализ. Подчеркивается, что поэтика зоонимов – тонкая и многослойная область литературного анализа, позволяющая понять взаимоотношения человека и природы, языка и мышления, культуры и идентичности. С помощью зоонимов литература выполняет сложную задачу моделирования мира, в котором животные являются не только объектами наблюдения, но и зеркалами человеческой души.

Ключевые слова: зооним, поэтика, сравнительный анализ, человек и природа, язык и мышление, культура, литературный анализ, художественно-образная функция.

**POETICS OF ZOONYMS IN WORKS OF ART: INTERPRETATION OF HUMAN QUALITIES (ON THE EXAMPLE
OF RUSSIAN AND UZBEK)**

Annotation

The article examines the specific features of the poetics of zoonyms in Russian and Uzbek works of art and its comparative analysis. It is emphasized that the poetics of zoonyms is a subtle and multi-layered area of -literary analysis that allows us to understand the relationship between man and nature, language and thought, culture and identity. Through zoonyms, literature performs the complex task of modeling the world, where the animal is not only an object of observation, but also a mirror of the human soul.

Key words: zoonym, poetics, comparative analysis, man and nature, language and thought, culture, literary analysis, artistic and descriptive function.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik badiiy matndagi alohida leksik-semantik guruhlarning semantikasi va funksiyasini o'rganishga tobora ko'proq murojaat qilmoqda, chunki ularda xalqning dunyoqarashi shifrlangan. Shu nuqtai nazardan, adabiyotda ramziy, majoziy va idioetnik salohiyatga ega bo'lgan zoonimlar – hayvonlarni bildiruvchi leksemalar poetikasi alohida qiziqish uyg'otadi. Zoonimlar nafaqat nominativ, balki badiiy va tasviriy funktsiyani ham bajaradi, madaniy arxetiplarni, folklor an'alarini va individual mualliflik ma'nolarini aks ettiruvchi assotsiativ qatorni tashkil qiladi.

Zoonimlarning badiiy nutqda ishlashi muammosi uzoq vaqtdan beri sof leksikografik qiziqish doirasidan chiqib ketgan va fanlararo yondashuvni talab qiladi - poetika, semiotika, etnolingvistika va kognitiv tilshunoslikka asoslangan[1]. Shu bilan birga, rus va o'zbek adabiy an'alaridagi zoonimlarni qiyosiy tadqiq etish hayvon obrazlari she'riy tasvirining ham umuminsoniy, ham milliy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi, bu esa, tadqiqotga muhim qiyosiy madaniy jihat beradi.

Zoonimlarni poetik tizimning elementi sifatida o'rganish keng ko'lamlil nazariy va uslubiy yondashuvlarga

asoslanadi. Avvalo, bu zoonimning matndagi ma'nosi va vazifasini aniqlashga qaratilgan struktur-semantik tahlildir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning maqsadi rus va o'zbek adabiyotidagi zoonimlarning poetikasini ularning semantik yuklamasi, uslubiy vazifalari va madaniy-etnik timsoli prizmasi orqali aniqlash va tavsiflashdan iborat. Tadqiqot zoonimlar muallifning dunyo haqidagi kontseptsiyasining asosiy elementlariga aylangan aniq matnlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning dolzarbligi tabiiy olam elementlari, xususan, zoonimlar orqali shakllangan badiiy tasvir mexanizmlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi bilan bog'liq. Madaniyatlararo muloqotni kengaytirish sharoitida madaniy o'ziga xoslikni ifodalash usullaridan biri sifatida zoonimlarda qayd etilgan poetik kodning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash alohida ahamiyatga ega.

Ishning uslubiy asosiga kognitiv tilshunoslik elementlari, xususan, ramkalar va tushunchalar nazariyasi ham kiradi. Bu nazariyaga ko'ra, zoonimlar ma'lum konseptual tuzilmalarning vakillari bo'lishi mumkin, masalan: "ayyor" (tulki), "jasorat" (sher), "sodiqlik" (it) va boshqalar. Bunday

tuzilmalar odatda madaniyatda barqaror, ammo etnolingvistik muhitga qarab o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ishning yangiligi qiyosiy yondashuvda bo'lib, zoonimlar nafaqat leksik birlik sifatida, balki ikki milliy adabiyot doirasida muayyan madaniy ma'no tashuvchisi sifatida tahlil qilinadi. Ilgari bunday tadqiqotlar epizodik bo'lib, asosan frazeologik birliklarni tavsiflash yoki badiiy kontekstdan tashqarida aniq zoonimlarni tahlil qilish bilan cheklanardi. Ushbu tadqiqot adabiy asarlardagi zoonimik obrazlarni yaxlit poetik va stilistik tahlil qilishga qaratilgan.

Adabiyot sharhi. Yu.M.Lotman tomonidan taklif qilingan poetik timsol tushunchasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra matndagi har bir poetik belgi qo'shimcha semantik yukni ko'taradi va madaniy kodlar tizimida ishlaydi [2].

A.V.Bondarko hayvonlarning leksik-semantik sohasini, ayniqsa, badiiy metafora tarkibida ikkilamchi nominatsiya va troplarining muhim manbai, deb hisoblaydi [3].

Etnolingvistika va tilshunoslik masalalariga alohida e'tibor qaratilib, ular doirasida zoonimlar milliy mentalitetni ifodalashga qodir madaniy belgilar sifatida talqin etiladi. O'zbek tadqiqotchisi D.A.Tosheva zoonimlarda o'rin olgan barqaror etnomadaniy stereotiplar, ulardan she'riy obrazlarda ifoda va ramziylikni kuchaytirish maqsadida foydalanishga ishora qiladi [1].

Fyodor Dostoevskiy "Jinoyat va jazo" romanida garovchi kampir obraziga hasharotlar xos xususiyatlarini beradi, bu esa, qahramonning begonalashuvini va uning ma'naviy tanazzulga qarshi ayanchli kurashini kuchaytiradi [5].

L.N.Tolstoyning "Anna Karenina", "Urush va tinchlik" asarlarida zoonimlar ham odamlarni (tulki, sher, sigir), ham tabiat holatlarini tasvirlash uchun ishlatiladi, bu esa, asarga organik sifat va falsafiy teranlik baxsh etadi. Masalan, Vronskiyning o'limi sahnasida ishlatilgan ot tasviri nafaqat jismoniy qurbonlikni, balki erkaklik idealini yo'q qilishni ham anglatadi [5].

Rus she'riyatida zoonimlar alohida o'rin tutadi. A.S.Pushkin asarlarida hayvon obrazlari ko'pincha shaxsiy erkinlik va she'riy ilhomni ifodalaydi (masalan, "Xudoning qushi bilmas..." she'ridagi qush obrazi). S.Yesenin uchun bular ko'pincha uy hayvonlari, sigir, qo'y, ot bo'lib, ular vatan, qishloq, tabiat va milliy arxetip timsoli bilan bog'liqdir [5].

She'riy nutqdagi zoonimlar qo'shimcha ma'nolar bilan to'ldirilgan semiotik komplekslarni ifodalaydi. Ular muallif kontseptsiyasining bir qismi bo'lishi mumkin. Masalan, B. Pasternakda bo'ri, ayiq, ot obrazlari ichki kurash, fojia, shu bilan birga qahramonlik bilan bog'langan [5].

Tahlil va natijalar. Rus badiiy an'anasi juda ko'p ramziy va metaforik tasvirlar, shu jumladan zoonimlar bilan ajralib turadi. Rus adabiyotida hayvon tasviri nafaqat tavsiflovchi, balki chuqur ramziy funktsiyani ham bajaradi, ko'pincha xarakterning ichki holatini, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, ijtimoiy va falsafiy to'qnashuvlarni ifodalaydi.

Rus adabiy an'analarda "yovvoyi – uy" dixotomiyasi ko'pincha zoonimlar orqali ifodalanadi. Yovvoyi hayvonlar (bo'ri, ayiq, kalxat) xavf, erkinlik, tabiiy kuch bilan bog'liq bo'lsa, uy hayvonlari (sigir, it, ot) mehnat, sabr, qurbonlik bilan bog'liq. Bu qarama-qarshilik ko'p hollarda dramatik to'qnashuvlar va personajlarning axloqiy va falsafiy aks ettirilishi uchun asos bo'ladi.

O'zbek adabiyoti, xuddi rus tili kabi zoonimik obrazlarning boy palitrasiga ega, lekin ularning ramziy ko'rinishida Sharq an'analari, islom falsafasi, turkiy xalq og'zaki ijodi va agrar mentalitet bilan bog'liq bo'lgan boshqa madaniy kodlar ko'p uchraydi.

O'zbek adabiyotida hayvonot timsoli folklor g'oyalari bilan chambarchas bog'liq. Masalan, tulki xalq ertaklarida ayyorlik va aql-zakovatni ifodalovchi keng tarqalgan personajdir. Bu obraz 20-asr she'riy nutqida o'zgartirildi: Erkin Vohidov ijodida u hiyla-nayrang emas, balki ehtiyotkorlik va og'ir sharoitlarda omon qolish qobiliyatini ifodalashi mumkin [1].

Abdulla Oripov she'riyatida zoonimlar milliy o'zlikni ifodalash uchun ishlatiladi. Uning uchun ot shunchaki hayvon emas, balki yo'l, ozodlik sari harakat, tarixiy xotiraning majozidir. ijodkor asarlarida jonivorlar va ularga xos xususiyatlar majoziy yo'sinda talqin etiladi va natijada ibratomuz xulosalar chiqariladi. Hayvonot dunyosining sirli va g'aroyib olami shoirning falsafiy, ijtimoiy, ma'rifiy qarashlarini bayon etishda bir vosita vazifasini o'taydi. Masalan, "Tilla baliqcha", "Arslon chorlagandi... (Erkin Vohidovga)", "Arslon va inson", "Qaldirg'och" kabi she'rlarida ayni holatlarni kuzatishimiz mumkin. "Qaldirg'och" sarlavhali she'rida qaldirg'och va chumchuq haqida gap boradi va qaldirg'ochning himmati insonlarga o'rnatilib qolib ko'rsatiladi. Shoir biribiriga yaxshilik qilishga odatlangan, o'zgalardan kerak chog'ida yordamini ayamaydigan kishilarga insoniyatning hamisha muhtoj ekanligi to'g'risidagi mulohazasini bayon etadi [6].

O'zbek adabiyotida zoonimlar bilan mifopoetik g'oyalar o'rtasidagi bog'liqlik ayniqsa seziladi. Masalan, lochin yoki arslon an'anaviy mardlik va qudrat timsoli bo'lib, qahramonlik dostonlarida ("Alpomish", "Gurug'li") ko'p qo'llanilgan, keyinchalik zamonaviy adabiyotda adolat va kuch timsoli sifatida qayta talqin qilingan. Sobir O'nar kabi zamonaviy yozubchilar bu jonivorlarni ekzistensial kalitda – qahramonning ichki holatlari, bo'ysunish va kurash o'rtasidagi tanlovi in'ikosi sifatida talqin etadilar [1].

Zoonimlar orqali amalga oshirilgan "sof – nopok" dixotomiyaning madaniy jihati ham qiziq. Masalan, diniy sabablarga ko'ra badiiy nutqda deyarli uchramaydigan cho'chqa madaniy tabuga aylanadi, uning tilga olinishi faqat salbiy qabul qilinadi. Shu bilan birga, it va eshak obrazlari istehzoli, ba'zan haqoratomuz tarzda qo'llanilishi ham o'zbek jamiyatining ijtimoiy-madaniy munosabatlarini aks ettiradi.

Rus va o'zbek adabiyotidagi zoonimlarni tahlil qilishga qiyosiy yondashish ularning she'riy faoliyatining universal mexanizmlarini ham, madaniy va milliy talqinlarning o'ziga xos xususiyatlarini ham aniqlash imkonini beradi. Hayvonlar insonning umuminsoniy ontologiyasining bir qismi bo'lib, tabiiy va madaniy xususiyatlarga asoslangan badiiy tasvirni shakllantirishda ishtirok etadilar, lekin har bir adabiy an'anada ular turli yo'llar bilan faollashadi.

Ikkala adabiyotda ham zoonimlar ko'pincha shaxs obrazining metaforik yoki ramziy kengaytmasi rolini o'ynaydi. Biroq, farq hukmron madaniy birlashmalarda yotadi. Masalan, rus adabiyotidagi (ayniqsa, xalq ertaklari va romanlarida) "bo'ri" zoonimi xavf, izolyatsiya va ichki kurash bilan bog'liq. Ushbu turdagi zoonimlar hatto unvonga aylanadi: L.N. Tolstoy – "Xolstomer", I.S.Turgenev da – "Mumu", A.P.Chexov – "Kashtanka" va "Oq frontli", A.Kuprin – "Oq pudel" va "Zumrad", I.A. Bunin – "Chang orzulari" va boshqalar unchalik mashhur emas. Qolaversa, bu asarlardagi voqea ko'pincha... bu hayvonlarning o'zlari (Xolstomer, Kashtanka) tomonidan aytiladi. Uning mualliflik niyatidan kelib chiqib, I.S.Turgenev hikoyachini (shaxs sifatida) tanishtirishdan bosh tortdi va ayniqsa, hikoyaning bosh qahramonlarini - it va kar-soqovni so'zsiz qildi [7].

Ot timsoli ikkala an'ana zoonimlari poetikasining eng muhim elementlaridan biridir. Rus adabiyotida ot (ayniqsa, L.N.Tolstoy, N.V.Gogol asarlarida) mehnatni, kamtarlikni, insonning tabiat va qishloq hayoti bilan chambarchas bog'liqligini ifodalaydi [5]. O'zbek adabiyotida ot qahramonlik kodining elementi bo'lib, milliy doston, cho'l

sivilizatsiyasi unsurlari hamda qurbonlik va “vatanparvarlik” tushunchalari bilan bog'liq [4].

“It” har ikkala madaniyatda ham noaniq ma'noga ega. Rus an'analarda u sodiq do'st bo'lishi mumkin (masalan, Turgenev va Tolstoyning hikoyalarida), fidoyilik ramzi. O'zbek adabiyotida it ko'pincha kamsituvchi ma'noda – past ijtimoiy mavqeni qoralash yoki tashbeh sifatida namoyon bo'ladi, bu diniy va madaniy munosabat (xususan, islom dinida uyda it bo'lishini taqiqlash) bilan izohlanadi [5].

Zoonimlar kuch metaforasi sifatida ham ikki an'anada turlicha namoyon bo'ladi. Demak, o'zbek adabiyotida, ayniqsa, epik matnlarda sher (arslon) obrazi adolatli xon, jangchi, homiy timsoli hisoblanadi. Rus adabiyotida, aksincha, bu tasvir unchalik faol ishlatilmaydi va ko'pincha qargza olingan (inijl yoki qadimiy) an'analarda uchraydi.

Kinoiy zoonimlarni solishtirish qiziq. Rus adabiyotida istehzo ko'pincha qurbaqa, mushuk, cho'chqa, chumchuq obrazlari orqali ifodalanadi. Masalan, Gogolda hayvonlar insonning zaif tomonlarini masxara qilib, satira asboblari sifatida xizmat qiladi. O'zbek adabiyotida xuddi shunday vazifani eshak (eshak) va tovuq (tovuq) obrazlari bajaradi, biroq ayni paytda “o'ziniki” hayvonlarga – kundalik hayotda odamga hamroh bo'lgan tuya, sigir, qo'yga hurmatli munosabat saqlanib qolgan.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, asosiy semantik tuzilmalardagi o'xshashlikka qaramay, zoonimlar madaniy kodlar, diniy ko'rsatmalar va ijtimoiy me'yorlarga qarab turli xil mazmun bilan to'ldiriladi. Badiiy matnni sharhlashda ham, tarjima qilishda ham bu farqlarni hisobga olish kerak, chunki ramziy yukni madaniy xususiyatlarni tushunmasdan buzish mumkin.

Badiiy adabiyotda zoonimlar poetikasini tahlil qilish tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va kognitiv semiotika uslublarini o'zida mujassam etgan tizimli yondashuvni talab qiladi. Zoonimlar matnda bir vaqtning o'zida denotativ, konnotativ va ramziy ma'noga ega bo'lgan ko'p darajali semantik birliklar vazifasini bajaradi.

Qo'llaniladigan uslubiy yondashuvlar orasida kognitiv-diskursiv tahlil alohida ahamiyatga ega bo'lib, zoonimiyani atrofda dunyoni kontseptsiyalash elementi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Tadqiqotchilar zoonimlar “odam”, “jamiyat”, “dunyo” tushunchalarini shakllantirishda ishtirok etishini ta'kidlaydilar, chunki adabiyotda hayvonlar ko'pincha qahramonlarning axloqiy va psixologik xususiyatlarini aniqlash uchun ishlatiladi [4].

Zoonimlarni o'rganishda kadrlar tahlili ham keng qo'llaniladi: har bir zoonimni xulq-atvor stsenariylari, baholashlari va talqinlarini belgilovchi madaniy ramkaning bir qismi sifatida tushunish mumkin. Masalan, rus madaniyatidagi “bo'ri” ramkasi rollarni o'z ichiga oladi: ovchi, quvg'in, yolg'iz, dushman jonzo.

Semantik tahlil, ayniqsa, etnolingvistika doirasida ham muhim ahamiyatga ega. Bu bizga maqol, matal, afsona va dostonlarda qayd etilgan hayvonlarning turg'un tasvirlarini

ADABIYOTLAR

1. Тошева Д.А. «Зооним компонентли мақолларнинг лингвокуль-турологик хусусиятлари», 10.00.11–Тил назарияси. Амалий ва компьютер лингвистикаси. фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети.
2. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 464 с
3. Бондарко А.В. К проблеме функционально-семантических категорий. Вопросы языкознания, 1967, № 2, с. 18-31.
4. Iskenderova E. K. «Qoraqalpoq tilidagi zoonimlarning lingvomadaniy tahlili», 10.00.03 – Qoraqalpoq tili (filologiya fanlari). falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Nukus davlat pedagogika instituti.
5. Суперанская А.В. . Теория и методика ономастических исследований. – Москва: Наука, 1986. – 256 с
6. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. – Т.: Фафур Фулом номидagi Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 496 б.
7. Ибрагимов Б.Н. Поэтика народных символов в литературе Центральной Азии / Б.Н. Ибрагимов // Вопросы литературы. -2021. -№ 3. -С. 60–70.

aniqlash imkonini beradi. Masalan, rus tilidagi “ot kabi ishlaydi”, “lochindek yalang'och”, “bo'z bo'ri” iboralar hayvonlarning inson hayoti va ongidagi o'rni haqidagi chuqur fikrlarni aks ettiradi. O'zbek madaniyatida zoonim antropotsentrik ramkaga kiritilgan “ot erkakning yarim jonidir” (“ot – odam ruhining yarmi”) kabi iboralar ham xuddi shunday vazifani bajaradi.

Badiiy matndagi zoonimlarning grammatik va leksik funksiyalarini aniqlashga qaratilgan struktur-semantik tahlildan foydalanish ham samaralidir. Bu yerda ularning sintaktik muhiti xususiyatlari, metaforalanish darajasi va turli janrlarda (nars, she'r, dramaturgiyada) qo'llanish chastotasini o'rganamiz.

Bundan tashqari, pragmatik jihatni hisobga olish kerak: adabiyotdagi zoonimlar ko'pincha aksiologik belgilash funktsiyasini bajaradi. Hayvonlar tasvirlari orqali muallif shaxsiy yoki madaniy baholarni ifodalaydi va axloqiy va estetik ko'rsatmalarni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, E.K.Iskenderovanning so'zlariga ko'ra, “zoonimlar o'ziga xos kodga aylanadi, bu orqali muallif hikoya tuzilishida yashiringan chuqur ma'nolarni beradi” [4].

Metodologiyada fanlararo yondashuvga, ayniqsa qiyosiy tadqiqotlarga alohida e'tibor beriladi. Tilshunoslik va tarjimashunoslikning o'zaro ta'siri badiiy asarlarni rus tilidan o'zbek tiliga va aksincha tarjima qilishda zoonimlarni moslashtirish strategiyalarini aniqlash imkonini beradi. Zoosimbolizmni noto'g'ri tushunish badiiy tasvirning buzilishiga olib kelishi mumkin, bu ayniqsa milliy rangdagi zoonimlar (masalan, ayiq yoki tuya tasvirlari) uchun dolzarbdir.

Xulosa. Badiiy matnlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zoonimlar personajlarni tavsiflash, muhit yaratishdan tortib, falsafiy g'oyalarni ifodalash, ziddiyatlarni kuchaytirishgacha bo'lgan ko'p qirrali vazifalarni bajaradi. Rus adabiyotida zoonimlar ko'pincha xarakterlarning ichki holatini aks ettiruvchi yoki ijtimoiy jarayonlarni metaforalashtiruvchi universalistik va psixologik xususiyatga ega bo'ladi. O'zbek adabiyotida zoonimlar epik an'ana, milliy qadr-qimmat tushunchasi, jamoa xotirasi, shuningdek, islom madaniy konteksti bilan chambarchas bog'liqdir.

Qiyosiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, bir xil zoonimlar turli xil semantik va ramziy yuklarni ko'tarishi mumkin. Shunday qilib, bo'ri, ot, it, sher, ayiq har ikki tilda ham boy ma'no qatlamlarini o'z ichiga oladi, lekin ular janr, asarning yozilish vaqti, muallif niyati va jamiyatning madaniy munosabatlariga qarab ochiladi. Shunday qilib, zoonimlar matn va madaniy voqelik o'rtasidagi semiotik ko'prik bo'ladi.

Zoonimlarni uslubiy jihatdan asosli o'rganish kognitiv, ramka, semantik va pragmatik yondashuvlarni uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bu zoonimlarni alohida birliklar sifatida emas, balki hayvon belgi, ramz, tasvir va ma'no tashuvchisi vazifasini bajaradigan yagona madaniy va badiiy makonning elementlari sifatida talqin qilish imkonini beradi.



UDK: 82.01/09. 316.66

Fariza RUZIMURODOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
Tel: 974402015

ToshDO'TAU professori, f.f.d Z. Mirzayeva taqrizi asosida

**POST-STRUKTURALIZM, DEKONSTRUKSIYA NAZARIYASI HAMDA FEMINISTIK QARASHLARNING
ADABIY ASARLAR TAHLILIDA AKS ETISHI**

Annotatsiya

Har bir adabiy ijod mahsuli o'ziga xos uslubiy bo'yoqdorlikka va o'ziga xos yondashuvga ega. Adabiyot bu san'at asari yaratish bilan bo'g'liq bo'lgan ijodiy mehnat jarayoni. O'z navbatida adabiy ijod mahsuli yaratish jarayonida unga muallif o'z his-tuyg'ularini hamda o'y-hayollarini qaysidir ma'noda asar qa'riga singdiradi. Biz mutolaa qiladigan matnlar turli xil nazariy yondashuvlar asosida tahlilga tortilishi mumkin. Agar biz bunday tahlilni kitobxon nuqtai nazaridan amalga oshirsak, bunga o'quvchining ijtimoiy, psixologik, tajriba, e'tiqod va axloqiy omillari jamlanmasi bunday tahlilga bevosita ta'sir etishi mumkinligini ko'ramiz. Hayotning har bir lahasini badiiy asarga aylantirish mumkin. Va xuddi shuning kabi, hayotning har bir jilosi badiiy asarda o'z aksini ko'rsatishi mumkin. Strukturalizm nazariyasining ayrim olimlarining fikricha, har qanday matn turg'un ya'ni static hamda oldindan ayta olish mumkin bo'lgan ma'noga ega. Post-strukturalizm olimlarining fikriga ko'ra esa aksincha matn o'zgaruvchan va uning ma'nosini oldindan aniqlab bo'lmaydi. Post-strukturalizmning asosiy yondashuvlaridan biri bu Fransuz olimi Jak Derreda tomonidan fanga olib kirilgan dekonstruksiya yondashuvidir.

Kalit so'zlar: strukturalizm, post-strukturalizm, binary oppozitsiya, logosentrizm, "muallifning o'limi,"feminizm, "male-centered".

**THE REFLECTION OF DECONSTRUCTION THEORY AND FEMINIST VIEWS IN THE ANALYSIS OF
LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT PHENOMENON OF POSTSTRUCTURALISM**

Annotation

Each product of literary creation has its own stylistic coloring and unique approach. Literature is the process of creative work associated with the creation of a work of art. In turn, during the process of creating a literary work, the author, in a sense, embeds their feelings and thoughts into the depths of the work. The texts we read can be analyzed based on various theoretical approaches. If we conduct such an analysis from the reader's perspective, we see that the combination of the reader's social, psychological, experiential, belief, and moral factors can directly influence such an analysis. Every moment of life can be turned into a work of art. Similarly, every facet of life can be reflected in a work of art. According to some scholars of structuralist theory, any text has a stable, that is, static and predictable meaning. According to poststructuralist scholars, however, the text is variable, and its meaning cannot be predetermined. One of the main approaches of poststructuralism is the deconstruction approach, introduced to science by the French scholar Jacques Derrida.

Key words: structuralism, poststructuralism, binary opposition, logocentrism, "death of the author", feminism, "male-centered."

**ВАЖНЕЙШИМ ЯВЛЕНИЕМ ПОСТСТРУКТУРАЛИЗМА ЯВЛЯЕТСЯ ТЕОРИЯ ДЕКОНСТРУКЦИИ И
ОТРАЖЕНИЕ ФЕМИНИСТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ В АНАЛИЗЕ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ**

Аннотация

Каждый продукт литературного творчества обладает своей стилистической окраской и уникальным подходом. Литература - это процесс творческого труда, связанный с созданием произведения искусства. В свою очередь, в процессе создания литературного произведения автор в определенной степени вплетает свои чувства и мысли в глубину произведения. Тексты, которые мы читаем, могут быть проанализированы на основе различных теоретических подходов. Если мы проведем такой анализ с точки зрения читателя, мы увидим, что совокупность социальных, психологических факторов, опыта, убеждений и моральных ценностей читателя может непосредственно повлиять на такой анализ. Каждое мгновение жизни можно превратить в художественное произведение. И точно так же каждый оттенок жизни может найти отражение в художественном произведении. По мнению некоторых ученых-структуралистов, любой текст стабилен, то есть статичен и имеет предсказуемое значение. По мнению постструктуралистов, напротив, текст изменчив, и его смысл невозможно определить заранее. Одним из основных подходов постструктурализма является деконструктивный подход, введенный в науку французским учёным Жаком Деррида.

Ключевые слова: структурализм, постструктурализм, бинарная оппозиция, логоцентризм, "смерть автора," феминизм, "ориентированность на мужчину."

Kirish. Har bir adabiy asarni 2 xil yo'sinda tahlil qilish mumkin : 1. Struktur tahlil. 2. Post-struktur tahlil.

Badiiy asar tahlilida strukturalistik va poststrukturalistik qarashlar bir-biridan tubdan farq qiladi, shuningdek, matni o'qish usullari ham keskin farqlanadi. Struktur tahlil strategiyasida ko'proq matnning ichki

tuzilishiga e'tibor qaratiladi, post-struktural yondashuvda esa matnning o'zidan tashqarida bo'lgan, ammo matn bilan chambarchas bog'liq bo'lgan jarayonlarga ko'proq urg'u beriladi.

Dekonstruksiya nazariyasi matn tahlilida ikki tomonlama qarama-qarshilik-binar oppozitsiyalar mavjudligini tushuntirib beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tanqidiy tahlil vositasi sifatida dekonstruksiya nazariyasi jahon adabiyotshunosligida ommatan keng qamrovda qo'llaniladi. Ammo bu yondashuv o'zbek adabiyotida hali yangilik hisoblanadi va shu sababli milliy adabiyotimiz namunalarini tahlil qilishda aytarli hali qo'llanilmagan. Derreda so'zlarning ma'nolari bir xil va turg'un emasligi, aksincha turli o'quvchilar tarafidan bu so'zlarga turli ma'nolar berilishi mumkinligini ta'kidlaydi [Derreda, 1979]. Bu qarash Kaller tarafidan ham dekonstruksiya tushunchasini «logosentrizm» tushunchasiga qarama-qarshi ekanligini tushuntirish asnosida ham ilgari suriladi [Kaller, 2007].

Tadqiqot metodologiyasi. Dekonstruksiyaning yana bir asosiy vakili bo'lgan Bart "The Death of the Author" - "Muallifning o'limi" tushunchasini ilgari surdi. Bu orqali u badiiy matn muallif ichki dunyosi bilan bog'liqligi va doim ham badiiy matn muallif niyati bilan birgalikda assotsiativ tarzda tushunish kerak emasligi g'oyasini ilgari surdi.

Boshqacha aytganda, Bart matnning ma'nosi faqat muallifga yoki ma'lum bir kontekstga bog'liq emasligini ta'kidlaydi [Bart, 1975].

Dekonstruksiya nazariyasiga ko'ra yagona reallik, haqiqat yoki kelib chiqish mavjud emas. Bu nazariya avvalgi barcha qat'iy o'rnatilgan qoidalarni va qonuniyatlarni rad etadi va so'roq ostiga oladi.

Strukturalizmning "reallik til orqali quriladi" degan asosiy tamoyili rad etiladi. Voqelik qaysidir ma'noda ongda doimiy tarzda mavjud bo'lib, til faqat uni ifodalash yoki so'zga aylantirish uchun qo'llaniladi [Bertens, 2003]. Dekonstruksiyaning eng muhin xususiyati bu uning juft qarama - qarshiliklar ya'ni binary oppozitsiyalar qutbini o'zgartira olishidir. Masalan, erkak/ayol, oq/qora, rost/yolg'on, kecha/kunduz singari oppozitsiyalarni o'rmini xohlagancha o'zgartirish mumkin. Bu o'zgartirish jarayonida bir tushunchaning boshqa tushunchadan ustunligi haqidagi g'oyaga putur yetadi.

Lois Taysonning ta'kidlashicha, "Feministik tanqid adabiyot (va boshqa madaniy asarlar) ayollarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan zug'um ostida yashaganliginikuchaytirin, ta'kidlab ochib beradi.[Tyson.L. 2006]" Bu turdagi tanqid 1960-yillardagi feministik harakatdan kelib chiqqan bo'lib, adabiy asarlarda shu davrga qadar o'z aksini topgan ayollar tasvirini rad etishga qaratilgan [Barry, 2002]. Adabiyotda ayol tasviri umum tarafidan qabul qilingan ayollik qadriyatlarini shakllantirishga hissa qo'shadi, feministik tanqid esa bunday ijtimoiy qabul qilingan stereotipga qarshi kurashmoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham hozirda baravar qo'llanila boshlagan feminist, ayol-female va ayollik-feminine atamaları bir-biridan tubdan farq qiladi.

1970-yillardan boshlab adabiy tanqid markazida asosan erkak yozuvchilar o'z ijodiy ishlarida jonlantirgan ayol obrazi bo'lib qoldi. Oradan ko'p o'tmay ayol ijodkorlarga katta e'tibor qaratila boshlandi, ular uchun yangi imkoniyatlar taqdim etila boshlandi. Feministik tanqidning yana bir muhim jihati til masalasidir. Deyl Spender tilning neytral vosita emasligini, aksincha, patriarxatning o'zini namoyon qilish vositasi sifatidagi rolini aks ettiruvchi ko'plab xususiyatlarga ega ekanligini izohlab bergan [Barry, 2002]. Feministlarning ta'kidlashicha, til - bu o'ta darajada erkaklar dunyoqarashiga asoslangan hoisa ya'ni "male-centered".

Elen Siksus o'z inshosida "erkak/ayol" ikkiligining ahamiyati haqida so'z yuritadi [Cixus H. 2001]. U barcha ikkiliklar pirovardida erkak/ayol ikkiligiga borib taqalishini tushuntiradi. Chunki ular orasida doimo bitta dominant ustuvor va imtiyozli hisoblanib, u erkaklar bilan bog'liq, undan past yoki kamroq maqbul bo'lgani esa ayol tushunchasi

bilan bog'liq bo'ladi. Feministik tanqid va dekonstruktiv tanqid adabiy tadqiqotning bir-biridan farqli va har biri alohida shakllari hisoblanadi, biroq ular ko'p hollarda bir-biri bilan bog'liq tushuncha sifatida qaraladi. Ikkisi o'rtasidagi munosabatni Meri Puvi o'zining "Feminizm va dekonstruksiya"- "Feminism and deconstruction" esesida o'rgangan. U "dekonstruksiya feminizmni qanday so'roq ostiga olishi va feminizm dekonstruksiyaning qanday foydalanishi mumkinligi"ni tushuntirgan [Poovey M. 1988]. Dekonstruksiya feminizm uchun qanchalik foydali bo'lsa, feminizm ham dekonstruksiya uchun shunchalik foydali bo'lishi mumkin, biroq ularni bir-birining aynan aksi deb hisoblash mumkin emas.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqot Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub "Ikki manzil" [https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/zulfiya-qurolboy-qizi/zulfiya-qurolboy-qizi-ikki-manzil-hikoya/] hikoyasining feministik talqiniga e'tiroz bildiradi. Dekonstruktiv adabiy tanqid orqali asardagi "qiz" obrazining yangi qirasi ochib berilgan bo'lib, bunda qiz faqatgina ezilgan, chorasiz qolgan qahramon sifatida emas, uni matonatli va mustaqil shaxs sifatida namoyon etadi. Feministik nuqtai nazardan ilgari surilgan bir pog'ona past va ezilgan ayol tasviri esa inkor etilgan. So'zlar shaklida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va talqin etish uchun interpretativ yondashuv hamda tavsifiy usul qo'llanilgan.

Feministik harakat doimo jinlar o'rtasidagi iyerarxiyaga qarshi kurashib kelgan, bu iyerarxiya gender rollari orqali o'rnatilgan. Fransuz feministi Simon de Beauvoir aytganidek, «Bu har doim erkaklarning dunyosi bo'lgan» [Beauvoir, 1997, 93-bet]. U yana shuni ta'kidlab o'tadiki, bu dunyoda erkak markazda turadi, hokimiyat unga tegishli, ayol esa pastroq mavqega tushirilgan. Shu sababli, ayol chetga surib qo'yilgan.

Bunday feministik tadqiqotlar orqali olimlar erkak/ayol iyerarxiyasini parchalashni maqsad qilganlar. Qutblilik teskari tomonga o'zgartirilgan. Ayollar yuqoriroq mavqega ko'tarilgan va ustuvor qilingan, erkaklar esa zaif va ekspluatatsiya qilinadigan toifa sifatida tasvirlangan.

Zulfiya Qurolboy qizining "Ikki manzil" hikoyasida yoshligidanoq hayot sinovlari ostida qolgan qiz hayoti tasvirlanadi. Hikoyaning dekonstruktiv tahlili yana bir jihatni ochib beradi: kuch dinamikasining buzilishi. Zulfiya Qurolboy qizi o'zining hikoyalarida o'zbek patriarxal jamiyatini aks ettirgan, bu yerda barcha hokimiyat erkaklarga tegishlidek go'yo. Ular ayollardan yuqori pog'onaga qo'yilgan va har jihatdan ustun hisoblanadi. Barcha kuch erkaklarda bo'lgani uchun

ular har qanday qarorni qabul qilishga qodir, ayollar esa ularga so'zsiz bo'ysunishi va aytilgan har qanday ishni bajarishi nazarda tutilgandek ko'rinadi. Biroq, hikoyada kutilmagan tarzda bu kuch dinamikasi o'zgartirilgan: ilgari erkaklar hukmronligi ustunlik qilgan joyda endi ayol hokimiyat va nazoratga ega ekanligi ko'rsatiladi, shu bilan erkaklarning an'anaviy ustunligi iyerarxiyasi dekonstruksiya qilinadi.

Ushbu "Ikki manzil" hikoyasida kuch-qudrat ayol qahramon qizning qo'lida. U oilasini, otasini boqa oladigan va yordam bera oladigan hikoyadagi yagona kishi, qizning otasi mastlikda mashina haydab bir odamni o'limiga sabab bo'lgan, endilikda taqdiri qizning qo'lida qolgan va qamoqda o'tirgan notavon kishi sifatida tasvirlanadi. Hikoyadagi erkak obrazi ham tashqaridan qaraganda juda boy, uzatgan joyiga qo'li yetadigan, ancha-bunchaga kuchi yetadigan shaxs. Buni qizga uning onasi aytgan gaplardan ham bilish mumkin:

"Oyimning aytishicha, siz katta odam ekansiz. Qo'lingizdan kelmaydigan ish yo'q ekan. Aniqrog'i, qo'lingizni qayerga uzatsangiz yetarkan. Juda olamshumul ishlar qilsangiz ham qurbingiz yetarkan. Katta-katta idoralarda zo'r tanishlaringiz bor ekan. Ular bilan har qanday chigal ishni

hal qila olarkansiz..." va "... istagan vaqtda istagan odamingizga pul-mul berib yuboraverarkansiz. Hatto ilgari tanimagan, bilmagan odamlaringizga ham... Buning hech qanday g'alati joyi yo'q emish. Badavlat, obro'li odam qanday ish qilmasin, g'alati tuyilmasmish" degan jumlar ham tasdiqlaydi.

Ammo shunga qaramasdan qiz tashqaridan zaif, erkakning oldida hech bir himoya chorasiga ega emasdek tuyulsa-da, qiz shunday qudratli erkak oldida ham mohiyatan ustun mavqega ega. Erkak aynan qizning ko'ngliga yoqish ilinjidagina qizning oilasiga "yaxshilik"lar qilgan, va oxir-oqibatda esa niyatiga erisha olmagan tuban bir kimsa sifatida gavdalanadi:

"Onangizga idora nomidan sovg'a qilingan uy ham, dala hovli-yu, akangizning universitetga o'qishga kirishi, hamma-hammasini faqat, azbaroyi sizni... seni sevganimdan... – erkak jimib qoldi. Qarashlari muloyim tortdi. – Siz bo'lsangiz... Siz bo'lsangiz umuman befarqsiz, – dedi u birdan o'zgarigan, yumshoq va mayin ovozda."

Yozuvchi beixtiyor qiz obrazini boshqa erkak qahramonlarga nisbatan yuqoriroq mavqega qo'ygan, tasvirlarda bu yaqqol ko'rinadi. U barcha ijobiy tasvirlarni qiz bilan bog'lagan, erkaklar esa salbiy jihatdan tasvirlangan. Qiz "go'zal, yosh, mag'rur, nozik-nihol, dovyurak" deb ta'riflanadi. Erkak esa "Yoshi o'tgan" va "daqqa sayin rangini o'zgartirib turadigan maxluq" singari uslubiy bo'yoqlar bilan tasvirlangan. Qizni muallif erkak bilan qiyoslaganda, erkak qizning tirnog'iga ham arzimas bir hilqat ekanligi aytiladi. Bu esa qizni faqat quyi, zaif mavjudot emas, balki hisoblashish kerak bo'lgan kuch sifatida yanada ulug'vor qilib ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu qisqa hikoyada qiz obrazi jamiyatdagi erkaklar tomonidan ezilgan va boshqarilgan zaif shaxs emas. Aksincha, u taslim bo'lishni istamaydigan va hayotda qolish uchun mavjud barcha imkoniyatlardan foydalanuvchi kuchli xarakterga ega qahramondir.

Hikoyadagi quyidagi o'rinlarda hikoya oxirida obrazlar o'rtasidagi konflikt qizning butkul g'alabasi bilan tugaganini ko'rish mumkin:

Qiz : "Agar hoziroq meni bu yerdan chiqarib yubormasangiz, nima bo'lishidan qat'iy nazar, sizni sudga beraman!"

Erkak: "Shu bir necha soniya ichida uning ko'z oldidan butun hayoti kinolentaday lip-lip o'tdi. Bu lentalarda uning zafarlarga to'la shavkatli hayoti aks etgandi. O'zining hozirgi ahvoli esa nihoyatda zabun va mash'um muvaffaqiyatsizlikning muqaddimasidek tuyildi. Bunday zabunlikni ko'tarish tugul, his etishning o'ziyoq erkak uchun dahshatli bir hol edi. Bunga u ko'nikmagan edi."

Qiz: "Qizning qo'llari qaltiradi. Shu qaltiroq qo'llari bilan pichoqni qo'shqo'llab tutdi-da, yuqori ko'tardi. Ammo mo'ljalga olishga ulgurmad. Birdan ko'zlari dahshatli ravishda olayib ketgan erkak gup etib quladi..."

Erkak: "u o'limdan qattiq qo'rqib ketganidan hushidan ketmadi. Yo'q va yana bir karra yo'q! U... pichoq tutgan qizning nigohlaridagi adoqsiz nafrat va shu ishga qodir shafqatsizlikni ko'rib, yiqilib tushganini sezmay qolgandi."

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, dekonstruktiv yondashuv matnning qat'iy bir ma'noli bo'lmashligini yuzaga chiqarishga qaratilgan. U tilning yagona turg'un ma'noni ifodalay olmasligiga asoslanadi, shu bilan mutlaq deb qabul qilingan tushunchalarni savolga ostiga qo'yadi.

Ushbu kichkinagina hikoya tahlili orqali biz Derridaning ma'no o'zgaruvchanligi tushunchasi va Kaddonning binar qarama-qarshiliklar qutbiyligini o'zgartirish g'oyasi adabiy tahlilda qay tarzda ishlashini tushuntirib berishga harakat qildik.

Ushbu hikoyaning dekonstruktiv tahlili shuni yuzaga chiqaradiki, muallif beixtiyor ravishda qiz obraziga boshqacha tus bergan. U yuzaki ko'ringanidek zaif va bo'ysunuvchan emas. Qiz doimiy ravishda jamiyat tomonidan unga qo'yilgan cheklolarga qarshi chiqadi va oxir-oqibat har qanday yo'l bilan hayotda yashab qoladi.

Dekonstruktiv tahlil natijasiga ko'ra, "Ikki manzil" hikoyasi erkaklar hukmron kuch va ayollar bo'ysunuvchi bo'lgan milliy o'zbek jamiyatimizning kuch dinamikasini ag'darib tashlaydi.

Qiz obrazi qaysidir ma'noda o'z dominantligiga ega, u o'ziga yaqin bo'lgan barcha erkaklar ustidan to'liq nazorat qila oladi, erkaklar esa qaysidir taraflama zaif va ayanchli ko'rsatilgan. Zulfiya Qurolboy qizi shuningdek, ijobiy xarakter tavsifi orqali ham qiz obrazini erkaklardan ustun qo'yan.

ADABIYOTLAR

1. Derrida, J. (1979). "Living on border lines." *Deconstruction and criticism*. Ed. Harold Bloom, et al. New York: Seabury Press. 83-84.
2. Culler, J. (2007). *On Deconstruction: Theory and Criticism after Structuralism*. London: Cornell University Press, 307 pp.
3. Barthes, R., Miller, R., & Howard, R. (1975). *The pleasure of the text*. New York: Hill and Wang.
4. Bauman, Z. (1992). *Intimations of Postmodernity*. New York: Routledge Publishing, pp 150-172.
4. Bertens, H. (2003). *Literary theory: the basic*. London and New York: Routledge; Taylor & Francis Group.
5. Beauvoir S.de. (1997). *The Second Sex* (Vintage Classics ed.). (Parshley HM, Trans.) Vintage Classics.
6. Tyson, L. (2006). *Critical theory today: A user-friendly guide* (2nd ed.). New York: Routledge.
7. Vincent, L. B. (1983). "Extension of subversion." In *deconstructive criticism: An advance introduction*. New York: Columbia University Press.
7. Berry, P. (2002). *Beginning theory: An introduction to literary and cultural theory*. Manchester: University Press.
8. Cixous, Hélène. (2001). "The Laugh of the Medusa." *The Norton Anthology of Theory and Criticism*. New York: W.W. Norton & Company.
9. Mary Poovey. Vol. 14, No. 1 (Spring, 1988), pp. 51-65 (15 pages). Published By: Feminist Studies, Inc.
10. Зулфия Қуролбой қизи. Икки манзил (ҳикоя) — ziyouz.uz <https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/zulfiya-qurolboy-qizi/zulfiya-qurolboy-qizi-ikki-manzil-hikoya/>



UDK: 81'255.2

Nigora RUZMATOVA,

Doctoral Student National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E-mail: ruzmatova.nigora95@mail.ru

ORCID ID: 0009-0001-5351-4158

Based on the review of PHD A. Jabborova

ISSUES OF WRITER-TRANSLATOR HARMONY IN LITERARY TRANSLATION

Annotation

This article explores the complex and nuanced nature of literary translation, emphasizing its unique challenges and the creative collaboration required between author and translator. It examines the translator's dual role as both linguistic and artist, highlighting the importance of preserving the original work's aesthetic, stylistic, and cultural dimensions. Drawing on the insights of prominent scholars such as H. Nida and Y. Retsker, the article discusses the need for spiritual and artistic harmony between author and translator in order to achieve a translation that is both sufficient and expressive.

Key words: Formal equivalence, literal accuracy, dynamic equivalence, poetical and stylistic devices, tone and voice.

ВОПРОСЫ ГАРМОНИИ ПИСАТЕЛЯ И ПЕРЕВОДЧИКА В ЛИТЕРАТУРНОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация

В этой статье рассматривается сложная и тонкая природа литературного перевода, подчеркиваются его уникальные проблемы и творческое сотрудничество, необходимое между автором и переводчиком. В ней рассматривается двойная роль переводчика как лингвиста и художника, подчеркивая важность сохранения эстетических, стилистических и культурных измерений оригинального произведения. Опираясь на идеи таких выдающихся ученых, как Х. Нида и Й. Ретскер, в статье обсуждается необходимость духовной и художественной гармонии между автором и переводчиком для достижения перевода, который является как достаточным, так и выразительным.

Ключевые слова: формальная эквивалентность, буквальная точность, динамическая эквивалентность, поэтические и стилистические приемы, тон и голос.

BADIY TARJIMADA YOZUVCHI VA TARJIMON UYG'UNLIGI MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy tarjimaning murakkabligi va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi, shuningdek, tarjima jarayonida muallif va tarjimon o'rtasidagi ijodiy hamkorlikning ahamiyati yoritiladi. Tarjimon nafaqat lingvistik, balki badiiy mahoratga ham ega bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi, chunki badiiy asarning estetik, uslubiy va madaniy jihatlari saqlab qolish muhim hisoblanadi. H. Nida va Y. Retsker kabi mashhur tarjima narazriyotchilarining qarashlariga tayangan holda, maqolada tarjimonning muallif bilan ruhiy uyg'unlikda bo'lishi, matnning ichki qatlamlari to'liq anglash zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Formal ekvivalentlik, so'zma-so'z ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik, shoirlik va uslubiy, ohang va ovoz.

Introduction. For centuries, one of the trickiest kinds of translation has been literary translation. Numerous academics have looked for different approaches to translating works well and have come up with several theories to address the challenges of literary translation. The quality of translation is still a challenge for many of our scholars, regrettably, because of issues with register, accuracy, fluency, flexibility, style, nuance, comprehension, and transparency. A translator frequently employs both linguistic and creative methods while translating a work of literature into another language. In this instance, the writer-translator interaction becomes a form of creative collaboration. The quality, sufficiency, and aesthetic perfection of the translation are all determined by how well they work together.

Literature review. The writer's viewpoint, style, aesthetic preferences, and even spiritual state must all be understood by the translator. The translated work may lose its artistic worth if the translator fails to recognize the text's many levels of meaning or adopts a method that is not consistent with the author's style. "Translation is not a process of exchanging words, but a form of re-communication between the author and the intended reader through the translator," according to renowned translation expert H. Nida.

The translator can only completely comprehend the original work's artistic, stylistic, and ideological layers when he and the author are in spiritual accord. If this balance is not reached, the translator frequently resorts to formal translation, which lessens the artwork's richness and vividness. "A good literary translator must become an author during the translation - he must think and feel like a writer," says Y. Retsker, who also shares his thoughts on this topic.

By placing himself in the author's position, the translator brings the author's imagery, tone, metaphors, and cultural context back to life. In poetry, drama, or prose, this balance is particularly crucial. The sufficiency of the translation is also a result of the translator's focus and commitment to the author's style. Every phrase, every image, and every rhythm must convey the author's voice and breath.

The values, idioms, and worldviews of the original culture are embodied in literary writings, and translators serve as cultural bridges, re-creating these aspects for a new audience. Because of their creative role, literary translators frequently perform similar tasks to those of authors: they replicate, interpret, and even rethink the original work in the target language. Literary translation requires a careful balancing act between faithfulness and innovation, in contrast to technical translation, where correctness and precision are

crucial. Formal equivalence, or literal accuracy, and dynamic equivalence, or equal influence on the reader, are distinguished, according to Nida and Taber (1969). In reality, literary translators typically strike a balance between maintaining literary aesthetics and attempting to discover the closest natural counterpart of meaning. Sun (2022) contends that "literary translation is about more than semantics and should focus on restoring literature."

To put it another way, the translator should strive to restore the unity of form and substance rather than using the novel or poem as a guide.

The founder of Uzbek translation studies, G'aybullat Salomov, puts it this way: "Finding alternate ways to convey the same form and content in a different language is the fundamental goal of the translation process. Furthermore, one of the primary prerequisites for a satisfactory translation is selecting the most suitable and alternative option from the numerous options available for presenting the original's material in a different language. The process of looking for these alternate language uses and selecting the best one is creative in nature and calls for deliberate effort from the translator. The phrase art incorporates this translation.

Because he must be able to "claw in the paw of the author," the translator in literary translation is on an equal footing with the author. The renowned Russian poet and translator V.A. Zhukovsky even referred to poetic translation as "the rival of the translator-author in poetry" since it is more intricate and specialized. When a ready-made item is present, artistic translation is different from original invention. An established work is given fresh life by the translation in a different literary, social, and national context.

Tragedy has unique qualities that set it apart from the initial creative process. The translator re-embodies the original text in a new language if the author uses the language of art to express their thoughts about life occurrences. A translator is committed to sharing the author's world of ideas and aesthetics, the allure that draws the reader in. He needs to be as knowledgeable about the topic as the author in order to accomplish this. Furthermore, it is essential to have a thorough awareness of the author's artistic style and the elements that set him apart from other writers.

When translating literature, a translator needs to be creative, possess in-depth knowledge of both the source and target languages, and "get a grip" on the rules of art, because literature employs a wide range of artistic expressions, genres, and techniques.

Methodology. This study employs a qualitative approach to examine the complexities of literary translation, focusing on how translators preserve aesthetic, stylistic, and cultural elements of the original text. Drawing on theoretical frameworks by Nida and Taber (1969), Retsker, and Sun (2022), the research analyzes selected English literary works and their Uzbek translations, particularly examples from J.K. Rowling's Harry Potter series. Using comparative and discourse analysis, the study explores the translator's role in conveying tone, metaphor, and cultural context, highlighting the need for a balance between fidelity and creativity to maintain the artistic integrity of the source text.

Analysis and results. An example of art is a literary text. Like an eye on a ring, every word in a literary work is chosen with care and frequently serves multiple artistic purposes in addition to having various levels of meaning. Even the sonority and repetition of letters are considered in poetic works. The primary characteristics of a literary text include the following:

- 1) It is based on images.
- 2) It employs a wide range of artistic representation techniques.
- 3) It is produced in many styles.

4) It makes full use of the linguistic diversity.

5) It is expressive.

It explains how to approach translation, how to address this or that difficulty, and how to employ specific techniques during the translation process. The goal of the science of translation studies is to give general advice to all translators. It has produced specific rules and guidelines based on an investigation of the successes and failures of the centuries-old history of translation. Each translator handles unique issues that come up during the translation of a certain work based on these general laws and guidelines.

The following are the primary principles of literary translation, while there are many more.

1. The translation should be the source text's "portrait," accurately and imaginatively capturing it (S.Marshak).

2. The translation should be flawless and a national literary phenomenon, accurately reflecting the original text in every way.

3. The original text's national shape and spirit should be properly reflected in the native tongue.

4. In addition to being proficient in both the source and target languages, the translator must be familiar with the life and text that are described in the original text as well as the reality that is "behind it."

5. Reaching a full replication of the work's aesthetic content as well as its ideological content is essential. As a result, the translation should give the reader the same enjoyment and sensation as the original.

6. Translation is the production of creative reproduction rather than copying, imitation, or competition: communicating the idea through thought rather than words; maintaining the work's grammatical structure; emulating the author's style; communicating the image through the image; maintaining the coherence of form and content, etc.

7. "The translator must meet the specific requirements of each literary genre".

Analysis and results. As is well known, the translation rules for each artistic medium and each translator are the same as the translation standards for literature. When studying literary translations, it is important to keep these guidelines in mind. It is impossible to evaluate translators' work objectively without them.

This creative complexity gives rise to several important issues:

• Poetical and stylistic devices: There are frequently no direct equivalents for imagery, metaphor, rhyme, rhythm, and other stylistic techniques in literary writings. Poetry, for instance, cannot employ alliteration or puns; it depends on meter and sound. To make up for this, the translator must choose between reproducing a similar poetic effect in the target language or maintaining formal features (such as attempting a similar meter). The reader's aesthetic experience may change if certain characteristics are lost or altered.

References to culture and context: Plays and novels have their roots in their respective cultures. Proverbs, idioms, historical allusions, social mores, and even character names can have meanings that are unclear to local readers in other places. The translator must add background (e.g., through footnotes or subtle changes) or locate suitable cultural parallels. When the source and target cultures are far apart, there is a higher chance of "losing context". This approach is further supported by Bassnett and Lefever's concept of translation as a function of cultural interaction, which holds that translators must traverse not just different languages but also whole cultural systems. Language's inability to be translated: In another language, some words or phrases are not exactly the same.

Tone and voice: Each author has a distinct voice, encompassing their choice of language, syntax, and storytelling techniques. To preserve the author's identity, this voice must be maintained.

William Shakespeare's Plays (Early Modern English to Contemporary Languages): Shakespeare's translations present literary difficulties. Shakespeare's language is full of metaphors, archaisms, and blank verse rhythms.

The soliloquy "To be or not to be" by Hamlet, for instance, depends on nuances of sound and historical background that are difficult to express explicitly. Translators must choose between producing contemporary prose that emphasizes clarity and preserving poetic devices and iambic pentameter, which frequently calls for creative reworking. Furthermore, a lot of cultural references (such as biblical allusions and Elizabethan idioms) may be unclear to viewers who are unfamiliar with the language. Early translators occasionally even altered the text for their audience; the Arabic version of "Hamlet" is a well-known example, with a joyful ending tailored to local standards. In general, according to a translator, "the difficulty of conveying language and culture ... increases as the distance between languages increases," along with "the loss of [cultural] context must be compensated for in localization by substitution or explanatory notes." As a result, translating Shakespeare frequently calls for either alienation (keeping the text's "Shakespearean" character) or localization, both of which include artistic considerations.

Fyodor Dostoevsky's novels (in Russian and English): Dostoevsky's writings are replete with idiomatic speech, philosophical discussion, and social subtleties of 19th-century Russia. Plot, moral overtones, and psychological intensity must all be conveyed by the translator. For instance, Russian

employs a lot of culturally charged formalities and diminutives. For instance, "batyushka" (meaning "little father"), a name for an Orthodox priest, or "tovarishch" (comrade) express a class and relationship that can be somewhat translated as "father" or "sir." Later teams (like Pivear and Volokhonsky) attempted to preserve a harsher and more "Russian" tone, but early translators (like Constance Garnett) attempted to soften such elements for English audiences. Depending on these decisions, English translations of Crime and Punishment or The Brothers Karamazov differ significantly. The fact that each translation reflects a set of goals (literal and idiomatic, foreign tone and reading) emphasizes the fact that literary translation can never be entirely impartial.

These instances highlight the difficulties faced by literary translators. When verbal indicators are removed, Murakami must find new signals (sections or stylistic markers) to maintain the narrative function. When it comes to Shakespeare, translators frequently disagree about how much of the poem should be preserved, leading to several translations of the same piece. Different English versions result from Dostoevsky's decisions regarding formality and register. All of these situations share a creative challenge: translating literature is frequently characterized as balancing target-oriented reading with source-oriented integrity.

Conclusion. To put it briefly, literary translation is a sophisticated, multidimensional art form that differs greatly from literal translation. It entails interpretive reflection, artistic re-creation, and cross-cultural communication. In order to preserve the original's creative vigor while enabling the text to reverberate in the new language and environment, the translator must continuously act as a mediator between two literary traditions.

REFERENCE

1. Nida, E. A. (1964). "Theories and practices of translation".
2. Retsker, Y. I. (1964). "Theory of translation and translation practice".
3. G'afurov, I., Mo'minov, O., Qambarov, N. (2012). "Translation theory: A textbook for higher education institutions".
4. Sun, Y. (2022). Literary translation and communication. "Journal of Translation Studies", 15(3), 45-60.
5. Bassnett, S., Lefevere, A. (1998). "Constructing cultures: Essays on literary translation".



Baxramjon SAIDOV,
Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi
E-mail: b.saidov@gmail.com

NamDU dotsenti D.Sarimsakova taqrizi asosida

INGLIZ ANTROPONIMLARINING KELIB CHIQISH TARIXI

Аннотация

Ushbu maqolada ingliz antroponimlarining tarixiy nuqtayi nazardan rivojlanish jarayonlari tahlil qilinib, ularning struktural-semantik, kulturologik, tarixiy va konseptual jihatlariga ko'ra shartli davrlashtirish xususiyatlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Antroponim, antroponimiya, struktural-semantik, kulturologik, konseptual, fonetik, transkripsion, komponent.

ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ АНГЛИЙСКИХ АНТРОПОНИМОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются процессы развития английских антропонимов с исторической точки зрения. Отражены особенности условной периодизации антропонимов по их структурно-семантическим, культурологическим, историческим и концептуальным аспектам.

Ключевые слова: антропоним, антропонимия, структурно-семантический, культурологический, концептуальный, фонетический, транскрипционный, компонент.

THE HISTORICAL ORIGINS OF ENGLISH ANTHROPNYMS

Annotation

This article analyzes the developmental processes of English anthroponyms from a historical perspective. It reflects the characteristics of their conditional periodization based on structural-semantic, cultural, historical, and conceptual aspects.

Key words: anthroponym, anthroponymy, structural-semantic, cultural, conceptual, phonetic, transcriptional, component.

Kirish. Til-insonning fikrlash, aloqa va ijtimoiy munosabatlarda asosiy vositasi sifatida uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan murakkab ijtimoiy-tarixiy hodisadir. Tilshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biri-tilning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda o'rganishdan iborat. Tillar o'z tarixi mobaynida turli tashqi va ichki omillar ta'sirida o'zgarib, yangi shakl va imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shu sababli bo'lsa kerak ismlar va nomlarni o'rganuvchi til bo'limi bo'lgan onomastika, xususan antroponomikani tarixiy nuqtai nazardan tadqiq qilishga qiziqish nisbatan kuchli bo'lgan.

Antroponimika-insonlarga beriladigan ismlar va familiyalarni (antroponimlarni) o'rganadigan tilshunoslik sohasi bo'lib, u ijtimoiy, madaniy va tarixiy jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Ingliz tilidagi antroponimlar evolyutsiyasi turli davrlarda yuz bergan muhim tarixiy hodisalar, turli o'zgarishlar va xalqlararo madaniy aloqalar natijasida shakllangan murakkab tizimni tashkil etadi. Ularning kelib chiqishiga kelt, anglo-sakson, rim, norman va boshqa xalqlarning til madaniyati muhim ta'sir ko'rsatgan. Ingliz antroponimikasini o'rganish nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik kabi fanlar kesishmasida ham dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolada ingliz antroponimlarining kelib chiqishi, ularning tarixiy shakllanish bosqichlari hamda lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda antroponimikani, xususan Ingliz antroponimikasini ilmiy asosda o'rganilishi ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, bu sohada qator olimlar muhim tadqiqotlar olib borgan. Inglizcha ismlar va familiyalar tizimi, ularning kelib chiqishi, strukturaviy va semantik xususiyatlari bo'yicha yaratilgan ilmiy ishlarda tilshunoslik, tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik sohalari kesishmasida olib borilgan yondashuvlar kuzatiladi.

O'zbek tilshunosligida antroponimiya muammolariga umumiy yondashuvlar E. Begmatov tomonidan asos solingan. Uning "Антропонимика узбекского языка" nomli nomzodlik dissertatsiyasida umumiy antroponimik nazariya, jumladan o'zbek antroponimlarining struktur-semantik jixatlari ko'rib chiqilgan.

Ingliz ismlarining lug'aviy va etimologik xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan muhim manbalardan biri bu A.I. Rybakinning "Словарь английских личных имен" asaridir. Unda 4000 dan ortiq ismning ma'nosi, kelib chiqishi va ishlatilish kontekstlari berilgan bo'lib, Bunda ingliz ismlaridagi antroponimik birliklar boshqa boshqa tillarga xos ekani Britaniyaliklarning ko'p millatli madaniyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Amerikaliklarning inglizcha ism-shariflarning shakllanishi va ijtimoiy kontekstdagi rolini o'rganishda G.R. Stewartning "American Given Names: Their Origin & History in the Context of the English Language" nomli asari alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif ingliz tilidagi ismlarning Amerika madaniyatidagi semantik va funksional o'zgarishlarini tahlil qilgan.

Antroponimlar semantikasi va ularning til strukturasi bilan bog'liq umumiy nazariy masalalar Joseph Greenberg, B. Russell, P. Christophersen va A. Gardiner kabi olimlarning ishlari orqali yoritilgan. Ular til birliklarining universal xususiyatlari, denotatsiya va referensiya masalalari, tarjima jarayonidagi semantik tafovutlar hamda to'g'ri nomlash nazariyasi doirasida antroponimik birliklarga tegishli jihatlarini tadqiq qilganlar.

Shuningdek, C.A. Pottsning "Dictionary of Bible Proper Names" asari diniy manbalarda uchraydigan inglizcha ismlarning tarixiy va madaniy ildizlarini ochib beruvchi muhim izohli lug'atlardan biridir. Bu asar ismlarning diniy konnotatsiyalarini tushinishda beqiyos ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Antroponimik manbalar o'z navbatida aksariyat hollarda tilda yozuvning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, busiz ularni tadqiq qilishning imkoni mavjud bo'lmaydi. Vaholanki, ismlarning tarixiy shakllanishi kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrlarga borib taqalsa-da, bu davrlardagi ismlar haqida olimlarda biron ishonchli manba bo'lmaydi. Shunga ko'ra qiyoslanayotgan tillardagi antroponimlarning ilk namunalari bevosita yozuvning paydo bo'lgan davrlari bilan bog'lanadi.

Natijalar va muhokama. Bu davrlardan qadimgi antroponimlar mifologik xususiyat kasb etib, aksariyat hollarda badiiy matnlardagi to'qima obrazlar sifatida talqin etiladi [1:26]. Ingliz adabiyotida "Beowulf" epik asarida keltirilgan "Beowulf" ismi qadimiy ingliz tilida yaratilgan antroponim bo'lib, asosiy qahramon sifatida ishlatiladi va uning antroponimi qadimiy ingliz tilining tuzilmalari va etimologiyasidan kelib chiqadi. "Beowulf" antroponimi qadimiy ingliz tilida "Beowulf" yozilib, "Bēo" – bu so'z "bee" (ari) yoki "beo" (yirtqich ari) ma'nosini anglatadi, ya'ni ari yoki quvvatli bir hayvonni ifodalaydi. "Wulf" – bu so'z "wulf" (bo'ri) ma'nosini anglatadi. Shunday qilib, Beowulf ismi "ari bo'ri" yoki "ari kabi kuchli bo'ri" ma'nolarini anglatadi. Bu ismning etimologiyasi, qahramonlik, kuch va xavfni ifodalash uchun juda to'g'ri keladi, chunki Beowulf epik asarda yirtqich monsterlar bilan kurashadigan kuchli va jasur qahramon sifatida tasvirlanadi. Ushbu fikrlarga asoslanadigan bo'lsak, ingliz tilshunosligida antroponimlarning umumiy lisoniy, kulturologik, tarixiy va konseptual jihatlariga ko'ra shartli davrlashtirish quyidagicha ko'rinishni aks ettiradi. Anglo-sakslar davri 4-9-asrlar, Normanlar davri 10-12-asrlar, Xristian ismlari 11-18-asrlar, Zamonaviy davr 19 asrdan boshlab hozirgacha.

Ingliz antroponimikasining dastlabki davri tarixan va madaniyatlariga ko'ra turlicha bo'lgan Anglosakslar, kelt, shotland va irland tillaridagi nomlarni o'z ichiga oladi. Ularning struktural-semantik jihatlarini tadqiq qilgan olimlar bu davrdagi ismlarni "bir" yoki "ikki tem (komponent)li" nomlar sifatida tasniflaganlar. Boshqa xalqlardagi ismlardan farqli ravishda qadimgi ingliz tilidagi atoqli otlar ikki alohida so'zlarni ma'lum tizim asosida birlashtirib, yagona ism holiga keltirilgan. Bunda komponentlar alohida holda boshqa boshqa tillarga xos bo'lishi, ko'p millatli madaniyat hisoblangan qadimgi Britaniya uchun odatiy meyor hisoblangan. Jumladan, sakslarga tegishli "Faolchadh" ismi aslida "faol (bo'ri)" va "chadh (jangchi)" so'zlaridan hosil qilingan. Xuddi shunday holatni "Frithuwulf" ning "tinchlik/havfsizlik+bo'ri", "Wigfrith"ning "kurash/jang+tinchlik", "Beowulf"ning "tug'ilmoq + bo'ri" kabi komponentlardan tashkil topgaligi olimlar tadqiqotlarida tilga olingan [2]. Ko'p hollarda ikki komponentli qadimgi ingliz ismlarining ikkala elementi ham ot turkumiga oid so'zlar bo'lib, odatda atoqli ot hosil qilayotganligi osongina aniqlana olardi. Biroq keyinchalik ikki tarkibli atoqli otlar "sifat+ot" va hatto "ot+sifat" strukturalariga ega bo'la boshladi. Masalan Aethelstan "Aethel (qimmatbaho) + stan (tosh)", Maerwine esa "maer (mashhur) + wine (do'st)" kabi ismlar shunday strukturali nomlardir. Bunday ismlarning sifat turkumiga oid qimslarida "aelf – elf/farishta; beorht – yorqin/ajoyib; beorn – inson, jangchi, qahramon; eald – qadrdon, eski, azaliy; gar – nayza; gifu, gyfu – sovg'a, mukofot; god – yaxshi, mehribon, ehson; gold – oltin; leof – sevimli, yoqimtoy; maere – mashhur, taniqli; rice – qudratli, kuchli, badavlat; sae – dengiz, ko'l; sunu – o'g'li; weard – soqchi, homiy; wig – kurash, jangchi; wine – do'st kabi so'zlar keng qo'llanilgan [2].

Turli xalqlar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar va madaniyatlarining aralashuvi ijtimoiy, siyosat va ilm-fan sohalar bilan bir qatorda madaniy taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida ingliz madaniyatida ham 10-asrga kelib Normanlar va Yevropa xalqlari bilan aloqalari

sababli ingliz madaniyatida ham keskin o'zgarishlar kuzatiladi. Bu ayniqsa antroponimika birliklarida yaqqol sezildi. Chunonchi 10-asrdan boshlab ingliz ismlarida ham struktural-semantik o'zgarishlar ro'y berib, ismlar ikki alohida komponentlar "ism + shajara/makon nomi" shaklini oldi. Boshqacha qilib aytganda shariflarning ilk ko'rinishlari paydo bo'la boshladi [3]. Ilk shariflar/familiyalar odatda yashash yoki tug'ilgan joy nomlari bilan bog'liq holda yaratilib, bu davrdagi ko'plab toponimlarning antroponimga aylanishiga sharoit yaratdi. Masalan Derby ismi Derbyshire garfligi nomidan, Champernowne fransiyaning Cambernon viloyati nomidan, Cowdray fransiyadagi Coudrai maqbarasi /panteoni nomidan, ingliz madaniyatida eng mashhur shariflardan biri Paris (Perish) esa Fransiya poytaxti nomidan kelib chiqqanligi aniqlangan. Bu borada kishilarning ma'lum guruh, oila yoki shajaraga tegishli ekanligini ko'rsatuvchi xorijiy so'zlar ham ko'paya bordi. Jumladan "de-" prefiksli Hugo de Montgomeri, Simon de Montfort, Agnes De Mille kabi yoki Shotland tiliga tegishli "Ms-" va "Mas-" prefiksli, Irland tiliga oid "o-" prefiksli O'Cobhthaigh (G'olib), O'Canain (bo'rivachcha), O'Clery (Ziyolilar farzandi), MacConmara (dengiz bo'risi), John McEnroe kabi shariflar ham aynan shu davrda paydo bo'ldi. Bu ismlarning aksariyati zadogonlarga tegishli bo'lib, oddiy xalq orasida kasbiy, shajaraviy kabi konseptlarni anglatuvchi bir komponentli ismlar keng tarqaldi. O'z navbatida bu antroponimlarning ko'pchiligida boshqa tillar aralashuvi sezilib tursada, uning semantikasidagi apellativ ifoda saqlanib qolgan. Masalan: Ansley (ansetl (yakka, ajratilgan) + leah – maydon)) ismli kishilar chekka hududdan ekanligi, Barden (bere (arpa) + denu (vodiy)), Barlow (baerlic (arpa) + hlauw (tepalik)) ismli kishilarning dehqon: Forester (o'rmon)ning o'rmondan, Derby (dyr (hayvon) + Byr (qishloq)) ning fermadan ekanligi ismlarida ham oshkor sezilib turadi.

O'zbek tilidan farqli ravishda ingliz tilidagi antroponimlar boshqa madaniyatlar bilan o'zaro aloqasi natijasidagi struktural-semantik jihatlaridagi o'zgarishlar nisbatan ijobiy xarakter kasb etdi. Ze'ro yangi paydo bo'lgan ismlar, xususan xristianlik bilan bog'liq holda shakllangan ismlar ayniqsa ingliz leksikoni va antroponimikasida sezilarli taraqqiyotga olib keldi. Bu borada protestantlik rivojlangan 17-asrdan boshlab ingliz lingvomadaniyatida diniy sohaga oid turli alviyolar, injildan olingan va istak-nom shaklida shakllangan antroponimlar soni kengaydi. Masalan William, John, Thomas, Jacob kabi erkaklar ismlari yoki Elizabeth, Mary, Anne, Emma, Hannah, Sarah, Susan kabi ayollar ismlari shu tariqada shakllangan antroponimlardir. O'z navbatida Normanlar lingvomadaniyati ingliz antroponimikasiga ham jiddiy ta'sir qilgan holda ingliz tilidagi an'anaviy Alfred, Edgar, Edmund, Edward, Ethelbert, Hilda, Mildred kabi anglosaks ismlari o'z o'rnini Robert, Richard, Ralph, Roger, Hugo, Benjamin, Joseph, Samuel kabi fransuz o'zakli nomlarga bo'shatib berdi. Qolaversa bu davrdan boshlab antroponimlarning struktural-semantik qurilishida ham jiddiy o'zgarish yuzaga kelib, ularda "sifatlovchi nom"lar salmog'i kengaydi [3]. Bu kabi nomlar odatda ism egasining ma'lum bir atributlari yoki xususiyatlari asos qilib olinadi. Jumladan John Lackland, William the Conqueror, Richard the Lionheart, Henry Bolingbroke antroponimlari shular jumlasidandir. Ismlardagi "sifatlovchi" xususiyatlar nafaqat alohida komponentlar mazmunida qolaversa bir komponentli ismlar semantik namenklaturasida ham ustivor ifodaga aylandi. Masalan ingliz madaniyatida paydo bo'lgan Charity, Faith, Hope, Christina (Christiana), Angela kabi antroponimlar Injil motivlari bilan bog'lansa, Carol, Caroline, Charlotte kabi antroponimlarda Angliyaning qadimiy hukmron oilalari "Carolingian"ga aloqadorligini, Catherine, Emma, Lucy, Clare kabi ismlar fransuz zadagonligini ko'rsatuvchi ismlarga bo'lishi bilan biri qatorda ism egalaringin xarakter yoki qiyofa

xususiyatlarini ham aks ettiradi. Bu jihatlar atoqli ingliz mantiqshunosi Jorj Styuart tadqiqotlarida tahlil qilingan bo'lib, uning fikricha "ismlar – leksik ifoda sifatida faqatgina kishilarni ajratuvchi nominatsiyalargina emas, balki ulardagi ma'lum bir belgi-xususiyat, attributlarni aks ettirish orqali kishilarni bir-birlaridan farqlovchi leksik birliklarga aylandilar". Bu sifatlovchi-nom ularni "narsalar bilan o'zaro "konnotatsiyasini" emas, balki uning mazmunidagi ifodani "denotativ" ma'nolarni aktuallashtiradi" degan xulosaga kelgan edi. Vaholanki olimning fikricha "konnotatsiya"larni ifodalovchi ismlar nisbatan kechroq paydo bo'lganligini aniqlagan edi [3].

Boshqa bir ingliz olimi X.Djozev S.Mil bildirgan fikrlarga qo'shilmagan holda uning qarashlariga tamoman zid fikr bildirib, ismlarning semantik ifodalarini inkor qildi va ularning "semantikada faqatgina tasviriy konnotatsiya emas, balki o'ziga xos turdosh otlarga oid sema ustivor" ekanligini isbotlashga harakat qildi. U o'z fikrlarini "Palikur suvga tushib ketdi" iborasi "Odam suvga tushib ketdi" iborasi mazmuniga teng emasligi, "ism bilan qo'llanganligida kalima qo'shimcha semantik-ekspressiv ifodalarni va vaziyatga bo'lgan munosabatlarning kuchliroq va boshqacharoq ekanligini ko'rsatib berishi" orqali isbotlashga uringan edi [4].

Keyinchalik antroponimlarni tadqiq qilgan Bertran Rassel, Paul Kristofersen kabi olimlarning aksariyati antroponimlarni "deyktik birlik vazifasini bajaruvchi vositalar" sifatida tahlil qilgan holda ularni "kishilarni vaqt va makon koordinatalarida aks ettiruvchi birlik" [5] yoki "umumiy semani ifodalovchi turdosh otlardan ma'lum bir alohida kishilarni ajratib ko'rsatish uchun qo'llaniluvchi birlik" [6] ekanligi e'tirof etgan edilar.

Antroponimlarning keyingi zamonaviy davrga oid taraqqiyotida boshqa tillardan o'zlashtirishlar kamayib, yangi ismlar yaratilishida badiiy adabiyotning o'rni kengaya bordi. Bugunga kelib ingliz antroponimlarining asosiy qismida "sifatlovchi nom" va "tilak-nom"larga oid bo'lib, ko'p hollarda badiiy va milliy-etnik qahramonlarga apelativ xarakter namoyon etishlari aniqlangan. Bular orasida 2015-yilda Britaniya Milliy statistika Byurosi ma'lumotlariga ko'ra Oliver, Jack, Harry, Jacob, Charlie, Thomas, Oscar, William, James, George kabi erkaklar, Amelia, Olivia, Emily, Ava, Isla, Jessica, Poppy, Isabella, Sophie, Mia singari ayollar ismlari eng keng tarqalgan (umumiy sonning 60%) ismlar sifatida e'tirof etilgan.

18-asrga kelib ingliz antroponimikasida sezilarli o'zgarishlar sifatida paydo bo'lgan yana bir jihat bu – antroponimning "ma'lum biri oila, jamoaga mansubligi"ga ko'ra "sifatlovchi antropoinmik birlik bo'lgan" sharif/familiyalarning alohida antroponimik komponent sifatida shakllanishi bo'ldi [7]. O'z navbatida shariflar an'anaviy ismlar asosida shakllanib, "ularning struktural qurilishi ma'lum qonuniyatlar asosida qisman o'zgarishlarga orqali farqli antroponimga aylana boshladi" [8]. Jumladan ingliz antroponimikasidagi Owen, Edmund, Eglin, Ellen, Gerald, Gilbert, Guy, Richard, Merbert, Nick, Phillip kabi falimiyalar odatiy Owen, Edmund, Eglin, Ellen, Gerald, Gilbert, Guy, Richard, Merbert, Nick, Phillip kabi ismlar asosida shakllangan bo'lsa, Dicks (Richardning qisqarma shakli) Ellisson, Emberson, Gepson, Nicolson, Peterson, Richardson, Simonson kabi familiyalar Ellis, Ember, Gepp, Nicol, Peter, Richard, Simon ismlariga familiya hosil qiluvchi "son(o'g'li)" qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan. Bu xususiyat bugungi kundagi ingliz tilida ham o'zgarishsiz amal qilinmoqda.

Xulosa. Ingliz antroponimlarining rivojlanish tarixi-uzoq davrlar davomida yuz bergan lingvistik, etnomadaniy va ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar majmuasining natijasi sifatida shakllangan. Ilk german qabilalarining Britaniya orollariga ko'chib kelishidan tortib, norman istilosi, xristian dinining keng tarqalishi, hamda 14–16 asrlarda familiyalar tizimining barqarorlashuviga qadar bo'lgan bosqichlar ingliz antroponimiyasi tizimining mustahkam asoslarini belgilab bergan.

Tahlillar shundan dalolat beradiki, ingliz ism-shariflari tizimida oniy ta'sirlardan tashqari, uzoq muddatli madaniy va siyosiy jarayonlarning ta'siri ham sezilarli bo'lgan. Xususan, normancha, lotincha va bibliyaviy manbalarga asoslangan ismlar mavqei tarixan muhim o'rinni egallab kelgan. Shu bilan birga, antroponimlarning shakllanishida ijtimoiy qatlamlar, kasb-hunarlar, jug'rofiy manzillar va shaxsiy xususiyatlar asosiy omil sifatida namoyon bo'lgan.

Ingliz antroponimlarining tarixi ularning faqat nom sifatidagi vazifasini emas, balki etnolingvistik va madaniy ramz sifatidagi ahamiyatini ham ochib beradi. Shu sababli, antroponimiyasi masalasini tarixiy, tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Бегматов Э. Антропони́мика узбекского языка: Автореф. дис... кан. фил. наук. – Ташкент, 1965. – 26 с.
2. Рыбакин А.И. Словарь английских личных имен: 4000 имен. Изд. 3-е, испр. – М.: Астрель; АСТ, 2000. – 224 с.
3. Stewart, G.R. American Given Names: their Origin & History in the Context of the English Language. - New York. Oxford University Press, 1999. - 264 p.
4. Joseph H. Language Universals: With Special Reference to Feature Hierarchies. The Hague: Mouton & Co. 1966.
5. Russell B. On Denoting. Mind (scientific journal) Vol. 14, No. 56., Oxford University Press., pp. 479–493.
6. Christophersen. P., A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press., 1965. -108 p.
7. Gardiner, A. The Theory of Proper Names. A Controversial Essay [Text] / A. Gardiner. - Oxford: Oxford University Press, 1954. - 78 p.
8. Potts, C.A. Dictionary of Bible Proper Names. - NY.: The Abingdon Press, 1922. - 279 p.
9. Vositov V.A. Study of Language Contacts by Linguists. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 2022., 9, 174–177.



UDK: 821.512.133.

Zavqiddin SUVONOV,
DTPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori

DTPI professori, filol.f.d B.Suyunov taqrizi asosida

BADIIY MATN FILOLOGIK EKSPERTIZASI MUAMMOSINING O'RGANILISHI

Annotatsiya

Badiiy matnning lingvistik tahlil qilishda, birinchidan, maqsad va kutilayotgan natija ahamiyatli hisoblanadi. Matnning lingvistik tekshirishning filologiya fanlari tizimidagi o'rni ham o'ta muhim. Badiiy matn va adabiy tilni lingvistik tahlil qilish ular orasidagi munosabat va ayro jihatlarni hamda tahlilning uslubiy turlarini ekspertiza qilish – kun tarkibidagi masalalardandir.

Kalit so'z: filologik ekspertiza, Klassik bosqich, Struktur bosqich, Kontekstual bosqich, Fanlararo bosqich, Kriminalistik bosqich.

STUDY OF THE PROBLEM OF PHILOLOGICAL EXPERTISE OF LITERARY TEXTS

Annotation

In the linguistic analysis of literary texts, the purpose and expected outcomes are of primary importance. The role of linguistic examination within the system of philological sciences is also highly significant. Linguistic analysis of literary texts and the literary language – Including their common and distinctive features, as well as the methodological types of analysis - remains one of the key issues in contemporary expert studies.

Keywords: philological examination, classical stage, structural stage, contextual stage, interdisciplinary stage, forensic stage.

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЛОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

Аннотация

При лингвистическом анализе художественного текста в первую очередь важны цель и ожидаемый результат. Также чрезвычайно важно место лингвистического исследования текста в системе филологических наук. Лингвистический анализ художественного текста и литературного языка, выявление их общих и отличительных черт, а также экспертиза различных методологических подходов к анализу – относятся к актуальным вопросам современности.

Ключевые слова: филологическая экспертиза, классический этап, структурный этап, контекстуальный этап, междисциплинарный этап, криминалистический этап.

Tarixiy nuqtai nazardan badiiy matn filologik ekspertizasi taraqqiyoti ham o'ziga xos tadrijiylikka ega. Aniqroq aytganda, mazkur soha hozirga qadar rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlarini bosib o'tdi hamda ularning har biri o'z vakillariga ega bo'ldi.

1. Klassik bosqich (XIX asr)da filologiya ekspertizasi til va adabiyotni o'rganishga, shuningdek, asarlar muallifini aniqlashga qaratilgan, asosiy vakillari Karl Leymbax, Yakob Grimm, Avgust Shlegel edi.

2. Struktur bosqich (XX asr)da filologik ekspertiza asarlarning shakili, mazmuniy va g'oyaviy tuzilishini o'rganish bilan bir qatorda ramziy ma'no va metafora tahliliga ham e'tibor qarata boshladi. Bu bosqichning asosiy vakillari Vladimir Propp, Roman Yakobson, Klod Levi-Stroslar edi.

3. Kontekstual bosqich (XX asr)da filologik ekspertiza asarlar mazmunini o'rganish bilan bir qatorda ular yaratilishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillarni tahlil qilishga ham e'tibor qarata boshladi. Bu bosqichning asosiy vakillari Mixail Baxtin, Rolf Teylor, Edvard Seid edi.

4. Fanlararo bosqich (XXI asr)da filologik ekspertiza e'tiborini madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya kabi boshqa fanlarning usul va yondashuvlaridan foydalanishga qarata boshladi. Bu bosqichning asosiy vakillari Andrey Zaliznyak, Leonid Borodkin, Andrey Lixachev.

5. Kriminalistik bosqich (XXI asr)da umuminsoniy qadriyatlariga zid sanaladigan va qoralanadigan kamsitish, tahqirlash va ayirmachilik, kashandalik, giyohvandlik, alkogolizm, tajovuz va zo'rvonlik targ'ibi, pedofiliya, diniy hukmlarning noto'g'ri talqini, tinchlik va osoyishtalikka zid

g'ayriinsoniy, g'ayriqonuniy g'oya va g'ayriilmiy qarashlarni ilgari surish yoki ilmiy haqiqatni buzib tasvirlash, shaxsni obro'sizlantirish kabi holatlarni aniqlash ahamiyat kasb etmoqda.

Badiiy matnning filologik ekspertizasi muhim faktlarni aniqlash va ekspertga qo'yilgan savollarga javob berishga qaratilgan nutq jarayoni hamda ularni adabiy.

Badiiy matnning filologik ekspertizasi xususida fikr yuritilgan ekan, buning uchun lingvistik nazariyalarga asoslangan holda lingvistik obyektlarni o'rganish metodologiyasini ishlab chiqish zarur. Lingvistik tekshiruv obyekti nutq faoliyati mahsulotlari: so'z, matn va boshqalardan iborat bo'ladi.

Badiiy matnning filologik ekspertizasini o'tkazish uchun amaliy filologiya nuqtayi nazaridan zarurat bor. Ko'pincha, sud ishlarini ko'rib chiqish va hal qilish jarayoni huquqiy dalillarni aniqlash uchun ahamiyatli hisoblanadi. Aksariyat hollarda bu termin "filologik ekspertiza", "sud-filologik ekspertiza", "tibbiy ekspertiza" tushunchasi bilan bir ma'noda qo'llanadi. Bu qo'yilayotgan vazifalar amaliy filologiya uchun obyekt vazifasini o'taydi. UzA muxbirining professor B.Mengliyev bilan "O'zbek tili o'ladimi?" suhbat-maqolasida mutaxassis tomonidan shunday fikrlar ilgari suriladi: "... yuridik shaxslarning ushbu fan yo'nalishlariga homiylik xizmatini joriy qilish va buning uchun ularga imtiyoz va qulayliklar yaratilishi kerak. Holbuki, yangi asrda faqat amaliy tatbiqqa ega, natijalarini iste'molchilar so'raydigan va ularga ijtimoiy-iqtisodiy samara taklif etadigan tilshunoslik o'z kuchi bilan yashashga haqli" [1]. Mutaxassisning fikriga monand, biz ilgari surayotgan g'oya,

ya'ni badiiy matnning filologik ekspertizasi ham amaliy filologiya va adabiyotshunoslikda ilmiy yechimini kutayotgan bir hodisa hisoblanadi.

K.I.Brinevning tadqiqotiga monand: "Dalillarga asoslangan vositalardan biri sifatida filologik ekspertiza qonuniy ahamiyatga ega. Bunda faktlarni aniqlash uchun vakolatli organ tomonidan ekspert tayinlanadi. Unga faoliyatning badiiy yoki lingvistik matnning huquqiy tabiati bilan bog'liq muayyan vazifalar yuklatiladi. Bunda ko'ndalang turgan vazifalar quyidagilar:

og'zaki yoki yozma matnning semantik mazmunini talqin qilish uchun hujjatni o'rganish;

ularning poetik o'ziga xosligi, shuningdek, qarama-qarshi belgilar bilan aralashtirish darajasini (fonetik, semantik, badiiy va grafik xususiyatlarga ko'ra) o'rganish;

og'zaki belgini o'z ichiga olgan yetakchi unurni ishlab chiqish. Badiiy matnning filologik ekspertizasi huquqiy maqsadni hisobga olgan holda quyidagi guruhlarga ajratiladi:

sha'ni, qadr-qimmatini va obro'sini himoya qilish masalalari, mualliflik huquqi bo'yicha bahsli matnlarni tekshirish;

tuhmat ayblovi aks etgan matnlarni o'rganish" [2];

haqorat qilish, hurmatsizlik ayblovlari orqali adabiy nutq jarayonini tekshirish. Shulardan kelib chiqib, hozirgi ishda badiiy matnga lingvistik tadqiqot obyekti sifatida qaraladi va uning lingvistik aspektidagi o'ziga xosligiga e'tibor qaratiladi. Badiiy matnning filologik ekspertizasi tushunchasi orqali matn ekstralingvistik va lingvistik ma'nolarning ko'p darajali tizimini aniqlashda turli xil yondashuvlarga asoslanishi ham o'rganiladi.

Badiiy matnning filologik ekspertizasi jarayonida har qanday so'zga, bir tomondan dunyo haqida, boshqa jihatdan nutq faoliyati subyektining ruhiy holatlari to'g'risida ma'lumotlar kodlanadi. "Nutq jarayoni subyektini dunyoning bir qismi bo'lganligi sabab, uning ruhiy holatlari haqidagi ma'lumotlar obyektiv bo'ladi. Aksincha, kriminal dunyo ma'lum bir guruh a'zolari tomonidan qabul qilinganligi va shu bilan qayta ishlanganligi sabab, nutq xabarida kodlangan dunyo haqidagi ma'lumotlar ham subyektiv ma'lumot hisoblanadi. Albatta, bunday formulalar ishlarning haqiqiy holatiga hech narsa qo'shmaydi, faqat subyekt va obyektiv so'z yoki matnlardan foydalanish xususiyatiga ega bo'ladi"[3]. Ishlab chiqilayotgan nazariy omil uning "tomon" yoki "jihati" toifasiga nisbatan haqiqat deb tan olinishini talab qilmaydi. Taqdim etilgan lingvistik nazariyani yuqoridagi ma'noda taqdim etishning iloji ham yo'q.

Ishda ko'ndalang turgan ilmiy muammoning tabiati filologik ekspertizaga yuzaga keladigan aniq amaliy ishlarni hal qilishga qaratilgan. Haqiqiy shaklda tuzilgan barcha ekspert muammolarini istisno qilishga harakat qilinadi. Masalan, "tahdid nima?" yoki "haqorat nima?" va ularni haqiqat yo yolg'on faktlar bilan bog'liq muammolar sifatida ko'rsatishga urinishlari.

Badiiy matnning filologik ekspertizadan o'tkazishning o'ziga xos tamoyillari mavjud. Ularni murakkablik, ilmiylik, obyektivlik, yaxlitlik, muvofiqlik, kasbiylik tamoyili asosida ham kuzatish mumkin.

Murakkablik tamoyili. Filologik ekspertiza asarning adabiy, lingvistik, tarixiy va boshqa jihatlarini tahlil qilishni o'z ichiga olgan kompleksda amalga oshirilishi kerak.

Ilmiylik tamoyili. Filologik ekspertiza ilmiy uslub va tamoyillar asosida, zamonaviy texnologiya va vositalardan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak.

Obyektivlik tamoyili. Filologik ekspertiza asarning yaratilishi va idrok etilishiga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olgan holda, xolislik va subyektivlikni amalga oshirilishi kerak.

Yaxlitlik tamoyili. Filologik ekspertiza asarning yaxlitligi, uning kompozitsiyasi, uslubi va tilini, shuningdek,

uning qismlari va elementlari o'rtasidagi munosabatni hisobga olishi kerak.

Muvofiqlik tamoyili. Filologik ekspertiza dolzarb va jamiyatning zamonaviy talablariga javob beradigan amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Kasbiylik tamoyili. Filologik ekspertiza adabiyotshunoslik, tilshunoslik va til va madaniyatga oid boshqa fanlar bo'yicha chuqur bilim va tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Matnning tilshunoslikda o'rganilishi XX asrning 60-70-yillarida boshlandi. A.A.Potebnya "nutq faqat gaplardan emas, balki gapdan katta birliklardan iborat ekanligini" [4] qayd etdi. Matnning mazmuniy ta'rifi bag'ishlangan ko'plab olimlarning fikri mavjud. I.R.Galperinning ta'kidlashicha, "matn nutq yaratilish jarayonining ishi, yozma hujjat shaklida obyektivlashtirilgan, sarlavha va turli xil leksik, grammatik, jihatdan birlashtirilgan bir qator maxsus birliklardan (superfeys birliklari) iborat. U mantiqiy va stilistik nuqtayi nazardan bog'lanadi hamda pragmatik munosabatga ega"[5]. Matnning asosiy xususiyatlari maxsus lingvistik birlik sifatida to'liqlik, izchillikda (grammatik va semantik jihatdan) namoyon bo'ladi. I.R.Galperin matnning "informativlik, prospekt, retrospektivlik, artikulyativlik, bitishuv, modallik, davomiylik, to'liqlik, subtekst kabi kategoriyalari"[6] ga ishora qiladi. Uning fikricha, matnning to'liqligi va mazmuni toifalariga alohida e'tibor qaratilib, to'liqlik mutlaq tushuncha ekanligini va faqat fikrning matn tarkibida tugallanishi kerakligini ta'kidlanadi. Uning fikrini to'ldirgan holda L.M.Loseva yozadi, "Bu tushunchani to'g'ri anglash uchun barcha matnlarga xos xususiyatlardan kelib chiqish kerak, ya'ni:

1) matn – yozma xabar;

2) matn – tarkibiy tugallanganligi bilan ahamiyatli;

3) badiiy matn – muallifning xabarga munosabatini ifodalaydi" [7]. L.N.Murzin va A.S.Shtern esa matnning o'z navbatida, turli darajadagi birlikdan iborat bo'lgan gap qatori deb ta'riflaganlar. "Bu tadqiqotchilar turli darajadagi matnning ikkita asosiy xususiyatini ko'rib chiqadi, u – izchillik va yaxlitlik. Bunday aloqa matn xususiyati bilan bog'liq, uning ikki turi mavjud: ichki ulanish (ichki, semantik) va qo'shimcha ulanish (tashqi, qamrab oluvchi, matnning mohiyatli tomoni, birinchi navbatda tovush va harf)" [8]. Tadqiqotchilarning qarashlarida, matn tarkibiy qismlarining uyg'unligi, hech bo'lmaganda belgi orqali yo'naltirilganligi va muallifning niyati bilan uyg'unligida ko'rinadi. Butunlik – matnning tegishli pragmatik munosabatlarda ifodalash bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. Chunki I.R.Galperin matnning retrospektivasi haqida yozgan risolasida, u maqsadning retlarini nazarda tutgan. "Ba'zi hollarda keyingi komponentlar avvalgilari bilan uyg'un (retrospeksiya), boshqalarida esa, aksincha, avvalgilari keyingilari bilan bog'liq (prospekt) bo'ladi" [9], deydi. M.Lotmanga ko'ra, "badiiy matn dunyoning muayyan modeli, san'at tilidagi ma'lum bir xabar, u modellashtirish tizimiga aylanish xususiyatiga ega" [10]. Muallif obrazi badiiy matn ichidagi jarayonni tashkil qiladi. "Bunda san'at asarlari aks ettirilgan muayyan obyekt haqidagi nuqtayi nazar muallifning maqsadi hisoblanadi. Shunday qilib, "muallif adabiy asar matnida dunyoni shaxsiy idrok etishini ifoda etadi va atrofdagi real hayotga baho beradi degan xulosaga kelinadi" [11]. Bunda "Adabiy asardagi obrazlar hayotdagi kishilarning fe'l-atvorlari, xarakteriga muvofiq kelishi, eng asosiysi, hayotini bo'lishi talab qilinadi" [11].

Ijodkorning hayotini obrazli o'zlashtirishga bo'lgan sintetik yondashuvi va shaxsiy munosabatini chambarchas bog'liqlikda o'rgangan ma'qul. Ijodkor o'z asarlarini his-tuyg'usiz, sovuqqon kuzatuvchi sifatida emas, olamda ro'y beradigan voqealar, chuqur tashvishlantiradigan hayot va uning rivojlanishi, muammolari bilan faol qiziqadigan inson

sifatida yaratadi. “Alohida diqqatga sazovor voqealar, inson hayotining turli jarayonlari ijodkor e'tiborini jalb qilganda, ijodkor ularni umumiy mazmuni, rivojlanishi va ayni paytda individual dunyoqarashi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi. Aynan shu joyda ijodkorning borliqqa shaxsiy munosabati va sintetik yondashuvi kesishib o'tadi” [12]. Ularning ikkovi ham hayotni konkret obyekt sifatida ifodalaydi.

Badiiy asardagi voqea-hodisalar bayonida qahramonlar xatti-harakati haqida kimdir hikoya qiladi. Bu shakl mumtoz adabiyotimiz namoyandalari faoliyatida ham ko'zga tashlanadi. “Badiiy asarda obrazlar xatti-harakati va nutqiy munosabatlarini boshqarib turadigan keng qamrovli nutq shakli ahamiyatli. Har qanday nutq o'z subyektiga ega bo'lgani kabi shu nutqning ham egasi mavjud bo'ladi. U epik asarlarda roviy, hikoyachi, bayonchi, muallif tarzida namoyon bo'ladi. Bu kabi shakllar kitobxonda muallif obrazi haqidagi taassurotni paydo qilishi tabiiy” [13].

Bayon xolisona olib borilgan asarlarda muallif shaxsi ishtiroki o'quvchi uchun sezilmasa-da, mutolaa jarayonida muallif haqidagi umumiy tushuncha shakllana boradi. Unda, “birinchidan, muallif manerasini, borliqqa subyektiv munosabatini odamlar xarakteri haqidagi tushunchasini anglay boramiz. “Asar yaxlit badiiy sistemasini tashkil etuvchi barcha uslubiy vositalarni o'zaro bog'lovchi, ularni ma'lum maqsadda uyushtiruvchi kuch muallif obrazidir” [14]. Asarda harakatlantiruvchi kuch bayonchi nutqi, u g'oyaviy ma'no tashishda va avtor maqsadini ro'yobga chiqarishda asosiy tarkibiy qism vazifasini o'taydi. Bayonchini muallifdan ajratib tasavvur qilish mumkin emas. Muallif uchun san'atning eng muhim xususiyati – asarning emotsionalligi. U kamida ikki manba — ijodkorning ijod obyektiga aniq va ehtimol ko'zda tutilgan olamga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi. “Ijodkorning voqelikka bo'lgan emotsional munosabati, – deb yozadi, Xrapchenko – uning dunyo ehtiyojlari va tashvishlari, mukammallikka bo'lgan intilishlari bilan chambarchas bog'liq” [15]. Asar emotsional jihatdan boyligining ikkinchi manbayi – bu odamlar turli his-tuyg'ularining ifodasi. Birinchi manba san'atning tasviriy turlarida, ikkinchi manba esa san'atning ifodali turlarida ustunlik qiladi.

Nasrdan muallif obrazini o'rganishda bayon shakli muhim. Olimlar bayon shaklini ikki xil tasnif qiladi: “... shartli ravishda epik va sahnaviy bayon” [16].

1. Epik bayonda muallif tomonidan boshqarilayotgan obrazlar uning o'rnini bildirib turadi. Bunda muallif kitobxonni voqealar yuz berayotgan makon va ular dunyosida harakatlanayotgan tirik jon bilan tanishtiradi. Qahramonlarni qanday tushunish mumkinligini aytadi. Ularning nafaqat tashqi qiyofasi, balki ma'naviy dunyosi, individual qarashlarini ham oydinlashtira boradi. Asarda muallif hukmronligi uning har bir elementini yuzaga chiqarishda ko'maklashadi.

2. “Sahnaviy bayonda muallif hikoya qilayotgan voqea, harakatlar va bayonchi nutqi qorishuvi orqali remarkalarda aks etadi. Bu uslub ko'proq dramatik asarlarda uchraydi. Bunda tavsif asosiy o'rin egallamaydi, uning vazifasini imo-ishoralar bajaradi” [17].

Nasriy asarlarda epik va sahna bayonlarning qo'shiluvi natijasida tasvirning kuchayishi e'tiborni tortadi. Shu o'rinda adabiyotshunos O'ral Nosirov bayon shakli tasnifida “kinematografik bayon ham mavjudligini qayd etganini ta'kidlab o'tish joiz. Unga ko'ra voqelik qisqa-qisqa ammo yorqin tasvirlanadi, muallif obrazining borligi sezilmaydi” [18].

Asarning bayon shaklida muallif obrazi bilan roviy obrazi tabiatini aniqlash oson kechadigan hodisa emas. Bunda muallifning roviy sifatida borliq tasviriga munosabati, syujet yo'nalishi, obrazlar sistemasi, asar kulminatsiyasida qo'yilgan qahramon taqdiri, yozuvchi uslubi, asar janri va boshqa unsurlar ham muhim sanaladi. Roviylar obrazining tabiati muallifning tasvir obyektiga munosabati va u yashayotgan muhitga bog'liqligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra bayon shakli asar kompozitsiyasi asosida turadi. Bayon uslubi qahramon nutqi bilan bir maqsadda muvofiqlashadi.

Ayrim rus olimlari epik asarlarda muallif obrazini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarida bayonni to'rt turga ajratib, birinchi turga birinchi shaxs tomonidan olib borilgan bayonni kiritadi va uni “bayonchi – avtor (voqealarning bevosita guvohi yoki ishtirokchisi) amalga oshiradi, bu birinchi shaxsdagi bayonchidir” [19] deya ta'kidlaydi. A.A.Nesterenko o'z tadqiqotida muallif obrazi o'rniga bayonchini tavsiya etadi. Bu borada esa u L.I.Timofeyev qarashlariga tayanadi. U esa V.Vinogradovning “muallif obrazida badiiy asar uslubining barcha belgi va xususiyatlari birlashadi” [20] tarzidagi fikriga qarshi chiqadi. U bayonchi obrazini “... bayonchi obrazi avtor nutqi yordamida asarda tasvirga tortilgan bayonchi obraziga mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin. U yozuvchining individualligi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan obraz bo'ladi. Shuning uchun ham biz bayonchi obrazi tushunchasidan foydalanamiz” [21] degan fikrni ilgari suradi. Aslida muallif obrazining bayonchi bilan aynan o'xshashligi asosiy masala emas, “balki asarning yaxlitligini ta'minlash asardagi barcha obrazlarni aniq bir g'oyaviy-badiiy niyat yo'lida uyushtirilishi, tasvir ko'lamining badiiy qimmatini yuzaga chiqarishi va o'zining badiiy fenomen sifatida qay darajada shakllanganligi muhim” [22].

Zamonaviy amaliy til va adabiyotshunoslikda matn tushunchasi “Ko'p qirrali ta'lim jarayonining vizual belgilar ketma-ketligi bo'lgan og'zaki yoki yozma nutq mahsuli sifatida olimlar e'tiborini tobora ko'proq jalb etmoqda. Filologik ekspertizaning so'nggi yutuqlari, ayniqsa, kognitiv tadqiqotlar ushbu konsepsiyani sezilarli darajada to'ldiradi. Badiiy matn orqali nutqni nafaqat yozma ravishda, balki og'zaki shaklda ham amalga oshirish mumkin deb qaraladi. Matn ekspertizasining shakllanish evolyusiyasi muammosi tilshunoslik, adabiyotshunoslik, poetika kabi ko'plab fanlarning atrofida birlashadi va yangi “badiiy matnning filologik ekspertizasi” deb nomlangan maxsus sohasini tashkil etadi” [23]. Biroq bu jarayonda matnning tarkibiy-semantik va kommunikativ-semantik tashkil etilishining murakkabligi bilan izohlanadi. Mazkur tushunchada turli xil matn turlari va shakllari mavjudligi sababli “badiiy matn” terminining barqaror ta'rifi mavjud emas. Mazkur tadqiqot oldidagi muammo ham shundan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Бахтиёр Менглиевга савол: “Ўзбек тили ўладими?” (<https://uza.uz/uz>)
2. Бринев, К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. Монография / – Барнаул: АлтГПА, 2009. – С. 221.
3. Бринев, К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. Монография / – Барнаул: АлтГПА, 2009. – С. 225.
4. Потебня А.А. Мысль и язык. Подготовка текста Ю.С.Рассказова и О.А.Сычева. М.: Лабиринт. 1999. – С. 30.
5. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: КомКнига, 2007. – С. 112.
6. Гинзбург Л.Я. Новое литературное обозрение. — 2001. — № 3 – С. 106-109.
7. Лосева Л.М. Как строится текст: пособие для учителей. - Москва: Просвещение, 1980. – С. 96.
8. Лотман Ю.М. Семиотика культуры и понятие текста. – Таллинн: Александра, 1992. - С. 129-132.

9. Мурзин Л.Н., Штерн А.С. Текст и его восприятие / - Свердловск: Изд-во Урал. 1991. – С. 9.
10. Нестеренко А.А. Авторская позиция в повествовательном произведении: и Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва: 1970. – С. 22.
11. Носиров Ў. Иждокор, шахс, бадий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 155.
12. Суванов З. Тоғай Мурод насрида образлар поэтикаси. – Тошкент: 2019. PhD дисс. – Б.37
13. Храпченко М.Б. Горизонты художественного образа. – Москва: Художественная литература, 1986. – С. 71.
14. Храпченко М.Б. Горизонты художественного образа. – Москва: Художественная литература, 1986. – С. 86.
15. Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. – Москва: 1961. – С. 34.
16. Тимофеев Л.И. Советская литература. Метод, стиль, поэтика. – Москва: 1964. – С. 227.
17. Штайн К.Э. Повседневное-художественное мышление: отечественная ономато-поэтическая парадигма// Этика и социология текста: Сб. статей научно-методического семинара «TEXTUS». Вып. 10. – СПб.Ставрополь: СГУ, 2004. – С. 4.
18. Ўша асар. – Б. 156.
19. Суванов З. Тоғай Мурод насрида образлар поэтикаси. – Тошкент: 2019. PhD дисс. – Б.40.
20. Нестеренко А.А. Авторская позиция в повествовательном произведении: и Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва: 1970. – С. 22.
21. Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. – Москва: 1961. – С. 34.
22. Тимофеев Л.И. Советская литература. Метод, стиль, поэтика. – Москва: 1964. – С. 227.
23. Суванов З. Тоғай Мурод насрида образлар поэтикаси. – Тошкент: 2019. PhD дисс. – Б.41.



UDK:81'276.6:355.11:342.725

Sharifa TOSHOVA,
TIPU dotsent v. b., PhD
E-mail: sharifaxon.tosheva@gmail.com

T.f.n.N.Toshev taqrizi asosida

BUXORO JADIDLARI SOVET MAFKURASI BOSIMI OSTIDA: SADRIDDIN AYNIY VA FAYZULLA XO'JAYEV ASARLARINING VERSIYALARI

Аннотация

Sovet hukumati targ'ibot-tashviqot va mafkura ishiga, xususan, inqilob tarixini yoritishga alohida e'tibor qaratib, bir qism kishilar tomonidan, qurol kuchi bilan amalga oshirilgan inqilobni go'yo butun xalq ommasining irodasi va ishtiroki bilan sodir bo'lganini dalillashga urindi. Maqolada bu jarayon Buxoroda jadidchilik harakati rahbarlari Sadridin Ayniy va Fayzulla Xo'jaevlar Buxoro inqilobi tarixiga bag'ishlangan asarlarini qayta-qayta o'zgartirishga majbur bo'lishi misolida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jadid, inqilob, mafkura, Buxoro, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jaev.

БУХАРСКИЕ ДЖАДИДЫ ПОД НАТИСКОМ СОВЕТСКОЙ ИДЕОЛОГИИ: ВЕРСИИ СОЧИНЕНИЙ САДРИДДИНА АЙНИ И ФАЙЗУЛЛЫ ХОДЖАЕВА

Аннотация

Советская власть, вкладывая много стараний в пропаганду и идеологию, в частности, в освещение истории революции, пыталась преподнести революцию, осуществленную группой людей силой оружия, как нечто такое, которое произошло по воле и при участии всего народа. В данной статье этот процесс освещается на примере сочинений по истории революции, созданных руководителями джадидского движения в Бухаре, – Садриддином Айни и Файзулла Ходжаевым, которые были вынуждены снова и снова вносить в них изменения.

Ключевые слова: джадиды, революция, идеология, Бухара, Садриддин Айни, Файзулла Ходжаев.

BUKHARAN JADIDS UNDER THE ONSLAUGHT OF SOVIET IDEOLOGY: VERSIONS OF THE WORKS OF SADRIDDIN AINI AND FAIZULLA KHODJAEV

Annotation

The Soviet authorities, putting a lot of effort into propaganda and ideology, in particular, into the coverage of the history of the revolution, tried to present the revolution, carried out by a group of people by force of arms, as something that happened by the will and participation of the whole people. This article highlights this process on the example of the works on the history of the revolution created by the leaders of the Jadid movement in Bukhara, Sadridin Aini and Faizulla Khojaev, who were forced to make changes in them again and again.

Key words: Jadids, revolution, ideology, Bukhara, Sadridin Aini, Faizulla Khojaev.

Kirish. Ma'lumki, o'tmishning turli davrlarida yuz bergan siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlar millat tafakkuri va madaniy taraqqiyotida chuqur iz qoldiradi. XX asr boshlarida Buxoroda sodir bo'lgan ma'rifatparvarlik va inqilobiy harakatlar hamda ularning natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy voqealar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki milliy uyg'onish jarayonida muhim burilish yasab berdi. Mazkur inqilobiy jarayonlarning yoritilishida o'z davrining yetuk ziyolilari, xususan, Sadridin Ayniy va Fayzulla Xo'jaevning tarixnavislik faoliyati alohida o'rin tutadi. Buning ustida, sovet davlatining o'zi omma uchun jozibali bo'lgan g'ayrioddiy bir mafkuraning mevasi sifatida paydo bo'lgani bois, yangi tuzumning afzalliklarini targ'ib qilishga tashabbus ko'rsatdi va tarixiy asarlarning buyurtmachisi bo'ldi. Zero, sho'ro tuzumining afzalliklarini targ'ib qilish barobarida o'tmishni xira va ayanchliroq tasvirlash ko'zlangan natija berishini bolsheviklar yaxshi anglardilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida tarixiy-tahliliy, manbashunoslik va qiyosiy tahlil usullari asos qilib olindi. Sadridin Ayniyning "Tarixi inqilobi fikriy dar Buxoro" hamda "Buxoro inqilobining tarixi" asarlari o'zaro qiyos va tahlil qilinib, muallifning g'oyaviy qarashlari, yondashuvlari va siyosiy ta'sirlar tufayli yuz bergan mazmun hamda uslubiy

o'zgarishlar o'rganildi. Maqoladagi yana bir muhim metodologik yondashuv – bu manbashunoslik tahlili bo'lib, unda ikkala muallifning asarlarini tahlil qilish orqali inqilob haqidagi turlicha siyosiy qarashlar o'rganildi. Bundan tashqari, siyosiy-tahliliy yondashuv orqali Ayniy va Xo'jaevning inqilob, jadidchilik va ijtimoiy jarayonlarga munosabatidagi farqlar tavsiflandi. Ushbu tahliliy usul mualliflarning shaxsiy tajribasi, ijtimoiy mavqei va siyosiy bosimlar ta'sirida yozgan asarlarini tushunishda muhim o'rin tutadi.

Tahlil va natijalar. Buxoro Respublikasi hukumati o'zining ilk kunlaridanoq inqilobiy harakatlarni tarix sahifalariga muhrlashga sa'y-harakat ko'rsatdi. 1920-yil 24-sentyabrda yangi tashkil topgan BXSР Maorif nozirligining birinchi majlisidayoq inqilob tarixini yozish uchun maxsus komissiya tuziladi. Tanlangan mualliflar orasida S.Ayniy ham bor edi [1]. Hukumat tomonidan yuklatilgan bu vazifani S.Ayniy qisqa fursatda bajarib, 1921-yilning mayida kitobni yozib topshirdi. Ayniyning bunday yirik asarni qisqa muddatda yozib ulguraganining siri shundaki, u ikki yil muqaddam aynan shu mavzuga doir "Tarixi inqilobi fikriy dar Buxoro" ("Buxoroda fikriy inqilob tarixi") nomli kitobni tojik tilida ta'lif etgan edi. Yarim yil ichida mazkur asarning o'zbekcha qayta ishlangan variantini yaratgan Ayniy unga

“Buxoro inqilobining tarixi” degan nom beradi. Bu haqda Ayniyning o‘zi quyidagicha yozgan: “Men 1920-yil noyabridan 1921-yil mayiga qadar o‘sha tojik tilidagi materiallarni o‘zbekchalashtirib va oxirini to‘ldirib, [19]20-yil voqealari va inqilob g‘alabasini unga kiritib berdim... SSSR xalqlari nashiyoti o‘rtiq To‘raqulov orqali bu qo‘lyozmani Moskvaga so‘ratib oldi, 1926-yilda [kitob] chop bo‘lib chiqdi” [4].

Buxoro Respublikasi davlat nashiyoti “Buxoro inqilobining tarixi” asarini o‘z vaqtida bosib chiqarmadi [3]. S.Ayniyning o‘g‘li K.Ayniy Buxoro inqilobi tarixini yozishga hukumat tomonidan avval buyurtma berilib, so‘ng nashr etilmagani uchun F.Xo‘jaevni aybdor deb biladi [7]. Ehtimol, bu fikrda ma‘lum asos bordir. “Buxoro inqilobining tarixi”da, Yosh buxorolilarning islohot yo‘lida amalga oshirgan muhim tadbirlarini yorituvchi boblarda muallif F.Xo‘jaevning nomini umuman tilga olmagan. Yuqorida guvoh bo‘lganimizdek, “Tarixi inqilobi fikriy dar Buxoro” “Buxoro inqilobining tarixi”dan biroz burun yaratilgan. Biroq Buxoro inqilobidan keyin ushbu tojikcha asarning qo‘lyozmasi yo‘qoladi va S.Ayniy uni izlab topishni o‘g‘li Kamoliddinga vasiyat qiladi. K.Ayniy Sovet Ittifoqi tarqalib ketgandan so‘nggina qo‘lyozmani arxivdan topishga muvaffaq bo‘ldi. Bu asar 2003-yili Tehronda aslyatda [7], 2005-yili Dushanbada kirill alifbosida chop etildi [8], 2007-yilda esa qo‘lyozmaning faksimile nashri dunyo yuzini ko‘rdi [9].

“Buxoro inqilobining tarixi” 1926-yili Moskvadagi “SSSR xalqlari markaziy nashiyoti”da arab imlosida nashr qilingan [2]. Nashrdan maqsad, jumladan, uning amaliy ahamiyati mazkur Nazir To‘raqulovning so‘zboshisida ochiq-oydin bayon qilingan: O‘rta Osiyoning “har bir haqiqiy inqilobchisi” kitob orqali “Buxoro o‘lkasida yoqindagina bo‘lib o‘tgan razolatlar” bilan tanishib, Afg‘onistonda “sargardon yurib”, imperialistlar homiyligida Yevropa matbuotida xitobnomalar bostirayotgan amirdan nafratlansin, “ma‘naviy va axloqiy foyda” topsin [11].

Ma‘lum mafkuraviy sabablarga ko‘ra, asar katta qisqartirishlar bilan bosilgan. 1960-yillarda S.Ayniyning sakkiz jildlik tanlangan asarlari o‘zbek tilida, kirill yozuvida nashr etilib, uning birinchi jildiga “Buxoro inqilobining tarixi” ham kiritildi [5]. O‘zR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida asarning ikkita qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lishiga qaramay, uning transkripsiyasi 1926-yilgi Moskva nashri asosida amalga oshirilgan. Mafkuraviy yondashuv oqibati o‘laroq matn navbatdagi qisqartirishlarga duchor qilingan. Nihoyat, 2010-yilda mazkur institut qo‘lyozmalar fondida 2125 va 36 ashyo raqamlari ostida saqlanayotgan nusxalari asosida “Buxoro inqilobining tarixi” asarining ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi [10].

S.Ayniy jadidlarning keksa avlodiga mansub. Yuqorida qayd etganimizdek, u madaniy inqilob tarafdori bo‘lib qoldi. Eron va Turkiya inqiloblari ta‘sirida Buxoro jadidlari, jumladan, 1914–1915-yillarda chet ellarda o‘qib qaytgan yosh jadidlar ham endi siyosiy talablarni kun tartibiga qo‘ya boshladilar. Ayniqsa, 1916–1917-yillarda Ayniy bilan jadidlarning siyosiy fikrlarida, xususan, inqilob to‘g‘risidagi qarashlarida ixtilof borligini “Tarixi inqilobi fikriy dar Buxoro”da Ayniyning o‘zi bir necha bor eslatadi. Masalan, Ayniy shu kitobning bir joyida quyidagi xotiralarini keltiradi: “Mening fikrim boshqa taraqqiyparvarlarning fikriga muxolif kelardi va shuning uchun ulur o‘z tashabbuslarini mendan pinhon tutardilar. Ba‘zilari meni qo‘rqoq va irodasiz derdilar, ba‘zilari konservator, balki reaktioner deb atardilar. Bir kecha do‘stlarimizdan birining uyida Buxoroda islohot va tanzim xususida suhbat borardi, har kim islohot haqida o‘zining orzu va xayolini gapirardi. Faqir dedim: Agar hukumatning o‘zi islohot boshida bo‘lsa va mendan so‘rasaki, Buxoro islohoti uchun nima qilish lozim? Men ikki narsa kerak derdim: Maktab! Jarida!” [7]. Suhbatdoshi Ayniyning fikriga qarshi

chiqib, Buxoroda ra‘iyatning ahvoli benuhoyat og‘ir bo‘lgan bir sharoitda siyosiy muammolarni yechish muhimligini uqtiradi: “Mamlakatning har go‘shasida ra‘iyat mushtipar, bir necha bedodgarning qo‘lida giriftor, ziroat uchun suv yo‘q, tijorat uchun yo‘l, tabobat uchun hakim, dorixonona yo‘q... Shu qadar muhim muammolarni bir tomonga yig‘ib qo‘yib, sizning maktab va gazetangiz atrofida aylanaylikmi?” [7].

Ayniyning Yosh buxorolilar bilan munosabatini ko‘rsatuvchi bu va bunga o‘xshash fikrlar “Buxoro inqilobining tarixi”da keltirilmaydi. Masalan, “Buxoro inqilobining tarixi”da “Tarixi inqilobi fikriy dar Buxoro”dagi F.Xo‘jaev haqida bildirilgan ushbu fikrlar tushirib qoldirilgan: “Fayzullaxo‘ja marhum Ubaydullaxo‘janing o‘g‘lidir. Yosh bo‘lishiga qaramay (taxminan 20 yoshda), tijorat ishida mahorat hosil qilgan edi. Buxoro inqilobi va islohotchilik harakatida molu jonini xatarga qo‘yib, hamisha oldingi safda turdi. Afsuski, yoshligi va tajribasizligi tufayli katta xatolarga yo‘l qo‘ydi hamda umumiy mahviyat va parokandalikka sababchi bo‘ldi. Agar bu falokatlardan ibrat olgan bo‘lsa va o‘z harakatlarini aql bilan mantiqning to‘g‘ri yo‘liga solsa, muvaffaqiyatlari kutilgandek bo‘ladi, yo‘qsa, har kuni yangi fojeani keltirib chiqarajak” [7].

Ikki asar orasidagi farqlarni ko‘rsatuvchi bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Xulosa shuki, “Buxoro inqilobining tarixi”da sovet mafkurasining ta‘siri sezilib turadi. Ayniyning dunyoqarashidagi bu majburiy o‘zgarishning o‘zi ham o‘sha davr ruhini tushunish uchun ahamiyatga molik. 1920–1921-yillarda, ya‘ni Buxoroda sovet tuzumi o‘rnatilishining dastlabki yillarida yaratilgan “Buxoro inqilobining tarixi” asarida Ayniy davr sharoiti va talabini hisobga olib, 1918-yilda yozgan ba‘zi fikrlarini tushirib qoldirgan yoki ba‘zi bir ma‘lumotlarni qo‘shish bilan cheklangan bo‘lsa, o‘ttizinchi yillardagi dahshatli qatag‘onlarga guvoh bo‘lganidan so‘ng, 1940-yilda yozgan “Qisqacha tarjimai holim” nomli kitobida u ilgari aytgan fikrlarining butkul aksi bo‘lgan yoki ularni inkor qiladigan mulohaza va ma‘lumotlar yozishga majbur qolgan. Masalan, Ayniy “Buxoro inqilobining tarixi” asarida 1910-yilda tashkil etilgan Buxoro jadidlarining “Tarbiyai atfol” nomli yashirin jamiyati faoliyatiga yuksak baho berib, “Yashirin jamiyat Buxoroning ilmiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy inqilobig‘a boshlab xizmat qildigi sababli buyuk tarixiy ahamiyatga molikdir” [10], deb yozgan bo‘lsa, “Qisqacha tarjimai holim”da bu jamiyatning ishlarini butkul yo‘qqa chiqaradi. Maxfiy jamiyatning maqsadi va talablari amirlikda boshqaruvni ma‘lum bir tartibga solish, saroyini, maktab va madrasalarni islohot qilish, yer solig‘ini qayta ko‘rib chiqish kabi tor doiradagi masalalardan iborat bo‘lganini hamda ular aytarli biror natijaga erisholmaganini yozib, o‘z fikrini quyidagicha xulosalaydi: “Bizning “Maxfiy jamiyatimiz” nima ish qildi? Afsuslanib iqrora bo‘lish kerakki, u ham biror ish qila olmadi” [6].

1926-yilda Buxorodagi inqilobiy harakatning rahbarlaridan biri bo‘lgan va o‘sha vaqtda BXSR raisi vazifasini egallab turgan F.Xo‘jaevning “Buxoro inqilobining tarixiga materiallar” nomli asari o‘zbek tilida, arab yozuvida va qisman rus tilida nashr etilgan [14; 16]. Kitobning muqaddimasida muallif “bo‘lib o‘tgan voqealarga birmuncha ravshanlik berish” va “ko‘z oldida sodir bo‘lgan inqilobiy harakatlarga baho berish” maqsadida ushbu asarni yozishga jazm etganini qayd qiladi. F.Xo‘jaevning yangi tashkil etilgan davlatning rahbari sifatida mamlakatda siyosiy tanglik hukm surgan, iqtisodiy muammolarni hal etish, xalq xo‘jaligini tiklash, qonunchilik, qurilish, maorif, madaniyat sohasida ishlarni tashkil etish, kadrlar tayyorlash kabi dolzarb masalalar bilan band bo‘lishiga qaramay, uni jadidchilik va inqilob haqida kitob yozishga undagan sababni markazda sinfiylik siyosatining tobora kuchayib borayotgani bilan izohlash mumkin.

Davr talabi bilan F.Xo'jaev Yosh buxorolilarning sinfiy tarkibi va inqilobning harakatlantiruvchi kuchlari xususida yozganda o'z asarini ko'proq mafkura asosida, bir yoqlama yoritishga majbur edi. Hatto asarning muqaddimasida u S.Ayniyniing "Buxoro inqilobining tarixi" kitobiga munosabat bildirib, asarning qimmatli materiallarga ega ekanligini e'tirof etish barobarida, Ayniyni jadidchilikka noto'g'ri baho berish va uni bolshevizm bilan tenglashtirishda, jadidchilikning ichki dinamikasini ochib bermaganlik va Yosh buxorolilar harakati bilan jadidchilikni aralashirib yuborganlikda ayblaydi [14]. F.Xo'jaevning egallab turgan mansabi, shu bilan bog'liq mas'uliyati va qaltis siyosiy vaziyatdan xabardorligidan kelib chiqilsa, u K.Ayniy o'ylaganidek shaxsiy g'araz orqasida emas, ko'proq ehtiyotkorlik yuzasidan Ayniy asarining nashriga yo'l bermagan va qaysidir ma'noda o'z asariga Ayniyniing kitobiga o'ziga xos javob va muqobil sifatida qaragan bo'lishi mumkin.

Ayniy Buxoroda jadidchilik harakati tarixining 1910-yildan 1917-yilgacha bo'lgan bosqichini batafsil qalamga olgan bo'lsa, F.Xo'jaev bu davrni qisqacha yoritib, asosiy diqqatini 1917-1920-yillardagi siyosiy harakatlar, jadidlar orasidagi bo'linish, inqilobiy Yosh buxorolilar partiyasining tashkil topishi, Yosh buxorolilar kommunistik guruhining shakllanishini yoritishga qaratadi. Bunda asosiy diqqat Kolesov voqeasidan keyin Buxoroda sinfiy kuchlar tarkibida tub o'zgarishlar bo'lgani, ilgari inqilobning markaziy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan savdo kapitali sarmoyasining vakillari – savdogarlar, ijarachilar, baqqollar, sudxo'rlar xususiy mulklaridan ajralib qolishdan cho'chib chetga chiqib qolgan, aksincha, ilgari islohotchilikka befarq bo'lgan xalq ommasi, ayniqsa, dehqonlar va qo'shin orasida amir hukumatidan norozilik kuchaya borganini isbotlashga qaratiladi. "Buxoroning o'z muhiti, o'z-o'zidan paydo bo'lgan xo'jalik ahvoli ommani g'alayonga keltirdi. Va buning uchun badbaxt jadidlarning va Yosh buxorolilarning hech bir tashviqotlari kerak emas edi", deb yozadi F.Xo'jaev [14]. Shuningdek, u jadidchilikning vujudga kelish sabablari haqida to'xtalib, quyidagicha ma'lumot beradi: "Buxoro jadidchiligi dehqonlar va mayda savdogarlarga tushadig'an soliq og'irliqlarini yengil qilish ham soliq ishlarini umumiy tartibga solish to'g'risida ochilg'an gapdan boshlab, tadrijiy suratda ... haqiqiy bir yashirin jamiyatga aylana bordi" [14]. Holbuki, Buxoroda ham, Turkistonda ham jadidlar dastlab maktab va madrasalarni isloh qilish taklifi bilan chiqib, keyinchalik iqtisodiy va siyosiy talablarni ilgari surganlariga F.Xo'jaevning shaxsan o'zi guvoh edi.

Asar nashr etilishi bilan o'q G.Turkestanskiy tomonidan tanqid etildi. U F.Xo'jaevni Buxoro inqilobining sinfiy mohiyatini buzib ko'rsatganlikda, ya'ni uning burjua demokratik inqilob bo'lganini e'tirof etmaganlikda, jadidizmni kommunizmga o'xshatishga uringanlikda ayblaydi [13]. Shundan so'ng F.Xo'jaev O'zbekiston Kommunistik partiyasining III s'ezdida bayonot berib, jadidizmni

ideallashtirish masalasida o'zi yo'l qo'yan "xato"ga iqror bo'ladi va "ziyolilarga munosabat masalasida Markaziy Komitetning siyosatini to'g'ri deb hisoblab kelgani va bundan buyon ham to'g'ri deb hisoblashini" bildiradi. Xo'jaevning bu bildirishi 1927-yilda "Коммунистическая мысль" jurnalida chop etiladi [17].

Bu tanqid va tahdidlardan keyin F.Xo'jaev o'z asarini qayta ishlab, 1932-yilda uni "Buxorodagi revolyutsiya va O'rta Osiyoning milliy chegaralanishi" nomi bilan nashr ettirdi [18]. Natijada asar oldingisiga nisbatan yanada mafkuraviylashtirildi. Buni kitob materiallari bilan tanishgan ko'plab tadqiqotchilar e'tirof etishgan. Jumladan, olmoniyalik tadqiqotchi Reynxard Ayzener F.Xo'jaevning "Buxorodagi revolyutsiya va O'rta Osiyoning milliy chegaralanishi" asarining kuchli mafkuraviy konformizm bilan xarakterlanishini ta'kidlagan [12]. F.Xo'jaevning o'zi so'zboshida asarning "Buxoroning sotsial strukturasi", 1917-yilga qadar jadidlar faoliyati, 1917-yildan keyingi davr voqealari hamda asarning xotima qismiga o'zgartirishlar kiritganini qayd etgan. Bu yerda o'sha o'zgartirishlarga bir-ikki misollar keltirish bilan cheklanamiz. Asarning birinchi nashrida diniy ulamo Buxoro aholisining 3% tashkil qiladi [14], deyilgan bo'lsa, ikkinchi nashrdan bu son 1% ga tushirilgan. Buxorodagi yarim proletar unsurlar: hammollar, suvchilar, tikuvchilar va har xil ixtisosdagi kustarlar soni 10 mingdan ortiq edi [14], deyilgan bo'lsa, ikkinchi nashrdan ularning soni bir necha o'n ming kishiga yetar edi [19], degan ma'lumot beriladi.

Xullas, tarixchilar ma'lum bir siyosiy bosim ostida ijod qilishga majbur edilar. Tarixiy voqealarni xolis tahlil etish imkoni yo'q edi. Yaratilgan har bir asar bir necha bor senzurdan o'tib, "tahrir qilingan", "tuzatilgan" va "to'ldirilgan" holda nashr qilingan. Tadqiqotchilar uzoq yillar davomida shu nuqsonli nashrdan foydalanishga majbur edilar. Faqatgina mustaqillikdan so'ng, aniqrog'i, 1996-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi Fayzulla Xo'jaevning 100 yilligini nishonlash haqida qaror qabul qilgach, O'zR FA Tarix instituti xodimlari tomonidan "Buxoro inqilobining tarixiga materiallar"ning allaqachon kamyob kitobga aylanib qolgan arab grafikasidagi birinchi nashri asosida krill yozuviga o'girilib, nashr etildi [20].

Xulosa. Sadridin Ayniy va Fayzulla Xo'jayevning Buxoro inqilobi haqidagi asarlari inqilobiy voqealarni yoritishda bir-birini to'ldiruvchi muhim tarixiy manbalardir. Ayniy o'z asarlarida tarixiy hodisalarning ijtimoiy-ruhiy sabablari va oqibatlariga urg'u beradi. Fayzulla Xo'jayevning asarlari, xususan uning chiqishlari, siyosiy nuqtalar va maqolalarida Buxorodagi inqilobiy harakatlarning tashkiliy, siyosiy va strategik tomonlari chuqur yoritilgan. Xo'jaev voqealarga bevosita rahbarlik qilgan shaxs sifatida tarixiy jarayonlarga siyosiy faollik va konkret amaliy yondashuv nuqtayi nazaridan baho beradi.

ADABIYOTLAR

1. Adeeb Khalid Nation into History: The Origins of National Historiography in Central Asia // Stéphane A. Dudoignon (ed.). Devout Societies vs. Impious States? Transmitting Islamic Learning in Russia, Central Asia and China through the Twentieth Century. Berlin, 2004.
2. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Москва, 1926.
3. Айни С. Мухтасари таржимаи ҳоли худам // Айни С. Куллиёт. Жилди 1. Душанбе, 1958.
4. Айни С. Жавоби ман // Айни С. Куллиёт. Жилди 11, китоби якум. Душанбе, 1963.
5. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар // Айний С. Асарлар. 1-том. Тошкент, 1963. Б. 181-349.
6. Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим // Айний С. Асарлар. 1-том. Тошкент, 1963. Б. 17-104.
7. Айни С. Тарихи инқилоби фикри дар Бухоро / Бо муқаддимаи аз Камолдин Садриддинзода Айний. Техрон, 1381 х.ш. [2002 милодий].
8. Айни С. Таърихи инқилоби фикри дар Бухоро // Садриддин Айни. Куллиёт. Жилди 14. Душанбе, 2005.
9. Айни С. Таърихи инқилоби фикри дар Бухоро. Нашр: акси нухаи асл бо хатти муаллиф с. 1918 // Айни С. Куллиёт. Жилди 15. Душанбе, 2007.
10. Айни С. Бухоро инқилобининг тарихи // Нашрга тайёрловчилар: Шимада Шизуо, Шарифа Тошева. Токуо, 2010.

11. Назир Тўракул ўғли. Сўзбоши // Садриддин Айний. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Москва, 1926. Б. 3–5.
12. Рейнхард А. Бухара в 1917 году // Восток, 1994, № 4. Б. 141.
13. Туркестанский Г. Об одном историческом документе // Коммунистическая мысль. Ташкент, 1926, № 2. Б. 136–148; Шу муаллиф. Кто такие джаиды // Коммунистическая мысль. Ташкент, 1926. Б. 11–22.
14. Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. Самарканд–Тошкент, 1926.
15. Ходжаев Ф. О младо-бухарцах // Историк-марксист. 1926, №1. Б. 123–141.
16. Ходжаев Ф. Джаиды // Очерки революционного движения в Средней Азии. Б. 5–12.
17. Ходжаев Ф. Справка и ответ // Коммунистическая мысль. Ташкент, 1927, № 3. Б. 153–161.
18. Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре и национального размежевания Средней Азии. Ташкент, 1932.
19. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. Уч томлик. Т. I. Тошкент, 1976.
20. Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар / Д.А. Рашидова нашри. Тошкент, 1997.



UDK: 050/070:796.5:004:301(575.1)

Zohir TOSHJO‘JAYEV,

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

E-mail: zohirbek@mail.ru

O‘zJOKU katta o‘qituvchisi, PhD G.Najmiddinova taqrizi ostida

MILLIY SPORT SAYTLARI – ONLAYN JURNALISTIKANING MAHSULI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada onlayn jurnalistika amaliyotida muhim o‘rin tutgan saytlarning ahamiyati va ularning ommaviy axborot vositalariga aylanishi milliy media makondagi sport saytlari misolida tahliliy bayon etilgan. O‘zbek internet jurnalistikasi paydo bo‘lishi, shakllanishi, ommalashishi, rivojlanishida sport yo‘nalishidagi saytlar yetakchilardan bo‘lib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: media makon, sport saytlari, ijtimoiy tarmoqlar, sport, olimpiada, jahon chempionati, auditoriya, tushunchalar, onlayn nashrlar, radio, televideniye, internet.

NATIONAL SPORTS SITES AS A PRODUCT OF ONLINE JOURNALISM

Annotation

This article provides an analytical discussion of the importance of websites that play a significant role in the practice of online journalism and their transformation into mass media, using national sports sites as an example within the media landscape. Sports-oriented websites have been among the leaders in the emergence, formation, popularization, and development of Uzbek internet journalism.

Key words: media space, sports sites, social networks, sports, Olympics, world championship, audience, concepts, online publications, radio, television, internet.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ СПОРТИВНЫЕ САЙТЫ - КАК ПРОДУКТ ОНЛАЙН-ЖУРНАЛИСТИКИ

Аннотация

В данной статье аналитически рассматривается значение сайтов, занимающих важное место в практике онлайн-журналистики, и их превращение в средства массовой информации на примере национальных спортивных сайтов в медиапространстве. Спортивные сайты являются одними из лидеров в появлении, формировании, популяризации и развитии узбекской интернет-журналистики.

Ключевые слова: медиапространство, спортивные сайты, социальные сети, спорт, Олимпиада, чемпионат мира, аудитория, понятия, онлайн-издания, радио, телевидение, интернет.

Kirish. Sport saytlari o‘z faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish jarayonida onlayn mediaga xos janrlar, uslublar, talablardan birinchilardan bo‘lib foydalanib keldi. Sport saytlarida boshqa elektron ommaviy axborot vositalari taqdim etayotgan kontentlarda uchramaydigan bir qancha janr turlarini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, sport bugungi kunda butun dunyoda har bir mamlakat aholisini qamrab olgan ulkan harakatga aylanib bo‘ldi. Bir tomondan, sport – davlatlarning xalqaro maydondagi salohiyati, kuch-qudratini namoyon etuvchi vosita, ikkinchi tarafdan aholi, ayniqsa, yoshlarni sog‘lom tarbiyalash omili, boshqa jihatdan katta biznes tuzilma ko‘rinishini olganini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Sportning ana shu darajaga ko‘tarilishida bevosita axborot almashinuvi va aynan mana shu jarayonni qo‘llab-quvvatlab kelayotgan onlayn media vositalari va ularning ijtimoiy tarmoqlari hissasi juda katta bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Inson yaratilibdiki, u kundalik hayotda axborot almashinuviga ehtiyoj sezib kelgan. Jurnalistika esa, har qanday jamiyatni axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi asosiy ijtimoiy institut sifatida sport sohasi bilan ham “to‘qnashish”ga majbur. Aynan axborotga chanqoqlik jurnalistikaning ibtidoiy ko‘rinishlarini vujudga kelishiga asos bo‘lgan, deyishimiz mumkin. Shu ma’noda, sport jurnalistikasining ibtidoiy shaklining yuzaga kelishini eramizdan avvalgi 776 yilda qadimgi Gresiyada o‘tkazilgan qadimiy Olimpiya o‘yinlari va ushbu musobaqa haqida

ma‘lumot berilgan tarixiy manbalarga bog‘lasak, mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi [1].

O‘sha Olimpiya o‘yinlari qadimgi Gresiyaning ikkita katta markaziy tadbiridan biri bo‘lgani tarixiy manbalarda keltirilgan. Antik Olimpiadaning ildizi diniy udumlarga borib taqalsa-da, uning asosini sport musobaqalari tashkil qilar edi. Tabiiyki, musobaqa ishtirokchilarini bellashuv maydonlariga chorlash, bellashuvlar solnomasi, natijalar, o‘yinlar g‘olib va qahramonlari haqidagi o‘ziga xos ma‘lumot tarqatish usullarida ham jurnalistika elementlaridan keng foydalanilgan.

Hatto, qadimgi Olimpiadalarda ro‘y bergan voqealar, g‘oliblar nomi, musobaqa jarayonlari haqida yozma manbalar ham bizgacha yetib kelgan. Xususan, antik davrning eng mashhur adiblaridan Homer ham o‘zining “Iliada” asariga kurash, boks, kamon va nayza otish, qilichbozlik, poyga musobaqalari haqida noyob ma‘lumotlarni kiritgani ham ko‘p bor ta’kidlangan [2].

Qadimgi Olimpiya o‘yinlarining birinchi g‘olibi elidalik Koreb bo‘lgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Ayollar o‘rtasida bu musobaqaning birinchi chempioni Sparta malikasi Kiniska bo‘lgani o‘sha davrning tarixchi yozuvchisi Ksenofont asarida yozib qoldirilgan [3]. Buni ham o‘sha davrning muhim voqeasi sifatida xabar tarqatish usuli o‘laroq, jurnalistikaning elementi, deb baholash to‘g‘ri bo‘ladi.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan aniq bo‘ladiki, jurnalistikaning yuzaga kelishi va rivojlanib borishi bevosita sport musobaqalari va voqealariga ham chambarchas bog‘liq.

Bugungi kunda dunyoning har qaysi burchagidagi har qanday voqea-hodisalar haqida real vaqt rejimida axborot olish imkonini bor. Bu bevosita internet tarmog'i, onlayn media taraqqiyoti, globallashuv jarayoni kabi zamonaviy vositalar yuzaga kelgani va tobora kengayib borayotgani bilan izohlanadi.

Tabiiyki, bu jarayonlar O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Ana shunday ta'sirlar natijasida keyingi yillarda o'zbek jurnalistikasi ham keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. O'zbek jurnalistikasi ichida internet jurnalistika yangi tarmoq sifatida bo'y ko'rsata boshladi. Bu davrning boshidayoq turli yo'nalishdagi saytlar paydo bo'ldi. Xususan, internet jurnalistikaning vujudga kelishi sport saytlarining taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Yoki bu jarayonni aksincha – sport saytlari onlayn media rivojiga katta hissa qo'shdi, deb ham baholash mumkin.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, uzoq yillar davomida sport voqealari gazeta, radio va televideniya "sport xabarlar" shaklida yoritib kelinar edi. Aksariyat gazetalarining so'nggi sahifasida sport xabarlar uchun ixcham joy ajratilib, sohadagi hodisa-voqealar kichik hajmdagi maqola yoki xabarlar lentasi tarzida yoritilgan. Xuddi shuningdek, radio va televideniya axborot dasturlarida sport xabarlar ob-havo ma'lumotlaridan oldingi blokda bir necha muhim voqealarning qisqa jamlanmasi sifatida berilgan.

Mustaqillik qillarida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov o'zi yuritgan siyosatda jismoniy tarbiya va sportni navqiron avlodning barkamol tarbiyalashda eng muhim vosita ekaniga alohida e'tibor qaratishi natijasida sportga ixtisoslashgan ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsata boshladi.

Eng katta qadamlardan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yilning 4 noyabrda "Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan, 2004 yilning 1 yanvaridan "Sport" telekanali ish boshlagani bo'ldi va bu telekanal bugunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib kelmoqda [4].

O'z navbatida, O'zbekistonda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish maqsadida jismoniy tarbiya va sportni keng miqyosda rivojlantirish ustuvor masalaga aylangan ommaviy axborot vositalarini ham sport sohasini yoritishga kengroq joy ajratishiga turtki bo'ldi.

O'zbekistonda sportni yoritishda internet jurnalistika yetakchi o'rinda turadi. Umuman olganda, ommaviy axborot vositalarining barcha boshqa turlari ham internet tarmog'ida o'zining rasmiy sahifasini ochish, ijtimoiy tarmoqlarda akkauntlarini yurtishga alohida urg'u berayotgani ham internet jurnalistikaning rivojlanishiga zamin bo'lmoqda.

So'nggi tadqiqotlar internetda o'z sahifasiga ega bo'lgan gazetalar o'quvchilarning soni, ularning qog'oz variantiga qiziqishini yanada ortganini ko'rsatmoqda. Xususan, "The Media Audit" kompaniyasining o'tkazgan tadqiqotlariga ko'ra, veb-muhitda elektron nusxasiga ega bo'lgan gazeta va jurnallarning o'quvchilari soni tobora oshib bormoqda [5].

Sport nashrlarining tez ommalashib borishiga global axborot tarmog'i har qanday voqea-hodisalar kabi sport musobaqalari ma'lumotlarini uzluksiz va onlayn tarzda taqdim etish imkoniyati ham ta'sir o'tkazib kelmoqda.

XX asrning so'nggi o'n yilligida elektron nashrga multimedia komponentlari, raqamli tovushlar yoxud video fragmentlar (qismlar) kiritilishi natijasida, elektron nashrlar radio, kino va TV bilan taqqoslaganda, ulardan ancha ustun jihatlarga ega bo'lgan, insonga ta'sir qiluvchi axborot vositasiga aylandi.

Oxirgi bir necha yilda veb-sayt va veb-sahifa tushunchasi tez-tez qo'llanilmoqda. Veb-sahifalar tarmoqdagi axborot resurslarining eng ommaviylashgan va talab ko'p

bo'lgan turi bo'lib, u gipermatn sahifalaridan iboratdir. Bu mazmunan va havolalar vositasida o'zaro bog'liq bo'lgan, bir joyga joylashtirilgan va yagona tarkibga ega bo'lgan multimedia materiallarining majmui – saytdir. Jurnalistika zamon bilan hamnafaslikni ta'minlashi kerakki, bu esa aynan internetning imkoniyatlariga kiradi [6].

Tahlil va natijalar. O'zbekiston sport jurnalistikasini shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin. Bular sport va futbol jurnalistikasi. Sport jurnalistikasi ijodkordan o'ziga xos tayyorgarlikni talab etadi. Bunda shu sohaga qiziqishdan tashqari, sportning deyarli barcha yo'nalishlari bo'yicha bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. Shuningdek, sport jurnalistikasining o'zida ham sport turlariga qarab, ixtisoslashuvlar yuzaga kelganini ko'rish mumkin.

O'zbekistondagi internet saytlari orasida sport jurnalistikasi bo'yicha yetakchi o'rinlarni sports.uz va olamsport.com saytlari egallaydi.

Har ikki sayt mamlakatda futboldan tashqari ommaviy hisoblangan boshqa sport turlari bo'yicha ham muntazam xabar va maqolalar, reportaj va translyatsiyalar berib borishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sport saytlari futboldan boshqa turlarni yoritishda o'sha yo'nalishlarning muxlislar orasidagi ommaviyligini inobatga olishga alohida urg'u berishiga to'g'ri keladi.

Yana bir mulohaza shundan iboratki, sports.uz va olamsport.com saytlari ham auditoriyani ushlab qolish maqsadida futbol mavzusini boshqa sport turlaridan kengroq yoritishga majbur bo'lmoqda. Bugungi kunda o'zbekistonlik futbol ishqibozlari championat.asia, stadion.uz, tribuna.uz, onside.uz, uff.uz kabi asosan futbolga ixtisoslashgan saytlarni kuzatib bormoqda [7].

Yuqorida nomi zikr etilgan sports.uz va olamsport.com kabi saytlar o'z sahifalarida futbolga katta urg'u berganidek, futbolga ixtisoslashgan saytlar ham boshqa sport turlari bo'yicha muhim voqea-hodisa va yangiliklarni yoritib borishga ham e'tibor qaratadi.

Sport va futbol jurnalistikasida boshqalardan oldin ochilgan va tajribasi ko'proq bo'lgan saytlar kontent jihatidan raqobatchilardan ustun hisoblanadi. Muhim jihat shundaki, har bir sayt o'zbek va rus tillarida, ayrimlari esa ingliz tilida ham sahifa yuritadi. Biroq, xorijiy tillardagi axborot yangilanishini hamma saytda har xil.

O'zbekistonda sport saytlarining aksariyati faoliyatini 2010 yildan keyin boshlaganini inobatga olish darkor. Sportga ixtisoslashgan internet jurnalistikasi rivojlanishining dastlabki bosqichida deyarli barcha saytlar asosan xabar, maqola va intervyu janridagi ma'lumotlarni tarqatib keldi. Bunda ham kontentning asosiy qismini rus va ayrim hollarda ingliz tilidagi manbalardan tarjimalar tashkil qildi. Sayt sahifalarini bezagan sanatlar ham asosan ochiq manbalardan olingan materiallardan iborat.

Keyinchalik saytlarning rivojlanib borishi jarayonida tahririyatlar o'zlarining original materiallari, xususan, xabar, maqola, tahlil, reportaj, intervyu, fotoreportaj kabi mediamahsulotlarni tayyorlashga e'tibor qarata boshladi. Aynan mana shu usul sport muxlisleri orasida saytlarga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi.

Bugungi kunda O'zbekiston mediamakonida ommaviy bo'lgan har bir sport sayti o'zlarini yoritayotgan yo'nalishlar bo'yicha sport tashkilotlarining matbuot xizmatlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Buning samarasida sport jurnalistlari mamlakat sportiga oid xabarlarini birinchi manbadan olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Qolaversa, muxlislar orasida ommalashib ulguragan saytlar sport tashkilotlari, jamoalar, sportchilar orasida o'z insayderlariga ega. Bu aloqalar ommaviy axborot vositalariga o'z yo'nalishi bo'yicha axborotlarni birinchi bo'lib e'lon qilish ustunligini beradi. Ma'lumki, "insayder" atamasi inglizcha (insider) so'z bo'lib, keng omma uchun yopiq bo'lgan

ma'lumotlarga ega shaxs ma'nosini bildiradi [8]. Sport olamida o'z insayderlariga ega bo'lgan ommaviy axborot vositalari doim muxlislar e'tibor markazida turadi. Bundan tashqari, ular boshqa mediatuzilmalar uchun manba bo'lib ham xizmat qiladi.

Keyingi yillarda sport saytlari faoliyatida axborot shakllari va janrlari o'zgarib borayotganini kuzatib borish mumkin. Bir necha yillar davomida matn shaklida axborot uzatish yetakchilik qilgan bo'lsa, endi vaziyat o'zgardi. Hozir yetakchi sport saytlari ijtimoiy tarmoqlar orqali video mahsulotlar – intervyular, tahlillar, reportajlar, podkastlar, hatto translyatsiyalar tayyorlashni yo'lga qo'ydi. Ahamiyatli shundaki, video mahsulotlarning katta qismini jonli efirlar tashkil qilmoqda.

Shu bois, sport saytlarining yutub platformasidagi kanallarining obunachilari boshqa tarmoqlarga qaraganda ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu borada doimiy tarzda videomahsulotlar tayyorlab boradigan ikki yetakchi sayt – sports.uz portali [9] va championat.asia saytining [10] yutubdagi kanallarini misol qilish mumkin.

Shu o'rinda, yana bir e'tiborga molik masalasini keltirib o'tish joiz. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi sport sohasida faoliyat yuritayotgan saytlarga juda keng imkoniyatlar ochib berdi. Ijtimoiy tarmoqlar – aholining katta qismi, xususan, yoshlar har kuni vaqtining katta qismini sarflayotgan vositaga aylanib bo'ldi. Bugungi kunda yoshlar mediadan juda keng va faol foydalanmoqda. Ular ijtimoiy tarmoqlarga uyali telefon orqali suratlar va videolar yuboradi, turli yangiliklarga munosabat bildiradi, doimiy ravishda virtual makonda muloqotga kirishadi. Agar kattalar ish vaqtini dam olish vaqtidan ajratishga majbur bo'lsa, yoshlar onlayn va offlayn tartibdagi faoliyat o'rtasiga chegara tortish zaruratini his etmaydi [11].

Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga “bog'lanib” qolganligi sport sohasidagi saytlarni ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirishga e'tibor qaratishiga turtki bo'ldi. Jamiyatda ilk bor “ijtimoiy tarmoq” tushunchasini 1954 yilda angliyalik sosiolog Jeyms Barns kiritgani qayd etilgan [12]. Biroq o'sha davrdagi “ijtimoiy tarmoq” tushunchasi bugungi internet zamonidagi shakli ko'rishni aks ettirmagan. O'tgan asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy tarmoq yaratish uchun bir necha urinishlar bo'lgan. Biroq, ijtimoiy tarmoqlar 1995 yilga kelib, ommalasha boshladi. Bunga amerikalik Rendi Konradsning zamonaviy tushunchadagi ilk ijtimoiy tarmoq – Classmates.com saytini yaratgani sabab bo'ldi [13].

Vaqt o'tishi bilan oddiy matnli xabar almashish usuli bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar qisqa fursatda jadal rivojlanib, bugungi kunda har qanday shakldagi va formatdagi informatsiyalarni uzatish va qabul qilib olish imkonini beradigan qudratli tizimga aylandi.

ADABIYOTLAR

1. https://studwood.net/2460840/zhurnalistika/istoriya_vozniknoveniya_sportivnoy_zhurnalistiki
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Antichnyye_Olimpiyskiye_igrы
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Kiniska>
4. <https://lex.uz/docs/246753?ONDATE=04.11.2003>
5. Qudratxo'jayev Sh. Internet: rivojlanish bosqichlari va zamonaviy ta'sirlar. <http://huquqburch.uz/uz/view/639>
6. Qosimova N. Onlayn jurnalistika. Darslik. 2019 y. 101-b.
7. https://www.uz.ru/stat/visitors/ratings?cat_id=325
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Insayder>
9. <https://www.youtube.com/c/SPORTSUZCHANNEL>
10. https://www.youtube.com/channel/UCZM-BXS5DOWUWDDwoS22_qw
11. Ya. Mamatova, S. Sulaymanova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma.–T.: «Extremum-press», 2015. – 22 b.
12. <https://sciencepop.ru/istoriya-sotsialnyh-setey-poyavleniye-i-razvitiye>
13. <https://martrending.ru/smm/kratkaya-istoriya-poyavleniya-socialnyh-setey>
14. Media i informatsionnaya gramotnost v obshchestvax znaniya / Sost. Kuz'min Ye. I., Parshakova A. V. — M.: MSBS, 2013. — S. 29
15. <https://www.visualcapitalist.com/worlds-top-50-influencers-across-social-media-platforms/>

Xulosa. O'zbekistondagi internat nashrlari, xususan, sportga sohasini yoritib borayotgan saytlar ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan keng foydalanishga harakat qilib bormoqda. Bu jarayon qanday kechayotganini O'zbekistonning sports.uz, olamsport.com, championat.asia, stadion.uz va tribuna.uz kabi yetakchi sport saytlari faoliyatida qanday kechayotganini ko'rib chiqamiz.

O'zbekistondagi sport saytlari ham asosan aholi o'rtasida ommaviy va mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotganini ko'rish mumkin. Jumladan, sports.uz portalining feysbukda 69 ming, telegrammda 55 ming, yutubda 422 ming, instagram 300 ming obunachisi bor. Tvtterda faol emas. Bu saytning ijtimoiy tarmoqlari obunachilari soni muntazam o'sib borayotgani kuzatilmoqda.

Sport turlariga ixtisoslashgan olamsport.com saytining feysbukda 6,2 ming, tvtterda 1,5 ming, telegrammda 44 ming, instagram 200 ming obunachisi bor. Bu sayt yutub kanaliga ega emas.

Qolgan sport saytlari asosan futbolga ixtisoslashgan va ular ham ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanadi. Misol uchun championat.asia saytining feysbukda 39 ming, tvtterda 558 ta, telegrammda 99 ming, yutubda 575 ming, instagram 110 mingdan ortiq obunachisi bor.

Yana bir nashr stadion.uz saytining feysbukda 14 ming, tvtterda 4 ming, telegrammda 22 ming, yutubda 284 ta, instagram 24 ming obunachisi bor. Bir paytlar yutubda 2 ming kuzatuvchiga ega bo'lgan sayt ayni paytda bu tarmoqdan foydalanmayapti.

Asosan futbolni yoritadigan tribuna.uz saytining feysbukda 36 ming, tvtterda 6 ming, telegrammda 177 ming, yutubda 33 ming, instagram 203 ming obunachi kuzatadi.

Ijtimoiy tarmoqlar sport saytlariga bir qator qulayliklarni taqdim etmoqda. Xususan, saytlar o'zlarini tayyorlayotgan mediamahsulotlarni auditoriyaga tezkor yetkazib berish imkoniga ega. Ayrim ma'lumotlarni onlayn tarzda uzatish imkoniyati ham bor. Bundan tashqari, muxlislar e'tiborida turgan musobaqalar translyatsiyasini ijtimoiy tarmoqlar orqali real vaqtda onlayn tarzda uzatish holatlari ko'paymoqda.

Bu YUNESKOning media va axborot savodxonligi to'g'risidagi nashrlarida qayd etilgan quyidagi izohning amaliy tasdig'idir: “media va axborot savodxonligini o'zlashtirgan fuqarolar tegishli texnologiyalardan foydalangan holda axborot va mediakontentni olish, baholash, yaratish va tarqatish layoqatiga ega bo'ladi” [14].

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, internetda faoliyat yurituvchi sub'yektlar zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarini eng ko'p va tezkor o'zlashtirib kelmoqda. Buni uddalayotgan axborot manbalari o'z auditoriyasini muntazam kengaytirib borayotgani kuzatilyapti.



Nigora TURSUNOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail:nigora.tursunova1128@gmail.com

O‘zMU professori, f.f.d N.Abdurahmonova taqrizi asosida

POETIK MATNLARNI SEMANTIK ANNOTATSIYALASH TAJRIBASIDAN

Annotation

Ushbu maqolada poetik matnlarni semantik annotatsiyalash jarayoni tahlil qilinadi. Semantik annotatsiyaning mohiyati, tarixiy rivojlanishi, asosiy ustuvorliklari va metodologik yondoshuvlari keng ko‘lamda yoritiladi. Ingliz, rus va turk tillaridagi semantik annotatsiya amaliyotlari taqqoslanib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari jadval va grafik vositalari yordamida ifodalanadi. Tadqiqot natijalari poetik matnlarni lingvistik jihatdan o‘rganishda semantik annotatsiyaning ahamiyatini yanada oshirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: semantik annotatsiya, poetik matn, korpus lingvistikasi, lingvistik tahlil.

FROM THE EXPERIENCE OF SEMANTIC ANNOTATION OF POETIC TEXTS

Annotation

This article provides an in-depth analysis of the process of semantic annotation of poetic texts. The essence, historical development, key priorities, and methodological approaches of semantic annotation are extensively discussed. Practices of semantic annotation in English, Russian, and Turkish languages are compared, highlighting their similarities and differences through tables and graphical representations. The findings aim to enhance the significance of semantic annotation in the profound linguistic analysis of poetic texts.

Key words: semantic annotation, poetic text, corpus linguistics, linguistic analysis.

ИЗ ОПЫТА СМЫСЛОВОЙ АННОТАЦИИ ПОЭТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

Аннотация

В данной статье проводится глубокий анализ процесса семантической аннотации поэтических текстов. Раскрываются сущность, историческое развитие, основные приоритеты и методологические подходы семантической аннотации. Сравняются практики семантической аннотации в английском, русском и турецком языках, их сходства и различия представлены с помощью таблиц и графиков. Результаты исследования направлены на повышение значимости семантической аннотации для глубокого лингвистического анализа поэтических текстов.

Ключевые слова: семантическая аннотация, поэтический текст, корпусная лингвистика, лингвистический анализ.

Kirish. Axborot texnologiyalari va sun‘iy intellekt sohasida tabiiy tilni tushunish va qayta ishlash uchun semantik annotatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Annotatsiya dastlab lingvistik maqsadlar uchun qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik avtomatlashtirilgan tizimlar, matn tarjimasi, matn tahlili kabi sohalarida keng qo‘llanila boshlandi. Semantik annotatsiya - matn ichidagi semantik birliklarni (masalan, leksik-ma‘nolar, sintaktik vazifalar, kontekstual aloqalar) belgilash va kodlash jarayoni bo‘lib, u lingvistik tahlil va tabiiy tilni qayta ishlash sohalarida keng qo‘llaniladi [1]. Poetik matnlar esa o‘zining murakkabligi va ko‘p ma‘noliligi bilan semantik annotatsiyalash uchun muhim, ammo qiyin ob‘yekt hisoblanadi. Semantik annotatsiya dastlab 1990-yillarning oxirida tabiiy tilni qayta ishlash va korpus lingvistikasi sohalarida rivojlandi [2]. Ushbu jarayon matnlarni chuqur tahlil qilish, mashina tarjimasi va axborot qidirish uchun asos yaratadi. Bugungi kunda ingliz, rus va turk tillarida yaratilgan semantik annotatsiyalangan korpuslar lingvistik tadqiqotlarda va texnologik qo‘llanmalarda keng foydalanilmoqda.

Semantik annotatsiya - bu matn yoki boshqa tilshunoslikka oid ma‘lumotlarga mazmuniy (semantik) axborot qo‘shish jarayonidir. Bu jarayonda har bir so‘z, ibora yoki gap uning ma‘nosi, vazifasi yoki kontekstdagi roli asosida belgilab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Semantik annotatsiya - bu matn yoki boshqa tilshunoslikka oid ma‘lumotlarga mazmuniy (semantik) axborot qo‘shish

jarayonidir. Bunday annotatsiya leksik, sintaktik va diskurs darajadagi birliklarni aniqlashni o‘z ichiga oladi [3]. Dastlabki ishlar FrameNet [4], PropBank [5] va WordNet [6] kabi loyihalar bilan bog‘liq. Bugungi kunda semantik annotatsiya keng ko‘lamda avtomatlashtirilgan korpuslarda ishlatiladi. Masalan, OntoNotes loyihasi (2008) semantik rollar, ontologik sinflar va referensial bog‘liqlikni belgilaydi [7]. Ingliz, nemis, fransuz, rus, turk tillarida yaratilgan milliy va xalqaro korpuslarda semantik tahlil faol amalga oshirilmoqda [8], [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Korpus annotatsiyasining universal kodlash mezonlari ISO/TC 37 standartlashtirish yo‘riqnomasida aks etib, u muntazam ravishda xalqaro qo‘mita boshchiligida to‘planib, boyitib boriladi:[10]

SemCor[11] ingliz tilidagi matnlarni semantik jihatdan annotatsiyalangan korpus turlaridan biri. Ushbu korpus WordNet asosida avval qo‘l mehnati orqali, so‘ngra avtomatik usulda so‘zlarning ma‘nolarini semantik jihatdan annotatsiya qilingan. Ushbu korpus Brown korpusidagi 352 matndan iborat. Bir necha tarkibli so‘zlar tag osti belgilar bilan kiritilgan. Yana bir semantik annotatsiyalangan korpusga GENIA korpusini keltirish mumkin. Unga iborat bioinformatikaga doir 2000 MEDLINE abstraktidagi 400000 so‘z va biologik terminlar uchun 100000 annotatsiya kiritilgan. Maqolalar XML formatda kodlangan. Ontologik ma‘lumotlar bazasiga ikki sohaga tegishli mutaxassilar tomonidan matnlar razmetka qilingan. GENIA ontologiyasi DAML+OIL formatida kodlangan[12]

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va korpus lingvistikasi rivojlanib borar ekan, adabiy matnlar, xususan, she'riy asarlarni semantik annotatsiyalash dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki poetik matnlar oddiy matnlarga nisbatan yuqori darajada semantik murakkablikka ega bo'lib, ulardagi metaforik va obrazli ifodalarni avtomatik tarzda qayta ishlash maxsus metodlarni talab etadi. Poetik matnlardagi metafora, metonimiya kabi uslubiy jihatlar semantik annotatsiyalashni qiyinlashtiradi. Poetik nutqning asosiy xususiyatlaridan biri — semantik siljishdir. Metaforik birliklar odatiy semantik toifalarga to'g'ridan-to'g'ri kiritilmaydi. Masalan, "ko'zlari yulduzdek porladi" kabi ifodada "yulduz" so'zining denotativ emas, konnotativ ma'nosi ustuvor bo'ladi. She'riy matnlar ko'p ma'nolilik (polisemantik) birliklarga boy bo'ladi. Annotator ushbu birliklarning kontekstdagi haqiqiy semantik yukini aniqlashi kerak. Bu esa statik emas, dinamik semantik tahlilni talab etadi.

Poetik matnlarni annotatsiyalash zamonaviy kompyuter lingvistikasi uchun murakkab, ammo muhim

yo'nalishdir. Klassik annotatsiya tizimlari bu kabi matnlarning obrazli, estetik va ko'p ma'noli tabiati oldida cheklovlariga ega. Xususan, PropBank yoki FrameNet singari klassik semantik annotatsiya modellari poetik konnotatsiyani to'liq qamrab olmaydi, chunki ular asosan oddiy, so'zma-so'z tilda ishlovchi korpuslarga moslashtirilgan [13].

Semantik annotatsiya jarayoni tillar o'rtasida sezilarli farq qilishi mumkin. Ingliz tilida keng rivojlangan va standartlashgan korpuslar mavjud bo'lsa, rus tilida sintaktik murakkablik va kamroq standartizatsiya annotatsiyani qiyinlashtiradi. Turk tilida esa morfologik murakkablik va kam resurslar asosiy to'siqdir. Poetik matnlarni semantik annotatsiyalashda uslubiy elementlarni hisobga olish katta ahamiyatga ega, chunki ular matnning ma'nosini to'liq ochib berishda yordam beradi. Quyida biz ingliz, rus va turk tillarida poetik matnlarni semantik annotatsiyalash jarayonini tahlil qilamiz:

(1-jadval)

Til	Annotatsiya yondashuvi	Metodo logik asoslar	Afzalliklar	Kamchiliklar	Manbalar
Ingliz	Prosodik va semantik tahlil (BiLSTM-CRF, BERT)	Metrik va sintaktik xususiyatlar asosida mashina o'rganish	Ko'p tilli modellar, ritmik tahlil, stress va caesura aniqlash	Annotatsiya cheklangan, poetik janrlar bo'yicha farqlanishi	https://arxiv.org/abs/2102.08858
Rus	Semantik va sintaktik annotatsiya (RNC, UD_Russian-Poetry)	RNC semantik taksonomiyasi, versologik tahlil, stress va ritm	Metrik va ritmik xususiyatlar, enjambment, poetik sintaksis	Qo'lda annotatsiya qilish mehnat talab qiladi	https://universaldependencies.org/treebanks/ru_poetry/index.html
Turk	Semantik rol belgilash (PropBank, UCCA), diskurs tahlili	IMST, UD-IMST, PropBank, TDB	Morfologik boylikni qamrab oladi, umumiy semantik struktura	Poetik matnlar uchun maxsus korpuslar yo'q	https://link.springer.com/article/10.1007/s10579-022-09605-4

Annotatsiya metodlari quyidagi asosiy qadamlarni o'z ichiga oladi:

- Matnni tozalash va tayyorlash
- Leksik birliklarni belgilash
- Sintaktik tuzilmani ajratish
- Semantik rollarni belgilash
- Qo'shimcha stilistik va kontekstual ma'lumotlarni

kodlash bilan bir qatorda annotatsiyalanayotgan poetik matnlar quyidagicha semantik toifalarga tayangan holda amalga oshirildi:

Subyekt (S) — she'rda gapiruvchi shaxs yoki lirik qahramon;

Obyekt (O) — voqea, hodisa, narsa yoki shaxs;

Emotsional qiymat (E) — ifodalangan his-tuyg'ular (quvonch, g'am, faxr, muhabbat);

Tematik soha (T) — she'r mazmunining mavzuli yo'nalishi (Vatan, Ona, Tabiat, Hayot, Yolg'izlik);

Trop va stilistik vositalar (TS) — metafora, epitet, allegoriya kabi poetik elementlar.

Bu tamoyillar yordamida annotatorlar har bir poetik baytni semantik nuqtai nazardan belgilab chiqishdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

(2-jadval)

Til	Annotatsiya aniqligi (%)	Vaqt samaradorligi (sek./100 token)	Annotatsiya chuqurligi (subyektiv baho)
Ingliz	92.4	1.8	Yuqori (5/5)
Rus	87.1	2.3	O'rta (4/5)
Turk	84.5	2.0	O'rta (4/5)

Quyidagi grafikda ingliz, rus va turk tillarida semantik annotatsiya jarayonlarining asosiy bosqichlari va ularga ajratilgan vaqt va resurslar taqqoslanadi.

(3-jadval)

(Til)	Annotatsiya bosqichi	Taxminiy vaqt(1000 token uchun)	Annotatorlar soni (o'rtacha)
Ingliz	Segmentatsiya	5 daqiqa	1
Ingliz	Sintaktik parsing	15 daqiqa	1
Ingliz	Semantik teglash	30 daqiqa	2
Ingliz	Simvolizatsiya	20 daqiqa	2
Ingliz	Kompozitsion tahlil (DRT)	40 daqiqa	2-3
Rus	Tokenizatsiya	5 daqiqa	1
Rus	Lemmatizatsiya	10 daqiqa	1
Rus	Semantik teglash	25 daqiqa	2
Rus	Koreferensiya aniqlash	35 daqiqa	2-3
Turk	Segmentatsiya	5 daqiqa	1
Turk	Lemmatizatsiya	12 daqiqa	1
Turk	Semantik rol belgilash (SRL)	30 daqiqa	2
Turk	Entitet teglash (NER)	20 daqiqa	1-2

Shuningdek, turli tillarda annotatsiya jarayonida yuzaga keladigan asosiy qiyinchiliklar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

(4-jadval)

Qiyinchilik turi	Ingliz tili	Rus tili	Turk tili
Stilistik murakkablik	O'rta	Yuqori	Yuqori
Sintaktik murakkablik	O'rta	Juda yuqori	O'rta
Morfologik murakkablik	Kam	O'rta	Juda yuqori
Resurslarning mavjudligi	Yuqori	O'rta	Past

Natijalar shuni ko'rsatadiki, semantik annotatsiya jarayoni tillar o'rtasida sezilarli farq qilishi mumkin. Ingliz tilida semantik annotatsiya bo'yicha algoritmlar va korpuslar ancha rivojlangan. Ayniqsa, poetik matnlar bilan ishlovchi neyron tarmoqlar matnga emotsional va poetik tahlil nuqtai nazaridan chuqur yondasha oladi.

Rus va turk tillarida esa semantik annotatsiyaning poetik komponentga yo'naltirilgan ishlanmalari hali ham cheklangan. Rus tilidagi annotatsiyalar ko'proq konservativ tilshunoslik asosida shakllangan bo'lib, poetik semantika aksariyat hollarda qo'lda belgilangan (manual annotation) uslubda amalga oshirilgan.

Poetik matnlarni semantik annotatsiyalashda uslubiy elementlarni hisobga olish katta ahamiyatga ega, chunki ular matnning ma'nosini to'liq ochib berishda yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Mazkur maqolada ingliz, rus va turk tillarida poetik matnlar uchun semantik annotatsiyaning

texnologik, lingvistik va stilistik asoslarini taqqoslashga harakat qilindi va natijalar quyidagicha xulosa qilish imkonini beradi:

Ingliz tilida chuqur o'rganish asosidagi modellarning poetik semantika uchun yaroqliligi yuqori;

Rus va turk tillarida semantik annotatsiyaning poetik yo'nalishi hali keng rivojlanmagan, ularni kengaytirish uchun ko'proq avtomatlashtirish va stilistik tahlil komponentlarini integratsiyalash zarur.

Fikrimizcha, o'zbek tilida poetik matnlarni semantik annotatsiya qilishda ingliz tilidagi ilg'or yondashuvlarni, ayniqsa BERT, spaCy, Universal Dependencies, WordNet asosidagi metodlarni tadbiiq etish hamda annotatsiya jarayonida poetik matnlar xususiyatlarini (vazn, qofiya, konnotatsiya) alohida hisobga oluvchi ixtisoslashtirilgan model yaratish lozim, deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Smith J. Semantic annotation in natural language processing. - New York: Academic Press, 2010. - 350 p.
2. Miller G. WordNet: A lexical database for English. // Communications of the ACM. - 1995. - Vol. 38, no. 11. - P. 39-41.
3. Bender E. Annotating semantic roles in corpora. // Computational Linguistics. - 2003. - Vol. 29, no. 1. - P. 1-12.
4. Fillmore C.J., Baker C.F. Frame semantics for text understanding. // Proceedings of the ACL. - 2001. - P. 113-120.
5. Ivanov V. RuSemCor: Russian semantic corpus. - Moscow: Nauka, 2012. - 210 p.
6. Öztürk B. Turkish National Corpus annotation techniques. // Turkish Journal of Linguistics. — 2018. — Vol. 12, no. 2. - P. 100-115.
7. Hovy E., Marcus M., Palmer M., Ramshaw L., Weischedel R. OntoNotes: The 90% Solution // Proceedings of NAACL. - 2006.
8. Парамонова М. Ю. Семантическая аннотация и её реализация в корпусной лингвистике // Вопросы компьютерной лингвистики. - 2021. - №2(30). - С. 54-62.
9. Küçük D., Arslan Y. A Survey of Turkish Semantic Annotation Studies // Natural Language Engineering. - 2019. - Vol. 25(5). - P. 593-626.
10. Захаров В.П., Азарова И.В. и др. Моделирование в корпусной лингвистике: Специализированные корпуса русского языка, издательство Санкт-Петербургского университета, 2019. - С. 34
11. <https://www.sketchengine.eu/semcor-annotated-corpus/>
12. Abduraxmonova N. Korpus lingvistikasi(darslik). - Toshkent,2024. - B.320.
13. Palmer M. et al. The Proposition Bank: An Annotated Corpus of Semantic Roles // Computational Linguistics. - 2005. - Vol. 31(1). - P. 71-106.
14. Бондаренко О. В. Поэтический корпус как лингвистический ресурс // Вестник СПбГУ. Серия 9. - 2020. - №4. - С. 25-38.
15. Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti(monografiya). Toshkent:Muharrir, 2018. 175 b.
16. Abduraxmonova N. O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari(monografiya). Toshkent:Muharrir, 2021.165 b.



Rustam UMURZAKOV,
FarDU adabiyotshunoslik kafedrası dotsenti, (PhD)
E-mail: rustamumrzoqov@mail.com

F.f.d., professor U.Rasulova taqrizi asosida

THE IMAGE OF CHILD AS A THEORETICAL PROBLEM

Annotation

This article provides a theoretical analysis of the artistic image and its nature. The manifestation of the image as an individualized generalization, in which things and events are a combination of particular features with the general aspects of the event, is explored. As tool that ensure the vitality of the artistic image, such elements of the image as the author's description, portraiture, artistic psychologism and characteristic speech are studied.

Key words: artistic image, child image, typical image, symbol, prototype, types of image, psychogenetic theory soicogenetic theory, youth psychology.

ОБРАЗ РЕБѢНКА КАК ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В статье анализируется образ и его природа в художественной литературе в теоретическом отношении. Исследуется индивидуализация как обобщенное выражение образа, анализируются как обобщенные так и своеобразие стороны явления. Изучаются такие элементы изображения как характеристика автора, портрет, художественный psychologizm, реч персонажа, которые являются средствами обеспечения живости художественного образа. В художественной литературе описание образа ребёнка и детства трактуется как один из вечных и важных художественных образов, он ассотируется с символом духовной чистоты, благоденствия, искренности, а также считается обшей концепцией художественного произведения.

Ключевые слова: художественный образ, образ ребёнка, символ, типичный образ, прототип, виды образа, психогенетическая теория, социогенетическая теория, возрастная психология.

BOLA OBRAZI NAZARIY MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy adabiyotda obraz va uning tabiati nazariy jihatdan tahlil etilgan. Obrazning individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo'lishi, unda narsa-hodisaning umumiy jihatlari bilan birga o'ziga xos xususiyatlarni mujassamlashtirishi tadqiq etilgan. Muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi tasvir unsurlari badiiy obrazning jonliligini ta'minlovchi vositalar sifatida o'rganilgan. Bola obrazi va bolalik tasviri badiiy adabiyotning doimiy va eng muhim obrazlaridan biri sifatida talqin qilinib, u badiiy obraz sifatida ruhiy poklik, ezgulik, samimiylk ramzi bo'lib assotsiatsiyalanishi hamda badiiy asarning umumiy konsepsiyasi uchun asos hisoblanishi xulosalangan.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, bola obrazi, timsol, tipik obraz, prototip, obraz turlari, psixogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, yosh psixologiyasi.

Kirish. Obraz haqidagi dastlabki fikrlar Arastuning "Poetika" [1] asarida uchraydi. Unda "obraz" o'rinda "mimesis" iborasi ishlatilgan. "Mimesis" tabiatga taqlid, degan ma'noni anglatadi. Antik dunyo adabiyotida ayrim shaxslardagi umumiy tomonlar haqida ongli tasavvur shakllangani ko'zga tashlanadi. Bu tasavvurni nazariy jihatdan asoslagan yunon faylasufi Arastu yuqorida zikr etilgan asarida tarixga nisbatan poeziya umumiyroq tomonlarga bog'liqligini, poeziya umumiyroq hodisalar haqida, tarix esa, ayrim voqealar to'g'risida bayon qilishini yozadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy obraz masalasida o'zbek nazariyotchi olimlari qarashlari o'rtasida umumiylik ko'zga tashlanadi. Ular orasida B.Sarimsoqov va D.Quronovlarning masalaga yondashuv usullarida o'ziga xoslikni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, B.Sarimsoqov "obraz" atamasining etimologiyasi haqidagi T.Rasulov va H.Karimov fikrlariga o'zining ba'zi e'tirozlarini bildirib, "obraz" so'zining "paydo qilmoq, yaratmoq" ma'nolaridan kelib chiqqanini isbotlaydi.

Adabiyotshunos D.Quronovning fikricha, ko'p ma'noli "obraz" so'ziga "biror nimaning ong'dagi aksi" ma'nosi asos bo'lib xizmat qiladi [2]. Obrazni moddiy olamning inson ong'dagi bevosita aksi sifatida tushunish bu

obrazni gnoseologik tushunilishini anglatadi. Umuman, o'zbek adabiyotshunosligidagi adabiyot nazariyasiga oid tadqiqotlar ichida D.Quronov qarashlari ilmiyligi, muammoga yangicha rakurslarda obyektiv yondashganligi, adabiyotshunoslikka oid jahonning yangi nazariyalari asosida "to'yinganligi" bilan ajralib turadi. Jumladan, olimning badiiy obraz masalasidagi qarashlari ham bir nuqtada qotib qolmagan, nazariy fikrlar u yaratgan har bir darslikda rivojlantirib borilganini kuzatishimiz mumkin.

Badiiy obrazning ruhiy va aqliy asoslari ham muhim ahamiyatga ega. Uning ratsional va emotsional birlik sifatida tushunilishiga sabab, u o'zida aql va hisni birlashtiradi. Ijodkordagi ruhiy va aqliy jarayonlar badiiy kechinmani yuzaga keltiradi. Nazariyotchi B.Sarimsoqovning fikricha, obrazning doyasi hissiyot bo'lsa, murabbiyi aql va mantiqdir. Bularning obraz tarkibida uyg'un bo'lishi obrazlilikning bosh mezonini sanaladi. "Agar obraz tarkibida faqat hissiy meyor ustun bo'lsa, u holda uning hayotiy mantiq bilan uyg'unligiga putur yetadi... Agar obraz tarkibida aql (ratsio) ustunlik qilsa, obrazning ta'sirchanligiga, keng ma'noda badiyiligi rahna yetadi. Mana shu bois kechinma ijodkor ruhini chulg'ab, fikri-zikrini band etgan jarayon sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy kechinmaning ham hissiy, ham aqliy nisbatini qay

darajada uyg'un qamrab olinishiga qarab badiiy obrazning barkamollik darajasi belgilanadi".[3] Shu bilan birga ijodkorning o'zi yaratgan xarakter mohiyatiga kirgani sari qahramonlariga nisbatan hissiy munosabatida o'zgarishlar yuzaga kelishi isbotlangan. Kuzatishimizcha, asar so'ngida ko'proq hissiy munosabat birlamchilik qiladi. Xususan, bola obrazi yetakchi bo'lgan qissalarda bu jihat yaqqol seziladi. Jumladan, "Shum bola"da bosh qahramonning G'afur G'ulom izmidan "chiqib ketishi", Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasi so'ngida Bolaning halok qilinishi, Nurali Qobulning Norbo'tani ("Tubsiz osmon") nobud qilishi voqeligida bolaga achinish, bolalik davriga nisbatan hissiy qarash mavjud. YA'ni muallif obraz ruhiyatiga kirgani sari unda hissiy munosabat o'zgarib boradi. Yozuvchining bola obraziga ratsional munosabati uning atrofidagi kishilar va voqealarda, muallifning voqelikka bolalarcha beg'ubor nigohida ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda yana bir mulohaza tug'iladi, adabiy qahramonning asar so'ngida muallifga bo'ysunmay qo'yishi, ya'ni xarakter mantig'i, badiiy haqiqatga mos harakat qilishi bu – insonning bora-bora Yaratganga itoatsizligi, ilohlar istagiga qarshi borishiga o'xshaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy adabiyotda inson obrazini yaratish jarayoni konflikt, syujet, kompozitsiya, ijodiy metod, tipiklashtirish, individuallashtirish, tarixiylik, badiiy to'qima va uslub kabi omillar bilan bog'liq. Adabiyotshunoslikda inson obrazini bir qator turlarga bo'lib tasniflash tajribasi mavjud. Bunda qaysi jihatning asos qilib olinishi muhim sanaladi. Tasniflarga ko'ra badiiy obrazlar estetik ideal bilan munosabati, ijodiy metodi, yaratilish usuli, umumlashtirish darajasi, murakkablik darajasi, estetik belgisiga ko'ra farqlab o'rganiladi.

Umumlashtirish darajasiga ko'ra badiiy obrazlar ikki jihatdan tasniflanadi. Shulardan asosiysi inson obraziga tatbiqan bo'lib, individual obraz, xarakter va tipga ajratiladi. Individual obraz o'ziga xos fe'l-atvori, gap-so'zlari, betakror xususiyatlari bilan farqlansa, xarakterda muayyan davr va muhit kishilariga xos individual xususiyatlarni o'zida mujassam etgan obraz tushuniladi. Xarakter orqali jamiyatning joriy holati tadqiq etiladi. Xarakter yaratish yozuvchidan katta mahorat talab etadi va bu bir qancha omillarga bog'liq. Jon Golsuorsining fikricha, "bu dunyoda odamlarga ko'ngilxushlik baxsh etishdan boshqa ham yozuvchining zimmasida biron vazifasi bo'lsa, bu vazifa shundan iboratki, u xarakter yaratib, odamlarni o'ylashga va his qilishga majbur qilishdir"[4]. Shuningdek, xarakter yaratishda birinchi omil sifatida Jon Golsuorsi o'tkir yumorni ko'rsatib, uni "hayot nafasi" deb ataydi. Ana shunday yumor tuyg'usi kuchli rivojlangan bola obrazlari badiiy adabiyotda ko'p uchraydi. O'zbek adabiyotidagi Shum bola ("Shum bola"), Hoshimjon ("Sariq devni minib"), Qo'shoqvoy ("Ikki karra ikki – besh") kabi obrazlarda biz o'tkir kulgining bolalarga xos talqinlarini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, jahon adabiyotshunosligida syujet unutiladi, xarakter qoladi, degan qarash ham mavjud.

Tipik obraz esa, muayyan ijtimoiy-tarixiy muhitga xos umumiy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan umumlashma obraz sifatida o'rganiladi. XX asr o'zbek qissalarida bola obrazini jabrdiyda, tashqi muhitdan aziyat chekuvchi sifatida tasvirlash tipik xususiyat hisoblanadi. Bu davr qissalarida beg'ubor damlarning erta boy berilishi bolalik motivining xarakterli jihati sanaladi.

Tahlil va natijalar. Badiiy adabiyotning doimiy va eng muhim obrazlaridan biri sifatida bola obrazi va bolalik tasviri alohida ahamiyatga ega. Bola obrazi haqida gapirilganda, uning badiiy asardagi yaxlitligi va markaziy o'rinni egallashi nazarda tutiladi. U umumlashma obraz sifatida o'z ichiga bola obrazlarining tipologiyasi, bola dunyosi, bolani o'rab turgan muhit va bola obrazining ruhiyatini qamrab oladi. Obrazlarda bolalar xarakterining turli ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Bolaning dunyosi uning

shaxsiy maydoni bilan belgilanadi. Bolaning muhiti uning tegrasidagi voqelik (oila, muloqot va boshqalar) sifatida talqin etilib, ana shu muhit ta'sirida uning tabiiy, ijtimoiy va individual rivojlanishidagi jihatlar namoyon bo'ladi.

Bolalik eng qadimgi davrlardan boshlab hozirgi kunga qadar badiiy adabiyotda turli shakllarda arxetip sifatida yashab keladi. Bunda badiiy obrazga ilk asos, model bo'lishlik xususiyati muhim sanaladi. Shunga ko'ra bola obrazi badiiy adabiyotda motiv obraz sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, voqeband asarlarda takrorlanuvchi obraz ko'rinishida tasvirlanadi, ya'ni yosh ko'rsatkichi, badiiy maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda muayyan turg'unlikka ega bo'ladi. Shu bilan birga bola obrazi motiv va uning turli kombinatsiyalarida o'ziga xos syujet sifatida kelishi, davr-davrga ko'chishda o'ziga xoslikka ega bo'lishi, muayyan davrda ijodkor ongida paydo bo'lganda o'zgarib borishi ham kuzatiladi. Shuningdek, bola obraziga inson obrazining ma'lum bir davri sifatida, ya'ni shakliy-mazmuniy kategoriya (xronotop shakli) sifatida yondashiladi hamda u badiiy idrok etilgan zamon va makon uyg'unligini ifodalaydi.

Yosh psixologiyasi fan sifatida XIX asr boshlarida shakllangan bo'lishiga qaramay, uning qaror topish va rivojlanish yo'li uzoq o'tmishga borib taqaladi. Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinolarning ta'lim-tarbiya, pedagogika, tabobatga oid risolalarida bola shaxsiyati va uning ruhiyatiga oid qimmatli fikrlar bildirilgan. Inson umrini to'rt faslga qiyoslab, uning yosh davrlarini aniq chegaralash Alisher Navoiyning "Xazoyin-ul-maoniy" kulliyotida amalga oshirilgan. Birinchi devon "G'aroyib-us-sig'ar"da bolalik yoshi 7-8-20 yosh, ikkinchi devon "Navodir-ush-shabob"da yigitlik yoshi 20-35 yosh qilib belgilanadi. Sharqda bola rivojlanishiga asosan axloqiy-tarbiyaviy jihatdan yondashilgani e'tiborga molik.

Rus pedagogik psixologiyasining shakllanishi esa, XIX asrning 2-yarmiga borib taqaladi. Bu davrda madaniyat, gumanizm shaxs va bolaning ichki dunyosiga qiziqish g'oyasiga asoslangan edi. Buning isbotini Lev Tolstoyning "Bolalik", "O'smirlik", "O'spirinlik"[5] asarlarida ko'rishimiz mumkin. XX asrga kelib bu sohada jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu davrda bola shaxsiga e'tibor kuchaydi. Rus ruhshunosi L.S.Vigotskiy (1896-1934) yosh davrlari psixologiyasining asosiy tushuncha va g'oyalarni yaratdi. Yevropada Z.Freyd psixoanaliz nazariyasini ishlab chiqdi. Uning izdoshlari A.Freyd va M.Klyayn [6] esa, bolalik psixoanalizi asoslarini yaratdilar.

Psixologiyada yosh tushunchasi individning ma'lum aniq vaqtda belgilangan psixik taraqqiyotining bosqichi hisoblanib, ushbu bosqichda uning shaxs sifatidagi fiziologik va psixologik o'zgarishlari kuzatiladi. Bolalikni davrlarga ajratishda asos qilib, shartli mezon sifatida rivojlanishning biror-bir belgisi olinadi. Yosh davrlarini tabaqalash bo'yicha bir qator mustaqil nazariyalar mavjud. Ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik kabi nazariyalarni kiritish mumkin. Psixolog olimlar tomonidan yosh davrlari turlicha tabaqalashtiriladi. Bunda filogenez va ontogenez hodisalarining xususiyatlarini asos qilib olinadi. Filogenez butun insoniyatning tarixiy rivojlanishi bo'lsa, ontogenez shaxs psixologiyasining individual rivojlanishi, tirik mavjudotning paydo bo'lgan davridan to oxirigacha bo'lgan davridagi o'zgarishlar majmuidir. Psixolog S.Xoll filogenezni psixologik o'sishning bosh qonuni deb hisoblaydi, unga ko'ra ontogenez filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning fikricha, go'daklik hayvonlarga xos rivojlanish bosqichidan o'ziga narsa emas. Bolalik esa asosiy mashg'uloti ovchilik va baliqchilik bo'lgan qadimgi kishilarning davriga mos keladi. 8-12 yoshlardagi o'sish davri yovvoyilikning oxiri va taraqqiyot boshlanishidagi kamolotga tengdir. O'spirinlik esa, jinsiy yetilishdan (12-13 yosh) boshlanib yetuklik davrigacha (22-25 yoshgacha) davom etadi

va bu romantizmga barobardir. S.Xoll talqinicha, bu davrlar ichki va tashqi nizolardan iborat bo'lib, odamda "individuallik tuyg'usi" vujudga keladi. O'z navbatida, insondagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi, degan qarashlar bunday tabaqalanishni rad etadi.

L.Vigotskiyning talqinicha, yosh davrlari 6 qismga ajraladi: chaqaloqlik davri inqirozi, go'daklik – 2 oylikdan 1 yoshgacha, ilk bolalik – 1 yoshdan 3 yoshgacha, maktabgacha davr – 3 yoshdan 7 yoshgacha, maktab yoshi davri – 8 yoshdan 12 yoshgacha, pubertat (jinsiy yetilish) davri – 14 yoshdan 18 yoshgacha [7]. Bunda olim muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanadi, uning fikricha, ma'lum yoshdagi inqiroz yangi davrga yo'l ochadi.

Psixologiya fanidan farqli ravishda badiiy adabiyot bolaning umumiy psixologik qonuniyatlarini emas, uning ma'lum davr va vaziyat (holat)dagi ruhiyatini va yetakchi faoliyatini individuallashtirish umumlashma tarzida tasvirlaydi. Turli davrlarda yaratilgan bola obrazlarini qiyoslash natijasida ulardagi badiiy psixologizm ruhshunoslik ilmidagi faol yosh davrlari nazariyalariga asoslanganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, XX asrda yaratilgan bola obrazlarida, asosan, sotsiogenetik va psixogenetik nazariyalar ustuvorlik qiladi. Sotsiogenetik nazariya bo'yicha bolaning ijtimoiylashish holati uning shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotda xarakter muhit bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi, ya'ni muhit qanday bo'lsa, xarakter shunday bo'ladi, degan qarash ustuvorlik qiladi. Har bir insonga muhit ta'sirini inkor etib bo'lmaydi, biroq har bir odamning hech qanday muhit ta'sirisiz boshqariladigan o'z tabiati borligini ham e'tibordan soqit etmaymiz. Aynan bola obrazlari muhit ta'sirida emas, ko'proq o'z tabiiy xarakterlari bilan yashaydilar. Bu hol ko'pincha, muhitga mos kelmaydi, natijada bolalar uning qurboniga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

Psixogenetik nazariyaga asoslangan obrazlarda ruhiy jarayonlarning rivojlanishi birinchi planga olib chiqiladi. Bunda bola obrazining irratsional xususiyatlari psixodinamik nuqtai-nazardan tahlil qilinadi.

Xulosa va takliflar. Xullas, so'z san'ati o'zgarib, muttasil yangilanib turar ekan, uning asosiy vositasi hisoblangan badiiy obraz haqida ham aniq ta'rif va qat'iy xulosaga kelish mumkin emas. Yondashuv usuliga bog'liq holda badiiy obraz xususiyati va tasniflariga oid ziddiyatli jihatlarda doim ko'zga tashlanaveradi, ya'ni badiiy obraz individuallashtirish umumlashma tarzida yuzaga kelar ekan, u haqda umumiy hukm chiqarish san'atni qoliplashtirishga olib keladi. Shu ma'noda badiiy adabiyotdagi bola obrazlari o'z tabiatidan kelib chiqqan holda tasvirlansa ham, o'zining bir qancha individual xususiyatlariga ega bo'ladi. Badiiy tasvir obyekti sifatida bola obrazi adabiyotni ancha kech qiziqтира boshlagan. Falsafada bolalarga e'tiborning kuchayishi, kattalardagi aql-idrokka mutloq qadriyat sifatida qarashga shubhaning paydo bo'lishi bola obrazi yaratilishiga rag'batlantiruvchi omil bo'ldi. XX asrga kelib, bolalik inson hayotining mustaqil davri sifatida qabul qilina boshladi. Psixologiyaning olamni idrok etishda muhim o'rin egallagan bolalik kategoriyalari alohida personajlar xarakterini yaratishda asos bo'lib xizmat qildi. Unga ko'ra bola obrazining chegarasi yangi shaxs shakllangan davr bo'lib, bu davr davomida shaxs sifatida shakllanib, uning dunyodagi o'z o'rni belgilanadi. Inson hayotidagi bu bosqich rivojlanishning o'ziga xos alohida qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Yosh davrlari psixologiyasiga asoslangan holda badiiy adabiyotda bolalarning yoshi asosan 4-5 yoshdan 21-22 yoshlar oralig'ida qilib belgilanganini kuzatish mumkin. Jumladan, biz yuqorida sanab o'tgan va tadqiqot obyekti sifatida belgilangan qissalardagi qahramonlarning aynan shu yosh oralig'idagi hayotlari tasvirlanadi. Yosh psixologiyasidan farqli ravishda bola obrazlari bolalik davrini tez fursatda yashab o'tadilar. Yosh davrlari tasniflaridan qat'iy nazar badiiy adabiyotdagi obrazlar umumiy holatda "bola" nomi bilan ataladi. Badiiy obraz sifatida bolalik ruhiy poklik, ezigulik, samimiylik ramzi bo'lib assotsiatsiyalanadi hamda badiiy asarning umumiy konsepsiyasi uchun asos hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – T.:Yangi asr avlodi, 2011. – B. 20.
2. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б. 8.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: "Navoiy universiteti" nashriyoti, 2018. – B. 89.
4. Golsuorsi J. Adabiyotda xarakter yaratish // Jahon adiblari adabiyot haqida. – T.:Ma'naviyat, 2010. –B. 95.
5. Толстой Л.Н. Детство. Отрочество. Юност. Трилогия. – М., 2016. 640 С.
6. Развитие в психоанализе / М.Кляйн, С.Айзек, Дж. Райвери, П.Хайманн. – М., 2001.
7. Виготский Л.С. Педагогическая психология. – М., 1991. С. 117.



UDK: 811.512.133'372:091.1

Iqbol O'RAZOVA,

Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU doktoranti, PhD

E-mail: orazovaiqbola@gmail.com

O'zMU dotsenti, f.f.d. M.Abdurahmonova taqrizi asosida

ANALYSIS OF PHRASES WITH THE “EYE” CORE

Annotation

The article analyzes phraseological units with the core “eye” in the epics “Khamsa”, and the problem is studied in the diachronic aspect. The semantic structure of the lexeme “eye” as a phrase-semantic core is determined, and the emergence of phrasemes as a result of the appearance of various semes in the sememe “body organ” during the formation of phrasemes is explained.

Key words: phraseme, sememe, sema, phraseosemantic core, phraseological meaning, semantic structure, polysemantic lexeme, homonymous phraseme, “Khamsa”.

АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С ЯДРОМ “ГЛАЗ”

Аннотация

В статье анализируются фразеологизмы с ядром “глаз” в эпосах “Хамса”, при этом проблема изучается в диахроническом аспекте. Определяется семантическая структура лексемы “глаз” как фразеосемантического ядра, а также объясняется возникновение фразем в результате появления различных сем в семеме “орган тела” при образовании фразем.

Ключевые слова: фразема, семема, сема, фразеосемантическое ядро, фразеологическое значение, семантическая структура, полисемантическая лексема, омонимичная фразема, “Хамса”.

“KO‘Z” YADROLI FRAZEMALAR TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada “Xamsa” dostonlaridagi “köz” yadroli frazemalar tahlilga tortilgan, qo‘yilgan muammo diaxron aspektida o‘rganilgan. “Köz” leksemasining frazeosemantik yadro sifatidagi semantik strukturasi aniqlangan, frazemalar shakllanishida “tana a‘zosi” sememasidagi turli semalarning asosiy planga chiqishi natijasida frazemalar yuzaga kelishi tushuntirilgan.

Kalit so‘zlari: frazema, semema, sema, frazeosemantik yadro, frazeologik ma‘no, semantik struktura, polisemantik leksema, omonim frazema, “Xamsa”.

Kirish. Navoiy ijodining gultoji sanalgan “Xamsa” asarida somatizmlar bilan shakllangan frazemalar juda faoldir. Jumladan, “Xamsa” dostonlarida “köz” yadroli 128 ta, “bosh” yadroli 111 ta, “ilik” yadroli 51 ta, “yuz” yadroli 42 ta, “til” yadroli 34 ta, “ayoq” yadroli 31 ta, “qo‘l” yadroli 31 ta, “qon” yadroli 25 ta, “dimog” yadroli 20 ta, “nazar” yadroli 18 ta, “qadam” yadroli 16 ta, “bo‘yun” yadroli 15 ta, “gom” yadroli 12 ta, “köz yosh / yosh” yadroli 12 ta, “ashk” yadroli 11 ta, “bag‘ir” yadroli 11 ta, “tan” yadroli 10 ta, “quloq” yadroli 10 ta, “og‘iz” yadroli 9 ta, “qad” yadroli 9 ta, dast yadroli 7 ta, “el” yadroli 6 ta, “tish” yadroli 6 ta, “jism” yadroli 6 ta, “mag‘z” yadroli 6 ta, “jigar” yadroli 5 ta, “egin” yadroli 5 ta, “jabin” yadroli 4 ta, “nafas” yadroli 4 ta, “zabon/zabona” yadroli 4 ta, “ovuch” yadroli 4 ta, “bel” yadroli 3 ta, “barmoq” yadroli 3 ta, “panja” yadroli 3 ta, “yurak” yadroli 3 ta, “qosh” yadroli 3 ta somatik frazema mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Xamsa” dagi eng faol frazeosemantik yadro bo‘lgan “köz” leksemasi “Qadimgi turkiy lug‘at” da tana a‘zosi (“глаз” – ko‘z) sifatida izohlangan va “köz” yadroli 21 ta frazemaga keltirilgan [1]. Sevortyan esa leksemaning bosh ma‘nosi sifatida “tana a‘zo” semasini ko‘rsatib, nazar, nigoh, butunning qismi, bo‘lma, chuqur, tomon, oxir, yaxshi bilish, o‘lchov ma‘nolarini qayd etgan [2] va leksema bilan bog‘liq asosdosh so‘zlarni keltirish bilan cheklangan. Ya‘ni manbada “köz” yadroli frazemalar uchramaydi. Budagov leksemaning “глазь, зерно, дырочко” (ta‘na a‘zosi, don) ma‘nolarini qayd etgan va leksema bilan hosil qilingan 21 ta “köz” yadroli frazemani izohlagan [3].


Sh.Rahmatullayevga ko‘ra, ko‘z leksemasi umumturkiy qatlamga mansub bo‘lib, ko‘rish a‘zosini nomlagan [4]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da polisemantik so‘z sifatida ko‘z leksemasi: 1. tirik mavjudodning ko‘rish a‘zosi. 2. nazar, nigoh, qarash. 3. ko‘rish qobiliyati. 4. ko‘chma. ba‘zi narsalarning biror belgisi bilan ajralib, ko‘zga o‘xshab ketadigan qismi, bo‘lagi sifatida izohlanib, leksema yordamida shakllangan 73 ta frazema [5], “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da “ko‘z” yadroli 162 ta frazema izohlangan [6]. A.Isayevning ta‘kidlashicha, “köz” komponentli frazemalar qadimgi yodnomalar tilida 27 tadir. Olimning fikriga ko‘ra, “köz” yadroli frazemalar mahsuldorligi jihatidan rus tilida ikkinchi, ingliz va nemis tillarida uchinchi o‘rinni egallaydi. XIV asrning II yarmiga oid manbalarda “köz” yadroli 30 ta frazema aniqlangan bo‘lib, “Muhabbatnoma”da 4 ta, “Suhayl va Guldursun”da 2 ta, “Gulistoni bit turkiy”da 19 ta, Sayfi Saroyining boshqa shoirlar bilan olib borgan mushoirasida 5ta frazema qo‘llangan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qo‘yilgan muammo kuzatuv, tavsiflash, tasniflash metodlari orqali o‘rganiladi, maydon metodi, komponent tahlil, semantik tahlil usullari orqali frazemalar orasidagi semantik-struktur munosabat izohlanadi.


Tahlil va natijalar. Navoiy asarlarida köz leksemasi “1. ko‘z; 2. ko‘rish qobiliyati, ko‘z qarash; 3. nuqtayi nazar, fikr; dunyoqarash” ma‘nolarida qo‘llanib, E.Fozilov nashrida 25 ta [8], P.Shamsiyev nashrida 15 ta frazema izohlangan [9]. Birgina “Xamsa” dostonlarida 128 ta “köz” yadroli frazemalar

mavjudligi inobatga olinsa, Navoiy asarlari bo'yicha tuzilgan mavjud lug'atlar ijodkor asarlaridagi barcha frazemalarni qamrab olmagan. Köz leksemasi Navoiy "Xamsa" sida

qo'llangan eng faol somatik frazeosemantik yadro bo'lib, dostonlarda "köz" yadroli birliklarning qo'llanish chastotasi turlichadir:



"Xamsa" dagi frazemalarning semantik munosabatini kuzatish asosida aytish mumkinki, XV asrda frazeosemantik yadro bo'lgan köz leksemasining quyidagi sememalari mavjud:



XV asrda köz frazeosemantik yadrosining semantik strukturasi.

Polisemantik leksemaning ma'nolari bosh ma'nodan K 1 – tana a'zosi sememasidan o'sib chiqqan ko'chma ma'nolardir. Jumladan, K 1 dagi "ko'rish a'zosi" semasidan metonimiya orqali K 2 – "nigoh, nazar" sememasi shakllangan. K 2 ma'no K 5 – "fikr, dunyoqarash" sememasi uchun asos bo'lmoqda va yangi ma'no kognitiv metafora [Qarang: 10] orqali hosil qilingan. K 3 – "ko'rish qobiliyati" sememasi K 1 sememadagi "ko'rish a'zosi" semasidan vazifadoshlik asosida yuzaga kelgan. K 4 esa K 1 sememaning shakliy semasi faollashishidan yuzaga kelgan metaforik ko'chimga asoslangan yangi sememadir.

Navoiy "Xamsa"sida ushbu sememalarning turli leksemalar bilan yaxlitlanishidan rang-barang, mazmunan boy va uslubiy jihatdan bo'yqador frazemalar shakllangan. Bunda leksemaning semantik jihatdan tovlanishi, leksemaning boy semantik tarkibi turkki bo'lgan.

1. Köt leksemasining bosh ma'nosi – "tirik mavjudodning tana a'zosi" sememasi bo'lib, "dumaloq", "qabariq", "shaffof", "chiroyli" "nozik", "ko'rish a'zosi" kabi asosiy semalari tilshunoslar tomonidan qayd etilgan. Tahlilga tortilgan frazemalarning katta qismi bosh sememadan yuzaga kelgan bo'lib, bunda semema tarkibidagi turli semalarning asosiy planga chiqishi orqali semantik imkoniyatlarini ochib bergan va unumdor frazeosemantik yadroga aylantirgan. Jumladan, köz qoj= (ta'zim qilmoq, tavof qilmoq), iki közi birlä jap= (yuztuban tushmoq, tavof qilmoq): frazemalari erkin birikmaning birlamchi transpozitsiyasidan yuzaga kelgan bo'lib, birlik shakllanishiga egilib ta'zim qilish jarayonidagi harakatlar asos bo'lgan. Davriy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan ushbu birliklar faol harakat orqali abstrak munosabatni ifodalashni maqsad qilgan. Bu orqali o'rta asrlardan yoshi katta yoki mansabi yuqori kishi poyiga egilish harakati frazema uchun asos bo'lgan. Ushbu frazemalar uchun integral sema "egilish, ta'zim qilish" semalari bo'lib, birliklar semantikasidagi gradatsiya differensial sema vazifasini o'tamoqda va matnda turli farqli funksiyalarni bajarimoqda. Köt qoj= frazemesi Majnunning Layli jasadi oldiga kelishi va uning oyoqlariga yuz qo'yishi jarayonida qo'llanib, birlik "ta'zim qilmoq" semasi bilan birga "e'zozlamoq", "hurmat" semasini ham ifodalamoqda: Köt qojdi tãbãni üzrã j'y'lab,

Ujyatyalı kirpiki qıçıy'lab (LM, 298). Frazema tarkibidagi köz frazeosemantik yadrosining "odam tana a'zosi" semasi bilan qoj= leksemasidagi "surtmoq, surkamoq" [11] semalari birikuvidan frazema shakllangan. Iki közi birlä jap= frazemesi ham transpozitsiya mahsuli bo'lib, "e'zozlash" semasining kuchliligi frazema tarkibidagi leksemalar (iki közi) ifodalangan harakatning kuchliligini belgilamoqda. Bilamizki, köz juft a'zo bo'lib, birlikda qo'llanadi. Juft a'zolarga ko'plik ma'nosini yuklashdan maqsad – ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash. Bu o'rinda ko'plik semasi iki soni orqali ifodalangan va frazema ma'nosi kuchaytirilgan. Frazema Laylini ilk bor uchratgan Majnunning hushiga kelishi hamda Layli oyoq izlarini ko'rgan holatida qo'llangan va "ta'zim qilmoq" semasi bilan birga, "tavof qilmoq", "aziz deb bilmok" ma'nolarini ham ifodalagan: Tufayda körtüb ajay nişãni, Japib iki közi birlä anı (LM, 93).

Bosh sememadan yuzaga kelgan közga sürt=, közigã qoj= frazemalari xalq orasida tarqalgan odatdan yuzaga kelgan. Turkiy xalqlarda, masalan o'zbek, turk va boshqalarda o'zlari aziz deb bilgan narsani ko'zlariga tegizib qo'yish odati mavjud. Jumladan, nonni ko'zga surish, Qur'onni ko'zga tekkizish orqali bu tushunchalarga bo'lgan hurmat ifodalanaadi. Non tiriklik manbai sifatida e'zozlansa, Qur'on dinimizning muqaddas kitobi sifatiga qadrlanaadi. Ayni shu odatlar natijasida yuzaga kelgan közga sürt=, közigã qoj= frazemalari "e'zozlamoq", "qadrlamoq" ma'nolarini bildirgan: Ruq'asin aldilar fiyan ejlãb, Sürtübãn közga hirzi žan ejlãb (Ss, 209). Niginni öpti-ju, közigã qojdi, Köñülni Haq sanãsin dergã qojdi (FSh, 175). Frazemalar xalq ijtimoiy-maishiy hayotidagi real harakatning mazmunan abstraklashuvidan yuzaga kelgan.

Bir turkum frazemalar ko'zning ochilib yopilish harakati asosida shakllangan. bo'lib, erkin birikmlarni ko'chirish orqali hosil qilingan. Harakat belgisini ifodalovchi köz ačqunča (juda qisqa muddatda, tezda), köz jumyunchã (tez), köz jumub ačqunča (juda qisqa muddatda) frazemalari, "o'lmoq" manosini bildiruvchi köz jum=, "uxlamay" ma'nosini bildirgan köz japmaj frazemalari shu sema asosida shakllangan. Köt jum= frazemesi erkin birikmadan shakllangan birikma bo'lib, ko'chim asosida frazemalashgan omonim birlikdir. Köt jum=I frazemesi "uxlamoq, uxlashga

harakat qilmoq" [12] ma'nosini ifodalab, uxlash jarayonidagi ko'zning holati frazema ma'nosi uchun asos bo'lgan: Közlärin jumyaç ul sürük mahzun, Barçasın uju xajli etti zabun (Ss, 159). Köz jum= IV frazeması "ko'zning qayta ochilmasligi" semasi asosiy planga chiqarilishi orqali "o'lmoq" ma'nosi yuklatilgan. Bunda, o'lgan odamning ko'zidagi harakatsizlik, ochilib yumilish funksiyasining yo'qolishi tiriklik bilan bog'langan: Çu dānā çekti bu çajayta sözni, Bäs etti sözni dayi jumdi közni (FSh, 200).

Navoiy "Xamsa"sida qo'llangan ko'z yadroli frazemalarning bir qismi semema tarkibida nafaol bo'lgan "uxlash a'zosi" va "yig'lash a'zosi" kabi semalar asosida shakllanganini ko'rish mumkin. Bunday frazemalar spontanlik asosida shakllangan birliklar bo'lib, ichki va tashqi ta'sirsiz, lisoniy va nolisoniy omillar asosida uxlaroq / uxlamaslik, yig'lamoq / yig'lamaslik kabi jismoniy holat fe'llarini obrazli ifodalash maqsadida dostonlarda keltirilgan.

2. "Ko'z" frazeosemantik yadrosi tarkibidagi tana a'zosi sememasining nafaol ma'nolaridan bo'lgan "uyqu a'zosi" semasi faollashuvdan jismoniy holat fe'llari bilan sinonimlik hosil qiluvchi frazemalar shakllangan. Bu semadan hosil bo'lgan frazemalar uyqu bilan bog'liq turli jismoniy holatlarni obrazli ifodalashga xizmat qilgan. "Uyqu a'zosi" semasi faollashuvdan yuzaga kelgan frazemalarni quyidagi mazmuniy guruhlariga ajratish mumkin:

a) uxlash oldi holatni ifodalovchi frazemalar: közigä uju majl et= (uyqu kelmoq), közi ujuqya nijaz et= (uyqusi kelmoq, uxlashni istamoq). Bu guruhga mansub frazemalar insonning uyquga bo'lgan maylini obrazli tasvirlashga xizmat qilib, insonning uyqu oldi holatini aks ettirish bilan birga, uyquning ixtiyorsiz refleksi ekanini ifodalovchi implitsit axborat ham tashimoqda: ... vä ul sändällär laxlasädin dimayı muattar bolub, közi uju majli qilmaq (Ss, 332). Çun közüim ujuqya nijaz etti, Uju közümgä turktäz etti (Ss, 232);

b) uxlagan holatni ifodalovchi frazemalar: közi ujudin qiziq= / közi ujudin isi= (uxlaroq), közi ujuqya bar= (uxlaroq), közlari rahatamez bol= (uxlaroq), köz üjin uju tijra ejlä= (uxlaroq), közlari uju ket= (uxlaroq). Bu birliklar uchun integral sema "uxlaroq" bo'lsa-da, baho semasiga ko'ra birliklar o'zaro farqlanadi. Jumladan, közlari rahatamez bol= uyquning tanaga bo'lgan ijobiy ta'sirini implitsit usulda anglatsa, közi ujudin qiziq= / közi ujudin isi= frazemalari uyquning kutish orqali voqelanganini bildiradi: Çun közlari boldi rahatamez, Körgüzdü xajali suratangez (LM, 273). Barça tun oyiçra uju sözi, Subhdam ujudin qiziqti közi (Ss, 227). Shu birliklarga sinonim bo'lgan közlari uju ket= (uxlaroq), közi ujuqya bar= (uxlaroq) frazemalari uyquning boshlang'ich bosqichini anglatsa, köz üjin uju tijra ejlä= (uxlaroq) frazeması obrazning qattiq uyquda ekanini ifodalagan: Kiribän ul savadi menuya, Keçäkim közi barsa ujuqya (Ss, 222). Yalib olıyaç köñül arä qajyu, Köz üjin tijra ejlädi uju (Ss, 45).

d) uyg'oqlik holatini ifodalovchi frazemalar: közdän uju elit= (uyqusini qochirmoq, sergaklantirmoq), közdin uju uç= (uyg'onmoq, uyqusi qochmoq, sergaklanmoq), köz aç= / közi açil= / közini aç= (uyg'onmoq, hushyor bo'lmoq). Ushbu birliklar uchun "uyg'oqlik" integral sema bo'lib, birliklar matnda turli ma'no nozikligi bilan farqlanadi. Köz aç= / közi açil= közini aç= frazeması uyg'onishning tabiiy usulda yuz berganini bildirsa, közdän uju elit=, közdin uju uç= frazemalari uyquning biror tashqi omil sabab buzilishini anglatgan: Säbuhij çayı köz açib mähväs, Xumär etgäli däf, ölüb jur'äkäs (SI, 251). Tartqaç subh muazzini ja häj, Uçubän közdin uju, baştin maj (Ss, 66).

e) o'limni ifodalovchi frazemalar: köz açmas uju (o'lim), közi adam ujuqsiya majl qil= (o'lmoq, vafot etmoq). Ayni semaning köz komponenti bilan hosil qilinishi inson

tanasining fiziologik jarayonlari bilan ham bog'liq. Ya'ni o'limdan so'ng tanadan hayot belgilari yo'qolishi va ko'zni yumib qayta ochmaslik frazemalar shakllanishi uchun asos bo'lgan. Qolaversa, til egasining o'lim haqidagi tasavvurlari ham bunga turki bo'lgan deyish mumkin. Chunki xalqda uyquning yarim o'lim sifatida tasavvur qilinishi mavjud va maqoldan Navoiy ham ijodiy foydalangan: Köz açmassen, debän: "kelgän qulumdur", Mäsäl çin boldikim: "Uju – ölümdür!" (FSh, 502) Ayni qarashlar natijasida köz açmas uju va közi adam ujuqsiya majl qil= frazemalari shakllangan. Har ikki birlikda uyquning davomligi o'limga ishora qilmoqda: ... vä közi adam ujuqsiya majl qilyan afsänasin ajtmaq vä... (FSh, 115)

3. "Ko'z" leksemadagi "yosh to'kuvchi a'zo" semasi ancha nafaol sema sanaladi. Ammo Navoiy „Xamsa“sida ayni sema faollashidan yuzaga kelgan bir turkum frazemalar aniqlandi. Ushbu frazemalar uchun integral sema "yig'lamoq" semasi bo'lib, birliklar uchun differensial sema vazifasini baho, gradatsion yoki uslubiy semalar bajargan. Avvalo, bu semadan yuzaga kelgan frazemalar gradatsion semasiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- "yig'lash" ma'nosi közidin moldur aqiz= (yig'lamoq:), közdin ask tök= (yig'lamoq), közidin jašin saç= / közdin dur saç= (yig'lamoq) birliklari uchun umumiy sema bo'lib, bunda ko'zdan kelgan yoshning moldur, ask, jaš shaklida aks etishi yig'lash holatining gradatsiyasi uchun (odatdagi yig'lash – boshlang'ich bosqich) asos bo'lmoqda, ya'ni ko'z yosh tomchilab oqmoq: Şah ajayıya dur saçib közidin, Bardı öpgäç ajayını özidin (Ss, 406).

- "kuchliroq yig'lash" ma'nosi közidin suv (rud) aqiz=/ közläridin suv aqiz=, közidin jaš ravän ejlä= (zor-zor yig'lamoq), közläridin rud aqiz= (yig'latmoq), közdin ask seji aqiz= (yig'lamoq) frazemalari uchun umumiy bo'lib, bu birliklarda ko'zdan oqqan yosh miqdoringin ko'pligi suv, rud, seji, ravän ejlä= birliklari orqali anglashilmoqda va obrazning kuchliroq yig'layotganini bildirimoqda: Tartqan türk naymäsidä surud, Aqizib xalq közläridin rud (Ss, 64).

- "juda kuchli yig'lash" ma'nosi közi qan tök= / közdin qanlar tök=/ közidin qanini aqiz= (juda qattiq yig'lamoq, tinimsiz yosh to'kmoq) frazeması bilan berilgan. Yoshni qon leksemasi yordamida ifodalash adabiyotda avvaldan mavjud bo'lgan g'uluv san'ati sabab frazema oson anglanadi. O'quvchi közi qan tök= / közdin qanlar tök=/ közidin qanini aqiz= frazeması yordamida obrazning uzoq vaqt davomli yig'laganini va ko'z yoshlari qurib, qon oqa boshlaganini mavjud badiiy qoliplar tufayli oson tushuna oladi: Ejläb anäsı dayı frıyanlar, Közdin töküban yuzigä qanlar. (LM, 110). Ushbu frazema tarkibida "davomiylik" semasining mavjudligi yuqoridagi birliklardan farqlovchi yana bir jihatidir.

Xulosa sifatida shuni aytish muminki, "ko'z" leksemasi eng qadimgi turkiy qatlamga doxil bo'lgan birlik bo'lib, leksemaga barcha turkologlar tomonidan yakdil izoh berilgan. Bu leksemaning frazeosemantik yadro sifatidagi faolligi leksemaning ko'p vazifa bajaruvchi tana a'zosi ekani va bu tana a'zosining bir necha funksiyani: ko'rish, yig'lash, uxlash, hissiyotlarni aks ettirish, fikrni va hissiyotni ifolash kabi vazifalarni bajarishi bilan izohlash mumkin. Köz leksemasi Navoiy "Xamsa"sıdagi eng faol yadrodır. Birlik yordamida shakllantirilgan frazemalarning sememasida shu leksemaning sema izlari mavjud. Ya'ni frazemalar mazmunan yaxlit va ko'chimga asoslangan mazmuni ifodalasa-da, frazemalar tarkibidagi leksemalar sintaktik bog'lanish asosida yuzaga keladi. Demakki, leksemaning mazmuni bunda rol o'ynaydi. Ayni bu butunlikning yaxlit holda ko'chishi frazemalashuv uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Древнетюркский словарь. –Л: Наука, 1969. – С. 20-321.
2. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. 3-том – М., 1980. – С. 60-61.
3. Сравнительный словарь турецко-татарских нарѣчій. Составиль: Будаговъ Л. Томъ II. – Санктпетербургъ, 1871. – С. 152-154.
4. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. I жилд. – Б. 221.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 2022. 2-jild. –B. 1014-1020.
6. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.
7. Xolmanova Z., O'razova I. XIV asrning II yarmiga oid turkiy manbalardagi frazemalarning izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany, 2023. – B. 40-42.
8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I–IV жилд. –Тошкент: Фан, 1983. 2-жилд. – Б. 145-148.
9. Порсиев Ш. Навоий асарларининг луғати. – Тошкент, 1972. – 784 б.
10. Hakimova M. Semasiologiya. –Toshkent: Bookmany print, 2025. – B. 74-86.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 2022. 4-jild. –B. 351.
12. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I–IV жилд. –Тошкент: Фан, 1983. 3-жилд. – Б. 128.
13. https://www.researchgate.net/publication/371445592_UzMU_HABARLARI_VESTNIK_NUUZ_ACTA_NUUZ_MIRZO_ULUGBEK_NOMIDAGI_UZBEKISTON_MILLIJ_UNIVERSITETI_ILMIJ_ZURNALI/citation/download?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InByb2ZpbGUiLCJwYWdlIjoicHVibGljYX_Rpb24iLCJwcmV2aW91c1BhZ2UiOiJwcm9maWxlIn19
14. Навоий А. Хамса (Матн): Насрий баён. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 712 б.
15. Navoiy A. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. –344 b.



UDK:808.5

Ozoda XAKIMBAYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi
E-mail: hakimboyevoazoda@gmail.com

O‘zDJTU dotsenti, f.f.n I.Umirov taqrizi asosida

INGLIZ AGRONIMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotsatsiya

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning sohaları ichida toponimika alohida o‘ringa egaligi bilan ajralib turadi. Toponimikaning til lug‘at tarkibidagi asosiy roli uning adabiy tilda ham sheva tili leksikasida ham mustaqil qatlam sifatida e‘tirof etilishidir. Toponimikaning yangilanishi natijasida turli xil yangi nomlarning til lug‘at boyligiga kirib kelishi tilimizning lug‘at boyligini ham boyitib borayotganligi alohida e‘tiborga loyiqdir. Mazkur maqolada muallif toponimikaning asosiy bo‘limlaridan bo‘lgan agronimlar haqida so‘z yuritadi va ingliz agronimlarining lingvomadaniy xususiyatlarini misollar yordamida izohlab beradi.

Kalit so‘zlar: Toponimika, agronim, ingliz tili, o‘zbek tili, lingvomadaniyatshunoslik, geografik nom, lug‘at, tilshunoslik, til, urbonomim, gidronim, oronim, buronim, dromonim, oykonim, dreamonim.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF ENGLISH AGRONYMS

Annotation

Today, toponymy is distinguished by its special place among the branches of modern linguistics. The main role of toponymy in the structure of the language vocabulary is its recognition as an independent layer both in the literary language and in the lexicon of the dialect. It is worth noting that as a result of the renewal of toponymy, various new names are entering the vocabulary of our language, which is also enriching the vocabulary of our language. In this article, the author talks about agronyms, which are one of the main sections of toponymy, and explains the linguocultural features of English agronyms with the help of examples.

Key words: Toponymy, agronym, English, Uzbek, linguocultural studies, geographical name, dictionary, linguistics, language, urbanonym, hydronym, oronym, buronym, dronym, oikonym, dreamonym.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКОГО АГРОНИМА

Аннотация

Сегодня топонимика занимает особое место среди областей современного языкознания. Основная роль топонимии в структуре словарного состава языка заключается в ее выделении в качестве самостоятельного пласта как в литературном языке, так и в лексике диалекта. Стоит отметить, что в результате обновления топонимии в словарный состав языка вошли различные новые названия, что также обогащает словарный состав нашего языка. В данной статье автор рассматривает агронимы, одну из основных отраслей топонимии, и на примерах объясняет лингвистические и культурные особенности английских агронимов.

Ключевые слова: Топонимия, агроним, английский язык, узбекский язык, языкознание, географическое название, словарь, лингвистика, язык, урбаноним, гидроним, ороним, буроним, дроним, ойконим, дреаноним.

Kirish. Zamonaviy jamiyatni geografiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Toponimlar jamiyat taraqqiyotining ajralmas elementi hisoblanadi. Ularning ma‘lum bir hududdagi yig‘indisi ko‘p asrlilik xalq ijodiyoti samarasidir. Geografik nomlar – bu mamlakat yoki shahar bilan tanishishni boshlaydigan tashrif qog‘ozi hisoblanadi. Har qanday zamonaviy odamlarning hayoti doimiy ravishda o‘ziga xos geografik nomlarga ega bo‘lgan turli joylar bilan bog‘liq.

O‘z navbatida, geografik nomlarni, ularning tarixini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fan toponimika deyiladi. Toponim so‘zi (yunoncha topos – joy, makon, onima – nom, ism) – har qanday geografik obyektning atoqli oti, nomi, jumladan, gidronim, oykonim, oronim, urbanomim, agronim va boshqalardan iborat bo‘ladi [1]. Toponimlarni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda katta qiziqish uyg‘otadi, chunki shahar nomlari o‘z shakllarini o‘zgartirishda davom etmoqda va bunga turli omillar ta‘sir etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Toponimika haqida so‘z borar ekan, bugungi kunda nafaqat O‘rta Osiyo toponimikasini o‘rganish jadal sur‘atlar bilan olib borilganligini, balki Yevropa toponimikasi ham o‘rganilishda, tadqiq qilinishda O‘rta Osiyo toponimikasidan qolishmasligini bilib olishimiz

mumkin. Bilamizki, toponimika keng qamrovli soha hisoblanadi. Shu boisdan, uning hamma qismlari ham keng tadqiq qilinmaganligi bugungi tadqiqotimizning yaralishiga sabab bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur tadqiqotda nafaqat O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududidagi toponimik birliklar hisoblangan agronimlar tadqiq qilingan, balki Yevropaning, jumladan Ingliz xalqining toponimikasining bir qismi hisoblangan agronimlar haqida ham so‘z boradi.

Yevropaning eng qadimiy va go‘zal shaharlaridan biri, Buyuk Britaniyaning poytaxti Londonning toponimlarini ko‘rib chiqamiz. Londonning har bir ko‘chalari, bino va maydonlari o‘tgan yillar tarixi va ulug‘vorligi bilan ajralib turadi. Londondagi shahar nomlari tarixiy, etnografik, lingvistik va madaniy ma‘lumotlarni taqdim etadi. Londonning deyarli har bir ko‘chasi butun dunyoga mashhur va diqqatga sazovor joylari bilan taniqli. Shahardagi har bir ko‘chalarning, bino va maydonlarning nomlari muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy ingliz tilining tuzilishini tushunish, Buyuk Britaniya tarixi va madaniyati bilan tanishish orqali shaharning haqidagi dunyoqarashni kengaytirish mumkin.

Ushbu izlanishning maqsadi London toponimlarining bir qismi bo'lgan agronimlarni o'rganishdir. Ularning kelib chiqish pozitsiyasi, bu esa, o'z navbatida, batafsil ma'lumotni anglatadi ularning shakllanishi va rivojlanishi tarixini o'rganish mumkin. London nafaqat Yevropaning eng go'zal shaharlaridan biri, balki eng qadimgi davlat asos solingan joylardan biri hisoblanadi. Shahar Buyuk Britaniyada Kelt qabilalarining joylashishi davrida tashkil etilgan deb hisoblanishiga qaramay, Rim istilolari London tarixiga ko'proq hissa qo'shgan, eramizning I asrida Temza qirg'og'idagi katta ekin maydoniga ega bo'lgan lalmikor yer vujudga kelgan. Odamlar bu yerni "Londonium" deb nomlashgan. Yer juda serxosil va juda katta bo'lganligi sababli uning atrofiga odamlar kelib dehqonchilik qilishni boshlashgan. Vaqt o'tib dehqonchilik qilishni yo'lga qo'ygan odamlar o'sha maydon atrofiga chodirlar qurib yashashni boshlashgan. Natijada kichik aholi punkti paydo bo'ladi. Xalq ko'payganidan keyin bu joyning atrofi savdo qilish uchun mo'ljallangan bozorga aylanadi. Bu bozorda dehqonlar o'zlarini yetishtirgan mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanishni boshlashadi. Bora-bora bozor kattalashib, Shimoliy Yevropadagi muhim savdo markaziga aylangan [2; 67].

Bundan ko'rinib turibdiki, London toponimining kelib chiqishiga nazar soladigan bo'lsak bu nom agronim bo'lib vujudga kelgan ekan. Oldin dexqonchilik qilinadigan lalmikor yer nomi, keyinchalik esa savdo sotiq qiladigan maydon nomi "Londonium" deb nomlangan ekan. bundan shu ma'lum bo'ladi, bugungi kunda shahar nomi hisoblangan toponim "London" nomining ilk kelib chiqishi agronim termin bo'lgan ekan. Yuqoridagi fikrlarimizda aytib o'tganimizdek, agronim nomlar o'zgarimas nomlar hisoblanmas ekan. Ular vaqt o'tishi bilan o'zgarar, ba'zan toponimlarga, ba'zida gidronimlarga aylanib ketar, ba'zida esa umuman yo'q bo'lib ketishi ham mumkin ekan.

London ko'chalarining paydo bo'lishi tarixi, shahar nomining kelib chiqishi va vaqt o'tishi bilan uning o'zgarishini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. "London" nomining o'zi olimlar orasida juda ziddiyatli munozaralarga olib kelmoqda. Bir nechta taxminlar mavjud:

1. Nom lotin tilidan kelib chiqqan va rimliklar tilidan "zo'ravon" ma'nosini anglatuvchi shaxs ismi.

2. Nom lotinchadan Lond so'zidan kelib chiqqan, ya'ni "yovvoyi (o'rmon bilan qoplangan) joy" ma'nosini anglatgan [3; 335].

3. Nom kelt tilidan kelib chiqqan va ikki so'zdan iborat: Llyn (ko'l) va Dun (istehkom): Keltlar davrida, shahar Llyndid deb nomlangan; "dun" qo'shimchasi boshqa ko'plab kelt toponimlarida ham uchraydi [4; 200].

4. Bu nom Plowonida so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "toshib oqadigan daryo" degan ma'noni anglatadi [5; 233].

Bugungi kunda ham Londonga asos solgan – keltlar yoki rimliklar deb mutlaq ishonch bilan aytib bo'lmaydi.

London toponimlarini olimlar taklif qilgan tasnifga ko'ra, quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Shaharlararo tuzilmalardan tuzilgan toponimlar.

2. Rim yo'llari.

3. Keltlar toponimlari [6; 370].

Angliyada geografik nomlarga qiziqish XIX asr oxiri - XX asr boshlarida namoyon bo'ldi. Toponimikaning shakllanishiga hissa qo'shgan birinchi ingliz tadqiqotchilaridan G. Aleksandr, A. H. Smit, E. Equala, K. Kemeronni eslatib o'tish lozim. Asosan tadqiqotchilar toponimlarning etimologiyasini o'rganish va joy nomlarining kelib chiqishi haqidagi lug'atlarni nashr etish bilan shug'ullanganlar. Toponimik tadqiqotlar XX asrda ayniqsa rivojlangan bo'lib, ayni paytda toponimikada ham faol rivojlangan maktablar tashkil etilmoqda. 1923 yilda ingliz joy nomlari jamiyati tuzildi va bu haqida Angliyaning alohida grafliklari toponimiyasiga oid ko'plab monografiya va asarlar

nashr etildi. Olimlar tomonidan geografik nomlarning kelib chiqishi, ularning tarixi, nomlanishi haqida ma'lumotlar beruvchi geografik obyektlarning geologiyasi va ekologiyasi, ya'ni mamlakat toponimikasini diaxronik jihatdan o'rganish ishlari olib borildi. Turli fanlar vakillarining sa'y-harakatlari bilan toponimika o'zining mustahkam o'rini egalladi.

Tadqiqot metodologiyasi. XX asrning 60-70-yillarida yuzaga kelgan nizolarga qaramay, toponimika ilmiy bilimlar tizimida qaysi bilim sohasiga tegishli ekanligi haqida turli fan sohalari olimlari o'rtasida munozara va bahslar olib borildi. Ba'zi olimlar bu fanni chegaradagi fan, tutashuvdagi fan deb hisoblashdi. Geografiya, tarix va tilshunoslik fanlari uni lingvistikaga oid mustaqil fan deb ajratdi. Toponimikada tarixiy komponent mavjud. Ammo bu yerda biz xalqlar tarixini, davlatlar va til tarixini o'rganmaymiz.

Natijalar va muhokama. Tarixiy voqealar tilda bevosita aks etmaydi. Toponimlar avtonom tizim bo'lgani uchun tashqi ta'sirlar ta'sirida bo'lishi qiyin, lekin o'z qonunlariga ko'ra o'zgaradi. Ammo tarix fanining o'zi uchun geografik nomlar katta ahamiyatga ega, chunki ularda moddiy madaniyat qoldiqlarining o'xshashligi muhim rol o'ynaydi. Toponimik ma'lumotlar birlamchi manbalar ma'nosiga ega bo'lgan hujjatlar turidir. Masalan, tarixchilar qishloqning nisbiy yoshini uning nomining turiga qarab aniqlashlari mumkin. Toponimik dalillar yozma manbalarga ega bo'lmagan mamlakatlar uchun ayniqsa qimmatlidir. Geografik nomlarni ham tarixiy tamoyil ya'ni ularning paydo bo'lish vaqti va tarixiga ko'ra tasniflash mumkin. Kashfiyotchilar, buyuk insonlar va boshqalar xotirasiga berilgan yodgorlik nomlari tarixiy ahamiyatga egadir.

Toponimlarning geografiya uchun ahamiyati ham katta bo'lib, ularning ko'pchiligi umumiy nomga aylangan va geografik terminologiyaga kirganlar.

S. N. Basik toponimikaning geografik jihatini ko'proq darajada o'rganadi. U toponimikaning lingvistik tomonini aniqlaydi, geografik mansublik asosida batafsilroq tasniflaydi [4; 168].

Shu bilan birga S. N. Basik toponimlarning 8 ta asosiy turini qayd etib o'tadi:

Oronimlar yer yuzasi relyefining har qanday obyektining to'g'ri nomi - ikkala qavari (tog', tog' tizmasi, tepalik) va botiq (vodiy, jar, pastlik, dara, chuqur), ya'ni har qanday orografik obyekt (Ruapehu, Taravera tog'i, Grampianlar).

Buronimlar - yirik geografik hududlarning (Angliya, Uels, Shotlandiya) nomlari.

Urbanonimlar - shahar ichidagi obyektlarning nomlarini bildiruvchi toponimlarning xilma-xilligi: bloklar, ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, qirg'oqlar, bog'lar, yodgorliklar, teatrlar, muzeylar, kinoteatrlar, kafelar, mehmonxonalar, do'konlar, yakka tartibdagi uylar. Ingliz urbanonimlarining xususiyatlari orasida ismlarning keng qo'llanilishi kiradi komponent ko'chasi "ko'cha" (High Street, King Street yoki shaharning asosiy ko'chasi nomi uchun qishloq, Tabard ko'chasi, Armut daraxti ko'chasi, Beyker ko'chasi), darvoza "yo'li", shuningdek; ko'cha nomlari dunyo qismlarining nomlarini o'z ichiga oladi (Shimoliy, Janubiy, Sharqiy, G'arbiy ko'chalar, Northgeyt, Eastgate). Urbanonimlar ko'pincha yo'l komponenti "yo'l" bilan qo'shma iboralardir (Mile End Road, Beechwood Road, Clever Road).

Dromonimlar aloqa yo'lining nomi bo'lib, odatda joylardan tashqarida (Fosse Way, Icknield Way, Broxden aylanma yo'li).

Oykonimlar - aholi punkti nomi. Buyuk Britaniya hududida oykonimlar bo'lishi mumkin. Ularning tuzilishidagi uy-joy yoki qurilishni bildiruvchi komponentlar. Ular quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: boro (yoki burgh, bury) "kichik shaharcha, mahalla" (Vudboro, Flukboro, Kenterberi,

Dyuberi, Edinburg). uy “uy” (Woodhouse, Summerhouse), o'rniga “mulk fermasi, yer uchastkasi” (Gempsted. Berkhamsted. Vrinsted).

Gidronimlar suv havzalarining (daryolar, ko'llar, dengizlar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, kanallar) nomlari. Ko'pchilik Buyuk Britaniya gidronimlari shimoliy qismga, ya'ni Shotlandiya hududiga to'g'ri keladi. Ko'pchilik mamlakatning bu qismidagi nomlar shotland tilida “ko'l” degan ma'noni anglatuvchi “loch” komponentini o'z ichiga oladi. Belgilangan komponentli gidronimlar joylashuviga qarab farq qilishi mumkin, masalan: Loch Lochy (dan Gaelic Loch Lochaidh) – ko'l bo'lib, uning nomi tom ma'noda “Ko'ldagi ko'l” degan ma'noni anglatadi.

Agronimlar - ekin maydonlarining nomlarini belgilash uchun toponimlarning bir turi - ekin maydonlari, dalalar, maydonlar, bozorlar va boshqa qishloq xo'jaligi yerlari.

Dreamonimlar toponimning bir turi, har qanday o'rmon hududi – o'rmonlar, o'rmonlar, to'qaylar [7; 177].

Yuqorida qayd etilgan toponimik sinflar turli geografik obyektlarni o'zlariga ko'ra guruhlab nomlaydi. Umumiy geografik xususiyat va toponimik tizimning hududiy asosini tashkil etadi. Toponimik tizim hududiydir. Bu mahalliy cheklangan tizim, lingvistik mansublik bilan rang-barang, mintaqaviy geografik voqelikni ifodalovchi maxsus lug'at [4; 168].

Har kuni biz nutq oqimida minglab so'zlardan foydalanamiz va qoida tariqasida biz ularning kelib chiqish tarixi haqida o'ylamaymiz. Biroq, tilshunoslar so'zlarning asl ma'nosini tushunishga va ularning rivojlanish yo'lini tiklashga ko'p vaqt sarflashadi. Tilshunoslikning ushbu masalalarga bag'ishlangan maxsus bo'limi etimologiya deb ataladi. Shu o'rinda etimologiya tushunchasiga to'xtalamiz.

“Etimologiya” atamasi yunoncha ildizlarga ega va “haqiqat”, “ta'limot” degan ma'nolarni anglatadi. Bitta so'zning etimologiyasi haqida gapirganda, ular odatda uning tarixiy ildizlarini o'rganishni anglatadi. Ko'pincha bu atama tilshunoslikning kelib chiqishini o'rganish bilan shug'ullanadigan bo'limiga murojaat qilish uchun ishlatiladi. Birinchi marta bu atama qadimgi yunon faylasuflarining asarlarida uchragan. Ushbu so'zning tarkibiy qismlari “sodiq va haqiqat” hamda “ma'no va ta'lim berish” ma'nolariga ega bo'lgan [6; 370]. Boshqacha qilib aytganda, etimologiyaning asosiy vazifasi so'zlarning haqiqiy ma'nosini topishdir, shuningdek, so'zga kiritilgan ma'noni izlash dastlab uning boshlang'ich qismidagi o'zgarishlar dinamikasini kuzatish ma'nosini anglatadi. Vaqt o'tishi bilan so'zlar nafaqat ma'noni, balki tashqi shaklini ham o'zgartiradi. Shuningdek, ovoz ifodasi va fonetik ko'rinishi ham o'zgaradi.

Nomlarning kelib chiqishiga ta'sir qiluvchi omillarga to'xtalib o'tsak. Ingliz tilidagi geografik obyektlarning nomlari tahlili lingvistik masala sifatida tadqiqqa tortilgan. Ingliz tilidagi geografik nomlarda tasniflash tamoyili manba tilini aniqlash (bu ingliz tilidan oldingi keltlar, iber va hk), britton, lotin, qadimgi ingliz, Qadimgi Nors, Daniya, Franko-Norman va boshqa tillar ta'sirida joy nomlari ko'p ucharydi. Bu tillarning barchasini ingliz ko'chalari, maydonlari, bozorlari va boshqa geografik obyektlar nomlarida kuzatish mumkin. Bundan tashqari, ular allaqachon mavjud nomlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni, ular fonetik va transliteratsiya qoidalariga asoslanib moslashgan. Ingliz geografik joy nomlarining etimologiyasini o'rganishda bir nechta asosiy muammolarga duch kelish mumkin, xususan: Toponimning zamonaviy shakli bilan ma'noviy mos kelmasligi:

1. Tovush va ma'nodagi farq.

2. Keyingi bahsli masala o'xshash tovushga ega bo'lgan toponimlar mazmuni.

3. Zamonaviy ingliz tilida o'xshash so'zlarning mavjudligi.

Funksional nuqtai nazardan, ingliz geografik hudud nomlarining shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan.

1. Muayyan hududda yashovchi xalqlarning nomlari.

2. Turar-joyning xususiyatlari (ham oddiy, ham kompozitsion).

3. Hudud relyefi xususiyatlari.

Xulosa. Londondagi ko'plab geografik joy nomlarining kelib chiqishi geografik muhitning xususiyatlari bilan bog'liq. Toponimlar ko'pincha atrofdagi hududning tabiatini aks ettiradi. Geografik atamalarning o'z geografik nomlarini shakllantirishdagi alohida ahamiyati hammaga ma'lum. Buni geografik atamashunoslikning taniqli tadqiqotchisi V. Neroznak [10; 516] ta'kidicha, Londonning geografik joy nomlari ko'p va xilma-xildir. Buni mamlakatning bepoyon hududi bilan ham, keng ekin maydonlari va dalalari bilan ham izohlash mumkin, tabiiy sharoitlar, turli xil relyef turlarining mavjudligi ham bundan mustasno emas. Bundan tashqari atoqli nomlar Londondagi ko'plab toponimlarda o'z aksini topgan. Mashhur shoirlar, olimlar, rassomlar yashash joylari, shon-shuhrat joylari qo'mondonlar, monarxlarning sevimli yurish yo'llari va ularga yaqin bo'lganlar, odamlar – bu nomlarning barchasi London nomlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, London aholisining mehnat faoliyati, ularning bo'sh vaqtlari va hayoti Londonning ko'plab toponimlarida o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR

1. Ahmadaliyev Y.I. Toponimika va geografik terminshunoslik.– Farg'ona: 2018 – 10 b.
2. Артемова А.Ф., Леонович О.А. Географические названия Великобритании. – М., 2010. – № 10. – 67 с.
3. Бельская В. Очерки английской топонимики. – М., 2009. – 335 с.
4. Басик С. Н. Общая топонимика. – Минск, БГУ. 2008. 168 с.
5. Брагилевский Д.Ю. Структурно-семантический анализ названий улиц. Минск, Ленинград. 2008. – 233 с.
6. Суперанская, А. В. Общая теория имен собственных. – М., 2012. – 370 с.
7. Суперанская, А. В. Что такое топонимика? - М.: Наука, 1985. - 177 с.
8. Rosenthal D.E. Dictionary - a reference book of linguistic terms. 2nd edition. – М., 2013. – 399 p.
9. Нерозняк В.П. Топонимия. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 2008. – 516 с.



UDK:811.112.370.148

Nasiba HAKIMOVA,
ORIENTAL universiteti katta o'qituvchisi

ORIENTAL universiteti katta o'qituvchisi Sh.Kamalova tarqizi asosida

UZBEK VA RUS TILLARIDA SAN'AT PSIXOLOGIYASI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va rus tillaridagi san'at psixologiyasi atamalarining leksik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot san'at va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan maxsus terminlarning tuzilishi, ma'nosi va qo'llanilishini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Leksik tarkib va semantik nozikliklardagi o'xshashlik va farqlarni tahlil qilish orqali, ushbu atamalarning shakllanishi va talqiniga madaniy hamda lingvistik omillar qanday ta'sir ko'rsatishi yoritib beriladi. Maqolada shuningdek, san'at psixologiyasi atamalarini tarjima qilish va moslashtirishda uchraydigan muammolar hamda ikki tilli ilmiy muloqotda samarali strategiyalar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari psixologiya va san'atshunoslik sohalarida ilmiy-amaliy foydalanish uchun yagona terminologik bazani shakllantirishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: san'at psixologiyasi, terminologiya, leksik xususiyatlar, semantik tahlil, o'zbek tili, rus tili, tarjima muammolari, tarmoqlararo atamalar, ilmiy muloqot, lingvistik ekvivalentlik.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОВ ПСИХОЛОГИИ ИСКУССТВА В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются лексические и семантические особенности терминов арт-психологии в узбекском и русском языках. Исследование сосредоточено на сравнительном анализе специализированной терминологии, используемой в междисциплинарной области искусства и психологии, с изучением их структуры, значения и употребления в обоих языках. Анализируя сходства и различия в лексическом составе и семантических оттенках, автор подчеркивает влияние культурных и лингвистических факторов на формирование и интерпретацию этих терминов. Также обсуждаются проблемы перевода и адаптации терминов арт-психологии, предлагаются эффективные стратегии для двуязычной научной коммуникации. Полученные результаты способствуют формированию единой терминологической базы для академического и практического использования в психологии и искусствоведении.

Ключевые слова: арт-психология, терминология, лексические особенности, семантический анализ, узбекский язык, русский язык, переводческие трудности, междисциплинарные термины, научная коммуникация, лингвистическая эквивалентность.

LEXICAL AND SEMANTIC FEATURES OF ART PSYCHOLOGY TERMS IN UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES

Annotation

This article examines the lexical and semantic features of art psychology terms in Uzbek and Russian languages. The study focuses on the comparative analysis of specialized terminology used in the interdisciplinary field of art and psychology, exploring their structure, meaning, and usage in both languages. By analyzing the similarities and differences in lexical composition and semantic nuances, the research highlights how cultural and linguistic factors influence the formation and interpretation of these terms. The paper also discusses challenges in translating and adapting art psychology terminology across languages, offering insights into effective strategies for bilingual scientific communication. The findings contribute to the development of a unified terminological base for academic and practical use in psychology and art studies.

Key words: Art psychology, terminology, lexical features, semantic analysis, Uzbek language, Russian language, translation challenges, interdisciplinary terms, scientific communication, linguistic equivalence.

Introduction. Language is a fundamental instrument of communication and knowledge transmission, especially in the academic and professional domains. Within the framework of specialized discourse, terminology plays a crucial role in shaping conceptual understanding and facilitating interdisciplinary dialogue. In recent decades, one such emerging interdisciplinary domain is art psychology, which explores the psychological processes involved in the creation, perception, and interpretation of art. This field merges concepts and methods from both psychology and art studies, resulting in the formation of a rich and complex terminological landscape. The present study investigates the lexical and semantic features of art psychology terms in Uzbek and Russian, offering a comparative linguistic analysis that

highlights cultural, structural, and conceptual nuances across the two languages.

Art psychology, as a field, covers various aspects such as the cognitive and emotional response to artworks, the psychological conditions of artists, the role of creativity, and therapeutic applications of art. The terminology used in this field reflects these multifaceted perspectives, combining vocabulary from general psychology, clinical psychology, fine arts, aesthetics, and even neuroscience. Consequently, terms in art psychology are often polysemantic, metaphorical, and context-dependent, which can pose challenges in translation and cross-linguistic communication.

In both Uzbek and Russian languages, the terminology of psychology and art has evolved along different historical

and cultural trajectories. Russian, with its long-standing academic traditions in both psychology and the arts, has developed a relatively stable and formalized terminological system. In contrast, the Uzbek language, particularly after gaining independence, has been actively developing its scientific vocabulary, including in psychology and art studies. This development has involved the adaptation of international terminology, neologism creation, and the revival of traditional cultural concepts within a modern academic framework. As such, a comparative study between Uzbek and Russian art psychology terminology is not only linguistically valuable but also culturally revealing.

One of the key areas of interest in this study is lexical structure - the composition and formation of terms. Many psychological and artistic terms are formed through compounding, affixation, borrowing, and calquing. In Russian, terms such as арт-терапия (art therapy) or креативность (creativity) have become normalized, while in Uzbek, equivalents like san'at terapiyasi or ijodiylik are still being standardized in academic and professional usage. The lexical borrowing from English into both Uzbek and Russian is notable, but the degree of integration and adaptation varies. Russian often adopts terms more directly due to its phonological and morphological flexibility, whereas Uzbek tends to localize borrowed terms phonetically and grammatically to fit Turkic language norms.

Semantic analysis is another important dimension in this research. Terms in art psychology often exhibit semantic complexity, where one word may carry multiple layers of meaning depending on the context. For instance, the term "expression" in English can translate into Russian as выражение or экспрессия, and into Uzbek as ifoda or ekspressiya, each carrying slightly different connotations. In Uzbek, native equivalents may reflect deeper cultural or poetic nuances, while borrowed terms may align more closely with international academic usage. This duality creates a dynamic terminological environment that requires careful semantic mapping.

Furthermore, cultural and ideological factors significantly influence how psychological and artistic concepts are understood and expressed in language. Russian psychological discourse, shaped historically by Soviet scientific thought, often emphasizes structured, empirical approaches. Uzbek discourse, meanwhile, is increasingly incorporating both Western psychological frameworks and traditional Central Asian philosophical ideas. For example, terms related to creativity and imagination may be enriched in Uzbek by references to classical literature and Sufi philosophy, adding layers of meaning not present in Russian equivalents.

Translation challenges also arise in rendering art psychology terms from one language to another. Translators must navigate not only linguistic differences but also conceptual mismatches, where an idea prominent in one culture may not have a direct equivalent in the other. For instance, while the term aesthetic experience may have a straightforward translation in Russian as эстетический опыт, rendering this into Uzbek may require elaboration or explanation due to differences in how the concept of aesthetics is culturally framed. Such nuances highlight the need for both linguistic accuracy and cultural sensitivity in bilingual academic communication.

Additionally, the use of metaphor in art psychology terms adds another layer of complexity. Many terms borrow metaphorical language from art (e.g., canvas of the mind, emotional palette, mental imagery) to describe psychological phenomena. In Russian, metaphorical expressions are often preserved or adapted with elegance, while in Uzbek, literal translations may not convey the same imagery unless

culturally adjusted. Understanding these metaphorical transfers is essential for accurate interpretation and educational clarity in bilingual contexts.

The methodological basis for this study includes comparative lexicological analysis, semantic field theory, and corpus-based investigation. A selection of key art psychology terms will be analyzed in both Uzbek and Russian in terms of their etymology, lexical formation, semantic range, and usage in academic texts. Dictionaries, glossaries, psychological handbooks, and scholarly articles serve as primary data sources. Where available, Uzbek-Russian-English terminological dictionaries will also be consulted to identify translation patterns and equivalence strategies.

Ultimately, the goal of this study is not only to describe differences and similarities but to promote better understanding and usage of art psychology terms in multilingual educational and research contexts. As the global academic community becomes increasingly interconnected, ensuring terminological consistency and cross-linguistic comprehension is vital. In Uzbekistan, where Russian continues to play an important role as a second academic language, comparative studies such as this support the integration of local and global knowledge systems. Likewise, Russian-speaking scholars can benefit from awareness of how concepts are understood and expressed in Turkic languages, fostering mutual respect and interdisciplinary growth.

In conclusion, the lexical and semantic features of art psychology terms in Uzbek and Russian reflect broader linguistic, cultural, and intellectual dynamics. This study aims to bridge linguistic gaps, clarify conceptual meanings, and contribute to the standardization and enrichment of psychological and artistic terminology in both languages. Through comparative linguistic analysis, we can enhance the quality of bilingual education, research, and translation in this rapidly developing interdisciplinary field.

Materials and Methods.

This study employed a comparative linguistic approach to examine the lexical and semantic features of terms used in the field of art psychology in Uzbek and Russian. The methodology involved both qualitative and quantitative analysis, focusing on the structure, meaning, and usage of selected terms across academic, professional, and educational contexts.

Corpus Formation:

A bilingual corpus of 200 terms related to art psychology was compiled from textbooks, scholarly articles, glossaries, and official translations in both languages.

Key sources included psychology and art education textbooks used in Uzbek and Russian universities, as well as bilingual dictionaries and online terminology databases.

Data Collection Tools:

Uzbek-English-Russian psychology dictionaries

Specialized glossaries in art therapy and creativity studies

Digital corpora such as the Russian National Corpus and Uzbek Language Corpora

Academic articles from journals like *Psikhologiya Iskusstva* (Psychology of Art) and Uzbek psychology publications

Analytical Framework:

Lexical Analysis: Focused on etymology, word formation (e.g., affixation, compounding, borrowing), and loanword integration.

Semantic Analysis: Identified synonymy, polysemy, and semantic shifts.

Contrastive Analysis: Examined differences in conceptualization, term equivalence, and usage frequency between the two languages.

Translation Challenges were also categorized to identify problematic areas in semantic equivalence and cultural interpretation.

Results and Discussion

Lexical Findings

A significant portion (about 65%) of Uzbek art psychology terms were borrowed or calqued from Russian or English, such as art-terapiya and imaginatsiya.

Russian terminology showed greater morphological diversity, using both native and borrowed roots (e.g., восприятие, креативность, арт-терапия).

Uzbek terms often retained phonetic adaptations of borrowed words (kreativlik, psixoterapiya), but native equivalents (e.g., ijodiylik) were increasingly promoted in educational materials.

Semantic Observations

Some terms in Russian had broader or more specialized semantic fields than their Uzbek counterparts. For example, восприятие (perception) could mean both sensory and aesthetic experience, while qabul qilish in Uzbek was more restricted.

The Uzbek language, influenced by traditional and poetic vocabulary, sometimes carried additional emotional or cultural connotations not found in Russian. For instance, tasavvur (imagination) evokes a more spiritual or artistic association than its Russian equivalent воображение.

Translation Challenges

Terms like expression, creativity, and visual thinking presented difficulties in direct translation due to cultural and academic interpretation differences.

Certain metaphors common in Russian (e.g., палитра эмоций – "palette of emotions") were not directly translatable into Uzbek without explanatory phrasing or loss of metaphorical meaning.

Cultural Nuances

Russian art psychology terminology leaned more on Western scientific traditions, while Uzbek equivalents

sometimes integrated Sufi philosophy, folklore, and poetic metaphor, especially in describing internal states and creativity.

Despite growing globalization, terminological standardization in Uzbek still lags, with inconsistencies found across sources and textbooks.

Implications

There is a need for systematic terminological development in Uzbek through academic collaboration, translations, and dictionary compilation.

Bilingual professionals must be equipped with tools and training to ensure accurate cross-linguistic communication in art psychology.

Conclusion. This study revealed both the shared structures and the unique lexical-semantic characteristics of art psychology terminology in Uzbek and Russian. While both languages heavily rely on international sources, Russian has a more established and systematically used terminological base, whereas Uzbek is still developing a standardized lexicon in this interdisciplinary field.

Lexical borrowings, translation mismatches, and cultural interpretations significantly affect the clarity and consistency of term usage, especially in academic and therapeutic settings. Uzbek terms often reflect rich cultural and emotional undertones, but these sometimes lack direct equivalents in Russian, leading to semantic gaps.

The findings emphasize the importance of developing a unified, culturally sensitive, and linguistically accurate terminological system for art psychology in both Uzbek and Russian. This will not only support more effective bilingual communication but also enhance the quality of academic instruction and psychological practice.

For future research, expanding the comparative analysis to include English or other Turkic languages could provide deeper insights into the global integration and localization of psychological and artistic concepts.

REFERENCES

1. Арутюнян, Ю.В. (2019). Психология искусства: Теория и практика. Москва: Издательство МГУ.
2. Karimova, Z. (2021). San'at psixologiyasi asoslari. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
3. Макарова, Т. Н. (2018). Лексико-семантические особенности терминов арт-терапии. Вестник Психологии и Педагогике, 4(2), 78–84.
4. Jumaniyozova, D. (2022). The Role of Metaphor in Uzbek Psychological Discourse. Journal of Uzbek Language and Linguistics, 9(1), 55–66.
5. Pankratova, E.V., & Koval, M.A. (2020). Linguistic Features of Art Therapy Terms in Russian. Philological Studies, 16(3), 103–110.



UDK: 004:37(075.8)

Abdushohid XASANOV,

Fan va texnologiyalar universiteti, registrator ofisi direktori, PhD, dotsent

E-mail: abdushohid_1983@mail.ru

Mavluda ASADULLAYEVA,

Fan va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi

Toshkentdagi Puchon universiteti professori, p.f.d F.Gaffarov taqrizi asosida

THE CONCEPT, STRUCTURE AND FUNCTIONS OF THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotation

This article discusses the concept, structure and functions of the digital educational environment, staffing the economy with digital technologies, information technologies based on the use of computing and network tools, concepts related to the digital educational environment, the tasks of the digital educational environment for educational institutions.

Key words: digital, education, environment, information technology, educational institutions, information technology, digitalization, platform, individual, Internet, electronic.

ПОНЯТИЕ, СТРУКТУРА И ФУНКЦИИ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Аннотация

В данной статье рассматриваются понятие, структура и функции цифровой образовательной среды, кадровое обеспечение экономики цифровыми технологиями, информационные технологии, основанные на использовании вычислительных и сетевых средств, понятия, относящиеся к цифровой образовательной среде, задачи цифровой образовательной среды для образовательных учреждений.

Ключевые слова: цифровые, образование, среда, информационные технологии, образовательные учреждения, информационные технологии, цифровизация, платформа, индивидуальный, интернет, электронный.

RAQAMLI TA'LIM MUHITI TUSHUNCHASI, TUZILISHI VA FUNKSIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhiti tushunchasi, tuzilishi va funksiyalari, iqtisodiyotni raqamli texnologiyalarga ega kadrlar bilan ta'minlash, kompyuter va tarmoq vositalaridan foydalanishga asoslangan axborot texnologiyalari haqida, raqamli ta'lim muhiti bilan bog'liq tushunchalar, ta'lim muassasalari uchun raqamli ta'lim muhiti vazifalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli, ta'lim, muhiti, axborot texnologiyalari, ta'lim muassasalari, axborot texnologiyalari, raqamlashtirish, platforma, individual, internet, elektron.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmonida raqamli ta’limni rivojlantirish bo‘yicha ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘yadi. Ta’limning barcha bosqichlarida raqamli ta’lim berishni ta’minlash orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish zarurligi keltirilgan [1].

Iqtisodiyotni raqamli texnologiyalarga ega kadrlar bilan ta'minlash muammosini hal qilishda profesional ta'lim tizimida ham alohida rol o'ynaydi. Raqamli savodxonlikning yuqori darajasini ta'minlash uchun o'qitish shakllari, usullari va texnologiyalarini o'zgartirish va ta'lim tizimiga yangi yondashuvlarni joriy etish zarur hisoblanadi [2].

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimi faoliyatining turli sohalariga tobora ko'proq kirib bormoqda. Bunga, bir tomondan, jamiyatni axborotlashtirish va malakali kadrlar tayyorlash zarurati, ikkinchi tomondan, yangi raqamli texnologiyalar va dasturiy ta'minotlarning keng tarqalishi yordam beradi.

Ta'lim muassasalarining faoliyati ko'p jihatdan o'qituvchilar va rahbariyatning yangi o'quv ma'lumotlariga ega bo'lishiga, ularni qanchalik tez tahlil qilishlari va qayta ishlashlari, shuningdek talabalarga yetkazishlariga bog'liq hisoblanadi. Bir qator nashrlarda “axborot texnologiyalari” atamasi “kompyuter texnologiyalari” atamasi bilan sinonim ekanligi keltirilgan, chunki barcha axborot texnologiyalari

kompyuterlardan foydalanish bilan bog'liq. Biroq, “axborot texnologiyalari” atamasi kengroq va komponent sifatida “kompyuter texnologiyalari” ni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, kompyuter va tarmoq vositalaridan foydalanishga asoslangan axborot texnologiyalari “zamonaviy axborot texnologiyalari” atamasi bilan birlashtirilgan. Zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish sifat jihatidan yangi ta'lim natijalariga erishishga, boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishga va talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqich egallash jarayonini tezlashtirishga olib kelishi lozim.

Raqamli ta'lim muhiti bilan bog'liq tushunchalarning ko'rib chiqilgan ta'riflari raqamli ta'lim muhitini amalga oshirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, biz raqamli ta'lim muhiti bilan bog'liq tushunchalarning ta'riflarini boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan ko'rib chiqishni zarur deb hisoblaymiz.

Ilmiy tadqiqot ishimizda raqamli ta'lim muhitining ta'rifini nafaqat me'yoriy hujjatlar nuqtai nazaridan, balki ilmiy bilimlar nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. K.G.Kazimov o'z maqolasida ta'lim va o'qitishni raqamlashtirish - bu algoritmlarga asoslangan yangi innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash, ularni amalga oshirish dasturiy ta'minot yordamida o'quv jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlashi to'g'risida fikrlari keltirilgan [3].

“Raqamli ta’lim muhitining tuzilishi: me’yoriy va uslubiy jihatlari” nomli maqolasida mualliflar zamonaviy raqamli ta’lim muhiti global axborot makonining bir qismi bo’lib, turli sohalar va yo’nalishlarda (iqtisodiyot, menejment, siyosat, ishlab chiqarish sektori, sog’liqni saqlash, ta’lim va boshqalar.) birlashtirilgan [4].

Ye.S.Mironenko o’zining “Raqamli ta’lim muhiti: tushunchasi va tuzilishi” maqolasida rus va xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida keltirilgan raqamli ta’lim muhiti tushunchasining ta’riflarini tahlil qiladi. Tahlil asosida u raqamli ta’lim muhiti konsepsiyasining o’ziga xos talqinini ilgari suradi. Uning fikricha, raqamli ta’lim muhiti ma’lum bir maqsadga erishish vositasidir, uning yordamida Davlat ta’lim standartlari talablarining bajarilishini ta’minlash va ta’lim muassasasini samarali boshqarish tizimini yaratish mumkin bo’ladi [5].

O.N.Shilova Raqamli ta’lim muhiti konsepsiyasining pedagogik talqinini beradi, chunki raqamli ta’lim muhiti-bu raqamli texnologiyalar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish vositachiligidagi ta’lim faoliyatidagi munosabatlar majmuasi bo’lib, ular o’quv jarayoni sub’ektlari tomonidan madaniyatni o’zlashtirish imkoniyatlarini, o’z-o’zini anglash, zamonaviy jamiyat fuqarosining mas’uliyatli raqamli xatti-harakatlarini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni qurishga qaratilgan. Shu bilan birga, ushbu maqola muallifi raqamli ta’lim muhiti tushunchasini o’quv jarayonining turli vazifalarini bajarishga mo’ljallangan ochiq axborot tizimlari to’plami sifatida belgilaydi. “Ochiq” so’zi raqamli ta’lim muhitida turli xil axborot tizimlaridan foydalanish, ularni almashtirish yoki o’z xohishiga ko’ra yangilarini qo’shish qobiliyati va huquqini anglatadi [6, 37-6.].

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli ta’lim muhitining mohiyatini tushunishga oid yuqoridagi nuqtai nazarlarni taqqoslab, tadqiqotchilar g’oyasini axborot, raqamli va ta’lim resurslari, ularni qo’llash texnologiyalari to’plamini o’z ichiga olgan, talabalar tomonidan ta’lim dasturlarini samarali o’zlashtirilishini ta’minlash va bir tizim sifatida qabul qilishadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Raqamli ta’lim muhiti rivojlantirishning maqsadi yagona ta’lim makonini yaratish va “an’anaviy” maktabni mustahkamlaydigan raqamli infratuzilma, elektron xizmatlar va tasdiqlangan davlat raqamli ta’lim mazmuni tizimi (to’plami) sifatida zamonaviy raqamli ta’lim muhiti yaratish orqali butun mamlakat bo’ylab sifatli ta’lim mavjudligini ta’minlashdir.

Raqamli ta’lim muhiti yaratish muammosi bo’yicha ilmiy maqolalarni tahlil qilib, an’anaviy ta’lim bilan taqqoslaganda raqamli ta’lim muhitining o’ziga xos xususiyatlarini ajratib ko’rsatishimiz mumkin. Raqamli ta’lim muhitining muhim afzalliklaridan biri bu ta’limning qulayligi uchun o’quv jarayonining taqsimlangan xususiyatidir. Materialning muhim qismi sinflarda emas, balki Internet texnologiyalari yordamida taqdim etiladi. Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhitida talaba qanday bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishini aniq bilishi va shu asosda individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Keyinchalik, biz raqamli ta’lim muhitining tuzilishini va har bir tarkibiy elementni ta’lim tizimida raqamlashtirishning rivojlanishiga qanday ta’sir qilishini ko’rib chiqamiz.

Tahlil va natijalar.

1. Raqamli ta’lim muhitining axborot-xizmat ko’rsatish platformasi kontent mazmuni hisoblanadi. Platforma masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda o’qish uchun sharoit yaratish, talabaning joylashgan joyidan qat’i nazar bilim olish imkoniyati uchun zarurdir. Talabalar bilim olish va uni sinab ko’rish, talabalar bilan ma’lumot

almashish va hujjatlarni rasmiylashtirishdan qochish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

2. Ta’lim muassasalarini yuqori tezlikdagi ma’lumotlarni uzatish tarmog’iga ulash va undan foydalanishni tashkil etish O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan.

3. Ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yangilash va sinf xonalarini jihozlash variantlari orasida o’qituvchining ish joyini jihozlash uchun uskunalar (noutbuk, kompyuterlar), shuningdek talabalar uchun shaxsiy kompyuterlar, o’quv faoliyatini tashkil qilish uchun mashg’ulot joyi bo’lgan turli binolarda ishlatilishi mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari turli xil o’quv fanlarida, shuningdek raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish barcha fanlarda ishlatilishi mumkin.

4. Ta’lim muassasalari o’qituvchilarning malakasini oshirish - bu raqamli savodxonlik darajasini oshirish va raqamli ta’lim resurslaridan foydalangan holda yangi formatda o’qitishga qaratilgan kompetensiyalarni shakllantirishni anglatadi.

Keyinchalik, biz raqamli ta’lim muhitining asosiy funksiyalarini ko’rib chiqamiz, ammo ular ta’lim oluvchi talabgorlarning kimligiga qarab farq qilishini hisobga olishimiz lozim bo’ladi.

Talabalar uchun raqamli ta’lim muhitining bir nechta funksiyalari mavjud, jumladan:

1. Ta’lim traektoriyasini qurish imkoniyatlarini kengaytirish; individual ta’lim traektoriyasi shaxsiy qobiliyatlar tufayli dasturni ishlab chiqish tezligini o’zgartirishga imkon beradi. Bunday o’quv modelida siz talabalarining imkoniyatlarini, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini maksimal darajada oshirishingiz mumkin. Shu bilan birga, salbiy tomonlari ham bor – jadvalni bajarishga tayyorgarlik ko’rishda, o’quv jarayonini amalga oshirishda katta muammolarni keltirib chiqaradigan juda ko’p individual rejalar paydo bo’lishi mumkin.

2. Eng zamonaviy ta’lim resurslaridan foydalanish; raqamli ta’lim muhitida talabalar uchun turli xil ta’lim resurslari yaratiladi, ular o’qituvchilar bilan yanada samarali hamkorlik qilishga, keng bilim va ko’nikmalarga ega bo’lish uchun materiallarni o’rganishga yordam beradi. Davlat buyurtmasi bilan, sinfda va uyda ishlab chiqilgan raqamli ta’lim tarkibini saqlash, qidirish, namoyish qilish va ulardan foydalanishga imkon beradigan raqamli ta’lim mazmuni kutubxonasi hisoblanadi. Bozor-uchinchi tomon ishlab chiquvchilarning qo’shimcha raqamli ta’lim tarkibiga kirish. Joriy o’quv faoliyatini baholash va o’z-o’zini diagnostika qilish uchun nazorat o’lchov materiallari xizmati – bilim va ko’nikmalarni baholash, test ishlarini o’tkazish va talabalarining mustaqil tayyorgarligini ta’minlash uchun diagnostika materiallarini yaratish. Raqamli Biografiya-talabalarining ta’lim natijalarini yig’uvchi platformalardir.

3. Ta’lim muassasalari qamrovini butun dunyo miqyosida tarqatib yuborish. Raqamli ta’lim muhiti tufayli talabalar nafaqat bitta ta’lim muassasalarining belgilangan o’quv dasturlaridan ma’lumot olishlari, balki turli ta’lim muassasalarining tasdiqlangan ma’lumotlari bilan o’zaro aloqada bo’lishlari mumkin.

Keling, ota-onalar uchun raqamli ta’lim muhitining funksiyalarini ko’rib chiqaylik. Avvalo, bu bola uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishdir. Ular to’g’ridan-to’g’ri yagona ta’lim makonini shakllantirishga va butun mamlakat bo’ylab sifatli ta’lim mavjudligini ta’minlashga bog’liq. Bundan tashqari, bu o’quv jarayonining shaffofligini oshiradi. Ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasini amalga oshirishni ta’minlash ta’limni amalga oshirish uchun ma’lumotlarning ochiqligi tufayli o’quv jarayonining shaffofligi darajasini

o'shiradi. Va nihoyat, bu o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari bilan aloqani osonlashtiradi.

Xulosa va takliflar. O'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitining funksiyalari, birinchi navbatda, uni avtomatlashtirish hisobiga byurokratik yukni kamaytirish, ishini tekshirish tizimini avtomatlashtirish hisobiga talabalar tomonidan vazifalarni bajarilishini nazorat qilish yukini kamaytirishni o'z ichiga oladi. O'quv jarayonlarini monitoring qilish qulayligini oshirish, o'quv jarayonini tashkil etishda yangi imkoniyatlar yaratish va yangi loyihalarni yaratishda talabalarni rag'batlantirish uchun yangi sa'y-harakatlarni yaratish, eng muhim funksiyalardan biri talabalar uchun individual ta'lim yo'li uchun sharoit yaratishdir.

Ta'lim muassasalari uchun raqamli ta'lim muhiti vazifalari yukning bir qismini axborot texnologiyalariga o'tkazish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Raqamli ta'lim muhiti axborot va xizmat ko'rsatish platformasining ilg'or xususiyatlari va resurslaridan foydalanish orqali o'quv jarayoni imkoniyatlarini kengaytirishni tashkil etadi. O'qituvchilar tarkibida bo'lgani kabi, ta'lim muassasalari uchun ham avtomatlashtirish jarayoni tufayli byurokratik yukni kamaytirish raqamli muhitning ajralmas vazifasidir.

Ta'lim sohasida Vazirliklar uchun raqamli ta'lim muhitining funksiyalari nazoratni avtomatlashtirishni

yaratishga va Respublikadagi barcha ta'lim muassasalari bilan aloqani optimallashtirishga qaratilgan. Shuningdek, avtomatlashtirish tufayli talabalar uchun o'qitish variantlarini tanlash imkoniyatlarini oshirish, mintaqaning ta'lim resurslarini optimallashtirish va mintaqadagi ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarining emigratsiyasini kamaytirish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi uchun raqamli ta'lim muhitining funksiyalari yanada kengroq va bir vaqtning o'zida mamlakatni rivojlantirish uchun bir nechta siyosiy strategiyalarga qaratilgan. Demografik siyosat nuqtai nazaridan, bu mamlakatda ta'lim xilma-xilligining oshishi va aholining ta'lim traektoriyasini tanlashdan qoniqishi, bu mamlakat tashqarisida ta'lim migratsiyasini kamaytirishga yordam beradi. Mamlakat salohiyatini nishonga olish nuqtai nazaridan yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj mavjud ta'lim resurslari samaradorligini oshirish, o'quv jarayonining shaffofligini oshirish va talabalar natijalarini monitoringini tezlashtirishdan iborat. Raqamli ta'lim muhitining tushunchalari, tuzilishi va funksiyalarini tahlil qilgandan so'ng, an'anaviy ta'lim bilan taqqoslaganda raqamli ta'lim muhitining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, ta'lim subyektlari tomonidan tarkibiy elementlar va tabaqalashtirilgan funksiyalar aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni - <https://lex.uz/docs/5030957>
2. Khasanov, A. A. (2017). Methods and methods of forming economic education through interdisciplinary communication through information technology. *Journal*, (3), 38.
3. Кязимов К.Г. Цифровая образовательная среда как условие для применения цифровых образовательных технологий в УПО. – Текст: непосредственный // *Профессиональное образование в современном мире*. – 2020. – №1 – С. 3556 – 3565. – ISSN 2224-1841
4. Природова О. Ф. Структура цифровой образовательной среды: нормативно-правовые и методические аспекты. Текст: непосредственный // *Педагогика и психология образования*. – 2020. – № 1 С. 9-30.
5. Мироненко Е. С. Цифровая образовательная среда: понятие и структура. – Текст: непосредственный // *Социальное пространство*. – 2019. – № 4 – С. 1-14.
6. Шилова О. Н. Цифровая образовательная среда: педагогический взгляд. Текст: непосредственный // *Человек и образование* – 2020. – № 2 С. 36 41.
7. Sharipov, D., Abdurashidov, A., Khasanov, A., & Khafizov, O. (2020, November). Mathematical model for optimal siting of the industrial plants. In *2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 1-3). IEEE
8. Abdurashidovich, X. A., & Nigmanovna, M. F. (2019). Access to electronic educational resources in the education system. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
9. Hasanov, A. A. (2020). Peculiarities of preparing teachers for the development and use of e-learning resources. *Theoretical & Applied Science*, (9), 15-17.
10. Khasanov, A. A. (2018). Didactic Foundations of Interdisciplinary Connections at Subject Teaching. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
11. Hasanov, A. A., & Gatiyatulina, R. M. (2017). Interdisciplinary Communication as a Didactic Condition of Increasing the Efficiency of Educational Process. *Eastern European Scientific Journal*
12. Ravshanovna, P. N., & Abdurashidovich, K. A. (2019). Role of innovation in school development. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
13. Хасанов А.А. Современная теория обучения на межпредметной основе // *Science and world*. – Volgograd, 2016. -№8 (36), vol II. – С. 76-78
14. Abdurashidovich, Khasanov Abdushokhid, and Khasanova Sabokhat Sadullaevna. "Theoretical approaches to the creation of pedagogical concepts" *American Journal of Pedagogical and Educational Research* 10 (2023): 185-190.
15. Khasanova, S. S. D., & Khasanov, A. A. (2023). Theoretical approaches to creation of pedagogical concepts. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 16-22.
16. Abdurashidovich, K. A. (2023). Methodological foundations of understanding the essence of e-learning. theory and analytical aspects of recent research, 2(13), 90-96.
17. Nazarov, I., Hasanov, A., Mirjamolova, F., Khaldarov, H., & Alibekov, S. (2021). Modern educational technologies. *Revista geintec-gestao inovacao e tecnologias*, 11(3), 245-252.



UDK:811.523

Charosxon XOLIYOROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
Email: charosxondavronovna@gmail.com

O‘zMU dotsenti, f.f.n I.Jo‘rayeva taqrizi asosida

TIL VA TAFAKKUR MUNOSABATINING INSON NUTQIDAGI AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqola neyrolingvistikada til va tafakkur munosabati va uning ahamiyatini o‘rganadi. Unda tilshunos olimlar, psixologlar va hattoki faylasuflarning til va tafakkur munosabati va uning inson nutqida hamda ijtimoiy hayotdagi faolligini ifoda etgan adabiyotlar tahlili va munozaralari haqida fikrlar ilgari surilgan. Til va tafakkurning borliqidagi o‘rni haqida o‘rganilgan ma’lumotlar asosida atroficha misollar keltirilgan. Maqola so‘ngida o‘rganilgan ma’lumotlarga tayangan holda takliflar va xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: til, tafakkur, tilshunoslik, neyrolingvistika, nutq, fikr, ong, madaniyat.

ЗНАЧЕНИЕ СВЯЗИ МЕЖДУ ЯЗЫКОМ И МЫСЛЬЮ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ РЕЧИ

Аннотация

В статье изучается взаимосвязь языка и мышления в нейролингвистике и ее значение. В ней представлены взгляды лингвистов, психологов и даже философов на анализ и обсуждение литературы, выражающей взаимосвязь языка и мышления, и ее активность в человеческой речи и общественной жизни. Приводятся подробные примеры на основе изученных данных о роли языка и мышления в бытии. В конце статьи делаются предложения и выводы на основе изученных данных.

Ключевые слова: язык, мышление, лингвистика, нейролингвистика, речь, мысль, сознание, культура.

THE IMPORTANCE OF THE RELATIONSHIP OF LANGUAGE AND THOUGHT IN HUMAN SPEECH

Annotation

This article studies the relationship between language and thought in neurolinguistics and its significance. It presents the views of linguists, psychologists, and even philosophers on the analysis and discussion of literature that expresses the relationship between language and thought and its activity in human speech and social life. Detailed examples are given based on the studied data about the role of language and thoughts in existence. At the end of the article, suggestions and conclusions are made based on the studied data.

Key words: language, thought, linguistics, neurolinguistics, speech, thought, consciousness, culture.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikning neyrolingvistika sohasida til va tafakkur tushunchalarining o‘rni beqiyosdir. Inson miya neyronlarida tafakkurning til bilan uzviy bo‘lishi nutqning shakllanishi va tinglovchilarga tushunarli bo‘lish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Til va tafakkur insonlarni yer yuzidagi boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Aslida bu ikki tushuncha bir-biri bilan o‘xshash tushunchalar emas. Tafakkur- bu tashqi olamning inson ongida nomoyyon bo‘lishi bo‘lsa, til esa inson ongida nomoyyon bo‘lgan fikrni bir shaklga solib tashqi olamga ifodalab berishdir. Bunday vaziyatda tafakkur mantiq ilmiga tayangan holda shakllansa, til qonunlari esa grammatikani o‘rganishni va undan kerakli joyda unumli foydalanishni talab qiladi. Til va tafakkur go‘yoki, shakl-mazmun munosabatiga daxldordek, ya‘ni, mazmun qanchalik chuqur hamda to‘liq bolsa, shakl ham shunchalik rang barang va chiroyli bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Til va tafakkur munosabatining nutqdagi ahamiyatini o‘rganar ekanmiz tilshunoslik, psixolingvistika, falsafa, madaniyatshunoslik va mantiq kabi ko‘plab fanlarga murojaat qildik. Ushbu sohalarda faoliyat olib borgan va til va tafakkur munosabati haqida izlanishlar olib borgan ko‘plab olimlar va ularning turli asarlari bilan tanishib chiqdik. Xususan, E. Sepirning “Language: An Introduction to the Study of Speech”, Vigotskiyning “Fikrlash va nutq”, amerikalik tilshunos N. Chomskiy kabi olimlarni bunga misol qilib keltirish

mumkin. N. Chomskiyning sintaktik nazariya aspektlari kabi asarlarni tahlil qilar ekanmiz til va tafakkur munosabati va ularning inson nutqidagi o‘rni nechog‘lik muhim ekanligini bilib oldik. Til va tafakkur munosabatiga nafaqat tilshunoslar, psixologlar balki o‘z davrining yetuk faylasuflari ham fikr bildirishgan. Amerikalik faylasuf J. Searlni bunga misol qilib olsak bo‘ladi. Uning “The construction of social reality” asarida til faqat fikrli ifodalash vositasi emas, balki ijtimoiy haqiqatni yaratishda ham faol ishtirok etishini ta’kidlab o‘tgan.

Biz monografiya, asarlarni o‘rganish jarayonida, olimlarning biri ikkinchisini fikrlarini o‘rgangani va ularning qarashlarini maqola orqali qisqacha va mazmunli qilib izlanuvchilarga taqdim etganini ham guvohi bo‘ldik. Bunga misol qilib E.N Zaltaning “Vilgelm fon Gumbolt” maqolasini olsak. Ushbu maqolada avtor V. Gumboldning til va tafakkur haqidagi fikrlarini o‘z nuqtai nazari bilan qo‘llab quvvatlagan.

Shuningdek, nemis mumtoz gumanizmning yirik vakillari Gyote va F. Shiller “Yava orolidagi kavi tili haqida” asarida tilshunoslikdagi qiyosiy-tarixiy metodning falsafiy asoslarini yaratdi. Shuningdek Gyote tillarning morfologik tasnifini ham ustida bir muncha ishlar olib bordi.

O‘rganishlarimiz davomida o‘zbek tilshunosligida ham til va tafakkur munosabatlarining nutqdagi o‘rni mavzusida sezilarli darajada ilmiy izlanishlar olib borilganini guvohi bo‘ldik. A. Madvaliyev, S. Madiyeva, G‘. Raxmatullayev va E. Begmatovlarning asarlarida tilning

tafakkur bilan aloqasining nutqda mujassam bo'lishi hususida masalalar yoritilgan. Tilni tafakkurning tashqi ko'rinishi sifatida talqin qilgan G' Raxmatullayevning asarlari aynan biz qiziqayotgan nutqning fikrni ifodalashdagi ahamiyatiga kuchliroq urg'u bergan.

Til vatafakkur o'rtasidagi bog'liqlik nutqda o'z ifodasini to'liq topishi haqida adabiyotlarni tahlil qilishimiz davomida amin bo'ldik. Qisqacha qilib aytganda til tafakkurning tashqi ko'rinishi bo'lsa, tafakkur tilning mazmuniy asosidir. Nutq esa tafakkurning voqelanishi bo'lib, insonning ijtimoiy, madaniy, aqliy tajribalarini aks ettiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat va uning inson nutqidagi ahamiyati haqida o'rganar ekanmiz, tilshunoslik, psixolingvistika, falsafa, kognitiv fanlar va albatta neyrolingvistika sohalariga yuzlanishga to'g'ri keldi. Bu ikki tushuncha va ularning faolligi biz yuqorida keltirgan fanlarning bir bo'lagi sifatida talqin qilinadi. Aslida har bir o'rganilayotgan tadqiqotning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari mavjud bo'lib, neyrolingvistik jihatdan o'rganishdan maqsad-til va tafakkurning inson nutqida qay tarzda nomoyyon bo'lishi va ularning nutqdagi o'rni hisoblanadi.

Tadqiqotni olib borish uchun avvalo, Vigotskiy, N.Chomskiy, E. Sapir, V. Gumbolt, M.V. Lomonosov va A. Leontev kabi olimlarning nazariyalariga murojaat qilindi. Ushbu olimlar ilgari surgan nazariy bilimlar esa til va tafakkur haqida asosiy manbalar sifatida xizmat qila oladi.

Tadqiqotni olib borishda tajribaviy ya'ni experimental metodlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunda psixolingvistik experementlar, assotsiativ tajribalar, matn tahlili kabi metodlar alohida o'rin egallaydi. Matn asosida tahlil qilish pragmatika bilan bog'liqlikni ko'rsatib beradi. Bu vaziyatda aynan gap nima haqida ketayotgani yaqqol namoyyon bo'ladi. Demak, bizning ishimizda kontekstdan yoki vaziyatdan kelib chiqib xulosa chiqarish masalaga to'g'ri yondoshuvni belgilaydi.

Tilning tafakkurga qanday tasir qilishi yoki aksincha, tafakkurning til orqali qanday ifodalanishi bizning tadqiqotishimizning predmeti deyishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. Ko'plab olimlar til va tafakkur munosabati va ularning inson nutqidagi o'rni haqida bir qancha o'rganishlar olib borishgan va o'zlarining fikrlarini bayon etishgan. Xususan, Vilgel'm fon Gumboldt, Eduard Sepir [2] kabi mashhur tilshunoslarning til va tafakkurning aloqasi haqidagi fikrlari o'z davrida va bugungi kunda ham o'z ahamiyatiga egadir. "Til tafakkurimiz va hissiyotlarimizni predmetlar sifatida ifoda etadi, biroq u hissiyot va fikrlarimiz harakatiga ergashadi. Inson tili faqatgina vosita ekanligini va tildan tashqarida biz bilmagan dunyo bo'lib, biz uni til yordamida o'zlashtirishga harakat qilayotganligimizni tushunib turadi"[3] deydi buyuk tilshunos V. Gumboldt. Bu iqtibosdan olimning fikri, til bu tafakkurni tashqi olamda aks ettiruvchi vosita ekaniga urg'u berganini tushunishimiz mumkin. Agatha Christiening ABC murders nomli detektiv asaridagi bazi parchalar orqali fikrimizni yanada chuqurroq tushuntirishni maqul topdik.

After he'd broken the news to us, he said he'd leave any questions till later when we'd got over the first shock.

"It is too cruel. Oh, it is too cruel," cried Mrs Bernard tearfully. "The cruellest thing that ever was, is it[8]".

Yuqoridagi misolda ko'rishimiz mumkinki, marhumaning onasi juda qattiq iztirobni va kuchli alamni boshidan o'tkazayapti. Bu jarayondan atrofidagi insonlarga gapirganda, uning nutqida takrorlanish kuzatilmoqda. Tergovchi unga kasbi nuqtai nazaridan ba'zi savollar bilan murojaat qilmoqchi, lekin ona hali hanuz bu voqeadan shok holatdalgini uning nutqi orqali tushunib olish qiyin emas. Va tilshunos olim takidlagani kabi, onaizorning nutqi orqali uning ichidagi hissiyotlari qanchalar kuchli ekanligini anglab olish

mumkin. Inson emotsiyalarga va hissiyotlarga berilar ekan, bevosita bu jarayon uning tafakkuri va tilida nomoyyon bo'lishi mumkinligi yuqoridagi keltirilgan misolimizda o'z isbotini topdi.

E.Sepir ishlarida ham bu ikki hodisaning mohiyati haqida salmoqli fikr ko'rinadi. "Til o'z mohiyatiga ko'ra tafakkurgacha bo'lgan holatdir. U tafakkurni kuzatib boradi va bunda shakl va struktura yashirin bo'ladi... Til tayyor fikrga keltirib o'rnatiladigan yorliq emas... til insonga dunyoni qanday ko'rishni o'rgatadi" [3]. Xuddiki, bu yerda olim til inson miyasidagi fikrlar qanday bo'lsa shundayligicha emas, balki, ularni shaklga solib tashqi muhitga chiqarishi kabi hususiyatga egaligi haqida takidlamochi.

Yana bir olim B. Uorfning fikriga ko'ra, "Har qanday til fikr ifodalashning quroligina emas, inson fikrlashi barcha tafakkur jarayonlari uchun grammatik dasturamal bo'lib xizmat qiladi". Uning ushbu fikri zahirida insonlar borliqini o'z tillari doirasida tushunadilar. Bunday vaziyatda insonning til va madaniyatlari ham xuddi tafakkur singari muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli davrning olimlari o'z mentaliteti va fikrlash doirasi nuqtai nazaridan bu ikki tushunchaga turlicha yondoshib turlicha fikrlarni keltirib o'tishgan. "Kishining ko'ngli daryodur, so'z esadur, so'zlovchi esa g'avvosdur". A. Navoiy qalamiga mansub ushbu misralarga nazar soladigan bo'lsak, ko'ngildan o'tgan har bir so'z yoki fikrlarni, inson o'z tafakkuri bilan til orqali maromiga yetkazgan holda nomoyyon etishi kerakligi haqida uqtirgandek go'yoki. 20 asrda yashab ijod etgan sovet psixologi A. Leontev esa til ijtimoiy faoliyat orqali shakllanadigan tafakkurning asosiy elementi hisoblanadi, tafakkur esa ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, til orqali shakllanadi deya o'z asarlarida ma'lumot qoldirgan. Darhaqiqat, tilshunoslarning lingvistik nuqtai nazaridan, psixologlar inson hissiyotlarini etiborga olgan holda bu ikki tushunchaga e'tibor qaratishgan. Neyrolingvistik nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, til va tafakkur inson miyasida vujudga kelgan biror bir fikrni miyada nutqiy muommalarning mavjudligi yoki aksinchaligi asosida shakllantirgan. YA'ni, insonda afaziya yoki qo'rquv, hayajon kabi muommolar bo'lgan taqdirda fikrlar to'laligicha nutqda paydo bo'lmasligi mumkin. Shuningdek ba'zan qo'rquv tufayli inson yolg'on gapirishi yoki aksincha, aytishni xohlamagan ma'lumotini aytib yuborishi holatlari kuzatiladi. Misol tariqasida, Agatha Christiening "ABC murders" asaridan parcha keltirsak, "I was ashamed of myself for being so suspicious. But – but i was suspicious... I thought of going to the front and watching her when she left the cafe[8.88]. Bu qisqa parchada Donald Fraser uning bo'lajak rafiqasining o'limida gumondor sifatida chaqirilgan bo'lib, u o'zining gumondor bo'lganidan hayratda va shu jarayonda nima deb gapini davom ettirishni bilmay qolgan holatni kuztishimiz mumkin. Aslida ham qotillik daxshatli voqea hisoblanib, bu jarayonda tergovchi tomonidan berilayotgan savollar insonni har qanday holatga solib qo'yadi va inson beixtiyor nutqini yo'qotadi. Bu jarayonda tafakkur va til bog'liqligi shundaki, kuchli hayrat tufayli gumondor ongida tafakkur jarayoni sustlashdi va bu tilda yaqqol nomoyyon bo'ldi.

Rus olimi M.V. Lomonosovning o'z davrida aytilgan va hozirga qadar o'z salohiyatini yo'qotmagan so'zlariga e'tibor qaaratsak "Olloh tomonidan berilgan hayvonlardan ajratib turuvchi eng oliyanob qobiliyat tafakkurdir, birlamchi so'zdir[4]". Fikrlay olish, tahlil qilish va u orqali nimanidir tushunish va qaror qabul qilish bu insonga xos xususiyatdir. Yer yuzidagi boshqa jonzorlardan ham inson aynan shu tomonlama farqi kattadir, ya'ni inson fikrlaydi va tafakkur atalmish qobiliyatini nomoyish etadi. Uning insonligi ham aynan onga ega bo'lishida, til sohibi ekanligida va tafakkurli faoliyat egasi ekanligidadir.

Yana bir olim A.A. Potebnya ta'limotiga nazar soladigan bo'lsak, so'z masalasi, til va tafakkur munosabati masalalari uning asarlarida markaziy o'rinni egallagan va bosh g'oyasi hisoblanadi. "Til faqat aloqa vositasi emas, balki tafakkurning shakllanishi va amalga oshishidagi asosiy vositadir" [7]". deydi olim. Darhaqiqat, biz fikr yuritar ekanmiz uni miyamizda shakllantiramiz va bu jarayon tafakkur bilan tasavvurimizni uyg'unlashtiradi, so'ngra til yordamida uni tinglovchiga yetkazamiz. Olim go'yoki, tilni faqat aloqa vositasi sifatida chegaralab qo'yimaslikni yo'qlab chiqqandek.

Italiya mutafakkiri A. Dantening fikricha, odamzod tug'ulishi bilan qalbga, ruhga sohib bo'lavermaydi, insonga ruhni nutq ato etadi. Nutq esa lisoniy qobiliyatning faollashuvidir va ushbu qobiliyat faqat inson taqdiriga bitilgan, zero uning faoliyati ong orqali kechadi, aqlu farosat negizida yuzaga keladi[5]. Nutqiy tafakkur - doimiy va abadiy faoliyat hamda siz bilan biz inson ekanligimiz bois uning ijrochisi va egasimiz. Shuningdek, agar insonda

neyrolingvistik muommolar aynan tilda vujudga kelgan bo'lsa, ma'lum bir vaqtga inson nutqini yo'qotishi va tafakkur inson ongida qolib ketishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tilshunoslikda yangi paydo bo'lgan neyrolingvistika sohasi bugungi kunga kelib, aynan biz ko'rib chiqayotgan til va tafakkurning inson tushunchasi va nutqidagi o'rni va ahamiyati haqida ham o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygani, uning yangi fan doirasida ham sezilarli darajada ahamiyatini ochib beradi. Dunyo tillari juda ko'p qonun va qoidalarga ko'ra farqlansa, tafakkur tamoyillari esa irq, din millati jihatidan farqlanadi. Neyrolingvistika esa insonning fikr yuritishi va nutq munosabatini izchilligini, bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tildagi va tafakkurdagi muommolarni o'rganadi. Shu nuqtai nazardan, biz ushbu maqolamizda til va tafakkurning o'zoro munosabati, ularning inson nutqidagi ahamiyati va bu borada tilshunos, psixolog va hattoki faylasuf olimlarning fikrlarini ham atroflicha o'rganib chiqdik.

ADABIYOTLAR

1. Zalta E. N. Wilhelm von Humboldt // The Stanford Encyclopedia of Philosophy / ed. by Edward N. Zalta. – Stanford University, 2020
2. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York.: Harcourt, Brace and Company, 1921.
3. Горелов И.Н. Основы психолингвистики. -М., 1997
4. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. –Jizzax, 2006
5. Ломоносов М. В. Полное собрание сочинений: В 11 т. – М.: Изд-во АН СССР, 1952. – Т. 7: Философские произведения.
6. Данте А. О народном красноречии: Книга I–II / Перевод с латинского, вступительная статья и комментарии Я. А. Лентулова. – Москва: Наука, 1968.
7. Потебня А.А. Мысль и язык. — Харьков: Университетская типография, 1862. Ст-13
8. Agatha Christie. The ABC Murders. – London: 2013
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tafakkur>



UDK:808.5

To‘lqinjon ERGASHEV,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti assistenti
E-mail: tulkinjon.ergashev@bk.ru

NDTU dotsenti P. Batirova taqrizi asosida

ZAMONAVIY O‘ZBEK TILIDAGI NEOLOGIZMLARNI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISH: LINGVISTIK VA MADANIY MUAMMOLAR

Аннотация

Ushbu maqola zamonaviy o‘zbek adabiy tilidagi neologizmlarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonidagi lingvistik va madaniy muammolarni tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, tilshunoslik va tarjima nazariyasi sohasida muhim ilmiy hissa qo‘shadi. Maqola o‘zbek tilining leksik rivojlanish tendensiyalarini global til bo‘lmish ingliz tili orqali ifodalash, tarjima strategiyalarini aniqlash va madaniy-kontekstual omillarning ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: neologizmlar, o‘zbek tili, ingliz tiliga tarjima, lingvistik muammolar, madaniy moslashuv, tarjima strategiyalari, korpus lingvistikasi, leksikografik yondashuvlar, globalizatsiya, ijtimoiy tarmoqlar.

ПЕРЕВОД НЕОЛОГИЗМОВ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ПРОБЛЕМЫ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу лингвистических и культурных проблем перевода неологизмов современного узбекского языка на английский, внося значительный вклад в лингвистику и переводоведение. Исследование сосредоточено на лексической эволюции узбекского языка в условиях глобализации и технологического прогресса, изучении стратегий перевода, их эффективности и влияния культурно-контекстуальных факторов.

Ключевые слова: неологизмы, узбекский язык, перевод на английский, лингвистические проблемы, культурная адаптация, стратегии перевода, корпусная лингвистика, лексикографические подходы, глобализация, социальные сети.

TRANSLATION OF NEOLOGISMS IN MODERN UZBEK INTO ENGLISH: LINGUISTIC AND CULTURAL PROBLEMS

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the linguistic and cultural challenges associated with translating neologisms from modern Uzbek into English, making a significant contribution to the fields of linguistics and translation studies. Focusing on the lexical evolution of the Uzbek language in the context of globalization and technological advancements, the study examines translation strategies, assesses their effectiveness, and explores the impact of cultural and contextual factors.

Key words: Neologisms, Uzbek language, English translation, linguistic challenges, cultural adaptation, translation strategies, corpus linguistics, lexicographic approaches, globalization, social media.

Kirish. Zamonaviy o‘zbek adabiy tilida neologizmlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tilning dinamik xarakterini, ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlarga moslashuvchanligini aks ettiradi. Globalizatsiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi o‘zbek tilida yangi so‘zlar va tushunchalarning shakllanishiga olib keldi, bu esa ularni boshqa tillarga, xususan, ingliz tiliga tarjima qilishda muayyan lingvistik va madaniy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu bo‘lim o‘zbek tilidagi neologizmlarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonidagi lingvistik, semantik va madaniy xususiyatlarni tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Maqolaning asosiy maqsadi o‘zbek tilidagi neologizmlarni ingliz tiliga o‘girishda qo‘llaniladigan strategiyalarni aniqlash, ularning samaradorligini baholash va madaniy-kontekstual omillarning tarjima jarayoniga ta‘sirini o‘rganishdan iborat. Tadqiqotning ahamiyati zamonaviy o‘zbek tilining leksik rivojlanish tendensiyalarini global til bo‘lmish ingliz tili orqali ifodalash, tarjima jarayonida leksik va madaniy ekvivalentlikni ta‘minlash usullarini ishlab chiqish va o‘zbek-ingliz tarjima lug‘atlarini yangilash uchun ilmiy asos yaratishda namoyon bo‘ladi. Tadqiqot so‘nggi 10-15 yil ichida chop etilgan gazeta-jurnal maqolalari, internet nashrlar va ijtimoiy tarmoqlardan (xususan, X platformasi) tuzilgan korpusga asoslanadi. Natijada, o‘zbek tilidagi neologizmlarni

ingliz tiliga tarjima qilishning ilmiy va amaliy yondashuvlari taklif etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy o‘zbek adabiy tilining leksik fondida neologizmlar tilning ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlarga moslashuvchanligini aks ettiruvchi muhim qatlam sifatida namoyon bo‘lmoqda. Globalizatsiya, axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi o‘zbek tilida yangi leksik birliklarning shakllanishiga zamin yaratdi. Ushbu bo‘limda o‘zbek tilidagi neologizmlarning lingvistik xususiyatlari, ularning aniq tasnifi, so‘z yasaliishi mexanizmlari va korpus tahlilidan olingan statistik ma‘lumotlar asosida ularning qo‘llanilish doirasi tahlil qilinadi.

Neologizm ta‘rifi va xususiyatlari - o‘zbek tilida neologizmlar so‘nggi 10-15 yil ichida tilga kirib kelgan yoki mavjud so‘zlarning yangi ma‘nolar kasb etishi natijasida shakllangan leksik birliklar sifatida ta‘riflanadi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega: dinamiklik - neologizmlar zamonaviy texnologiyalar (masalan, “blokzanjir”), ijtimoiy hodisalar (masalan, “frilanser”) yoki global iqtisodiy jarayonlar (masalan, “kroudfanding”) bilan bog‘liq bo‘lib, tilning tezkor rivojlanishini ko‘rsatadi.

Kontekstual moslashuvchanlik - neologizmlar turli sohalarda (texnologiya, iqtisod, ijtimoiy-siyosiy, madaniyat)

o'ziga xos kontekstlarda qo'llaniladi. Masalan, "kiberxavfsizlik" so'zi texnologiya sohasida keng tarqalgan bo'lsa, "xesh" so'zi ijtimoiy tarmoqlarda faol ishlatiladi. So'z yasalishi xususiyatlari: Neologizmlar o'zbek tilining so'z yasalishi qoidalariga asoslanib, qo'shma so'zlar, kalkalash, qisqartmalar yoki affiksalar yordamida hosil qilinadi (masalan, "raqamlashtirish" = raqam + lashtirish).

Neologizmlarning tasnifi: o'zbek tilidagi neologizmlar quyidagi aniq tasnif asosida guruhlariga bo'linadi: semantik neologizmlar; mavjud so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi.

Misol: "ekran" so'zi an'anaviy ravishda "pardevor" ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, hozir "kompyuter ekрани" yoki "sensorli ekran" kabi ma'nolarda qo'llaniladi.

Boshqa misollar: "yuklash" (an'anaviy "yuk ko'tarish" ma'nosidan tashqari, "faylni internetdan yuklash" ma'nosida); "chiziq" (telekommunikatsiyada "internet chizig'i" ma'nosida). Strukturaviy neologizmlar: yangi so'z shakllarining paydo bo'lishi, ko'pincha o'zbek tilining so'z yasalishi qoidalariga asoslanadi. Qo'shma so'zlar: "internetlashtirish" (internet + lashtirish), "raqamlashtirish" (raqam + lashtirish). Kalkalash: "kriptovalyuta" (inglizcha "cryptocurrency" dan), "blokzanjir" (inglizcha "blockchain" dan). Qisqartmalar: "IT" (axborot texnologiyalari), "AI" (sun'iy intellekt). Ijtimoiy-madaniy neologizmlar: global ijtimoiy o'zgarishlar yoki madaniy tendensiyalar ta'sirida paydo bo'lgan so'zlar. Misollar: "blogger" (inglizcha "blogger" dan), "startap" (inglizcha "startup" dan), "xesh" (inglizcha "hashtag" dan), "frilanser" (inglizcha "freelancer" dan).

Soha	Neologizmlar soni	Chastotasi (korpusda)	Namunalar
Texnologiya	150	38%	kiberxavfsizlik, blokzanjir
Ijtimoiy-madaniy	100	25%	blogger, xesh
Iqtisodiy	80	20%	startap, kroudfanding
Sport va turmush tarzi	50	12%	fitnes, vorkaut
Boshqa	20	5%	ekoturizm, xalqona

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilidagi neologizmlar tilning zamonaviy rivojlanishini aks ettiruvchi muhim leksik birliklar bo'lib, ularning semantik, strukturaviy va ijtimoiy-madaniy turlari tilning turli sohalardagi moslashuvchanligini namoyish etadi. Korpus tahlili neologizmlarning chastotasi va sohaviy taqsimotini aniqlashda samarali vosita bo'lib xizmat qildi. Ushbu xususiyatlar neologizmlarni ingliz tiliga tarjima qilishda to'g'ri strategiyalarni tanlash va leksik ekvivalentlikni ta'minlash uchun asos yaratadi.

Natijalar va muhokama. Statistik tahlil: Korpus tahlilida neologizmlarning chastotasi va kontekstual ishlatilishi o'rganildi. Masalan, "blogger" so'zi X platformasida 2,300 marta qayd etilgan bo'lib, uning 70% ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq matnlarda uchraydi. Shu bilan birga, "kiberxavfsizlik" so'zi texnologiya sohasidagi maqolalarda (80%) va rasmiy hujjatlarda (15%) ko'proq qo'llanilgan. Bu neologizmlarning sohaviy xususiyatlarini va ularning tarjimaga tayyorlanishida kontekstning muhimligini ko'rsatadi.

Tarjima jarayonidagi strategiyalar. O'zbek tilidagi neologizmlarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayoni tilning leksik va madaniy xususiyatlarini, shuningdek, global tilning (ingliz tili) o'ziga xosliklarini hisobga olishni talab qiladi. Tarjima jarayonida turli strategiyalar qo'llaniladi, ular neologizmlarning semantik va strukturaviy xususiyatlariga, shuningdek, kontekstual va madaniy omillarga bog'liq ravishda tanlanadi. Ushbu bo'limda o'zbek tilidagi neologizmlarni ingliz tiliga o'g'irishda qo'llaniladigan asosiy strategiyalar, ularga xos qiyinchiliklar va tahlil vositalari ko'rib chiqiladi.

Xususiyati: Bu so'zlar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar (masalan, X platformasi) orqali tarqaladi va yosh avlod tilida faol qo'llaniladi. Terminologik neologizmlar: muayyan sohalarga xos yangi tushunchalar. Texnologiya: "kiberxavfsizlik", "bulutli hisoblash" (inglizcha "cloud computing"). Iqtisod: "kroudfanding" (inglizcha "crowdfunding"), "fintex" (inglizcha "fintech"). Sport: "fitnes" (inglizcha "fitness"), "vorkaut" (inglizcha "workout"). Manbalar va korpus tahlili: O'zbek tilidagi neologizmlarni aniqlash uchun 10 million so'zdan iborat korpus tuzildi. Korpus quyidagi manbalardan yig'ildi: gazeta va jurnallar: "Xalq so'zi", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Hurriyat" (2010-2025 yillar). Internet nashrlar: kun.uz, daryo.uz, bbc.uz kabi nashrlarning onlayn arxivlari.

Ijtimoiy tarmoqlar: X platformasidagi o'zbek tilidagi postlar, xususan, texnologiya, iqtisod va ijtimoiy-madaniy mavzulardagi kontent. Korpus AntConc va Sketch Engine dasturlari yordamida tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, neologizmlarning sohaviy taqsimoti va chastotasi quyidagicha:

Texnologiya sohasi: 38% (masalan, "kiberxavfsizlik" – 1,200 ta uchraydi, "blokzanjir" – 850 ta uchraydi). Ijtimoiy-madaniy soha: 25% (masalan, "blogger" – 2,300 ta uchraydi, "xesh" – 1,900 ta uchraydi). Iqtisodiy soha: 20% (masalan, "startap" – 1,100 ta uchraydi, "kroudfanding" – 600 ta uchraydi).

Sport va turmush tarzi: 12% (masalan, "fitnes" – 900 ta uchraydi, "vorkaut" – 400 ta uchraydi). Boshqa sohalari: 5% (masalan, "ekoturizm" – 300 ta uchraydi). Quyidagi jadval neologizmlarning sohaviy taqsimotini ko'rsatadi:

Tarjima usullari. O'zbek tilidagi neologizmlarni ingliz tiliga tarjima qilishda quyidagi asosiy strategiyalar qo'llaniladi:

To'g'ridan-to'g'ri tarjima (ekvivalent tarjima): Bu usulda o'zbek tilidagi neologizm ingliz tilidagi to'liq yoki qisman ekvivalent so'z bilan almashtiriladi. Ushbu strategiya ko'pincha terminologik neologizmlar uchun samarali bo'ladi, chunki ingliz tilida allaqachon standartlashgan atamalar mavjud.

Misol: O'zbekcha: "raqamlashtirish" → Inglizcha: "digitalization".

O'zbekcha: "kiberxavfsizlik" → Inglizcha: "cybersecurity".

Xususiyatlari: Bu usul so'zning semantik ma'nosini to'liq saqlaydi va texnologiya, iqtisod kabi sohalarda keng qo'llaniladi. Korpus tahliliga ko'ra, texnologiya sohasidagi neologizmlarning 65% to'g'ridan-to'g'ri tarjima orqali ingliz tiliga o'g'iriladi.

Kalkalash (so'zma-so'z tarjima): Ingliz tilidagi so'z yoki iboraning o'zbek tiliga moslashtirilgan shakli qayta ingliz tiliga o'g'irilganda asl shakliga yaqin bo'ladi. Bu usul xalqaro atamalar uchun keng tarqalgan.

Misol: O'zbekcha: "internet" → Inglizcha: "internet".

O'zbekcha: "blokzanjir" → Inglizcha: "blockchain".

Xususiyatlari: Kalkalar o'zbek tilida o'zlashtirilgan so'zlar bo'lib, ingliz tiliga qaytarishda minimal o'zgarish talab qilinadi. Korpus tahlilida "internet" so'zi 5,000 marta uchrasa, uning 98% kalka sifatida saqlanib qolgan.

Tavsifiy tarjima: Ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent bo'lmaganda, neologizmlarning ma'nosini tushuntiruvchi ibora yoki tavsif ishlatiladi. Bu usul madaniy

yoki ijtimoiy-madaniy neologizmlar uchun ko'proq qo'llaniladi.

Misol: O'zbekcha: "xalqona" → Inglizcha: "folk-style" yoki "traditional Uzbek-style".

O'zbekcha: "ekoturizm" → Inglizcha: "ecotourism" (to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent mavjud bo'lsa-da, ba'zi kontekstlarda "sustainable tourism" sifatida tavsiflanadi).

Xususiyatlari: Bu usul madaniy kontekstni saqlashda muhim, lekin so'zning qisqaligi va aniqligi yo'qolishi mumkin. Korpus tahliliga ko'ra, madaniy neologizmlarning 30% tavsifiy tarjima orqali o'g'iriladi.

Transliteratsiya: Neologizmning o'zbekcha talaffuziga asoslangan yozilishi ingliz tilida lotin harflari bilan beriladi. Bu usul ko'pincha ijtimoiy tarmoqlardan kelgan neologizmlar uchun qo'llaniladi.

Misol: O'zbekcha: "blogger" → Inglizcha: "blogger".

O'zbekcha: "xesh" → Inglizcha: "hashtag".

Xususiyatlari: Transliteratsiya so'zning talaffuzini saqlaydi, lekin ba'zi hollarda ma'no aniqligi pasayishi mumkin. X platformasida "xesh" so'zi 1,900 marta qayd etilgan bo'lib, 85% hollarda transliteratsiya orqali ingliz tiliga o'g'irilgan.

Qiyinchiliklar. O'zbek tilidagi neologizmlarni ingliz tiliga tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi:

Madaniy farqlar: O'zbek tiliga xos madaniy tushunchalar ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmasligi mumkin.

Misol: "xalqona" so'zini ingliz tilida "folk-style" yoki "traditional" deb tarjima qilish to'liq madaniy ma'noni

yetkazmasligi mumkin, chunki o'zbekona xalqona tushunchasi milliy o'ziga xoslikni ifodalaydi.

Terminologik noaniqliklar: Texnologik neologizmlar o'zbek tilida turli shakllarda qabul qilinishi mumkin, bu esa ingliz tiliga qaytarishda ikkilanishlarga olib keladi.

Xulosa. Ushbu maqola zamonaviy o'zbek adabiy tilidagi neologizmlarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonidagi lingvistik va madaniy muammolarni tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot o'zbek tilining globalizatsiya va texnologik rivojlanish sharoitida leksik yangilanish tendensiyalarini, neologizmlarning strukturaviy va semantik xususiyatlarini hamda ularning ingliz tiliga moslashtirilishida qo'llaniladigan strategiyalarni o'rganadi.

Korpus lingvistikasi usullari asosida tuzilgan 10 million so'zdan iborat korpus tahlili neologizmlarning sohaviy taqsimoti, chastotasi va kontekstual qo'llanilishini aniqlashda muhim vosita bo'ldi. Tadqiqotda to'g'ridan-to'g'ri tarjima, kalkalash, tavsifiy tarjima va transliteratsiya kabi strategiyalarning samaradorligi baholandi, shuningdek, madaniy farqlar va terminologik noaniqliklar kabi qiyinchiliklar aniqlandi.

Natijada, o'zbek tilidagi neologizmlarni ingliz tiliga tarjima qilishda ilmiy va amaliy yondashuvlar taklif etilib, o'zbek-ingliz tarjima lug'atlarini yangilash uchun asos yaratildi. Ushbu tadqiqot o'zbek tilshunosligi va tarjima sohasida muhim qadam bo'lib, kelgusida madaniy o'ziga xos neologizmlarni yanada chuqur o'rganish uchun yo'l ochadi.

ADABIYOTLAR

1. Ibragimov J.Y., Formal tilshunoslikda so'zlar birikuv masalalarining o'rganilishi. O'zbekiston milliy axborot agentligi – O'ZA elektron jurnal. 2022. 10-son. – B. 108-112. (10.00.00. OAK rayosatining 2019-yil 28-fevraldagi 262/9.2-son qarori).
2. Ibragimov J.Y., Jahon tilshunosligida collocation atamasi va uning tadqiqi. FarDU. Ilmiy xabarlar. Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali. 2022. 4-son. – B. 123-126. (10.00.00. №20)
3. Ergashev T.T., Localization of neologisms in the uzbek language - adoption and national characteristics of neologisms in the technological field. UZDJTU Xalqaro konferensiya 2025-yil 29-aprel. - Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 29-aprel, 2025.
4. Ergashev T.T., Ingliz va o'zbek tilidagi neologizmlarning semantik xususiyatlari. ATMU Respublika ilmiy-amaliy anjumani. - Qarshi 2025, 2025.
5. Ergashev T.T., Ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlarni qiyosiy tipologik tahlili. The Lingua Spectrum Journal. - Volume: 4. April 2025, 2025.



UDK: 81'373

Qahramon ESHBOYEV,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti, PhD
E-mail:eshboyev202020@gmail.com

Termiz davlat universiteti dotsenti, f.f.d A.Eshmuminov taqrizi ostida

IMPROVING THE APPLICATION OF THE PRINCIPLE OF RATING IN UZBEKISTAN SYNONYMOUS DICTIONARIES

Annotation

This article presents an analysis of the role, importance, and application of the phenomenon of gradation in Uzbek synonym dictionaries. Also, methodological recommendations are developed to improve the application of the principle of gradation in synonym dictionaries.

Key words: linguistics, lexicography, classification, synonym, semantics, educational dictionary, dictionary of synonyms, explanatory dictionary, synonym series, classification series.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ПРИНЦИПА РЕЙТИНГА В УЗБЕКИСТАНСКИХ СЛОВАРЯХ СИНОНИМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В данной статье представлен анализ роли, значения и применения явления градации в словарях синонимов узбекского языка. Также разработаны методические рекомендации по совершенствованию применения принципа градации в словарях синонимов.

Ключевые слова: языкознание, лексикография, классификация, синоним, семантика, учебный словарь, словарь синонимов, толковый словарь, ряд синонимов, ряд классификаций.

O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH TAMOYILINI QO'LLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tili sinonimik lug'atlarida darajalanish hodisasining o'rni, ahamiyati va qo'llanilishi bo'yicha tahlillar keltirilgan. Shuningdek, sinonimik lug'atlarda darajalanish tamoyilini qo'llashni takomillashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, leksikografiya, darajalanish, sinonim, semantika, o'quv lug'ati, sinonimlar lug'ati, izohli lug'at, sinonimik qator, darajalanish qatori.

Kirish. Biz uchun darajalanish tamoyilining ta'rifi va ahamiyati shundaki, sinonimlar orasidagi ma'no farqlarini aniqlash va ularning turli darajalarini tasniflashga qaratilgan tamoyil. Sinonimlar bir xil ma'noli yoki o'xshash ma'nolarga ega bo'lsa-da, ular orasida ba'zan ma'no va kontekst bo'yicha farqlar mavjud bo'ladi. Darajalanish tamoyili bu farqlarni aniqlashga yordam beradi va sinonimlarning o'zaro bog'lanishini tushunishni osonlashtiradi.

Sinonimlarning darajalanishini aniqlash, tilshunoslik va lug'atshunoslikda sinonimlarning semantik va pragmatik farqlarini tushunish uchun juda muhimdir. Darajalanish tamoyilini qo'llashda bir nechta usullar mavjud. Bu usullar yordamida sinonimlar o'rtasidagi farqlar aniqlanadi va ularning kontekstual va uslubiy xususiyatlari hisobga olinadi. Quyida sinonimlarning darajalanishini aniqlashda qo'llaniladigan asosiy usullarni ko'rib chiqamiz:

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy tilshunoslikda sinonimiya masalasi Ю.Д.Апресян, К.С.Горбачевич, В.А.Гречко, А.П.Евгеньева, Г.О.Винокур, А.Т.Бевзенко, Л.А.Булаховский, В.С.Вашенко, Т.А.Ивасишина, А.В.Лагутина, Л.А.Лисиченко, О.И.Нечитайло, И.Н.Кочан, С.И.Терещенко, В.П. Даниленко, С.В.Гринев, Т.Г.Соколовская, Е.Н.Толикина, Л.Л.Кутина, Л.Блумфилд, В.П.Даниленко, Т.И.Панько, Г.П.Мацюк, С.А.Беляева, Л.А.Капаназде tomonidan tekshirilgan. Olimlar sinonimiyani tilda tizim hosil qiluvchi kategoriya sifatida qayd etadilar[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Semantik tahlil sinonimlarning ma'nolarini chuqur o'rganishga asoslanadi. Sinonimlarning darajasini aniqlash uchun ularning semantik farqlarini tahlil qilish zarur. Bu usul sinonimlarning o'rtasidagi kuchli yoki zaif ma'no farqlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan: ayol leksemasining sinonimik qatorlarini ko'rib chiqamiz: ayol,xotin, xotin-qiz, xotin-xalaj, juvon, rafiqqa, kelin, kelinchak, qiz, qizaloq, qizcha, bo'yqiz, bolig'a, zavja, qariqiz, bokira[2;95]. Keltirilgan sinonim leksemalar orasida yaqqol darajalanish hodisasi kuzatilib turibti. Yuqorida ko'rsatilgan lug'atda sinonimik qatordagi bo'yqiz va bolig'a leksemalari eskirgan so'z shakliga kiritilgan, lekin ayrim shevalarda bo'yqiz leksemasi hozir ham iste'molda borligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu sinonimik qatordagi leksemalarning ma'nosini yangi O'zbek tilining 6 jildli Izohli lug'ati[3;964]dan ko'rib chiqamiz.

AYOL 1 [a. Jkje- - oila; xotin] Umuman erkakka qarama-qarshi jinsdagi shaxs; xotin; bu ma'noda asosan ko'plik shaklida qo'llanib, umumlashtirish ma'nosiga ega bo'ladi, "xotin-qizlar" ma'nosini bildiradi.

XOTIN 1 Jinsiy jihatdan erkak toi- fasiga zid, farzand ko'rish, emizish qo- biliyatiga ega odam; ayol.

XOTIN-QIZLAR Ayollar va qizlar; ayollar va qizlarning umumlashtirib aytilishi.

XOTIN-XALAJ s.t. Xotin-qizlar, ayollar.

JUVON [f.- yosh; umrining yarmiga ham yetmagan odam yoki hayvon] 1 Turmushga chiqqan yosh ayol.

RAFIQA [a. <^j] kt. 1 Dugona, o'rtoq, do'st. 2 Umr yo'ldoshi, xotin, yor.

KELIN 1 Yangi turmushga chiqqan yoki chiqayotgan qiz. 2 O'g'ilning xotini (qaynota yoki qaynonaga nisbatan). 3 Ukaning xotini (aka yoki opaga nisbatan). 4 O'zidan yosh bo'lgan qarindosh yoki yaqin kishining xotini va shu xotinga murojaat.

KELINCHAK Kelin 1 s. kichr,- erkl. shakli.

QIZ 1 Balog'at yoshiga yetmagan ayol.

2 Ayol jinsiga mansub farzand (o'z ota-onasiga nisbatan). 3 Balog'atga yetgan, ammo hali erga tegmagan ayol; ma'suma, bokira.

QIZALOQ Qiz bola, yosh qiz.

QIZCHA1 Qiz 1,2 s. kichr-erkl.

2 Yosh qizlarga murojaat shakli.

BO'YQIZ Bo'yiga yetgan, balog'at yoshidagi qiz.

BOLIG'A Balog'atga yetgan ayol.

ZAVJA [a. <^j j - xotin] esk. Xotin, rafiq.

QARIQIZ I Turmushga chiqmasdan yoshi ulg'ayib, o'tirib qolgan qiz.

QARIQIZ II bot. Murakkabguldoshlar oilasiga mansub, zax va soya yerlarda, yo'l yoqalarida o'sadigan ikki yillik begona o't (xalq tabobatida va chorvachilikda ishlatiladi).

QARIQIZIII bot. Qora tusli, bo'rtma yo'llari bor, cho'zinchoqroq, kam etli kuzgi qovun.

BOKIRA [a. »jSb - dastlabki meva; iffatli qiz bola] 1 Er ko'rmagan, turmushga chiqmagan; iffatli. 2 ko'chma Qo'l tegmagan, kishi oyog'i yetmagan. 3 ayn. bokir.

Kuchlilik darajasi: Ba'zi sinonimlar bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, biri boshqasidan kuchliroq yoki kuchsizroq ma'no ifodalashi mumkin. Masalan, ota va padar sinonimlari o'rtasidagi farqni ko'rib chiqsak, ota leksemasiga qaraganda padar leksemasi yanada kuchliroq, yuqori darajadagi ma'noni beradi. Yoki qattiq va metin sinonimlarini oladigan bo'lsak, qattiq leksemasiga qaraganda metin leksemasi kuchliroq ma'no ifodalaydi. Bu kabi misollarni yana ham ko'plab keltirishimiz mumkin.

Kuchsizlik darajasi: Sinonimlar orasidagi kichik farqlarni aniqlash. Masalan, sevgi va muhabbat leksemalari bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, sevgi odatda umumiy va keng ma'noga ega bo'lib, insonlarning bir-biriga nisbatan iliq, samimiy tuyg'ularini bildiradi. Sevgi ko'pincha insonlar o'rtasidagi mehr, ehtiros, va g'amxo'rlikni anglatadi. Bu so'z ko'proq oddiy va tushunarli tuyg'ularni ifodalaydi. Sevgi nafaqat romantik munosabatlarga, balki ota-ona va bola o'rtasidagi mehr-muhabbat, do'stlik, vatanga bo'lgan muhabbat kabi turli shakllarda ham ishlatiladi. Ushbu so'z ko'pincha oddiy va kundalik muloqotda ishlatiladi. U xalq orasida keng tarqalgan va barcha yoshdagi odamlar o'rtasida oddiy suhbatlarda qo'llanadi. Muhabbat esa, o'zining poyetik, ma'nolarni chuqurroq ifodalash xususiyati bilan, ko'proq adabiy va romantik uslubda ishlatiladi. Adabiyotda, she'riyatda, musiqada va boshqa san'at shakllarida qo'llaniladi. Umuman olganda bu ikki leksema orasida kuchli darajalanish kuzatilmaydi.

Grammatik tahlil yordamida sinonimlarning grammatik farqlarini aniqlash mumkin. Ba'zi sinonimlar bir-biridan grammatik jihatdan farq qiladi: ular o'zgacha jumla tuzilmalarida ishlatilishi yoki turli shakllarda bo'lishi mumkin.

Birinchi va ikkinchi darajadagi sinonimlar: Ba'zida sinonimlar bir xil ma'no ifodalasa ham, ularning grammatik shakllari farq qiladi. Masalan, "sevimli" va "yoqimli" so'zlari o'rtasida grammatik ma'nolar kuzatiladi.

SEVIMLI ayn. sevgili 1. Akramxon shu sevimli qizning seviklisi bo'lish- ni istar, ammo bunday baxtga erishish oson emasligini bilardi. [L.Rahim, Tinimsiz shahar].

2 Yoqitradigan, yaxshi ko'radigan, suyuqli. Sevimli kasb. Sevimli musiqa. — Anvar har kim uchun sevimli va

xushmuomalasi barchaga baravar edi. [A.Qodiriy, Mehrobdan chayon].

YOQIMLI 1 Istarasi issiq, yoqimtoy, kishini o'ziga tortadigan, ko'zga yaqin. Yoqimli bola. Yoqimli juvon. — Darhaqiqat, u yoqimli qiz bo'libdi. U ancha kamtarga ham o'xshaydi. [Mirmuhsin, Umid].

2 Kishiga yoqadigan; zavq, huzur bag'ishlaydigan. Yoqimli kuy. Yoqimli kulgi. Yoqimli shabada. — Uzoqdan, radiodan mayin, yoqimli muzika oqar edi. [Oybek, Nur qidirib].

Tahlil va natijalar. O'zbek tili sinonimik lug'atlarida darajalanish tamoyilini qo'llashni takomillashtirish orqali sinonimlarning izohlarini ularning ma'nolarni, yanada aniqlash va ularning farqlarini ifodalash osonlashadi.

Darajalanish, asosan, sinonimlarning ma'no darajalarini, ya'ni bir-biridan qanchalik farqlanishini tushuntirishni nazarda tutadi. Bu tamoyilni takomillashtirish uchun quyidagi yondashuvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Sinonimlar o'rtasidagi farqlarni belgilash: Sinonimlar har doim ham bir xil ma'noni anglatmaydi va bir xil ma'noda qo'llanilmaydi. Ularni turli kontekstlarda qanday ishlatilishini aniqlash va lug'atlarda misollar keltirish bu farqlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tilshunos olim H.Dadaboyev, tilshunos olimlar M.Abjalova hamda U.Rashidovalar tomonidan yaratilgan "O'zbek tili sinonimlarining o'quv lug'atida[2]" tez leksemasining sinonimlari quyidagicha berilgan: tez, ildam, jadal, shitob, shaxt, zud, bot 1, bot-bot 1.

Izohi: Me'yoriy holatdan yuqori temp (sur'at) bilan (harakat haqida). Turkumi: ravish.

Badiiy uslub: ildam, zud

Publisistik uslub: jadal

So'zlashuv uslubi: bot 1, bot-bot 1

Eskirgan (tarixiy) shakli: shitob, shaxt[2;493].

Tez, tezda(n), darrov, darhol, birpasda, birzumda, birlahzada, zumda, hadaha, lahzada, beto'xtov, birrav (birrov), hademay.

Izohi: Qisqa vaqt ichida, tezlik bilan, bir nafasda.

Turkumi: ravish.

Badiiy uslub: birlahzada, lahzada, beto'xtov

Publisistik uslub: darhol, tez

So'zlashuv uslubi: tezda(n), birpasda, bir zumda, zumda, darrov, birrav, hademay, hadaha[2;493]. Yuqorida keltirilgan leksemalar turli vaziyatlarda turlicha qo'llanadi, va bu leksemalarning har biri o'ziga xos ma'noga ega.

Daraja ko'rsatkichlari kiritish: Sinonimlarni darajalariga ko'ra tartiblash, masalan, "zo'r" leksemasining sinonimlari ajoyib, dahshat, birakay, qiyomat [2;583] bu leksemalarni birining o'rnida boshqasini qo'llash bir xil ma'noni bildirmaydi. To'g'ri, zo'r leksemasining o'rnida ajoyib leksemasini qo'llashimiz mumkin, lekin sinonimik qatoridagi boshqa leksemalarni zo'r leksemasining o'rnida qo'llay olmaymiz. Zo'r, ajoyib, qiyomat leksemalari so'zlashuv uslubiga xos, dahshat va birakay leksemalari esa, badiiy uslubga xos. Bunday hollarda darajalanish hodisasi bu leksemalar o'rtasidagi farqni ko'rsatishga yordam beradi. Sinonimlar orasidagi darajalanish shu tarzda ko'rsatilsa, o'quvchi yoki foydalanuvchi bu so'zlarni o'z o'rnida va to'g'ri qo'llay oladi.

Sinonimik qatorlar yaratish: Sinonimlar faqat o'xshash ma'nolarga ega bo'lmay, balki ular lingvistik jihatdan turli darajalarga ham ega. Masalan, "qorong'ilik" so'zining sinonimlari (zulmat, zimiston, zimziyo [2;425]) darajalarga qarab farqlanadi. Daraja farqlarini aniqlash uchun sinonimik qatorlar yaratish, lug'atning strukturasi va foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi. Sinonimik qatoridagi leksemalar soni qanchalik ko'p bo'lsa, ular orasidagi darajalanish yaqqol namayon bo'ladi.

Semantik va pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilish: Sinonimlarning semantik va pragmatik nuqtayi nazardan tahlilini o'tkazish, ya'ni ular qanday maqsadlarda ishlatilishi, ma'nolarining xususiyatlari va zamonaviy tilshunoslikda qanday izohlar berilishini tahlil qilish, darajalanishni hodisasini chuqurroq ifodalashga yordam beradi.

Yangi sinonimlar kiritish va eski qo'llanilgan sinonimlarni yangilash: O'zbek tilidagi sinonimlar doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Shuning uchun, lug'atlarda yangi sinonimlar kiritilishi va ba'zi eski sinonimlarning ma'no darajalari qayta ko'rib chiqilishi kerak. Masalan: Atoqli tilshunos olim A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati[4;223]da chiroyli leksemasi quyidagi sinonimik qatorga ega: chiroyli, go'zal, husndor, husnli, xushro'y, ko'hlik, ko'rkam, barno, suluv, zebo, latofatli, sohibjamol. Yuqorida nomlari keltirilgan tilshunoslar H.Dadaboyev, M.Abjalova, U.Rashidovalar tomonidan yaratilgan lug'at[2]da esa, chiroyli leksemasining sinonimik qatorlari quyidagicha berilgan: chiroyli, go'zal, jozibador, jozibali, hurliqo, husndor, husnli, xushro'y, latofatli, sohibjamol, mahvash, oyjamol, mahpora, maftunkor, mahliqo, barvasta, fusunkor, fusingar, afsunkor, gulyor, ketvorgan[2;618]kabi. Ikki lug'atni birgina chiroyli leksemasining sinonimik qatorlari orqali taqqoslaganda farqlar sezilarli darajani tashkil qilmoqda. Ko'rishimiz mumkin, ikkinchi lug'atdan ko'pgina yangi sinonim leksemalar joy olgan. Bu ikki lug'at bir-biridan farq qilishini ham e'tiborga olishimiz kerak. A.Hojiyev tomonidan yaratilgan lug'at Izohli lug'at bo'lsa, H.Dadaboyev, M.Abjalova, U.Rashidovalar tomonidan yaratilgan lug'at esa, O'quv lug'ati hisoblanadi. O'quv lug'at asosan ta'limga yo'naltirilgan bo'ladi.

So'z ma'nosidagi darajalanuvchi belgi turli so'zlar guruhida (paradigmalarda) xilma-xil va rang-barang bo'lishi mumkin. Ushbu xilma-xillik hamda rang-baranglik bir

guruhdagi so'zlar (paradigmalar)da ma'lum bir belgining ozlik yoki ko'plik kabi sifati bilan farqlanadi. Masalan, sabo – shabada – yel – shamol – bo'ron – to'zon – qyun kabi qatorni oladigan bo'lsak, bunda havo oqimining kuchayib borish darajasining ortib borishi kuzatiladi. Ayni qatordagi leksemalar shu farqliliklarga asoslanib, so'zlararo ma'noviy munosabatning bir turi bo'lgan graduonimiya hodisasini shakllanishiga xizmat qiladi. Demak, graduonimik tadqiqotlarning sinonimik qarashlarga ta'siri kuzatilar ekan, so'zlararo ma'noviy munosabatlarning aynanliklardan farqliliklar tomon o'tib borish holatlarining mavjud bo'lishi tabiiydir.

Sinonimlarning grammatik xususiyatlarini (masalan, fe'l, sifat, ot) va uslubiy kontekstlarini hisobga olib, ular orasidagi farqlarni aniqlash darajalanishni chuqurlashtiradi. Ba'zi sinonimlar rasmiy, ba'zilari esa dialektal sinonimlar sanaladi. Yangi yaratilajak sinonimik lug'atlarda berilgan har bir leksemadan keyin o'sha leksemaning qaysi uslubga xosligi yoki dialektik leksema ekanligini yana ham aniq qilib berib ketish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz kerakki, o'zbek tili sinonimik lug'atlarida, umuman leksikografiya sohasida darajalanish tamoyilini qo'llashni takomillashtirish o'zbek tilshunosligining rivoji uchun muhim qadamlardan biri sifatida baholanadi. Bu, o'z navbatida, til o'rganuvchilar uchun aniq va to'liq tushunish imkonini yaratadi. Kelajakda o'quvchi va talabalar uchun sinonimlar o'quv lug'ati va ularning darajalari bo'yicha misollarni o'z ichiga olgan qo'llanmalar tayyorlash, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali sinonimlarni o'rganish hamda sinonimlar o'rtasidagi darajalarni aniqlash imkoniyatlarini yaratish, mavjudlarini yana ham takomillashtirish oldimizda turgan vazifalardandir.

ADABIYOTLAR

1. Тур О. Проблемы изучения синонимии в современных терминологических системах. <http://gisap.eu/ru/node/67997>.
2. Dadaboyev H., M.Abjalova, U.Rashidova. O'zbek tili sinonimlarining o'quv lug'ati. – Toshkent 2023. – 810 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati 6 jildli. – Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964 b.
4. Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент. "Ўқитувчи", 1974. – 308 б.
5. Раҳмонов Ф. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2018. – Б 37.
6. Н.Дўстмаматова. Ўзбек ва рус тилларида луғавий градуонимия. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2023. – 188 б.



UDK:801.8.12

Baxora YUNUSOVA,

Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail:yunusovabakhora@gmail.com

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti S.Yuldasheva taqrizi asosida

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOMBINATOR XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada frazeologik birliklarning kombinator xususiyatlarini o'rganish jarayonida yondashuvlar, frazeologizmlarning leksik sathdagi kombinatsiyalari, frazeologik birliklarning kombinator xususiyatlari obrazli hamda lisoniy omil jihatidan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: emik birlik, ichki bog'lanish, paradigmatic, sinergetik qonuniyatlar, sintagmatik, tashqi bog'lanish, valentlik, verbosentrizm.

КОМБИНАТОРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация

В статье анализируются подходы к изучению комбинаторных свойств фразеологизмов, сочетаний фразеологизмов на лексическом уровне, комбинаторных свойств фразеологизмов с точки зрения образного и языкового факторов.

Ключевые слова: эмикское единство, внутренняя связь, парадигматика, синергетические законы, синтагматика, внешняя связь, валентность, вербоцентризм.

COMBINATOR CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

In the article, approaches to the study of combinatory properties of phraseological units, combinations of phraseology at the lexical level, combinatorial properties of phraseological units are analyzed in terms of figurative and linguistic factors.

Key words: emicunity, internal connection, paradigmatic, synergetic laws, syntagmatic, external connection, valence, verbocentrism.

Kirish. Frazeologik birliklarning kombinator xususiyatlarini o'rganish jarayonida ikkita yondashuv ko'zga tashlanadi: ichki bog'lanish va tashqi bog'lanish. Frazeologik birliklarning tashqi sintagmatik aloqasini matn qurshovida o'rganish, frazeologik birlik tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi ichki sintagmatik aloqani tahlil qilish haqidagi fikrlar tilshunoslikka oid asarlarda ko'zga tashlanadi. Ikkinchi yondashuvda olib borilgan izlanishlarda frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini belgilovchi psixolingvistik jarayon sifatida sintagmatik munosabatlar yordamida frazeologizmlarning birliklari o'zaro bog'lanadi va nutqiy tuzilma hosil qilish uchun o'zaro birikadi, deb ta'kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ayrim adabiyotlarda frazeologik birliklardagi so'zlar, avvalambor, o'zaro valentlik xususiyatlari tufayli erkin sintaksis munosabatlarida ekanligi aytib o'tiladi. Birinchi marta valentlik tushunchasini kiritgan fransuz tilshunosi L.Tenyer bo'lib, u valentlikni bevosita fe'l bilan bog'lagan[1]. S.D.Kasnelson valentlikni "so'zlarning o'zaro birikish xususiyati" sifatida taklif qildi va aniq sintaktik aloqalar ostida morfologiyaning sintaktik tomondan ifoda etilishi, sintaktik aloqalarning ichki leksik ma'nolari yashiringanligi", deb ta'kidlaydi[2]. Hozirgi vaqtda valentlik tushunchasi nafaqat verbosentrizm nuqtayi nazaridan, balki boshqa darajadagi nutq va til birliklarining boshqa qismlari bilan ham izohlanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, valentlik tushunchasi sintaktik tushuncha emas, balki semantik-grammatik tushunchadir. Boshqacha qilib aytganda, valentlik gap bo'lagining xususiyati emas, balki so'z turkumining, so'zning xususiyatidir [3]. Bunday valentlikni o'rganish dastlab nutq fe'llarida amalga oshirildi[4] so'ng holat fe'llarida ham o'rganildi. Tilshunos olimlar frazema birliklari o'rtasidagi

aloqani tanlanuv munosabati [5], bog'lashuv deb ham yuritadilar.

Narsa-buyumlarning xususiyatiga xos bo'lgan valentlikning erkin amalga oshirilishi sintaksis sohasiga tegishlidir. Valentlikning chegarasi yoki uning buzilishi frazeologiya sohasiga ham ta'sir etadi. Yaxlit frazeologik makon o'z-o'zini tashkil qiluvchi tizim sifatida til va madaniyatning semiotik vositalari sinergetik qonuniyatlar asosida rivojlanadi, o'zaro ta'sirini tashkil qiluvchi tizim sifatida semantik vositalarni tartibga solish va paradoksal, ammo asoslantirilgan jihatlari konfiguratsiyasi qabul qilingan voqelik elementlarining qonuniyatlariga muvofiq rivojlanadi [6] va agar tilning kombinator imkoniyatlari sintaktik tomondan o'rganilgan [7] bo'lsa, keyinchalik frazeologiyaning mavzusi tilning antikombinatorik qobiliyatini tashkil etadi. Ular atomli so'z birikmalarining leksik va grammatik tarkibiy qismlarining ma'nolarini "erkin sintaktik genotip" (N.F.Alefirenko atamasi) sifatidagi birikmalarining o'zaro ta'siri uning frazeologik birligi bilan bog'liqligini anglatadi [8]. Moslik fenomeni o'rganadigan sintaksisdan farqli o'laroq, frazeologiya "nomuvofiqlik" fenomeni sifatida ko'rib chiqiladi. Ularning asosini o'rganish (frazeologik birlikdagi ikkita mazmunli leksemalar) va frazeologik birikmalarining atom iboralarini o'rganish usuli bilan aniqlangan tillarning kombinatorial xususiyatlaridir. Bu xususda akademik V.V.Vinogradovning "frazeologizmlar til elementlarining kombinatsiyalaridir va o'ziga xos yaxlit semantik xususiyatga ega bo'lgan kommunikativ birlikdir", degan fikriga asoslanib, o'zbek tili frazeologizmlarining komponent tarkibini ko'zdan kechirish va undagi faol so'z komponentlar miqdori, darajasi, absolyut chastotasini aniqlash mumkin. Chunki frazeologiya birliklarning tarkibiy shakllanishi tilning grammatik qurilishi

va so'z-komponentlarining distributiv aloqalari ularning o'zaro bog'lashuv qonuniyatlariga asoslanadi [9].

Bu xususida A.Mamatov shunday yozadi: "frazeologik shakllanish frazeologizmlarning ichki tarkibini, tarkibiga ko'ra turlari, ularning mantiqiy asosi, qismlari o'rtasidagi grammatik va leksik munosabatlar, frazeologizmlar shakllanishining usul va vositalarini o'rganadi... Alohida olingan so'zlar mantiqiy asos sifatida qatnashib, so'zning ma'no asosiga ko'ra birikma shakllanadi. Bunda so'zning ichki bo'linish, ya'ni differentsiatsiya asosida so'zning ma'nosi birikma shaklida namoyon bo'ladi"[10].

Semantik sintaksis bilan ularni tashkil etadigan psixologik voqelikning ikkita tasviri semantik vaziyatni hosil qiladi. Frazeologik birikmalarda ikki mazmunli semantik birlashishi ularning yakkalanishi va yangi ma'nolarni shakllantirish qobiliyatini keltirib chiqaradi.

Frazeologik birliklar ham til sistemasida o'zining ifoda imkoniyatlari bilan farqlanuvchi til birligi sifatida o'rin tutadi. Frazeologizmlar garchi so'z birikmalari, jumalarga yaqin tursa-da, ma'no xususiyatlari bilan lug'aviy ma'noli birliklarga, leksemalarga o'xshaydi, chunki frazeologik birliklar ham tilda umumiy, imkoniyat sifatida turuvchi emik birlik sanaladi. F. de Sossyur "Umumiy tilshunoslik kursi" asarida sintagma, uning belgilari haqida so'z yuritir ekan, tilda shunday tayyor birikmalar borki, ularning uzual

xarakteri ma'nosi va sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi. Ularni tayyorgarliksiz qo'llash mumkin emas, chunki bunday birikmalar tayyor holda, an'anaga ko'ra qo'llaniladi, – degan edi [11]. L.I.Royzenzon frazeologizmlarni leksik emas, balki sintaksis frazeologik shakllanish uchun "qurilish ashyosi" sanaladi desa [12], N.M.Shanskiy esa, konkret so'z birikmalariga asoslanishini ta'kidlaydi.

Tilshunos olim A.E.Mamatov esa, frazeologizmlar leksik sathdagi kombinatsiyalardan tashkil topadi, deb yozadi [13]. Bu haqda I.A.Fedosov ham fikr yuritadi va muallif leksik mezonni asosiy mezon sifatida qaraydi. Uning fikricha, "leksik mezonga ko'ra, ibora tarkibidagi tayanch (asosiy) so'zga qarab", uning uslubiy ma'nosi va xoslanishini aniqlash mumkin [14]. Mazkur fikrlarga tayangan holda B.Yo'ldoshev qo'llanmasida xudo so'zi ishtirok etgan iboralarni uslublarga xoslanganligini tahlil qilar ekan, uning kombinatsiyasiga to'xtaladi [16].

Frazeologik birliklar kamida ikki lekseman tarkib topadi. "Fe'l frazemalarda tayanch a'zo fe'l leksema bilan, nutqiy tayanch a'zo esa, asosan, ot leksema bilan, ba'zan boshqa tartum leksemasi bilan ifodalanaadi. Fe'l frazemaning bog'lashuv imkoniyati avvalo uning tarkibidagi fe'l leksemaga qarab belgilanadi [17]". Masalan, tushmoq fe'l quyidagi leksemalar bilan kombinatsiyaga kirishadi va frazeologik birlik hosil qiladi:

Kombinatsiyaga kirisha oladigan so'z	Grammatik ko'rsatkich	Tayanch so'z
vasvasa	-ga	TUSHMOQ
vahima	-ga	
gap	-ga	
sarosima	-ga	
talvasa	-ga	
tashvish	-ga	
umidsizlik	-ka	
hayrat	-ga	

Har qanday chinakam shoir, yozuvchi uchun frazeologizmlar faqat fikr aytish, kechinmalarni ifodalash vositasigina emas, balki yashash tarzi, yashash shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kun o'zbek adabiyoti vakillari orasida Ulug'bek Hamdam o'zining chuqur, sermazzmun roman va hikoyalari bilan xalq og'ziga tushgan yozuvchilardan biri bo'lib, uning "Muvozanat" romanida har bir qahramon nutqi o'ziga xos tabiatidan kelib chiqib tasvirlangan, personajlar nutqi tarkibida ham, muallif nutqida ham shunday frazeologizmlar ishlatilganki, ular g'oyaviy estetik vazifalarni bajarishga bo'ysundirilgan. Masalan, "dunyoni buzmoq", "ko'zga issiq ko'rinmoq", "ko'zning oq-uqorasi", "nari borib, beri kelmoq", "ko'ngilni buzmoq", "yer yorilmadi-yu, yerga kirmaslik", "yo'lga solmoq", "ko'ngilga yaqin" kabi frazeologizmlar u yoki bu uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiladi. Shuni muhimki, ko'z komponentli frazeologik birliklar insonning cheksiz va turli-tuman hishayajonini, fiziologik jarayonlarini ifodalashga xizmat qiladi, ularning asosiy qismi struktural jihatdan ot+fe'l tuzilishiga ega bo'lgan fe'l iboralardir. Masalan, ko'z yugurtirmoq iborasi ikki komponentli bo'lib, Sh.Rahmatullayev lug'atida quyidagicha izohlangan: Ko'z yugurtirmoq. Kim nimaga yoki kimga. Tez va yuzaki qaramoq. Varianti: ko'z(i)ni yugurtirmoq [18]. Masalan, Shunda "lop" etib xayoliga o'tgan yili yozda toshga bog'lab qiynaganlari – o'sha... sochlari patila-patila devonasifat yigit tushdi. "Ko'zlarimga suv to'lsinsenlarning!!!" – qariyaning miyasida qarq'ish chaqnadi (201). Misoldagi ko'zlariga suv to'lmoq frazeologizmi Sh.Rahmatullayev lug'atida keltirilmagan. Asardagi ko'zlariga suv to'lmoq frazeologizmi ichki kombinatsiya hosil qilib "o'lim tilamoq" ma'nosida qo'llangan. Bu frazeologizmda o'g'rilikda gumon qilinib, cho'ponlar tomonidan qip-

yalang'och holda yo'l yoqasidagi ulkan toshga chirmab tashlangan Amir uyat, xo'rlik, kaltak azobidan ham ko'ra tashnalikdan qattiq aziyat chekadi. Amirga suv berishmaganidan so'ng uni shu ahvolga solganlarni qarq'ashidagi "Ko'zlarimga suv to'lsin senlarning!!!" "frazeologizmidagi ko'z insonning ko'zi bilan bog'liq bo'lib, ko'zlariga suv to'lishi ya'ni "cho'kib o'lish"iga urg'u bermoqda. Qahramon suvsiz qolganligini boshqa yo'l bilan emas, aynan suvga g'arq bo'lishini istayotganligi bilan alamini olmoqchiligini ko'rsatadi. Yana bir misol: Axir, o'n gulidan biri ochilib ochilmagan sho'rlik bolajonlarining ko'zlariga loyqa to'lgunchaoshini oshab, yoshini yashab bo'lgan otaning joniga kelmaydimi o'sha qiron!(200). U ozib-to'zgan, soqollari o'sgan, qomati ham yuzi yanglig' so'lg'in, ayniqsa, ko'zlaridan nur-ma'no qochgan edi(151).

Misollardagi ko'zlariga loyqa to'lguncha, ko'zlaridan nur-ma'no qochgan edi frazeologizmlariga ham "o'lim" ma'nosi yuklatilgan. Bunday frazeologizmlar har qanday insonning tasavvuriga sig'avermagani singari, uni bu qadar ixcham va siqiq ifodalashning uddasidan ham har qanday ijodkor chiqq olmaydi. Bu Ulug'bek Hamdam poetik individualligi samarasi va bu jarayonda u frazeologizmlardan mohirona foydalana olgan, individual-muallifga xos ibora yaratib, ifodaning yanada obrazli bo'lishiga erishgan.

Tahlil va natijalar. Umuman olganda, ko'z komponentli iboralarning paradigmatic va sintagmatic shakllanish jarayoni murakkab bo'lib, ularning mazkur xususiyatlari matnda, nutqiy vaziyatda yaqqolroq namoyon bo'ldi. Ko'z komponentli iboralarning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlari tahlili natijasida quyidagi qisqa xulosalarga keldik:

-tilimizda ko'z komponentli fe'l, ot, sifat va kam bo'lsa-da, ravish iboralar shakllangan;

-ko'z komponentli iboralar matnda turli so'z o'yinlarini hosil qilib, o'zaro shakldoshlik xususiyatini namoyon etadi;

- yozuvchi ijodida ko'z komponentli iboralarning lug'atlarda qayd etilmagan variant va sinonimlari uchrashi kuzatildi [19].

Nazariy frazeologiya uchun mazkurizlanishlar kombinatorfrazeologiya obyekti tushunchasining yakuniy shakllanishiga yordam beradi. Xuddi frazeologik birliklarning shakllanish mexanizmini o'rganishda bo'lgani kabi, turli sinflarga mansub frazeologik komplekslarni o'zida mujassamlashtirgan va frazeologiya obyekti chegaralarini kengaytirishning to'g'ri yo'nalishini topish imkonini beruvchi asosiy xususiyatni aniqlash kabi masalalar kombinator frazeologiya muammolarining mohiyatini ochishga imkon beradi. Kombinator frazeologiyani muammolarini hal etishda frazeologik birliklarning fonematik darajasi, prosodik, morfologik, leksik, sintaktik, uslubiy xususiyatlari inobatga olinadi va o'rganiladi. Turli darajadagi bir nechta frazeologik birlik modellaritilning frazeologiyasiga xos bo'lgan morfosintaktik konstruktsiya, leksik bloklar, prosodik sxemani birlashtirish talab qilinadi. Frazeologik birlikni yaratishda turli sath birliklari va frazeologik kod modellarini tanlash harakatlari o'zaro bog'liqda amalga oshiriladi.

Xulosa. Frazeologik birliklarning kombinator xususiyatlari tahlil qilinganda ularning ikki jihati inobatga olinadi: 1) obrazli; 2) lisoniy omili.

Masalan, ilgari gohi-gohida bekorchilikdan bekasiga ko'z, bora-bora esa so'z otibvaqtini chog' qiladigan Alimqul sho'rlikning endi bosh qashlashga qo'li tegmasdi (M. 213). Ko'z otmoq – ko'zining bir chekkasi, kinoya, kesatiq bilan qaramoq. So'z otmoq – tegishib yoki jahlini chiqarish uchun kinoya, kesatiq ma'noli gap, so'z aytmoq; piching qilmoq. Vaqtini chog' qilmoq – yaxshi kayfiyatli, xursand holatni kechirmoq, xursandchilik qilmoq. Mazkur frazeologik birliklar matn qurshovida "ko'z, bora-bora esa so'z otib" tarzida qo'llangan bo'lib, obrazli omil ta'sirida emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikni ta'minlamoqda. Uch frazema bir gap tarkibida yozuvchining mahorati bilan bir butunlikni tashkil qilmoqda: ko'z otibvaqtini chog' qiladigan; so'z otibvaqtini chog' qiladigan.

Lisoniy omil ta'sirida o'rgansak, unda fonetik jihatdan ko'z, so'z (o'z) bir xilohangda, maromda aytiladi va bunda ko'z, so'z bir chiziqlikni ushlab turadi. Shu bilan Alimqulning odob-axloq doirasiga sig'maydigan, behayo holatini ta'kidlash, tovushlar ohangi personajning ham qarash, ham gapirish manerasini o'zgarayotganini, ritmning ta'kidi, bekaqa bo'lgan munosabatni ko'rsatib kelmoqda. Morfologik jihatdan [N+V] modelidan hosil bo'lgan. Umumiy holatda "ko'z, bora-bora esa so'z otibvaqtini chog' qiladigan" birliklari (Ib[N+V2] → Ib[N(eb3+k3)+Sq(Adj+V1)]) modelini yuzaga keltiradi [20].

Bosh qashlashga qo'li tegmaslik – xayol surish, bosh qotirish, umuman, biror ishni bajarishga vaqti yo'q; qo'li band.

Obrazli omil: Mazkur butunlik "bosh qashimoq" (noilojlikdan nima qilishini bilmay o'ylab qolmoq, xayol surmoq, bosh qotirmoq) va "qo'li tegmaslik" (biror ishni bajarishga vaqti yo'q; qo'li band, ish bilan band) kabi ikki frazemaning kombinatsiyasidan hosil bo'lib, oldin xo'jayinining xotini Zahro odobsiz, behayo, xizmatchi Alimqulga bo'lgan moyilligi, keyin Yusuf kelgandan so'ng Alimqulga bo'lgan e'tiborsizligi tufayli Zahro atayin unga haddan ko'p vazifani yuklanganligiga urg'u beradi. Shu sababli ham adib ikki frazemani bir butunlikda mazmunni bo'rttirib ko'rsatish uchun qo'llaydi.

Lisoniy omil: Ib[N(k1)+V3(K4)]+Ib[N(k1)+V3(b)] modelidan hosil bo'lib, kinoyaviy-pragmatik mazmun ifodalash uchun xizmat qilgan. Ushbu frazemaga nutqiy vaziyat talabi bilan salbiy mazmun yuklatilgan.

"Ey xudoyim, meni hatto bolalarimga qarattirib qo'ymay, omonatingniyoqda ado yurgan holimda olgil!" deya duolar qilguvchi edim. Buni anglagani zahoti bir muddat nest bo'lib qotib qoldi (M.233).

Omonatingni oyoqda ado yurgan holimda olgil -ish-harakat, voqe-hodisaning oxiriga yetkazmasdan, yurib turgan paytda jonini olmoq, vafot etmoq, olamdan o'tmoq.

Obrazli omil: Mazkur butunlik "omonatingni ol" (vafot etmoq, olamdan o'tmoq) va "oyoqda ado yurmoq" (tetik yurgan, tashvish, dard orqasidan holdan toymagan, tamom bo'lmagan) kabi ikki frazemaning kombinatsiyasidan hosil bo'lib, asarning bosh qahramoni Yusufning necha yildan beri to'shakda mixlanib yotgan enasining nolasi "meni jonimni tezroq ol!" degan pragmatik ma'noni shakllantirish uchun qo'llanilgan.

Lisoniy omil: Ib[N(eb2+k3)+Sq(Av+V1)+N(eb1+k5)+V(m2+pnb2)] modelidan hosil bo'lib, ushbu frazemada muallif ekspressivlikni kuchaytirish maqsadida "omonat, oyoq, ado, hol, ol" dagi "o" tovushning uyg'unligi, o'z navbatida, mazmunga bog'liq holda obraz nutqining ohangi, obrazning holati, iltijosini ta'sir kuchini orttirish uchun xizmat qilgan. Shuningdek, kampirning bir tomondan, jo'shqinligi, qat'iyatligi, keskinligi, ikkinchitmondan, yoqimlilik, mehribonligi, mehnatkashligi singari qator emotsionallikni ifodalashga yordam beradi.

Nest bo'lib qotib qolmoq – bir muddat hech narsani anglamaslik, o'zini bilmaydigan holda, hushidan, o'zidan ketgan ahvolga tushish.

Obrazli omil: ushbu frazema orqali muallif Yusuf uchun qadri, butun borlig'i bo'lgan, hech qachon o'lmaydigan deb o'ylagan enasining vafot etganligi haqidagi xabarni eshitgach tushgan ahvoliga urg'u berib, uning qotib qolishidan ham qattiqroq ezilganligini ifodalamoqda. Muallif qotib qoldi deyishi mumkin edi, ammo uning ezilish holatini yanada bo'rttirish maqsadida tojik tilidan olingan "nest shud"ni "nest bo'lmoq" tarzida qo'llagan.

Lisoniy omil: Ib[Sq(M+V2)+Kfsq(V2+V(zu1+pnb1))] modelidan hosil bo'lib, frazemada ravishdosh – ibqo'shimchasining ketma-ket qo'llanilishi uslubiy g'alizlikni keltirib chiqarmagan, aksincha, obrazning holatini bo'rttirib ifodalash uchun qo'llanilgan.

Nima bo'lgandayam, jazirama saratonda g'ir etib esgan sarin shabodadek jamiyatara kezib qolgan bu toza nafas ko'pchilikning anchadan buyon shodlik ko'rmagan tund yuzlariga tabassum rasmini chizabildi (M.236).

Tabassum rasmini chiza bilmoq – kuldirmoq, quvontirmoq, xursandchilik ulashmoq.

Obrazli omil: bunda poraxo'rlik va tanish-bilishchilikning ramzi bo'lib qolgan Tursunovning siyosiy faoliyatiga nuqta qo'yilishi Yusuf va boshqalarning ruhiyatidagi quvonchni ifodalash uchun mohirona qo'llangan. Muallif tabassum o'rniga kulgi, shodlik, quvonch kabi so'zlarni qo'llashi mumkin edi, ammo axborotning ta'sir kuchini oshirish uchun aynan tabassumning (uning rasmi yo'q, mavhum tushunchaning) rasmini chiza olish qobiliyatiga ega bo'lish darajasini ko'rsata bilgan hamda tabassum rasmi, rasmini chiza bilmoq kabi kombinatsiyani mahorat bilan qo'llagan.

Lisoniy omil: Ib[N(k2)+N(eb3+k3)+Kfsq(V2+V(zu1+pnb3))] modelidan hosil bo'lgan frazema axborotning izchilligini tashkil qiladigan tovushlar (tabassum, rasm, chiz) ketma-ketligi ritm va ma'no yaxlitligini hosil qilgan. Bu esa kitobxonga estetik ruh, zavq bag'ishlagan. Bu jarayonning mahorat darajasida

amalgam oshirilishida ijodkorning individualligi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Кунин А. В. Фразеология современного английского языка. – М.: Международные отношения, 1996. 381 с.
2. Черданцева Т. З. Язык и его образы. Очерки по итальянской фразеологии. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007. 168 с.
3. Алефиренко Н.Ф. Фразеология и когнитивистика в аспекте лингвистического постмодернизма. Монография. – Белгород, 2008. 152 с.
4. Соколова Г. Г. Фразообразование во французском языке. – М.: Высшая школа, 1987. 144 с.
5. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса / вступ. ст. и общ. ред. В. Г. Гака. М.: Прогресс, 1988. –С.656.
6. Кацнельсон С. Д. Типология языка и речевое мышление. М.: Едиториал УРСС, 2002. –С.220.
7. Кучкортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. –Тошкент: Фан, 1977. – Б. 71.
8. Кучкартаев И. Валентный анализ глаголов речи в узбекском языке. – Ташкент: Ўқитувчи, 1977.
9. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989.
10. Степанов М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблемы валентности в современном немецком языке. – Москва: Высшая школа, 1978. – С.154.
11. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: Университет, 1992.
12. Мамудян М. Лингвистика. - М.: Прогресс, 1985. –С. 102.
13. Алефиренко Н. Ф., Золотых Л. Г. Проблемы фразеологического значения и смысла (в аспекте межуровневого взаимодействия): монография. 2-е изд-е, испр. и доп. - Астрахань: Астраханский университет, 2004. 296 - С. 3. Жуков В. П. Об управлении при глагольных фразеологизмах русского языка // Филологические науки. 1971. №1. С. 14.
14. Виноградов В.В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. М., 1977. -С.48.
15. Соссюр Ф. де Курс общей лингвистике. – Труды по общему языкознанию. – Москва: Прогресс, 1977. – С.157
16. Ройзензон Л.И. Синтаксис и фразеология // Проблемы синтаксиса. –Львов, 1963. – С.49.
17. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларнинг шаклланиши масалалари: Филол.фан.докт.дисс..автореф. – Тошкент, 2000. –Б. 37.
18. Федосов И.А. Функционально-стилистическая дифференциация русской фразеологии. – Ростов –на-Дону, 1977. – С. 69.
19. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1999. –Б. 27.
20. Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида): филол.фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) диссер. – Самарқанд, 2018. – 52 б.
21. Ҳамдам У. Мувозанат. – Тошкент , 2007. – 251 б.